ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**№ 1, 2018**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro, 2018**

# PEDAGOGIK MAHORAT
## Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
## № 1, 2018

Jurnal O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo`yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo`lgan zaruruiy nashrlar ro`yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.

Jurnal O`zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**
**Tahririyat manzili:** O`zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz



**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor
**Bosh muharrir o`rinbosari:** Navro`z-zoda Baxtiyor Negmatovich – iqtisod fanlari doktori, professor
**Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro`ziqulovich** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

*To`laganov Abduqobil Abdunabiyevich, texnika fanlari doktori, professor*
*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Choriyev Abdushukur Choriyevich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Belobrikina Olga Alfonsasovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya)*
*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G`arbiy Universitet, Bolgariya)*
*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Jabborov Azim Meyliqulovich, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Sunnatova Ra'no Izzatovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*
*Morogin Vladimir Grigoryevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Xakassiya davlat universiteti, Rossiya)*
*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*
*Chuprov Leonid Fedorovich, psixologiya fanlari nomzodi, RAE professori (Abakan, Rossiya)*
*Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari nomzodi, RAE professori (Kiyev, Ukraina)*
*Sidorova Lyudmila Pavlovna, falsafa fanlari nomzodi, dotsent ("Oliy iqtisodiyot maktabi" milliy tadqiqot universiteti (Rossiya)*
*Tadjixodjayev Zokirxo`ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*
*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*
*O`rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*
*Axmedova Shoira Ne'matovna, filologiya fanlari doktori, professor*
*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*
*Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor*
*To`rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*
*Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor*
*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisod fanlari doktori, professor*
*Bo`taboyev Muhammadjon To`ychiyevich, iqtisod fanlari doktori, professor*
*Bo`riyev Sulaymon Bo`riyevich, biologiya fanlari doktori, professor*
*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

# ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
## Научно-теоретический и методический журнал
## № 1, 2018

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года  для получения учёной степени по **педагогике** и **психологии**.

Журнал основан в 2001г.
Журнал выходит 4 раза в год
Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.
Свидетельство о регистрации  средства массовой информации ПИ № 05-072 от 22 февраля 2016 г.
**Учредитель: Бухарский государственный университет**
**Адрес редакции:** Узбекистан,  г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
e-mail: ped_mahorat@umail.uz



**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор
**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – кандидат педагогических наук, доцент

*Тулаганов Абдукабил Абдунабиевич, доктор технических наук, профессор*
*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*
*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*
*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*
*Чориев Абдушукур Чориевич, доктор педагогических наук, профессор*
*Белобрыкина Ольга Альфонсасовна, доктор педагогических наук, профессор (Новосибирск, Россия)*
*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*
*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*
*Баратов Шариф Рамазанович, доктор психологических наук, профессор*
*Джаббаров Азим Мейликулович, доктор психологических наук, профессор*
*Суннатова Рано Иззатовна, доктор психологических наук, профессор*
*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*
*Морогин Владимир Григорьевич, доктор психологических наук, профессор (Абакан, Россия)*
*Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)*
*Чупров Леонид Федорович, кандидат психологических наук, профессор РАЕ (Абакан, Россия)*
*Козубцов Игорь Николаевич, кандидат технических наук, профессор РАЕ (Киев, Украина)*
*Сидорова Людмила Павловна, кандидат философских наук, доцент (Нижний Новгород, Россия)*
*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*
*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*
*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*
*Ахмедова Шоира Негматовна, доктор филологических наук, профессор*
*Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*
*Хаитов Шадман Ахмадович, доктор исторических наук, профессор*
*Тураев Халим Хаджиевич, доктор исторических наук, профессор*
*Мирзаев Шавкат Мустакимович, доктор физико-математических наук, профессор*
*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*
*Бутабоев Мухаммаджон Туйчиевич, доктор экономических наук, профессор*
*Буриев Сулаймон Буриевич, доктор биологических наук, профессор*
*Олимов Ширинбай Шарапович, доктор педагогических наук, профессор*

# PEDAGOGICAL SKILLS
## The scientific-theoretical and methodical journal
## #1, 2018

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal was founded in 2001.
The journal is published 4 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.
The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
e-mail: ped_mahorat@umail.uz

**EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Ph.D. of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov. **Deputy Editor:** Ph.D. of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade. **Editor:** Ph.D., Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Ph.D. of Technical Sciences, Prof. Abdukabil A. Tulyaganov*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I.Ibrahimov*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Abdurashid Ch. Choriev*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Olga A. Belobrikina (Novosibirsk, Russia)*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakiyeva (Bulgaria)*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*
*Ph.D. of Psychology, Prof. Sharif R.Baratov*
*Ph.D. of Psychology, Prof. Azim M. Jabbarov*
*Ph.D. of Psychology, Prof. Rano I.Sunnatova*
*Ph.D. of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*
*Ph.D. of Psychology, Prof. Vladimir G. Morogin (Abakan, Russia)*
*Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*
*Ph.D. of Psychology, As.prof. Leonid F. Chuprov (Abakan, Russia)*
*Ph.D. of Psychology, Prof. Vladimir G. Morogin (Abakan, Russia)*
*Ph.D. of Technical sciences, As.prof. Igor N. Kozubsov (Kiev, Ukraina)*
*Ph.D. of Philosophycal science, As. prof. Lyudmila P. Sidorova (Russia)*
*Ph.D. of Technical sciences, Prof. Shavkat M. Mirzaev*
*Ph.D. of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*
*Ph.D. of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*
*Ph.D. of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*
*Ph.D. of Philology, Prof. Shoira N. Akhmedova,*
*Ph.D. of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*
*Ph.D. of Historical Sciences, Prof. Shadman A. Khaitov*
*Ph.D. of Historical Sciences, Prof. Halim H. Turaev*
*Ph.D. of Economics, Prof. Nasir M. Mahmudov*
*Ph.D. of Economics, Prof. Mukhammadjon T. Butaboev*
*Ph.D. of Biological Science, Prof. Sulaymon B. Buriev*
*Ph.D. of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

# MUNDARIJA-СОДЕРЖАНИЕ-CONTENTS

**D.Davronova, F. Namozov.** O`zbekiston yoshlari baxtu – iqboli va buyuk kelajagini yaratgan inson...... 7

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA**

**M. Mahmudov.** Ta'limni didaktik loyihalashning yangi qirralari………………………………………….... 10

**Z. Azimova.** Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati……….......... 14

**В. Козлов.** Личность преподавателя высшей школы: проблема самореализации............................ 18

**Ю.Павлова.** Современные тенденции в исследованиях социальной адаптации личности студента... 25

**И. Надеждина.** Образовательное пространство юга Украины второй половины XIX – начала XX веков....................................................................................................................................... 29

**Н.Мусаева.** Методика разработки уточнённых учебных целей в программах образовательных дисциплин в системе непрерывного образования……………………………………………………. 34

**N. Xalilova.** Talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etishning refleksiv metod va usullari… …………….. 37

**G. Izbullayeva.** XII-XIII asrlarda ta'lim tizimi……………………………………………………….... 41

**R.Nematova.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar sensor madaniyatini rivojlantirishda ta'limiy o`yinlarni tashkil qilish va o`tkazish………………………………………………………………………. 45

**Z. Alimardonov.** Oliy harbiy ta'lim muassasalari harbiy xizmatchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati………………………………………………………………. 49

**A.Ismanova.** O`smirlardagi deviant xulq muammolarining ijtimoiy-psixologik jihatlari va ularning oldini olish yo`llari…………………………………………………………………………………......... 53

**E.Muxtorov.** Vrach kasbiy tafakkurini rivojlantirish usullari…………………………………………… 58

**R.Achilova, S. Qodirova.** Understanding educational psychology……………………………………… 63

**D.Tosheva.** Shaxs kamolotida o`qituvchi-murabbiyning o`rni………………………………………… 66

**F. Shadiyev.** Psixodiagnostika – psixologik xizmatning muhim yo`nalishlaridan biri…………………… 69

**Sh. Farmonova.** Loyihaviy ta'lim vositasida bo`lajak o`qituvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish didaktik muammo sifatida………………………………………………………………. 74

**Ю. Бордюг.** Педагогические условия формирования готовности воспитателей к работе с детьми в условиях специальных групп дошкольных образовательных учреждений…………………………….. 80

**M. Tilavova.** O`quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda o`quv mashg`ulotlarining imkoniyatlari……. 88

**D. Mirzayeva.** Mustaqil ishlash – bilim olish va talabalarning faolligini ta'minlash usuli…………………. 93

**BOSHLANG`ICH TA'LIM**

**S. Avezov, M.Sharipova.** Qoshiqlarning lingvopoetik tabiat va tahlili xususida……………………... 99

**F. Safarov.** Boshlang`ich sinf o`quvchilarida lug`atdan foydalanish ko`nikmasini shakllantirish…….. 103

**G`.Sayfullayev, L.Alimova, A.Sayfullayeva.** Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda kuzatish metodidan foydalanish………………………………………………………………. 110

**R.Jumayev, S.Mahmudova.** Ahmad Donishning pedagogik qarashlari va hozirgi zamon………….. 114

**N.Adizova.** Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning metodik ahamiyati……………………………. 117

**N.Safarova.** O`yinchoqlarning bolalar yoshiga, jinsiga va o`yin mazmuniga ko`ra turlanishi………... 120

**Z. Umurov.** O`quv-biluv muammolari……………………………………………………………… 124

**R. Isroilova.** O`qish darslarida rivoyat va pandnomalarni integratsiyalash asosida o`rganishning didaktik asoslari…………………………………………………………………………………… 130

**M. Jumayeva.** Boshlang`ich ta'limni ijodiy tashkil etish samaradorlik omili……………………. 134

**F. Qosimov, M.Qosimova.** Masala qisqa sharti uning modelidir…………………………………… 138

**M.Hakimova.** Boshlang`ich sinflarda ko`pburchak perimetri va figura yuzasi tushunchalarini o`rgatish metodikasi………………………………………………………………………………….. 145

**IJTIMOIY-GUMANITAR TA'LIM**

**B.Rizayev.** Oliy ta'limda "O`rta asrlar tarixi" fanini o`qitishning dolzarb muammolari…………………… 149

**М. Джанобилова.** Актуальные вопросы семейного права в юридическом образовании……………... 153

**S. Gulyamova.** Traditional education: yesterday, today and tomorrow…………………………………….. 160

**M.Norova.** Milliy-ma'naviy negizga tayanish – demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti…………… 165

**N.Esanov, F.O`tayeva.** O`zbekiston tarixini o`qitishda matematik bilimlarni shakllantirish uchun tarixiy faktlarning o`rni…………………………………………………………………………………… 168

**ANIQ VA TABIIY FANLAR**

**G. Xudoynazarova, Sh. Zaripova, Sh. Xudoynazarova.** "Metallar va metallmaslar. Murakkab modda- 172

larning toifalanishi" mavzusini o'qitishda mavzulashtirilgan va kodlashtirilgan jadvaldan foydalanish........

**G. Ixtiyarova, N. Jo`raqulova, Ch. Xayrullayev, M. Ahadov.** Kimyo fani ta'lim sifatini oshirishda elektron darsliklarni qo'llash istiqbollari........ 178

**A. Ahmedov.** Fizika fanini o'qitishda kompetentli yondashuv imkoniyatlari........ 182

**Э. Атоев, Х. Гайбуллаев.** Роль компьютерной техники при анализе сбалансированности, селективности и трудностей тестовых заданий........ 185

**Z. Berdiyeva.** O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari........ 190

**TIL VA ADABIYOT, XORIJIY TILLAR**

**Sh. Karimova, Sh. Ergasheva.** The role of interactive methods in enhancing learners' vocabulary........ 194

**M. Sayliyeva.** Ilohiy tavhid ilmining badiiy adabiyotdagi in'ikos........ 198

**Z. Ahmadova.** "Ravzatus-safo"ning yaratilish tarixi........ 202

**D. Ismatova.** Aktdan foydalangan holda chet tillarini o'qitish metodlari........ 204

**М. Бурхонова.** Современные тенденции использования электронных средств обучения и инновационных подходов в образовательном процессе........ 208

**Д. Салихова, Г. Рахмонова.** Психологические и педагогические аспекты учебного сотрудничества на уроках иностранного языка........ 211

**MUSIQIY TA'LIM VA SAN'AT**

**D. Mamurova, A. Shukurov.** Perspektivada binoning (Chor minor) suvdagi aksi mavzusini o'rgatishda Autocad dasturining afzalligi........ 214

**D. Pulatov.** O'zbekiston qadimgi davr haykaltaroshligi (tarixiy shakllanishi va ijodiy rivojlanishi)...... 217

**H. Rizayev.** Talabalarni ochiq havoda manzara ishlash qobiliyatini shakllantirish........ 220

**JISMONIY MADANIYAT VA SPORT**

**L. Azimov, A. Nurullayev.** Dzyudochilarning texnik va taktik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi........ 223

**A. Inoyatov.** Keksa yoshdagilar bilan sog'lomlashtiuvchi gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etishning ahamiyati........ 227

**R. Kadirov.** Jismoniy madaniyat ta'limining testlash va baholash o'lchovlari to'g'risida........ 230

**H. Safoyev.** Boshlang`ich sinf o`quvchilarini jismoniy rivojlantirishning metodik asoslari........ 235

**TAQRIZ**

**I. Rahmatov.** Zamonaviy darsliklar ta'lim sifatini oshirishning garovidir. (Sh.Sharipov, O. Qo'ysinov va Q. Abdullayevalarning umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-7 sinflar uchun "Texnologiya"darsliklari haqida)........ 238

**H. Artikova.** S.M. Gafarova, G.A. Xudoynazarova va H.R. Adizovalar tomonidan chop etilgan "Yashil olam dunyo ustuni" nomli uslubiy qo'llanma haqida........ 240

**M.Amonov.** G.A. Xudoynazarova va V.N. Axmedovlarning "Kimyoning mo'jizakor sirlari" nomli uslubiy qo'llanmasi haqida........ 241

**Qutlov**

**Sh. Hayitov, S. Raupov.** Elda e'zoz topgan muarrix olim, ustoz-murabbiy. (S.Inoyatov 80 yoshda)........ 242

**M.Bafayev.** Kamtarin inson, zabardast olim va fidoyi rahbar: Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi S.S. Raupov portretiga chizgilar. (S.Raupov 60 yosda)........ 244

**Tahririyat.** Ixtisosliklar bo`yicha falsafa doktorlariga (PhD) tabrik........ 246

**E'lonlar.** Xorijiy konferensiyalar........ 247

**Davr mavzusi:** Harakatlar strategiyasi........ 249

**Muharrir: Rano ZARIPOVA.**
**Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.**



**Dildora DAVRONOVA**
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti tayanch-doktoranti



**Firdavs NAMOZOV**
Toshkent pediatriya tibbyot instituti 2-bosqich talabasi

## O'ZBEKISTON YOSHLARI BAXTU–IQBOLI VA BUYUK KELAJAGINI YARATGAN INSON

*O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti*
*Islom Karimov tavalludining 80 yilligiga bag`ishlanadi.*

*Maqolada Islom Karimov O`zbekistondagi har bir fuqaro uchun mustaqillik mohiyatini anglash, teran his qilish, milliy ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, ardoqlash, takomillashtirish uchun keng imkoniyat yaratganligi xususidagi fikrlar bayon etilgan.*

***Tayanch tushunchalar*****:** *Islom Abdug`aniyevich Karimov, istiqlol, millat, ma'naviy-ruhiy va g`oyaviy-siyosiy omillar, inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot.*

*В статье излагаются размышления об Исламе Каримове, как о создателе широкой возможности восстановления национально-духовных ценностей.*

***Опорные понятия:*** *Ислам Абдуганиевич Каримов, независимость, нация, духовно-психологические и идейно-политические факторы, права человека, свобода, стабильность и прогресс.*

*The article tells about Islam Karimov as the creator of wide broaden opportunity for the restoration of national and spiritual values.*

***Supporting concepts:*** *Islam Abduganievich Karimov, independence, nation, spiritual - psychological and ideologue - political factors, human rights, freedom, stability and progress.*

Islom Abdug`aniyevich Karimovning "Bu yurt tengsiz allomalar, aziz-avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdining betakror nomi yulduzdek kabi charaqlab turadi" [1] – degan zarhal xotiralarini bugungi kunda jamiyatimizni isloh qilish va demokratlashtirishga, aholini ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratgan, mustaqilligimizning tamal toshini qo`ygan, O'zbekiston yoshlari hech kimdan kam emas deya qat'iy e'tirof etgan ulug` siymo Islom Abdug`aniyevichning o`z nomlari bilan bog`lasak va tengsiz, buyuk sarkarda desak xato qilmagan bo`lamiz. Islom Abdug`aniyevich Karimov mustaqil o`zbek davlatining asoschisi, dunyo miqyosida tan olingan yirik davlat va siyosat arbobi, pedagoglar ta'biri bilan aytganda ta'lim sohasining islohotchisi, xalqimiz, yoshlarimiz rahnamosi, suyanchi va ishonchi bo`lgan komil inson hisoblanadi. 1991-yil 1-sentabrdan O`zbekistonimiz uchun tamoman yangi hayot, butunlay boshqacha zamon boshlandi. Vatanimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritdi. Mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy burilishlar, shaxs, millat va xalqning hayotiy ehtiyojlari ma'naviy-ruhiy, g`oyaviy-siyosiy omillar bevosita O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirildi. Islom Karimovning "O`zbek modeli" asosida respublikamizda iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligiga, ishlab chiqarishni mafkuradan xoli qilishga, davlatning bosh islohotchi ekanligiga erishildi. Davlatni boshqarishda Islom Karimovning "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" shioriga asoslangan oqilona siyosat tizimi amalga oshirildi. Islom Karimov rahbarligida O`z-

bekiston Republikasi jahondagi teng huquqli mustaqil davlat sifatida tan olindi. Xalqaro maydonda munosib o`rinni egalladi. O`z ovoziga, o`ziga xos mavqeiga ega bo`ldi. **Bayrog`i, Gerbi, Madhiyasi, Konstitutsiyasi, davlat tizimi, davlat tili, milliy valyutasi, milliy armiyasiga ega bo`ldi.** Jamiyatni demokratlashtirish, bozor iqtisodiyotini shakllantirish, huquqiy davlat qurishdek ezgu maqsadlarga erishildi. Birinchi Prezidentimizning "Biz uchun yagona mafkura – bu O`zbekistonning taraqqiyoti, O`zbekistonning ravnaqi, O`zbekistonning hech kimdan kam bo`lmasligidir" [1,81] shiori asosida yashash, mustaqilligimizni ko`z qorachig`iday asrash uchun astoydil harakat qilish va bu ishga mas'uliyatli bo`lish tizimini yaratdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning ko`p asrlik tarixida mutlaqo yangi sahifa ochildi. El-yurtimizni mustabid tuzum kishanlaridan ozod qilinganini, erkin va farovon hayot qurish yo`li ochib berildi, dunyo xaritasida yangi jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantiradigan va mustahkamlaydigan, inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli O`zbekiston davlati vujudga keldi. 1991-yil "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilindi, Amir Temur o`z xalqiga qaytarildi. Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Manguberdi, Farg`oniy, Xorazmiy, Imom Burhoniddin Marg`inoniy, Imom Abu Mansur Moturidiylar, Mirzo Ulug`bek, Ibn Sino, Beruniylarning qomusiy ilmlari ozodlik yuzini ko`rishi natijasida bobolarimizning orzulari ushaldi. Ota-bobolarimizning turmush tarzi, tafakkuri, nasl-nasabi, yetti pushtining tozaligi, avlodning sog`ligi yosh avlod uchun ibrat bo`lib qoldi. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o`z fikr-mulohazalari, "agar iqtisodiy o`sish, taraqqiyot – jamiyatning tanasi bo`lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o`zining o`tmishi, ulug` qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak"ligi [2] borasidagi teran qarashlar bilan ham belgilanadi. Islom Karimov rahbarligida xalqimizning ko`p asrlik ma'naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlari, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma'naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borildi. Yosh avlod qalbi va onggini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, komil inson, barkamol avlod, shaxs kamolotida mahalla muhiti, oila ma'naviyatiga e'tibor kuchaytirildi "Oila sog`lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir" [3] – degan g`oyalari fikrimiz isbotidir.

Mustaqillik yillarida Islom Karimov faoliyatida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi muhim o`rin egallagan. Shu jihatdan ham mustaqillik yillarida "Ta'lim to'g`risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ko`plab olamshumul ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abug`aniyevich Karimovning maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha yoshlar uchun munosib ta'lim-tarbiya egallash sharoitlarini tashkil qilib berishdan iborat bo`ldi. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'limni rivojlangan mamlakatlar darajasida yuksaltirish, yoshlar g`oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantiradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo`lib qoldi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o`z-o`zidan silliqqina kechgani yo'q. "Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo`lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo`lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g`urur va iftixor bag`ishlaydi" [5] – deya Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida. Islom Karimov boshlab bergan yo`l va davlatimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan ishonch va e'tibor davom ettirilib purma'no, o`lmas g`oyalari barhayot ekanligi quvonarli holdir.

O`zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolar uchun xoh iqtisodiy, xoh siyosiy, xoh ma'naviy sohada bo`lsin barcha imkoniyatlar yaratib berildi va bu imkoniyatlar bugungi kunda davom ettirilib, 2017-2021-yillarga mo`ljallangan O`zbekistonni yanada rivojlantirishning "Harakatlar strategiyasi"da o`z aksini topgan. Strategiyaning asosiy maqsadi ijtimoiy sohani rivojlantirish, ta'lim tizimini yanada isloh qilish, ta'lim-tarbiya va o`quv jarayonining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog`lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini hal qilishga alohida ahamiyat berildi. Buning natijasida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan davlatlar talablariga javob bera oladigan darajaga ko`tarish vazifasi qo`yilmoqda. Davlat ahamiyatiga molik

akademik Islom Karimov modeli o`zining mukammalligi, qamrovining kengligi bilan jahonda shuhrat qozondi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yoshlar tomonidan zamonaviy fan sohalarini egallashga bo`lgan intilish rivojlandi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida davlat va jamiyatning yagona maqsadi – barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Modelning tarkibiy qismlari uzluksiz ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish kabilardan iborat bo`lib, shaxs rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko`rsatdi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli yoshlardan tobora o`zgarib borayotgan bugungi dunyoda o`z yo`lidan adashmaslikni ham talab qilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy modelidan kutilgan maqsad – O`zbekistonda mustaqil fikrlaydigan, tafakkur tarzini isloh etishga ehtiyoj sezgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Islom Karimov "Yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir" asarida: "Ertaga yoshlarning kim bo`lishi va qanday yangi marralarni egallashiga oid g`oyalari bilan bir qatorda kelajak avlod haqida qayg`urish, sog`lom barkamol naslni tarbiyalash milliy xususiyatimiz ekanligiga alohida e'tibor qaratgan". Haqiqatdan ham mustaqillik yillarida Islom Karimov orzu qilgan yangi avlod shakllandi. Bu avlodning o`ziga xos jihatlari shundaki, ular mustaqil fikrlashi bilan birga ijtimoiy faol, huquqiy jihatdan bilimli, siyosiy-mafkuraviy tomondan sergak, Vatanimizda va xorijda bo`layotgan voqea va hodisalarni tahlil qila olish o`z shaxsiy manfaatlari bilan jamiyat manfaatlarini uyg`unlashtirishga qodir, sog`lom dunyoqarash tarafdori, jahondagi o`z tengdoshlari bilan bellasha olishga tayyor mustaqil O`zbekiston farzandlari hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov yoshlar g`oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishga, mafkuraviy immunitetini boyitishga, yoshlar siyosiy onggi va savodxonligi samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratdi. Shu munosabat bilan Islom Karimov xalqaro maydonda mafkuraviy, g`oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan murakkab tahlikali davrda yoshlar bilan birgalikda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etishga, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirishga e'tibor berdi. Tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib bordi, ayrim o`z yo`lidan "adashgan" yoshlarni "avf" etdi. Keyingi yillarda dunyoning mafkuraviy manzarasi juda tez o`zgarib borayotganligi, turli mintaqalarda sodir bo`layotgan voqea-hodisalar, manfaatlar to`qnashuvi, tobora kuchayib borayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, radikalizm, egosentrizm, erkinlik niqobi ostidagi axloqsizlik, narkotrafik kabi tahdidlar barchamizni hushyorlikka chorlamoqda.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillik o`zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagan. Buning uchun jiddiy kurash olib borish, tinchlik barqarorligini mustahkamlash O`zbekistonda yashaydigan har bir fuqaroning asosiy burchi hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning vatanimiz ozodligi, yurt ravnaqi, tinchligini ta'minlash borasidagi faoliyati, beqiyos xizmatlari mevasi, xalqimiz, millatimiz, respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari, ayniqsa, yoshlar va kelajak avlod uchun uzoq yillar davomida ibrat maktabi vazifasini o`taydi, mustaqilligimiz abadiyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biz yoshlar g`urur va iftixor bilan "Yoshlar baxtu-iqboli va buyuk kelajagini yaratgan inson" qalbimizda mangu barhayot deya olamiz.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2015. – B. 41.

2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: "O`zbekiston", 1996. – 364 b.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. –176 b.

4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatmizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. – T.: "O`zbekiston", 2015. – 33 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: "O`zbekiston", 2016. – B. 14.

# PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA



**Mels MAHMUDOV**
Buxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

## TA'LIMNI DIDAKTIK LOYIHALASHNING YANGI QIRRALARI

*Maqolada didaktik loyihalarning ijtimoiy buyurtmaga mosligi tamoyilini amalga oshirish uchun tayyorlovchi qator pedagogik buyurtmalarga rioya qilib, faoliyat ko'rsatish, o'tmish va hozirgi kunlar madaniyati o'rtasidagi o'zaro uzviylikni dalillash haqida fikr yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *loyiha, ta'lim, ma`naviy tarbiya, maktabgacha ta'lim, didaktik loyiha, bilim, ko`nikma, malaka, pedagogik vazifa.*

*В статье размышляются об аргументировании взаимной непрерывности между настоящим и прошлым узбекской культуры, основываясь на социальных заказах по принципу дидактических проектов.*

***Опорные понятия:*** *проект, образование, духовное воспитание, дошкольное образование, дидактический проект, знание, способность, квалификация, педагогическая задача.*

*The article reflects on the arguments of the mutual continuity between present and past Uzbek culture based on social orders on the principle of didactic projects.*

***Supporting concepts:*** *project, education, spiritual education, preschool education, didactic project, knowledge, ability, qualification, pedagogical task.*

Xalqimizda ming yillar mobaynida shakllangan milliy sifat, milliy g'ururning yo'llaridan biri ularni didaktik loyihalarda berish, didaktik loyihalar orqali xalqimizning o'ziga xos sifatlarini yosh avlod tarbiyasida mujassamlashtirishdan iborat. Zero, "Ma'naviy-axloqiy va madaniy yutuqlarni tiklash, saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish to'g'risida bundan buyon ham tinmay g'amxo'rlik qilish, xalqning madaniy o'ziga xosligini asrab-avaylash demokratik o'zgarishlar kafolati bo'lib xizmat qiladi [1]. Mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy va madaniy rivojlanishning yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda. Yurtimizdagi har bir ma'rifatli shaxs o'z hayotini ma'noli kamol toptirishning sa'y-harakatini qilmoqda. Xususan, bu sohada Muhtaram Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ijtimoiy soha, ayniqsa, ta'lim va ilm-fan sohasini takomillashtirish vazifalari aniq belgilab berildi. Binobarin, 2017-2021-yillarda oliy ta'lim, shuningdek, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'limni didaktik loyihalash, ta'limni tubdan yangilash, darsliklarni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirish, ularni milliy g'oya bilan yanada boyitish, shu asosda o'quv dasturlarini takomillashtirish, ta'lim tizimini yuksak zamonaviy, bilimli pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, har tomonlama kamol topayotgan barkamol yoshlarni tarbiyalash, ular iqtidori va iste'dodini rivojlantirish, jahon ta'lim standartlariga mos ravishda bilim va salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim jarayonini shunga mos ravishda loyihalash yangi interfaol, didaktik vositalarni izlab topish, pedagogik jarayonni yangi bosqichga ko'tarishning dolzarb vazifalari sifatida belgilab berilgan. Eng avvalo, ana shu maqsadda uzluksiz ta'limning asosiy poydevori – maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilishi quvonarli hodisa hisoblanadi. Ochig'ini aytish lozimki, maktabgacha ta'lim tizimiga ilgari hozirgi davrdagi kabi uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini sifatida e'tibor berilmas edi. Asosi mustahkam bo'lmagan devor qanchalik baland ko'tarilmasin, uning tez nurab qolishini oddiy mantiq ko`rsatadi. Bu sohada Pezidentimiz 2017-yil 30-sentabrida "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi Qarorida maktabgacha ta'lim

tizimida yagona davlat tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tizimini yuqori va ko'p tajribali pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, ularning oylik maoshini boshlang'ich sinf o'qituvchilari maoshiga tenglashtirish, shuningdek, bu sohada bolalarni keskin qamrab olish, zamonaviy ta'lim dasturlari yaratish va yuqori pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, maktabga tayyorlash sifatini yanada oshirish vazifalari qo'yildi.

Hukumatimiz tomonidan qo'yilayotgan talabning nihoyatda dolzarbligini shunday e'tirof etish lozimki, bola umri davomida oladigan barcha axborot bilimlarning 70 %ini besh yoshgacha bo'lgan davrda olishga erishadi. Pedagog va psixologlarning ko'p yillik tajribasi asosida qayd qilishlaricha, ularning tabiat, jamiyat va atrof-muhit bilan tanishish jarayoni, olam va odam, hayvonot va nabotot dunyosi xususidagi bilim va hayotiy tajribalarining shakllanishi aynan shu davrga to'g'ri keladi. Ulug' rus yozuvchisi va donishmandi L. N. Tolstoy o'zining tarjimai holi haqida gapirib: "Men besh yoshimdayoq ertak, hikoyalar yozishga kirishgan edim. Keyinchalik o'ylab qarasam, yozuvchilik tuyg'usi besh yoshimdayoq paydo bo'lgani, undan so'ng esa shu tuyg'umni asta-sekin kamol topganini va uni faqat kengaytirganimni his qildim," – deb yozadi [2].

Haqiqatan ham bolalik davri inson umrining ilk bosqichi sanaladi. Uning murg'ak qalbi, beg'ubor va tiniq ongi anglagan har bir ma'lumot – bilimi sanaladi. Bu ilk bilim – hayotiy tajribasi hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tasavvurlarini shakllantirish, olam go'zalligi va tarovatini his qildirish, bolaning bilimini ko'nikma va malakaga aylantirish biz pedagoglarning asosiy burch va vazifamizdir. Shu nuqtayi nazardan bilim, ko'nikma va malakaga soddagina tavsif berish mumkin:

**Bilim** – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berishdir. (Masalan, olma-meva, daraxtda pishadi, shirin va mazali).

**Ko'nikma** – o'rganilgan bilimlarni qo'llay olish (Olma iste'mol qilinganda, albatta, kishi kuchga to'ladi. Uni nihol tarzda ekish mumkin. Uch yilda o'sib, hosil beradi).

**Malaka –** o'rganilgan bilimni notanish vaziyatda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish (Olma rasmini mustaqil chizish, olmazor, bog'bonning rasmlarini erkin chiza olish mahorati va hokazo).

Bizni quvontiradigan didaktik loyihalardan yana biri shuki, umumiy o`rta ta'lim maktablarida 10-11-sinflarning yana qayta ochilishi bo'ldi. Mamlakatimizda o'rta maxsus ta'limida ayrim kamchilik va nuqsonlarning yuzaga kelishi tufayli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqidagi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Ana shu qarorning dolzarbligi shundaki, mamlakatimizda 10-sinfni tugatayotgan 466 mingdan ortiq o'quvchining 288 mingdan ortig'i, ya'ni 60%i maktabda bilim olishga qaror qildi. Buning juda katta ahamiyati shunda ko'rinadiki, o'smir yoshdagi bolalarning ota-onasi tarbiyasidan doimiy uzilib qolishi, boshqa moddiy ehtiyojlarning ko'payib ketishi va ko'pgina muammolarning yuzaga kelishining oldi olindi. Bundan tashqari, oliy o'quv yurti va katta hayotga qadam qo'yishda uch yillik o'quv davrining qisqarishi yoshlarimiz hayotida yangi o'zgarishni yuzaga keltiradigan bo'ldi.

Pedagogik vazifalarimizdan yana biri umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinflari uchun darsliklarni yaratish, zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish, uning sifati va samaradorligiga e'tibor berish, ta'lim jarayoni natijalarini belgilash kabi dolzarb vazifalar ushbu soha pedagog mutaxassislar oldiga qo'yilgan muammolarni hal etishdan iborat. Oliy ta'lim tizimida ham jiddiy islohotlar o'tkazilmoqda. 2017-yilning 20-aprelida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bu sohadagi vazifalarimizning yanada mas'uliyatli ekanligini ko'rsatib berdi. Unda universitetning yetakchi ilmiy muassasalari bilan aloqasini yanada takomillashtirish, ilmiy muassasalarga chet el mutaxassis xodimlarini taklif etish, ular bilan o'zaro hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko'tarish vazifalari belgilangan. Bundan tashqari, professor-o'qituvchilarning mutaxassislik bilimlarini nazorat qilish, davlat inspeksiyasi – attestatsiya va akkreditatsiyasini, malaka oshirishdagi faoliyatini sinov tarzida o'tkazish reja va tadbirlari ko'zda tutilgan. Eng muhimi, iqtidorli va iste'dodli yosh talabalarni ilmiy ishlarga jalb etish, ularga mos xorijiy ilmiy va metodik adabiyotlarni tarjima qilish, zamonaviy, ilmiy laboratoriyalar yaratish faoliyatimizning muhim sohalarini tashkil etish ta'kidlangan. Hozirgi kunda esa bu dolzarb vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'limda olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizda har bir shaxsning ilmli, ma'rifatli va ajdodlarimiz merosiga vo-

rislik har qachongidan ham yuqori darajada ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayonning kamol topishida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 27-martidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari” to`g`risidagi Qarori ulug‘ ajdodlarimiz merosini ko‘z qorachig‘imizdek asrab-avaylashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatimiz allomalari insoniyatga buyuk kashfiyotlarni taqdim etgan. Chunonchi, Muso al-Xorazmiy – o‘nlik sanoq sonlar tizimini yaratdi, Ahmad Farg‘oniy – sferik astronomiya asoschisi. Forobiy esa mantiq ilmini dunyoga yoyib, “Ikkinchi muallim” degan nom bilan shuhrat qozongan. Beruniy yangi fanlarni izlab topgan. Geodeziya, minerologiya, etnografiya kabi fanlarning asoslanishi va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Tibbiyot taraqqiyotini esa Abu Ali ibn Sino nomisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uning “Tib qonunlari” asari hozirgi kunda ham tibbiyotimiz taraqqiyoti uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Mirzo Ulug‘bekning munajjimlik olami, Samarqanddagi rasadxonasi, “Zichi Ko‘ragoniy” yulduzlar jadvali hozirga qadar butun dunyo astronomlari uchun hayrat va ma’lumotlar manbasiga aylanmoqda. Mirzo Ulug‘bek akademiyasida ta’lim olgan olimlar — Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Chag‘miniy kabilarning matematika, geometriya va astronomiya fanlari rivojiga qo‘shgan ilmiy meroslari qimmatlidir. Mashhur tilshunos Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asari ona tilimiz rivoji uchun zaruriy ehtiyoj bo‘lib qolmoqda, tilimizdagi so‘zlarning etimologiyasi, uning tarixiy va qadimiyligini namoyon etuvchi asar sifatida mislsiz qadr-qimmatga ega hisoblanmoqda. Ulug‘ tilshunos Mahmud Zamaxshariyning ilmu jasoratiga tasannolar aytmaysizmi, o‘zi o‘zbek bo‘la turib, arab tili grammatikasini arablarning o‘zidan ham chuqur tahlil qila olgan va ularga til amaliyoti uchun beminnat yordam bera olgan.

Islomshunoslar ko‘pincha: “Islom dini Arabistonda shakllangan bo‘lsa-da, Movarounnahrda kamolga yetgan,”– degan fikrni ta’kidlab gapiradilar. Haqiqatan ham hadis ilmida bizning aqli zakolar bu sohada juda katta faoliyat ko‘rsatganlar. Imom Buxoriy, Imom Dorimiy, Imom Termiziy, Imom Nasoiylarning hadislari dunyo ilmida insoniylik ma’naviyati mayog‘i sifatida alohida o‘rinni egallaydi. Kalom ilmida Imom Moturidiy, Abu-Lays Samarqandiyning “Tanbeh-ul najot” kabi bebaho asarlari ma’naviyatimizga qo‘shilgan muabbad boylikdir. Fiqh ilmi donishmandi Burxoniddin Marg‘inoniy, tasavvuf ilmi Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrorlarning xizmati beqiyosdir.

O‘zbek tili va adabiyoti nafosati va go‘zalligini, umumbashariy g‘oyalar bilan sug‘organ, badiiy jozibasini ulug‘ shoir Alisher Navoiysiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. U yuksak falsafiy mushohada, salohiyati cheksiz tasavvur va tafakkur egasi. Shoirning asarlari doirasi keng bo‘lib, adabiyot, ona tili, tarix, mantiq, falsafa, ijtimoiyot, axloq, etnografiya va boshqa sohalar bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lasiz. Shoir ijodi aniq tashbehlarga boyligi bilan ajralib turadi. U ilm va olimlikni ulug‘lab, shunday misralar bitganki, bu umumbashariy falsafiy mazmun kasb etadi:

Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o‘ldi amal aylagil.

Demak, ilm – ma’lumot olish va axborot to‘plash maqsadida emas, balki unga qat’iy amal qilish, sa’y-harakatda namoyon etib, o‘z ibrati va namunasini ko‘rsatish orqali vujudga kelishini bildirmoqda.

Olimlik ham ana shunday aniq va tiniq faoliyat ko‘rinishi ekanligini bayon etadi. U ilmsizligi uchun g‘am-anduhda qolsa, faqat unga ilm manfaat keltira olishi yoxud madad bo‘la olishini uqtiradi:

Olim agar joh uchun o‘lsa zalil,
Ilmi aning jahlig‘a bo‘lgay dalil.

Olim dunyo, boylikka o‘ch bo‘lsa, yoxut dunyo tashvishi va mehnatlariga band bo‘lib o‘z vazifasini unutsa, u el nazaridan qoladi. Yoki butun vujudi bilan ma’rifat yo‘lida bo‘lsa shon-sharafga ega bo‘lishi shoirning quyidagi misralarida aniq ifoda etilgan:

Olim agar qat’iy amal aylasa,
Ilmiga shoyista amal aylasa.

Solmasa koʻz jifai dunyo sari,
Boqmasa tuz dunyayi foni sari.

Oni sharif gavharning koni bil,
Gavharu kon, har har ne desang, oni bil.

Bunday ulkan qarashlarni atoqli jamoat arbobi, buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ham bildirish mumkin. U iste'dodli adib, donishmand tarixchi, zakovatli ilm egasi va yirik madaniyat arbobidir. Shoirning lirik devoni, ayniqsa, "Boburnoma" tarixiy memuar asari jahon madaniyati taraqqiyotiga qoʻshilgan mislsiz nodir asardir. Bobur asarlarining umriboqiyligi umuminsoniy va insonparvarlik gʻoyalar bilan sugʻorilganligidir. Chunonchi, inson umri mazmuni uning kishilarga qiladigan yaxshiligi bilan oʻlchanadi. Shuning uchun ham shoir bir gʻazalida quyidagi fikrni izhor etadi:

Bori elgʻa yaxshilik qilgʻilki, mundin yaxshi yoʻq,
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshiligʻ.

Yoxud uning adolat va haqgoʻylikni ulugʻlab, vafo va sadoqat tuygʻularini chin dildan tuyub yashashga da'vat etuvchi ushbu ruboiysi naqadar qimmatlidir:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir,
Yaxshi kishi yomonligʻ koʻrmagay hargiz
Har kimki yomon boʻlsa, jazo topqusidir.

Biz yuqorida bayon etgan fikrlarimizning barchasi ta'limni didaktik loyihalashning umumnazariy asoslari – komil inson shaxsini kamol toptirish ekan, aslida ana shunday maqsadga qaratilmagan loyihalar hech qanday qimmatga ega emas. Birinchi Prezidentimizning "Oʻz mamlakatimiz, oʻz xalqimiz tarixini chuqurroq bilish, koʻplab asrlar mobaynida yaratib kelingan ma'naviy qadriyatlardan bahramand boʻlish ona tilimiz goʻzalligi va ulugʻvorligini tushunish imkoniyatiga ega boʻldik va qayta tiklanish bu milliy tiklanish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Ma'naviy kamolotning yuksalib borishi hayotiy qadriyatlarni, ijtimoiy taraqqiyot mazmuni va maqsadlarini, isloh qilish va yangilashning barcha jarayonini baholashga yangicha yondashish imkonini berdi" – degan dono fikrlari asosida biz bugungi kunda didaktik loyihalashning umumnazariy konsepsiyasini toʻgʻri belgilab olganimizda koʻrinadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat a'zolarida shakllanayotgan yangicha fikrlash, yangi turmush tarzi oʻtmishning vorisi ekanligini didaktik loyihalarda aks ettirmogʻimiz lozim. Soʻz va faoliyat birligi, nazariya va amaliyotning oʻzaro uygʻunligini didaktik loyihalarda qat'iy ifoda etish lozim. Binobarin, oʻzbeklarda qadim-qadimdan soʻz va amaliyot birligi eng asosiy shaxsiy sifatlardan biri sanaladi.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida. – T: "Ma'naviyat", 1995. – B. 249.
2. Tolstoy L.N. Tarjimayi hol.– T: "Yosh gvardiya", 1962. – B. 31.
3. Ochilov E. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – T: "Oʻzbekiston" NMIU, 2011. – B. 75.
4. Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. –Toshkent: "Yulduzcha", 1989. – B. 366.
5. Vohidov R., Mahmudov M. Ma'naviyat komillik saodati. – T.: "Ma'naviyat", 1997. – B. 156.
6. Mahmudov M. Komil inson ajdodlar orzusi. – T.: "Yozuvchi", 2002. – B. 18.
7. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: "Ma'naviyat", 1998. – B. 77.



**Ziyoda AZIMOVA**
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
mustaqil izlanuvchisi, pedagogika fanlari nomzodi

# TALABALAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Maqolada oliy ta'lim tizimida kasbiy tarbiya tizimining tashqi ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini aks ettiruvchi asosiy pedagogik ziddiyatlari, tarbiyaviy tizimning strukturaviy elementlari, bo'lajak mutaxassislarning asosiy kasbiy va ma'naviy-axloqiy sifatlari borasida so'z yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *ma'naviy-ma'rifiy ishlar, kasbiy ma'naviy tarbiyalash tizimi, pedagogik ziddiyatlar, tashqi ijtimoiy muhit, OTM korporativ ma'naviy muhiti, tarbiyaviy ta'sir tuzilmasi.*

*В статье освящаются основные педагогические противоречия системы профессионального образования с внешней социальной средой, структурные элементы системы образования, основные профессиональные и морально-этические качества будущих специалистов в системе высшего образования.*

***Опорные понятия:*** *нравственно-просветительская работа, система профессионально-нравственного воспитания, педагогические противоречия, внешняя социальная среда, корпоративно-нравственная среда ВУЗа, структура воспитательного воздействия.*

*The article focuses on the main pedagogical contradictions in the system of professional education with the external social environment, the structural elements of the education system, the main professional and moral- ethical qualities of future specialists in the system of higher education.*

***Supporting concepts:*** *moral and educational work, the system of professional and moral education, pedagogical contradictions, the external social environment, the corporative and moral environment of the HEIs, the structure of educational influence.*

Oliy ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda tarbiyaviy muammolar tahlili talabalar kasbiy tarbiyasi tizimining rivojiga xizmat qiluvchi ijobiy omillari bilan birga undagi pedagogik muammolar sabablarini aniqlashga imkon beradi. Ayrim hollarda bu borada samaradorlikni pasaytiruvchi sabablar ayrim pedagogik ziddiyatlar bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Biz talabalar bilan olib boriluvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali pedagogik tizimga aylantirishga monelik qiluvchi ayrim ilmiy-metodik ziddiyatlarni o'rganib, ularni quyidagi guruhlarga bo'lishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1) tarbiyaviy tizimning tashqi (ijtimoiy) muhit bilan munosabatlarining o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi tashqi ziddiyatlar;

2) tarbiyaviy tizimning strukturaviy element va komponentlari o'rtasidagi aloqa va hamkorlikni aks ettiruvchi ichki pedagogik ziddiyatlar;

3) protsessual xarakterdagi o'ziga xos pedagogik ziddiyatlar guruhi: tarbiyaviy tizimning yuzaga kelishi, faoliyati va rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik ziddiyatlar [1].

Oliy ta'lim tizimida kasbiy tarbiya tizimining tashqi (ijtimoiy) muhit bilan munosabatlarini aks ettiruvchi tashqi guruhning asosiy pedagogik ziddiyatlari:

- oliy ta'lim muassasasida o'ziga xos pedagogik muhit yaratish ehtiyoji va unga tashqi – ijtimoiy muhitning stixiyali ta'siri;
- talabalarning kasbiy ma'naviyatini tarbiyalash tizimi oldida turuvchi vazifalar va ushbu vazifalarni hal etish uchun ma'naviy, ilmiy-uslubiy ta'minot darajasining yetarli emasligi;
- mutaxassis shaxsini shakllantirish va rivojlantirish vazifalarini hal etish zarurati va ushbu jarayonga tashqi axborot xurujlarining ta'siri o'rtasidagi ziddiyat;
- oliy ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi elementlari orasidagi o'zaro munosabatlarda ichki guruh va tizim komponentlari o'rtasidagi ziddiyatlar;

- yuqori malakali va yuksak ma'naviyatli mutaxassisni tayyorlashda tarbiyaviy tizimdan kutilayotgan ulkan samara va mazkur masalani hal etish uchun real imkoniyatlar orasidagi pedagogik ziddiyat;

- yosh mutaxassislarda yuksak kasbiy ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida ma'naviy omillarning imkoniyat, sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurati va aksar tarbiya subyektlarining tarbiya, boshqaruv jarayonlaridan ajralib yoxud uzoqlashib qolganligi o'rtasidagi ziddiyat;

- OTM jamoasining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati va har bir murabbiy, professor-o'qituvchi, talabaning individual faoliyati o'rtasidagi pedagogik ziddiyatlar. Bularga professsor Y.A. Lenyov tomonidan aniqlangan tarkibiy ichki ziddiyatlardan quyidagilarni qo'shish mumkin:

- tarbiyaviy tizimning asosiy g'oyasi va uni amalga oshirish yo'llari o'rtasida;

Asosiy ta'lim metodlari ma'ruza va bahs-munozaralarni tashkil qilgan. Ma'ruza (va'zxonlik)larda 100 tadan 400 tagacha tinglovchilar, ta'lim oluvchilar qatnashgan. O'rta tipdagi madrasalarning vazifalariga maktablar uchun mullalarni tayyorlash, masjid uchun din peshvolarini tayyorlash kirgan. Oliy tipdagi madrasalarning vazifalariga davlat idoralari, boshqaruv mahkamalariga qozilarni tayyorlash, shariat ulamolarini tayyorlash, musulmon qonunshunoslarini tushunadigan mutaxassislarni tayyorlash kirgan. Madrasalarga nafaqat diniy bilimlarga qiziquvchilarni, balki turli ziyoli tabaqalari, o'qituvchilik, tabiblik kasbini egallashni xohlovchilarni ham o'qitganlar. Oliy tipdagi madrasalar Samarqand, Buxoro, Urganchda bo'lgan, shuning uchun turli yurtlardan tolibi ilmlar kelib ta'lim olib, bu yurtlarning dong'ini dunyoga tanitganlar. O'rta Osiyodagi madrasalarda ta'lim beradigan mudarrislar arab

tilida dars olib borishlaridan tashqari, adabiyot va ilmiy talablar asosida fors tilida hamda turkiy tillarda ta'lim berganlar. Bundan tashqari, arab va fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilib, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan [7, 376]. Madrasada mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o'quv jihozlari (daftar, kitob, qalam va b.) va turar joy bilan ta'minlangan.

Madrasada arab, fors va turkiy allomalarning asarlaridan tashqari qadimgi hind va yunon olimlaridan Klavdiy Ptolomey, Sokrat, Platon, Aristotel va boshqalarning arab tiliga o'girilgan asarlari hamda ularga yozilgan sharhlar darslik sifatida o'qitilgan. Badiiy adabiyotga doir asarlardan Abulqosim Firdavsiy, Forobiy, Ibn Sino hamda Beruniy asarlari sevib o'rganilgan [6, 52].

Madrasalarga talabalar imtihon yoki tanlov asosida o'qishga qabul qilingan. Mudarrislar ham imtihon qilingan va davlat rahbari tomonidan tayinlangan. Mudarrislar dars berishdan tashqari qozilik, muftiylik kabi davlat ishlari bilan ham shug'ullanib turishgan. O'qish yili oxirida ham talabalar o'tilgan fanlar yuzasidan imtihon topshirishgan. Imtihon bevosita ota-onalar ishtirokida qabul qilingan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma (diplom) topshirilgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlaganlar islomning yetuk ulamolari: shayx, shayxulislom, mulla, imom, mudarris, maktab muallimi yoki qozi, muftiy, a'lam, mirzo sifatida davlat mahkamalariga yuborilgan.

XIII asr oxiri XIV asr boshlaridan boshlab madrasalar xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlarga bo'lingan [7, 376]. Madrasa muassislari madrasani ta'minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan. Ularning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko'rsatilgan [6, 52]. Madrasalarni boshqarish, o'qitish jarayoni va xo'jalik ishlariga shayxulislom va qozilar rahbarlik qilishgan. U vaqf yerlaridan kelgan daromadlarni, ushr, sadaqa va ehsonlarni madrasa ehtiyojlariga taqsimlab sarflagan. Mutavalli vaqf kirimlari, madrasaning moliyaviy xarajati, ta'mirlash, xodim va talabalarga to'lanadigan haq va boshqa ishlarga mas'ul bo'lgan. Madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ovqatlik don hisobidan ajratilgan [6, 82].

Madrasalarning ehtiyojlariga vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta'mirlash uchun ajratilgan, ma'lum qismi esa mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan.

XIII asrga kelib madrasa-maqbaralar vujudga kelib bitta gumbazli xonasi shu madrasa asoschisiga daxma sifatida xizmat qilgan. U 2 qavatli, to'gri burchakli hovli, mudarris va toliblar uchun hovli atrofida yashash uchun hujralar va darsxonalardan tashkil topgan. Har bir madrasa qoshida o'zining kutubxonasi bo'lgan [6, 110].

Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg'ulotlar, odatda, sentabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta'tilga chiqilgan.

Madrasalarda shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari mashg'ulotlar olib borilgan. Haftada ikki kun ya'ni chorshanba va payshanba kunlari mustaqil mutolaa kunlari, juma kuni esa dam olish kuni bo'lgan. Madrasalarda bir o'qish yili 7 oy davom etadi. O'qish yili mezon oyining birinchi kuni 21 sentabrda boshlanib, hamal oyining birinchi kunida 21 martda tugallangan. Qolgan oylar ta'til kunlari hisoblanib, talabalar bu vaqtda xo'jalik ishlari bilan shug'ullangan [6, 63].

Darslar quyosh chiqish payti (bomdod namozidan keyinroq) boshlangan. Madrasalarda talabalarning ta'lim va tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularga har kuni to'rt mahal issiq ovqat va iqtidorli talabalarga qo'shimcha mukofotlar ajratilgan.

Madrasalarda ichki tartib-intizomga qat'iy amal qilingan. Madrasa nizomini buzgan talaba va xizmatchilar uch marotabagacha ogohlantirilgan, kamchilik yana takrorlansa, bunday shaxslar madrasadan chetlashtirilgan. Lekin bunday ko'ngilsizlik juda kamdan-kam sodir bo'lgan. Madrasaning ichki hayotiga daxldor masalalar mutavalli, mudarrislardan tarkib topgan hay'at kengashida hal etilgan.

O'qituvchilik-mudarrislik eng mas'uliyatli va sharafli kasb hisoblangan. Eng iste'dodli, barcha bilimlardan xabardor, hurmat-e'tibor qozongan allomalar maxsus komissiya sinovidan o'tib, mudarris-

lik vazifasiga tavsiya etilgan. Ba'zi madrasalarga butun boshli qishloqlar vaqf qilib berilgan. Ba'zan iste'foga chiqqan yuqori martabali amaldorlar mudarris bo'lib ishlagan.

Yozma manbalarda Anushteginlar davrida Xorazmda 12 mingdan ziyod masjid, ular qoshida shuncha maktab, 4440 ta madrasa bo'lganligi qayd etiladi. Faqat Gurganjda madrasalar soni 700 ga yaqin bo'lgan. Xorazmshoh anushteginiylar davrida madrasalarning imomlari va mudarrislari sulton yoki uning noibi tomonidan tayinlangan. Masalan, xorazmshoh El-Arslon 1162-yilda Turkiston xoqoni Abulmuzaffar Tamg'och Bug'roxon zimmasiga boshqa ishlar bilan birga, madrasalarga munosib mudarrislar tayinlash vazifasini ham yuklagan.

Uzoq yillar madrasaning mudarrisi maktab darslariga rahbarlik qilish mumkin bo'lgan. Madrasaning barcha vaqflari shu kishining tasarrufiga berilgan, bu kishi vaqf daromadlaridan munosib ishlarga, imoratlar qurish, ziroat uchun sarflagan. Madrasaning barcha ilohiyotchi, faqih, ulamolari, talabalari bu kishini izzat-hurmat qilishlari, uning yig'inlarida qatnashishlari zarur bo'lgan va bu kishi shayx deb yuritilgan.

Yangi madrasalar qurilishini odatda taniqli din arboblariga topshirilgan. Masalan, Xurosondagi bir madrasa qurilishi muftiy va imom Aziziddin Ali Balxiyga, Nishopurdagi bir madrasa qurilishi muftiy va mudarris imom Faxriddin Abu Sobit Abdulaziz ibn Abdul-Jabbor Kufiyga topshirilgan.

Xorazmshoh Jaloliddin taniqli ma'rifatparvar olim Muqarrabiddin Muhammad ibn Ibrohim Pahlavon al-Xorazmiyga Isfahonda otasi sulton Alouddin Muhammad xotirasi uchun katta madrasa qurishni topshirgan va bu ishga 30 ming dinor mablag' ajratgan. Bu mablag'dan tashqari yana Iroqdan keladigan xirojlardan bir qismi "…madrasa qurilishini tamomlash uchun qo'shimcha mablag'lar berilgan. Muqarrabiddin Isfahonga borib, madrasa qurilishini boshladi. To'rt oydan keyin madrasa qurilishi nihoyasiga yetdi" [5, 157].

XIII asr boshlarida mo'g'ullar bosqini va ularning Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda bir yarim asrlik hukmronligi boshqa sohalarda bo'lganidek, ta'lim-tarbiya va ma'naviy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bosqinchilar to'z-to'poloni vaqtida Buxoroda, Samarqandda, Urganchda bir nechta maktab, madrasa, kutubxonalar yonib ketgan. Masalan, 1273-yili Xulagiylarning bosqinchiligi vaqtida Buxoroda "Mas'udiya" madrasasi va katta kutubxona yonib ketdi [6, 117]. Qanchadan qancha qo'lyozmalar, muqaddas kitoblar yoqib yuborilgan. Kitob jovonlari otlarga oxur sifatida ishlatilgan. Vaqf yerlari tortib olinib o'zlarining mulklariga qo'shganlar. Mulla va mudarrislar o'ldirilgan yoki qul sifatida ishlatilgan. Ayrim ma'lumotlarda mulla va mudarrislarning bir qismi Chingiziylar xonadonlariga majburlab olib borilib, Chingizxon o'g'illari va nevaralariga ta'lim bergan. Ayrim shayx va maktabdorlar o'z shogirdlari va mulozimlari bilan o'z yurtlaridan bosh olib ketganlar. Ayrim mo'g'ul xonlari tomonidan tasavvuf vakillariga hurmat ehtirom ko'rsatganlar, buning maqsadi xalq bunday kishilarni qattiq hurmat qilgan va ergashgan.

Faqatgina XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyoda fan-adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari tiklana boshlagan. Jumladan, XIII asrda O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya va xalqning boy intellektual salohiyati, mo'g'ullar istilosiga qaramasdan ma'naviy-marifiy jihatdan rivojlanishiga qaratilgan. Ajdodlarimizning bunday ta'lim jarayonidagi mazmun, shakl, metod va vositalaridan boxabar bo'lishi yoshlarning tarbiyasiga o'zining bebaho qimmatiga egaligi bilan ajralib turadi.

## Adabiyotlar

1. Pedagogika. M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida (Darslik). – T., 2010. – 320 b.
2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (o'quv qo'llanma). – T., 2008. – 250 b.
3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi (o`quv qo`llanma). – T., 1996.
4. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi (Darslik) – T., 2005. – 340 b.
5. Buniyodov Z. Anushnagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1998. – 27 b.
6. Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'limi tizimi tarixi. [Matn] / A. Jumanazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 450 b.
7. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O`zME, 2003. V j. – B. 376
8. http://fikr.uz/blog/toshkent_islom_universiteti/html



**Rayima NEMATOVA**
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi katta o`qituvchisi

# MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR SENSOR MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY O'YINLARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH METODIKASI

*Maqolada maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'limiy o'yinlar ta'lim-tarbiya vositasi sifatida keng qo'llanilishi va bola hayotidagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, tarbiyachilar bu o'yinlardan "Bolajon dasturi"da ko'rsatilgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda foydalanadilar. Ular maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda sezgi va idrok hamda muayyan tasavvurlarning hosil bo'lishiga, bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *maktabgacha ta'lim, ta'limiy o`yinlar, tarbiyachi, sezgi, idrok, sensor rivojlanish, shaxsiy tajriba.*

*В статье анализируется образовательные игры в дошкольных учреждениях как средства образования и его значение в жизни ребёнка. А также воспитатели используют эти игры в выполнения образовательных и воспитательных задач указанные в «Программе детишек». Игры помогают развивать ощущение, восприятие и представление у детей дошкольного возраста.*

***Опорные понятия:*** *дошкольное образование, образовательные игры, воспитатель, ощущение, восприятие, сенсорное развитие, личный опыт.*

*In article is analyzed the toddler games in kindergartens as means of education and its importance in child life. In addition, the tutors use these games in the performance of educational tasks specified in the "Children's Program". Toddler games can boost your kid's cognitive, physical and emotional skills.*

***Supporting concepts:*** *preschool education, toddler games, educator, sensation, perception, sensory development, personal experience.*

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sensor rivojlanishi umumiy aqliy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, bolani maktab ta'limiga va kelajak hayotga tayyorlaydi. Sensor rivojlanish murakkab jarayon bo'lib, bu bola sezgi a'zolari va idrokining rivojlanishi, buyumning turli sensor xususiyatlari, sifatlari (shakli, rangi, hajmi, fazoviy munosabatlar, ta'mi, hidi) to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishidir. Bolaning maktab yoshigacha bo'lgan davri sezgi a'zolari va idrokining rivojlanishi uchun eng qulay jarayon hisoblanadi. Sensor rivojlanishining o'zagi sensor qobiliyatlardir. Uning xarakterli tomoni orqali buyumning sensor xususiyatlari, sifatlari tez va oson o'zlashtirib olinadi, shuningdek, bolaga turli xil masalalarni yechishda ulardan o'rinli foydalanish imkonini beradi. Sensor madaniyatni rivojlantirish deganda, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, eshitish sezgirligini, tovushlarni tinglash va farq qilish malakasini hamda musiqa tinglash uquvini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Kuzatilgan ma'lumotlar bo'yicha bolaning (1- sinf) maktabdagi ta'limni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklariga sabab unda tasavvur idrokining torligi sanaladi. Natijada bola harflarni yozishda, rasm chizishda yoki mehnat darslarida biror buyumning shaklini yasashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bolada ana shunday ziddiyatlar bo'lmasligi uchun bog'chada sensor tarbiyaga asosiy e'tiborni qaratish lozim, ya'ni bolalarning sensor qobiliyatlarini o'stirish zarur. Chunki sensor qobiliyatlar boshqalar (musavvir, yozuvchi, me'mor, musiqachi, bastakor va hk.) orasida muhim o'rinni egallaydi va o'z navbatida bola hayotida poydevor vazifasini o'taydi. Tarbiyachi bolaning sensor qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli xil o'yinlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. O'yin faoliyatida bolalar sezgi a'zolari-

ning barchasi ishtirok etadi, idroki to‘xtovsiz rivojlana boradi. Bolalarda turmush tajribasi yetarli emasligi, ba’zan ular idrokining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Bu, xususan, murakkab idrok jarayonida, ya’ni fazo va vaqtni idrok qilishda yaqqol ko‘rinadi. Shu sababli, tarbiyachilar narsa buyumlar o‘rtasidagi har xil fazoviy munosabatlarni so‘z bilan ifoda etishlari kerak. Bu esa bolalar idrokining rivojlanishiga katta yordam beradi. Uzoq-yaqin, baland-past, chuqur-yuza, katta-kichik, keng-tor kabi fazoviy tushunchalarni hamma narsalar o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarni bolalar har kungi o‘yin faoliyatlarida yetarli darajada o‘zlashtirib boradilar.

A.V. Zaporojets ta’limiy o‘yinlarning rolini baholar ekan, shunday deb yozadi: “Biz shunga erishmog‘imiz kerakki, ta’limiy o‘yin faqat ayrim bilim va malakalarni o‘zlashtirib olish formasi bo‘lib qolmasin, balki bolaning umumiy rivojlanishiga yordam bersin, uning qobiliyatlarini tarkib toptirishga xizmat qilsin” [1]. Darhaqiqat, bolalar tarbiyachining rahbarligida o‘yin, mashg‘ulot va sayr vaqtida narsa buyumlarning har xil xususiyatlarini qattiq yumshoqligini, rangini, shaklini qayta-qayta idrok etar ekanlar, ularning ongida narsaning turli xususiyatlariga doir etalonlar (andaza, obraz) yuzaga keladi. Keyinchalik bolalar narsaning xususiyatlarini, belgilarini mantiqan idrok qilganlarida o‘z tasavvuridagi etalon (andaza, obraz)larga taqqoslab, solishtirib ko‘radilar. Shuning uchun bog‘-chada bolalarga sensor tarbiya berish orqali ularda etalon tasavvurlarni hosil qilish katta ahamiyatga egadir. Chunki sensor etalonlar ijtimoiy tarixiy tajriba jarayonida hosil qilinadi. Bunday etalonlarga asosiy ranglar, geometrik figuralar, notalarda ifodalangan musiqali tovushlarning turli baland pastligini aytish mumkin. Agar bola etalonlar va ularning og‘zaki ifodalanishi bilan tanish bo‘lsa, uning tevarak-atrofni bilishi oson bo‘ladi, u o‘zi uchratgan buyumlarni ma’lum bir etalon bilan taqqoslaydi, hamda uning rangi, shakli, hajmi, buyumning fazoviy (oldinga orqaga, tepada pastda, uzoqda yaqinda, chapda, o‘ngda joylashuvini aytib beradi.

Sensor etalonlarni o‘zlashtirib olish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Sensor etalonlarni o‘zlashtirish deganda buyumning u yoki bu xususiyatini to‘g‘ri aytishga o‘rganish lozim, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, albatta. Ammo buyumning sensor xususiyatlari va sifatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lmoq zarur. Bolada bunday tasavvurlar qanchalik boy, keng ko‘lamda bo‘lsa, uning bog‘chada, maktabda va mehnatning barcha ko‘rinishlarida muvaffaqiyatga erishishi shart. Sensor tarbiya bolalarni buyumning nomi, rangi shakli, hajmi, sifati va nomi uchun ishlatilishi to‘g‘risidagi bilimlar faqat mashg‘ulotlar jarayonida, balki o‘yinlar orqali ham amalga oshiriladi. Mashhur pedagoglar (A.P. Usova, F.N. Blexer, E.I. Radina, V.N. Avanesova )ning yangi bilimlarni o‘zlashtirish va qo‘llash jarayonini kuzatishlari davomida ta’limiy o‘yinlarga yuqori baho berganlar.

Ko‘p yillar davomida nazariya va amaliyotda ta’limiy o‘yinlar o‘qitishning usuli hamda “o‘yin faoliyati” sifatida qarab kelingan edi. Keyingi kuzatishlar ta’limiy o‘yinlarni ilk yoshdagi bolalarning “o‘qitish shakli” sifatida foydalanish kerakligini isbotlab berdi. Ta’limiy o‘yin murakkab jarayondir, chunki bir tomondan “o‘qitish shakli” bo‘lsa, ikkinchi tomondan “o‘yin faoliyati” hisoblanadi. Bu jarayon tarbiyachi va bolalarning munosabatlarida hamda bolalarning bir-birlari o‘rtasidagi munosabat jarayonida yaqqol tasvirlanishi bilan xarakterlanadi. Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi va bolalarning munosabatlari juda qisqa shaklda bo‘ladi, ya’ni tarbiyachi o‘rgatadi, bolalar o‘rganadilar. Ta’limiy o‘yinlarda esa munosabatlar boshqacha, ya’ni tarbiyachi bolalar bilan birga o‘ynaydi, bolalarga o‘yin qoidalarini o‘rgatadi, o‘yinga rahbarlik qilib boradi. Shuningdek, ta’limiy o‘yinlar bolalarning birgalikda o‘ynab, o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishi, bir-birlariga ko‘-maklashishi va o‘rtog‘ining muvaffaqiyatidan xursand bo‘lish kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O‘yinlar shaxsning sofdillik, rostgo‘ylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi.

Ta’limiy o‘yin aniq tuzilishga ega: dastur mazmunida belgilangan ta’limiy vazifa, o‘yin vazifasi, o‘yin maqsadi, ko‘rgazmali vositalar ko‘p yoki oz miqdorda o‘yinning mohiyati va o‘yinga yakun yasash.

Ta’limiy o‘yinning mashg‘ulotdan farqli tomoni shundaki, unda bilish vazifalari bola oldiga to‘g‘ri, ochiq shaklda qo‘yilmay, balki ular o‘yin vazifalarida, mazmunida va o‘yin harakatlarida o‘z aksini topadi. Bola o‘yinda oldingi egallagan bilimlarini qo‘llaydi va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirib boradi. O‘yinda harakatlarning takrorlanishi yangi bilim va malakalarni shakllantirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yindagi vazifalar diqqatni bir joyda to‘planishi, narsalarni farq qilish, taqqoslash, ranglarni bilib olish malakasini takomillashishini talab qiladi.

Ta'limiy o'yinning mazmuni "Bolajon dasturi"da bayon qilingan va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) buyumlar va ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va nimaga ishlatilishi to'g'risidagi bilimlar;

b) mehnatning har xil turlari va uning kishilar hayotidagi roli to'g'risidagi bilimlar;

d) tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to'g'risidagi bilimlar;

e) dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl, vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Ta'limiy o'yinlar bolalarning tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini mutahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiylikni, sensor jarayonni rivojlantiradi va bilimlarini tartibga soladi. Taklif etiladigan o'yinlar tajriba sinovidan o'tgan va ular quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Topishmoqli o'yin.
2. Topshiriqli o'yin.
3. Stol ustida bosma o'yin.
4. Musobaqali o'yin.
5. Bekinmachoq o'yin.
6. Syujetli rolli ta'limiy o'yin.

Bunday o'yinlarning boshlanishi va o'yin harakatlari aniq ko'rsatiladi va o'z xususiyatini yo'qotmaydi. Biz sensor vazifalarni amalga oshirish maqsadida dastur talablarini va ta'limiy o'yin imkoniyatlarini ko'rib chiqdik. Eng avvalo, har bir o'yin dastur talablarini hamda sensor tarbiya vazifalarini amalga oshirishni ko'zda tutmog'i lozim. O'yinni obrazli qilib tushuntirish eng muhim omillardan sanaladi. Bolalar o'yin mazmunini puxta o'zlashtirishlari uchun rahbar og'zaki tushuntirishni amalda ko'rsatishi bilan olib borishi lozim. O'yinda foydalaniladigan jihozlar yorqin, o'tkir rangli bo'lishi, tarqatma materiallar soniga teng bo'lishi zarur. Bolalarni rag'batlantiruvchi jihozlar oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak. Tarbiyachi o'yinlarni osondan qiyinga, oddiydan murakkabga qoidasi bo'yicha belgilashi lozim. O'yin paytida bolalarning faollik ko'rsatishi tarbiyachining o'yinni o'tkazishga qanday tayyorlanishiga ham bog'liq bo'ladi. Tarbiyachining o'zi o'yinni aniq va yaqqol tasavvur qilishi, o'yin paytida bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshi tushunishi lozim.

Olib borilgan kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, kichik guruh bolalari buyumning rangini, shaklini farqlashda qiynaladilar. Geometrik shakllarning rasmi ko'rsatilsa, ularni bu shakllarni o'zlariga ma'lum bo'lgan aniq buyumlar bilan bog'lab ya'ni predmetlashtirib idrok qilishga harakat qiladilar.

Masalan: doira rasmi ko'rsatilsa, bu /to'ppi/ koptok, to'rtburchakni esa eshik, deraza deb ataydilar.

Tarbiyachi bolalarda shakllar to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvur hosil qilishi uchun ularning bilimini boyitish maqsadida turli xil ta'limiy o'yinlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Bolalar bog'chasining kichik guruhlarida olib boriladigan ta'limiy o'yinlardan namunalar keltiramiz:

**"Rangdor sandiqcha" ta'limiy o'yini.**

Bolalar ikki guruhga bo'linadi /6 tadan/, o'yinda barcha bolalar ishtirok etadi.

**I variant**

**Maqsad:** bolalarning ranglarni farqlash va ular orasidan o'ziga kerakligini ajratib olish malakasini shakllantirish.

**Ta'limiy vazifalar:** bolalarning har xil shakldagi buyumlarning faqat rangiga qarab guruhlarga ajratish ko'nikmasini mustahkamlash.

**Ko'rgazmali vosita:** turli xil o'yinchoqlar /6 xil rangda/

Qizil — kubcha, shar, koptok, ayiqcha, chelakcha.

Ko'k — kubcha, shar, koptok, chelakcha.

Sariq — kubcha, shar, koptok.

Yashil — koptok, chelakcha, kubcha, shar.

Oq — quyoncha, shar, ayiqcha.

Qora — chelakcha, shar, ayiqcha.

6 xil rangdagi sandiqcha /kartondan yasaladi va usti laklanadi /Taqdirlash uchun yulduzcha.

**O'yinnning tavsifi:** tarbiyachi stol ustiga 6 xil rangdagi /qizil, ko'k, yashil, oq, sariq, qora/ sandiqchalarni bir tekisda qo'yib chiqadi. Guruh xonasidagi o'yinchoqlarni esa gilam ustiga to'playdi. O'yin-

ni boshlashdan oldin tarbiyachi bolalarga ranglar haqida so‘zlab beradi. Tarbiyachi: bolalar o‘yinchoqlarimiz yerga tushmasligi uchun ularni biz sandiqchalarga solib qo‘yamiz. Lekin o‘yinchoqlarimizning hammasi sandiqchalarga sig‘maydi, to‘g‘rimi bolalar? So‘ng, tarbiyachi bolalarga shkafdagi turli xil rangdagi o‘yinchoqlar orasidan qizil rangdagi o‘yinchoqlarni topishlarini taklif qiladi va “bolalar qaysi biringiz boshqa rangdagi o‘yichoqlarni olib kelsangiz sandiqchamiz ochilmaydi, shu sababli “o‘yinchoqlarni tanlashda shoshilmang” deydi.

Bolalar barcha qizil rangli o‘yinchoqlarni tanlab, ko‘k sandiqchaga joylashtirishlari so‘raladi. Shu tarzda qolgan sandiqchalar ham tegishli rangli o‘yinchoqlar bilan to‘ldiriladi.

Tarbiyachi o‘yin oxirida faol ishtirok etgan bolalarni rag‘batlantiradi. Ranglarni to‘g‘ri, aniq topgan bolalar o‘yin g‘olibi deb e’lon qilinadi va yulduzcha bilan taqdirlanadi. O‘yin bir marta o‘tkaziladi.

**II variant**

**Maqsad:** bolalarning ranglarni fikrlash va ular orasidan o‘ziga kerakligini ajratib olish malakasini shakllantirish.

**Ta’limiy vazifa:** bolalarni buyumlarning nomini va rangini aytishga o‘rgatish.

**Ko‘rgazmali vosita:** 6 xil rangdagi sandiqchalar va o‘yinchoqlar, 6 xil rangdagi kartochka /10x10/, taqdirlash uchun yulduzchalar.

**O‘yinnning tavsifi:** tarbiyachi bolalarga bir marta “Rangdor sandiqcha” o‘yinini o‘ynaganlarini eslatadi. Bugun o‘ynaladigan o‘yini boshqacha tartibda ekanligini aytadi va o‘yinning mazmunini tushuntiradi. So‘ng tarbiyachi 6 ta bolani stol yoniga taklif etadi. Bolalarga patnisda teskari qilib qo‘yiladigan kartochkalarni olishlarini aytadi. Ular kartochkalarni tanlagandan so‘ng tarbiyachiga uning rangini aytishlari kerak. Har bir bolaga kartochkasining rangiga o‘xshash sandiqchaning ichidan xohlagan o‘yinchoqni tanlab olishni va uning nomini, rangini aytib berishlari taklif etiladi. Bolalar to‘g‘ri javobdan adashmasligi uchun tarbiyachi ularga savollar bilan murojaat qiladi yoki boshqa bolalarni yordamlashishga chaqiradi. Hamma bolalar tanlangan o‘yinchog‘ining nomini, rangini aytib bo‘lganlaridan so‘ng tarbiyachi o‘yinni qolgan bolalar bilan yana bir marta takrorlaydi. Tanlangan o‘yinchoqlar chetga olib qo‘yiladi. O‘yin oxirida tarbiyachi tanlangan o‘yinchog‘ining nomini, rangni to‘g‘ri topgan bolalarni yulduzcha bilan taqdirlaydi. O‘yinda barcha bolalar ishtirok etishlari kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ta’limiy o`yinlar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, sensor rivojlantiradi.

## Adabiyotlar

1. Пилюгина Е.Г. Занятия по сенсорному воспитанию. – М., 2003.
2. Венгер Л.А. Дидактические игры и упражнения по сенсорному воспитанию дошкольников. – М., 2002.
3. Венгер Л.А., Пилюгина Е.Г., Венгер Н.Б. Воспитание сенсорной культуры ребёнка. – М., 2000.
4. Сенсорное воспитание в детском саду / Под.ред. Н.Н. Поддыкова, В.Н. Аванесовой. – М., 1999.



**Zohid ALIMARDONOV**
Toshkent davlat Jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi

## OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI HARBIY XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalari harbiy xizmatchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati mazmuni va asosiy yo'nalishlari bayon etilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *oliy harbiy ta'lim muassasasi, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, harbiy xizmatchining kasbiy kompetentligi, kompetentli harbiy xizmatchi, pedagogik kompetentlik.*

*В статье излагаются педагогические значения и основные направления формирования профессиональной компетентности военнослужащих в высших военных учебных заведениях.*

***Опорные понятия:*** *высшее военное учебное заведение, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная компетентность военнослужащего, компетентный военнослужащий, педагогическая компетентность.*

*In article is described the pedagogical values and the main formation of serving soldiers' professional competence of Higher Military Educational Institutions.*

***Supporting concepts**: Higher Military Educational Institution, a competence, professional competence, competitive serving soldier and pedagogical competence.*

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, jahon hamjamiyatida o'zining o'rnini egallashi uchun ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning barcha sohalarida, shu qatori harbiy sohada ham tub islohotlarni amalga oshirishga to'g'ri kelmoqda. O'zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev xavfsizlik sohasiga oid qonunchilik samaradorligini yuksaltirish, Qurolli Kuchlar tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish, uning shaxsiy tarkibini tayyorlash, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasini yanada oshirishga qaratilgan aniq vazifalarni belgilab berdi.

Harbiy xizmatchilarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish, shu jumladan, harbiylar va ularning oila a'zolari uchun zamonaviy uy-joylar qurish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Hozirgi kunda dunyoda oldindan aytish qiyin bo'lgan vaziyat hukm surayotgan murakkab bir sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va totuvlikni ta`minlash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini chuqur anglagan holda, biz 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan Harakatlar strategiyasida yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgiladik. Ushbu Strategiya asosida biz o'tgan yil davomida mamlakatimiz hayotining boshqa tarmoqlari qatorida harbiy qurilish sohasida ko'pgina eng dolzarb va muhim masalalar bo'yicha aniq chora-tadbir va harakatlarni ko'zda tutadigan qarorlar qabul qildik, ularni amalga oshirish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etdik.

Shu tariqa qisqa vaqt mobaynida aniq natijalarga erishdik, Qurolli Kuchlarimizning kelgusidagi qiyofasini belgilab beradigan strategik tamoyillar va ana shu maqsadga erishishga qaratilgan keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik" deb alohida ta'kidladi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida [2].

Ana shu islohotlarga muvofiq, Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan yuqori darajadagi harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirish oliy harbiy ta'lim muassasalari zimmasiga tushmoqda. Shuning uchun bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz oliy harbiy ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya tizimining barcha yo'nalishlarini yangilash davr taqozosi bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirish bo'yicha

alohida ilmiy izlanishlar olib borilmaganligini inobatga olsak, oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy ta'lim-tarbiya yuzasidan mavjud muammolar, ya'ni harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirish kabi masalalar ilmiy jihatdan aniqliklar kiritishni talab etadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda. Chunki bugungi kunda harbiy pedagogikadagi asosiy masalalardan biri bu harbiy xizmatchilar kasbiy tayyorgarligining ulardan talab etiladigan amaliy tayyorgarlik darajasiga muvofiqligini ta'minlash asosida ularning kasbiy tayyorgarlik mazmunini fan-texnika va ishlab chiqarish taraqqiyotining tezkor o'zgarishlariga moslashtirish, nostandart vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish, shuningdek, kasbiy-amaliy vazifalarni to'laqonli bajarish uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bugungi kunda harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasiga ham ilmiy ham pedagogik nuqtayi nazardan yangicha yondashuv zaruratini shakllantirmoqda. Bu jarayonda esa harbiy xizmatchilar shaxsiy tarkibini tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish, oliy harbiy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, harbiy xizmatchilar kasbiy kompetentligi shakllanishining pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish hamda ularning kasbiy kompetentligini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash va ilmiy jihatdan tadqiq etish kabi muhim vazifalar mavjud.

**Kompetentlilik –** bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish [7].

A. Xutorskiy "kompetentlik" tushunchasining amaliyotga kiritilishi talablariga nazariy bilimlar to'plamini egallab, aniq bir vazifa yoki holatlarni hal qilishda ularni amalga joriy qilishda duch keladigan jiddiy qiyinchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi, – deb ta'kidlaydi [6].

L. Mitinaning ta'kidlashiga ko'ra, pedagogik kompetentlik tushunchasi bilim, malaka, ko'nikmalarni, shuningdek, ularni faoliyatga, muloqotga, shaxsni rivojlantirish va o'z-o'zini mustaqil rivojlantirishga tatbiq etishini o'z ichiga oladi [4].

N. Muslimovning fikricha kompetetlik – talaba tomonidan alohida bilim va malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va amaliy harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi [3].

Bizning fikrimizcha: "Kompetentli harbiy xizmatchi" – yuksak kasbiy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan, yuqori darajada intellektual salohiyatga ega, mukammal jismoniy tayyorgarlikdan o'tgan, zamonaviy harbiy texnika va qurollardan maqsadli foydalana oladigan, o'z xalqiga sadoqatli, Vatan sha'ni va qadr-qimmatini doim himoya qiluvchi, kimga va nima uchun xizmat qilayotganligini to'liq anglab yetadigan professional shaxsdir.

Har bir kasb o'z vazifasi va mohiyatiga ko'ra uni egallovchi shaxsdan tegishli talablarga javob bera olishni taqozo etadi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirishda xotira va tafakkur jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular:

– berilgan topshiriq va vazifalarni tez va aniq bajarish;
– eshitish, ko'rish orqali jangovar ma'lumotni aniq, nuqsonsiz qabul qilish;
– qisqa vaqt ichida zarur qarorni qabul qila olish;
– axborotlar majmuidan zarur ma'lumotni ajrata olish;
– sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyat va kutilayotgan voqealar natijalarini oldindan bilishda o'z tajribasiga suyanish;
– tez eslab qolish xususiyatiga ega bo'lish;
– ko'rgazmali maxsus axborotni xotirasida uzoq muddat saqlash kabilarda namoyon bo'ladi.

Kompetentli harbiy xizmatchilar kasbiy yaroqlilikning zaiflashishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

– jismoniy kuch va chidamlilik imkoniyatining talab darajasida shakllanmaganligi;
– ruhiy va emotsional beqarorlikning mavjudligi;
– jismoniy jihatdan tayyorgarlikdan o'tmaganlik;
– muntazam ravishda intellektual salohiyat va ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishdagi nuqsonlar;

– mustaqil shaxs kamoloti uchun qaygʻurmaslik, oʻz faoliyatini tanqidiy baholay olmaslik va hokazo.

Kompetentli harbiy xizmatchining maxsus harbiy axborotlarni qabul qilish va yetkaza olish xususiyatlari:

– axborotni qabul qilish, ishlov berish, uzatish, axborotni qayta ishlash, buyruqlarni aniq, qisqa, loʻnda ifodalash qobiliyati;

– internet tarmogʻida ishlashning asosiy tamoyillari va dasturiy ta'minotini yaxshi egallash;

– zamonaviy axborot-komunikatsiya vositalaridan unumli foydalana olish;

– mustaqil ravishda internet, turli elektron ma'lumotlar, ma'lumotlar bazasi, axborot izlash tizimlari va lugʻatlardan axborotlarni izlay olish;

– axborotlarni saqlash, tahlil qila olish va tasvirlash shakllarni tanlay olish;

– olingan ma'lumotlardan hal qilinayotgan masalalarda foydalana olish.

Shundan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirish hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish, ularda zarur bilim, koʻnikma, malaka va kompetentlik sifatlarini shakllantirish lozim.

Harbiy faoliyatda, kompetentlik sifatlarini egallagan, harbiy kasb etikasiga rioya qilgan, milliy qadriyatlarni oʻzida mujassamlashtirgan shaxsni kompetentli harbiy xizmatchi deb ham hisoblash mumkin. U kasbiy mahoratni oʻzlashtiradi, rivojlantiradi oʻz kasbini ijodiy boyitishga intiladi. Kompetentli harbiy xizmatchilar oʻz kasbining salmogʻi va obroʻsini koʻtarib, oʻsib kelayotgan yosh avlodni harbiylar kasbiga boʻlgan qiziqishini yanada oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining yoshlarida harbiylik kasbini tanlash sabablari quyidagicha shakllarda ifodalanadi:

– vatanparvarlik;

– yurtga boʻlgan sadoqat;

– kasbining mardlikni talab etishi;

– jamiyatda irodali shaxs boʻlib shakllanish istagi;

– oʻzining jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini xizmatda sinash;

– harbiy kiyimga qiziqish va unga boʻlgan mehr;

– ota yoki aka kabi Vatanga xizmat qilish;

– harbiylar va harbiy aslahalar bilan doimiy munosabatda boʻlish;

– ijtimoiy ta'minotning kafolatlanganligi;

– tashqi ta'sir ya'ni (boshqa kishilarning tavsiyasi) [5].

Zamonaviy harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirishda mamlakatimiz oliy harbiy ta'lim muassasalari va serjantlar tayyorlash maktabiga katta talablar qoʻyilmoqda. Zero, "Harbiy xizmatchilarni tayyorlashning mutlaqo yangi shakllari – serjantlar maktablarini tashkil qilish, Qurolli Kuchlarning yangicha tarkibini tashkil etish, maxsus operatsiyalarni amalga oshiruvchi kuchlar batalyonlari tuzish, kompyuter va zamonaviy uslublar asosida modellashtirish jarayonlarini oʻz ichiga olgan yangi ta'lim usullari joriy etilmoqda" [1].

Oliy harbiy ta'lim muassasalari va serjantlar tayyorlash maktablarining asosiy vazifasi harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi va tezkorlik qobiliyatini yuksak darajaga koʻtarish, qisqa vaqt ichida zarur qarorni qabul qila olish, kasbiy-amaliy vazifalarni toʻlaqonli bajarish uchun zaruriy koʻnikma va malakalarni shakllantirish hamda ma'naviy-ruhiy muhitning takomillashuviga, harbiy xizmatchi shaxsining kamol topishiga, umuman olganda, shaxsiy imkoniyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir oʻtkazishdan iborat.

Shu ma'noda kompetentlik harbiy xizmatchining, shaxsiy imkoniyatlari yigʻindisi, uning oʻz kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatida samarali ravishda qoʻllay olish qobiliyati hisoblanib, turli yoʻnalishlarda koʻrik-tanlovlar, shu bilan birga, kasbiy bellashuvlarning tashkil etilishi ham kasbiy kompetentlikni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Ular, birinchidan, harbiy xizmatchilarning nazariy hamda amaliy koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchidan, ularda ijodiy izlanish malakasini hosil qiladi.

Bu borada, oliy harbiy ta'lim muassasalari harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirishning pedagogik ahamiyati quyidagilardan iborat:

– oliy harbiy ta’lim muassasalari tizimida harbiy xizmatchilarning xizmatini oʻtash davridagi ijtimoiy-siyosiy faoliyatini pedagogik tahlil qilish;

– oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi harbiy xizmatchilar faoliyatining ijtimoiy xususiyatlari va munosabatlarini pedagogik asoslash;

– oliy harbiy ta’lim muassasalarida harbiy ta’lim-tarbiya tamoyillarining asosiy yoʻnalishlari va oʻquv jarayonining oʻziga xos xususiyatlarini mustaqil mushohada qilish;

– harbiy xizmatchilarda kasbiy kompetentligini shakllantirishning usul va vositalarini aniqlash;

– harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirishda ma’naviy omillarning oʻrnini aniqlash;

– harbiy xizmatchilarning kasbiy qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda kasbga yoʻnaltirish jarayonini pedagogik tahlil qilish;

– harbiy kadrlarni lavozimga tayinlashda intellektual salohiyati va imkoniyatlarini inobatga olish;

– harbiy xizmatchilar moddiy ta’minotining kasbiy kompetentligini shakllantirishga ta’sirini oʻrganish;

– harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirishning xizmat faoliyati rivojlanishiga ta’sirini aniqlash.

Xulosa qilib aytganda, oliy harbiy ta’lim muassasalari harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni takomillashtirishning pedagogik ahamiyati kompetentli harbiy xizmatchilarni tayyorlash, armiya saflarida milliy kadrlar salmogʻini oshirish muhim ijtimoiy vazifagina boʻlib qolmay, balki juda zarur siyosiy masala hamdir. Oʻzbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash konsepsiyasi jahondagi ilgʻor tajribalarga mos holda amalga oshirilmoqda. Mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat, Oʻzbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida oʻtkazilayotgan harbiy islohotlarda kompetentli harbiy xizmatchilarning shaxsiga xos xususiyatlari: tashabbuskorlik va topqirlik; konstitutsiyaviy burch va harbiy qasamyodga sodiqlik; harbiy xizmatda oʻzini tuta bilish va oʻzini-oʻzi nazorat qilish; boshqarishning yuqori darajasi; tashkilotchilik qobiliyatlari; boʻysunuvchilarning xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni oʻz zimmasiga ola bilishi; xizmatdoshlar faoliyatini toʻgʻri baholay olish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash; favqulodda vaziyatlar sharoitida xizmat qobiliyatini saqlay olish; oʻz burchini ado etishda dadillik va qat’iylik kabilardan iborat boʻlishi kerak.

Mamlakatimizda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarda Qurolli Kuchlar tarkibini kasbiy darajasi yuqori boʻlgan mutaxassislar bilan toʻldirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon bevosita siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bogʻliq. Shuningdek, barcha tarixiy davrlardagi kabi harbiy faoliyat zarurati tashqi xavfning mavjudligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham harbiy mutaxassisdan jasorat, Vatan va xalq uchun oʻzini qurbon qilishga tayyor boʻlish kabi boshqa irodaviy sifatlarni talab qiladi.

**Adabiyotlar**

1. Karimov I.A Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2002. T.10. – B. 178.

2. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi https://kun.uz/uz/news/2018/01/12/savkat-mirzieev-arbijjlarni-bajram-bilan-tabrikladi

3. Muslimov N.A. Boʻlajak kasb ta’lim oʻqituvchisini kasbiy shakllantirish. – Toshkent: “Fan”, 2004. – 130 b.

4. Митина Л.М. Психология профессионального развития. – Москва: “Наука”, 1998. – 340 с.

5. Samarov R.S. Qurolli Kuchlar tizimi feminizatsiyalashuvi: rivojlanishning oʻziga xosligi va ijtimoiy mexanizmi (Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari misolida) Falsafa fanlari dokt. diss... Toshkent: OʻzMU, 2005. – B. 141.

6. Хуторский А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты. Доклад на отделении философии образования и теории педагогики РАО 23 апреля 2002. Центр «Eydos» /http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm.

7. Эльконин Б.Д. Понятие компетентности с позиции развивающего обучения. – М., 2002.



**Arofat ISMANOVA**
Respublika ma'naviyat va ma'rifat
markazi mustaqil izlanuvchisi, falsafa doktori (PhD)

# O'SMIRLARDAGI DEVIANT XULQ MUAMMOLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH YO'LLARI

*Maqolada o'smirlar orasida paydo bo'layotgan salbiy holat, ya'ni deviant xulq-atvor to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, deviant xulq-atvorni paydo qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumot berilgan.*

***Tayanch tushunchalar:** o'smir, o'spirin, yosh psixologiyasi, deviant xulq-atvor, tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy profilaktik tadbirlar.*

*В данной статье идёт рассуждение о состоянии девиантного поведения подростков и возникающее среди них негативное состояние. А также даётся информация о факторах и устранении девиантного поведения.*

***Опорные понятия:** подросток, юноша, психологический возраст, девиантное поведение, воспитание, профилактические духовно-просветительские мероприятия.*

*In this article is discussed the state of deviant behavior of adolescents which arises their negative state. In addition, it is told about the information based on factors, which can prevent the deviant behavior.*

***Supporting concepts**: adolescent, young man, psychological age, and the deviant behavior, upbringing, preventive spiritual -educational activities.*

Shaxs individual taraqqiyotining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir. Chunki taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga, yangiliklari va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, iqtidori, atrofdagi voqea-hodisalarga qiziquvchanligi, yangilikka o'chligi, bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi. Yosh taraqqiyoti davrlarining ham sifat, ham miqdor o'zgarishlariga ega bo'lgan ko'rsatkichlari borki, yosh psixologiyasi har bir yosh xususiyatlarini ana shu ikkala ko'rsatkich nuqtayi nazaridan o'rganishi va shaxs xulqini boshqarish va ta'sir ko'rsatishda ularga tayanmog'i lozim. Umuman psixologiyada isbot qilingan faktlardan biri shuki, turli davrlardagi inson taraqqiyoti o'ta murakkab jarayon bo'lib, har bir davrning o'z qonuniyatlari mavjud. Har bir bosqichda shaxsning biror-bir xususiyatlari o'zining yetuklik fazasiga erishadi. Shunisi xarakterliki, har bir yoshda biror fuksiyalarning rivojlanishi boshqa bir funksiyalarning susayishi hisobiga ro'y beradi. Masalan, bolalikning ilk bog'cha yoshida fazoga moslashuv juda kuchaysa, keyinchalik uning o'rnini vaqtni adekvat idrok qilish kuchayadi. Xuddi shunday bolaning 3-5 yosh davri tilni, uning lug'aviy va strukturaviy xususiyatlarini o'zlashtirishga juda maqbul bo'lsa, yetuklik davri bo'lmish 45-55 yoshlarga kelib ayni shu sifat deyarli o'zini yo'qotadi ("til qotib qoladi").

Yosh davrlarining barchasidagi umumiy mezon shuki, har bir taraqqiyot davri shaxs rivoji uchun nimani taklif etadi-yu, shaxs unda qanday rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ularni tabiiy o'zgarishlarda bilish va o'rganish kerak, chunki busiz shaxs tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi ijtimoiy pedagogik profilaktikani olib borishda ta'lim muassasasiga o'quvchilar 15-18 yoshda ta'lim olishlari, bu yosh aynan o'smirlikdan o'spirinlikka o'tish davriga to'g'ri keladi. Bu davrning o'ziga xos jihatlari va unga to'g'ri keladigan pedagogik bilimlar, usullar, pedagogik taktlarni bilishimiz nihoyatda muhim. Aks holda, singmaydigan asfalt yerga suv sepishdek gap.

O'smirlik va o'spirinlik davrlari maktab va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qish davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrdagi yetakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, unda bola bilim olish bilan bog'liq malaka va ko'nikmalarni orttirishdan tashqari, shaxs sifatida muhim o'zgarishlarga yuz

tutadi. O‘smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o‘smirlik 11-13 yoshni, katta o‘smirlik 14-15 yoshni o‘z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim xislati shundan iboratki, u bolalikdan o‘spirinlik, kattalikka, yoshlikdan yetuklikka o‘tish davridir.

O‘smirlik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekisliklar bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro‘y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo‘lib, bu ham bola fe’lining o‘zgaruvchan, dinamik va ba’zan noma’qulliklar hamda noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bunday o`zgarishlar asab tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, bola tezda achchiqlanadigan yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi mumkin. Shuning bilan birga, bu davr ziddiyatlarga to‘la va beqaror bo‘ladi. Bu davrda yoshlarning tana a’zolarida rivojlanish jadallashadi, vazn ortadi, bo‘yi o‘sib, tana kundan-kunga kuch-qudratga to‘ladi. Bu davrda yoshlarning ma’naviy dunyosi va axloqiy qiyofasi, shaxsiy didi, havasi, qiziqishi, muhabbat tuyg‘usi ham bir necha bor o‘zgaradi. Aynan, yoshlik davrida jismoniy yetilish bilan ma’naviy kamolot o‘zaro bog‘liq uyg‘un holda o‘smaydi. Jinsiy balog‘atga yetish yoshini 15-16 yosh desak, huquqiy jihatdan –18 yosh. O‘smirlik davri yoshlikka qadam tashlashning eng murakkab va shu bilan birgalikda muhim taraqqiyot bosqichidir. Mazkur yoshda organizmda jinsiy yetilish va boshqa biologik xususiyatlar parallel tarzda rivojlanadi. Buning uchun organizmda fiziologik va psixologik rivojlanishning maksimal darajada balanslashtirilib borilishi shu yoshga xos bo‘lgan xususiyatlar ekani e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. O‘smir organizmida kechayotgan psixik taraqqiyotning o‘ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko‘plab qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi. O‘smir “Men”ida nimalarni xohlasa, u yashayotgan ijtimoiy muhitda bu narsa o‘z aksini topmasligi mumkin. Endi o‘smir uni tushunadigan, “buyuk orzu”larini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadigan, u bilan dildan suhbatlashadigan insonga ehtiyoj seza boshlaydi. O‘smir hayotida ijtimoiylashuv asosiy rolni o‘ynaydi. O‘smir oilada, mahallada, maktabda, kollejda, o‘rtoqlari davrasida ijtimoiylashadi, ya’ni jamiyatga qo‘shilib yashaydi. Ya’ni u tug‘ilgan onidan boshlab o‘ziga o‘xshagan insonlar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi [1].

Tashqaridan shaxsga ko‘rsatilayotgan ta’sir oddiy, mexanik tarzda o‘zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyati nuqtayi nazaridan subyektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta’sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10-15 ta o‘quvchidan iborat kollej o‘quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota-onalarining kutishlari, o‘qituvchilarning berayotgan dasrlari va unda yetkazilayotgan ma’lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xildir. Lekin baribir ana shu 15 nafar o‘quvchining har biri shu ta’sirlarni o‘zicha, o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o‘quv ko‘rsatkichlari va iqtidorida aks etadi. Bu esa ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liq va qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro‘y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bular jumlasiga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog‘cha, maktab, akademik litsey va kasb-hunar ta’limi muassasalari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi. Mana shu institutlar bilan o‘smirning ijtimoiylashuvi o‘smirning xulqini, dunyoqarashini yoki ijobiy tomonga, yoki salbiy tomonga o‘zgartirib yuboradigan ijtimoiy muhit hisoblanadi. Chunki o‘smirdagi psixik taraqqiyot, xohish, istak, qiziqishlar ijtimoiy institutlardagi muhit bilan parallel kechmaydi. Natijada o‘smir xulq-atvorida me’yorlardan og‘ish kuzatiladi, ya’ni o‘smirda deviant xulq-atvorga moyillik yuzaga keladi [1].

Deviant xulq-atvor – jamiyatda o‘rnatilgan axloq me’yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, dangasalik, o‘g‘rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish, diniy ekstremizm va terrorizm g‘oyalariga qo‘shilish va boshqa ko‘plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi [2]. Deviant xulq deganda, quyidagilar nazarda tutiladi:

a) jinoyatchilik;
b) ichkilikbozlik;
d) giyohvandlik;
e) fohishabozlik;

f) diniy ekstremistik oqimlarga moyillik.

Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning ogʻma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir. E. Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha taʼrif beradi: “Deviant xulq-atvor jamiyatda eʼlon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir” [3]. Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo boʻlishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega boʻlgan uchta omilni koʻrsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi. Masalan: oʻsmir shaxsining takomillashuvi va shakllanishiga turtki boʻlgan omillardan biri – oʻquv faoliyati motivlaridagi sifat oʻzgarishidir. Kichik maktab yoshidagi boladan farqli, oʻsmir endi faqat bilimlar tizimiga ega boʻlish, oʻqituvchining maqtovini eshitish va “5” bahoni koʻpaytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida maʼlum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam boʻlish uchun motivlari ustuvor boʻlib boradi. Oʻsmirning shaxs sifatidagi taraqqiyotida ikki xil holat kuzatiladi: bir tomondan, tengqurlar bilan yaqinroq aloqada boʻlishga intilish, guruh normalariga boʻysunish, ikkinchi tomondan, mustaqillikning oshishi hisobiga bola ichki ruhiy olamida ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi. Oʻzgalarni anglash bilan oʻz-oʻzini anglash oʻrtasida ham qarama-qarshiliklar paydo boʻladi. Koʻpincha oʻsmir oʻz imkoniyatlarini yuqori baholaydi, boshqalar esa uning kuchi, irodasi va salohiyatiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Lekin shunday boʻlsa-da, oʻzini nima qilib boʻlsa ham hech boʻlmaganda tengqurlar jamiyati tomonidan tan olinishiga erishishga intiladi va ular bilan muloqot hayotining maʼnosiga aylanib qoladi. Agar oʻsmir shu davrda biror sabab bilan tengqurlari jamiyati tomonidan inkor qilinsa, u bunga juda katta mudhish voqeaday qaraydi, kollejga bormay qoʻyishi, hattoki, suitsidal harakatlar (oʻz joniga qasd qilish)ni ham sodir etishi yoki ularga koʻrsatib qoʻyish maqsadida jinoyatchilar toʻdasiga kirib qolishi, natijada hayotiy tajriba yetishmasligi tufayli aldanib, adashib diniy ekstremistik va terroristik oqimlarga qoʻshilib qolishi mumkin.

Oʻquvchi-yoshlardagi deviant xulq-atvor bu tugʻma emas. Baʼzan bu illat ijtimoiy muhit tufayli yuzaga keladi. Tajribalar shuni koʻrsatdiki, dastlab yaxshi xulqli bolada ham maʼlum bir ijtimoiy muhit yoki qandaydir salbiy voqea-hodisa tufayli deviant xulq paydo boʻlishi mumkin. Bu tarbiya usulida yoʻl qoʻyilgan xatolik sabab shunday boʻladi. Bola agressiv boʻlib qoladi. Shu oʻrinda psixologlar tomonidan agressiyaga qanday taʼrif berishganini keltiramiz: Agressiya – kimgadir zarar yetkazishga yoʻnaltirilgan jismoniy yoki verbal (nutq vositsida) xulq boʻlib, gʻazabdan paydo boʻladigan va shaxsiy maqsadga aylangan dushmanlik agressiyasi hamda biron-bir maqsadga erishish vositasi boʻlgan instrumental agressiya farqlanadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, agressiv reaksiyalar mexanizmini ishga soladigan quyidagi omillar mavjud: aversiv holatlar (ogʻriq, chidab boʻlmas jazirama issiq, hujumkor xulq, tiqilinch, surunkasiga kamsitilish), hayajon, ommaviy madaniyat va guruhiy kontekst [1]. Agressiv holatni paydo qilish – bu diniy ekstremizm va terrorizmning eng asosiy “tarbiya” usuli. Chunki oʻsmirda agressivlik, yaʼni deviant xulq-atvorni yuzaga keltirib olinsa, endi uni jamiyatga qarshi qoʻyib, unga qurol koʻtarib, qirib tashla, desalar, hech ikkilanishsiz buyruqni bajaradigan itoatli qilib qoʻyishadi.

Toʻgʻri, bu borada ancha ishlar olib borilmoqda. Kuzatishlarimizdan kelib chiqib, masalani tahlil qiladigan boʻlsak, bu kabi oʻtkazilayotgan profilaktik tadbirlarda quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

1) taʼlim muassasasida bu yoʻnalishda olib borilayotgan ishlar “oqibat”ga qaratilgan, “sabab”ga emas;

2) taʼlim muassasasida oʻtkazilayotgan yigʻilishlar faqat faol, muammosiz, “yigʻilishga kirib oʻtir” desa, kirib oʻtiradigan oʻsmirlar bilan olib borilishi;

3) muammoli oilalar, yaʼni notoʻliq oilalar, notinch oilalar, kam taʼminlangan oilalardan kelayotgan oʻsmirlarning har biri bilan alohida individual yondashuv boʻlmagan. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan oʻsmirlar koʻpincha dars mashgʻulotlariga qatnashmaydi. Buning sababini oʻsmirning uyiga borib oʻrganilmagan;

4) deviant xulqli yoshlarning ota-onalari bilan aloqa oʻrnatilib, ijtimoiy yordam koʻrsatilmagan. Chunki taʼlim muassasasida yetarli imkoniyat bor, lekin oilalarga shu imkoniyatlardan foydalanib, pedagogik maslahat – ijtimoiy yordam koʻrsatilmagan;

5) ta'lim muassasasida ham, oilalarda ham psixolog xizmatidan foydalanish koʻnikmasi mavjud emas. (Deviant xulq-atvorga moyil oʻquvchining ota-onasidan: "Farzandingizdagi bu oʻzgarishlarni sezganingizda, psixologga murojaat qilganmisiz? – deb soʻradim. "Bolam boʻydoq boʻlib, shoʻx boʻlib ketgan, xolos. Bolam jinnimidiki, psixologga olib borsam", – degan javoblar olingan);

6) ta'lim muassasasidagi psixolog shtatida esa aksariyat oʻrta maxsus ma'lumotga ega boʻlgan shaxslar ishlab kelgan. ( Kollej direktoridan buning sababini soʻraganimda "Psixolog shtatining oylik maoshi oz. Dars qoʻshimcha qilib beraylik desak, 360 soat yuklamadan oshiqchasi tarifikatsiyaga toʻgʻri kelmaydi. Malakali mutaxassislar esa bu maoshga ishga kelmaydi. Shuning uchun oʻrta maxsus ma'lumotni ishlatishga majburman", – deb javob berdi.).

Bugungi davrda har bir ota-ona, har bir pedagog tarbiya uquviga ega boʻlmogʻi zarur. Bola faoliyatini nazoratsiz qoldirish, undagi oʻzgarishlar sababini tahlil qila olmaslik, yoshiga monand tarzda munosabatda boʻlmaslik salbiy xulq-atvor shakllanishiga imkon yaratadi. Deviant xulq oʻsmir shaxsiga e'tiborsizlik, uning qiziqishlarini e'tiborga olmaslik va nazoratsiz qoldirish, ertangi kunga nisbatan qiziqish va umid uygʻota olmaslik kabi qator salbiy motivlar asosida shakllanadi. Bu motivlar esa faqatgina oilada yoki ta'lim tizimida emas, har ikkala tarbiya oʻchogʻining uzviyligi ta'minlangandagina bartaraf etilishi mumkin. Oʻsmirlarga oilada ta'lim-tarbiya berilayotganda ota-onalarning oʻzlari ular uchun namuna, ibrat boʻlishlari kerak. Shuning uchun sogʻlom fikrlashni insonlar qalbiga va onggiga singdirishni, eng avvalo, oiladan boshlash kerak. Biz deviant xulq motivlarini oʻrganganimizda "Deviant xulqning yuzaga kelish sababi nimada?" degan savolga:

- ota-onalar oʻrtasida doimiy nizolarning mavjudligi — 53%;
- farzand faoliyatini nazorat qilmaslik — 21,5% ;
- bola shaxsiga notoʻgʻri muomala va ta'sirda boʻlish — 11,5% ;
- doimo birga boʻladigan oʻrtoqlari va oʻzi uchun idel sifatida tanlagan timsollari xulqiga taqlid qilish — 1,4% kabi javoblarni e'tirof etishdi. Oila muhitidagi nosogʻlom psixologik iqlim oʻsmirning oiladan bezishiga, turli noqonuniy harakatlar bilan mashgʻul boʻlishga, diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishiga sabab boʻladi. Oʻsmirlar oʻrtasida bu holatning oldini olish uchun biz tajriba-sinov maskanlarimizda "Psixolog xizmati markazi", "Sirdoshim" klubi, "Ijtimoiy moslashuv markazi" kabi toʻgaraklar tashkil qildik.

Deviant xulq-atvorli bola nafaqat oʻzigina me'yorlarga moslasha olmaydi, balki oʻzi anglamagan holda ijtimoiy normalarga, me'yorlarga moslashgan ota-onalari, yaqinlari faoliyatini ijtimoiy me'yorlardan ogʻishiga sabab boʻlmoqda. Aniqlovchi pedagogik tajribalarimizda, ota-onalardagi, deviant xulq-atvorli bolalarning salbiy emotsional-hissiy ta'sirlarini oʻrganishga va ularni turkumlashtirishga harakat qildik. Tadqiqotlar natijalaridan quyidagi krizisli holatlar bosqichlari aniqlandi (odatda bu holatlar ota-onalarda bosqichma-bosqich roʻy beradi, ammo paydo boʻlish va oʻtishlari hammada har xil):

I. Ota-onalar bolalaridagi deviant xulq-atvorlarni tan olgilari kelmaydi, dalillarni yoshlikka, tajribasizlikka, erkalikka yoʻyishadi. Muammoni toʻgʻridan-toʻgʻri inkor etadilar. Ammo shubha paydo boʻladi. Salbiy emotsional-hissiy holat yuzaga keladi, u kundan-kunga kuchayib boradi.

II. Deviant xulq-atvor dalillari inkor qilib boʻlmaslik darajasiga yetadi. Ota-onadagi salbiy emotsional-hissiy holat yuqori depressiv darajaga yetadi. Ilojsizlik, najotsizlik holati sodir boʻladi. Gʻayri tabiiy, moʻjizaviy chora-tadbirlar xayolga kela boshlaydi.

III. Vaziyatdan chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida fikrlash boshlanadi (mana shu bosqichda ota-onaga ijtimoiy pedagogik yordam kerak).

IV. Vaziyat qabul qilinadi, mutaxassislarga murojaat qilish eng toʻgʻri yoʻl ekanligi (ijtimoiy pedagogik yordamida) tan olinadi va bu yoʻlda harakat boshlanadi.

V. Deviant xulq-atvorli bolasiga ota-ona butun e'tiborini, faoliyatini bogʻlab, atrofidagi kasbiy, ijtimoiy munosabatlarini uzib qoʻyishi mumkin.

VI. Ijtimoiy pedagog, ota-onaga deviant xulq-atvorli bolani davolash, ijtimoiylashtirish bilan birga oʻzlarining ham kasbiy, ijtimoiy, individual hayotlari bilan yashashlari kerakligini uqtirib boradi va shunga erishadi.

Shunday qilib, deviant xulq-atvorli bola to‘la ijtimoiylashib ketadimi-yo‘qmi, bundan qat’iy nazar, pedagog ota-onaning indiuvidual, ijtimoiy, kasbiy hayotlarini to‘la, normal saqlanib qolishining chora-larini ko‘rish, ta’minlashi zarur.

Tajriba-sinov maydonchasi etib tanlangan ta’lim muassasalarimizda yaxshi natija berdi, deviant xulqqa moyilligi bor o‘smirlar soni keskin kamaydi. Bu tajribani hamma ta’lim muassasalariga qo‘l-lash tavsiya etildi. Chunki bunday xulqqa ega yoshlar kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda sanoqli miqdorlarni tashkil etadi. Ularning har biri bilan alohida, individual profilaktik-pedagogik yondashish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Deviant xulqning kelib chiqish sabablari hammasida har xil, turlicha. Sabablar turlicha yondashishni talab etadi.

Umuman olganda, o‘smir dunyoqarashi va e’tiqodini o‘zgartiruvchi omillar:

1) ma’naviyat va ma’rifat;

2) oila;

3) mafkura;

4) ijtimoiy ustanovkalar. Shu o‘rinda o‘smirlar orasida deviant xulq profilaktikasini amalga oshi-rish bo‘yicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar haqida alohida ta’kidlash joiz. Bir necha o‘n yil ilgari qaysi joyda odam nima qilishni istasa va shuni bajara olsa, bu yerda demokra-tiya bor degan juda tor qarashlar ilgari surilgan davlatlardan farqli ravishda, bizning xalqimiz azaldan “Bir bolaga – yetti mahalla ota-ona”, “Kasallikni davolagandan ko`ra uning oldini olgan afzal” kabi naqllarga amal qilib yashaydi. Odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yon atrofdagi odamlarga nisbatan mehr-oqibatli bo‘lish, ozgina bo‘lsa-da nomaqbul ish qilishdan uyalish hissi oilada farzand tarbiyasi-ning asosini tashkil qilib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘smirlar orasida deviant xulq kelib chiqishining oldini olish, ya’ni pedagogik profilaktikasini amalga oshirish nafaqat davlat organlarining, balki shu jamiyatning a’zosi hisoblangan har bir insonning vazifasidir. Eng avvalo, o‘zimiz, oila a’zolarimiz va jamiyat oldi-dagi mas’uliyatni doimo his qilib yashash, atrofdagi hodisalarga beparvolik bilan munosabatda bo‘l-maslik, tinch va osuda hayotimizning qadriga yetib yashash barchamizning kundalik hayot tarzimizga aylanishi zarur. Zero, barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish pedagogik konsepsiyasi har bir bolaning tug‘ma imkoniyatlari, layoqat, qobiliyatlari va talantlarini to‘g‘ri pedagogik diagnostika qi-lish, unga bor imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun iqtisodiy-ma’naviy, psixologik, pedagogik sharoitlar yaratib berishni dolzarb, milliy xarakterdagi vazifa qilib qo‘ymoqda.

## Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni.// 2014-yil 14-may.// http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2387357

2. Karimova V.M., Akramova F.M. Psixologiya. — Toshkent, 2001. — B. 37-38.

3. Мертон Э.М. Социальная психология. (пер. с англ.) – Спб.: “Питер”, 1999. – 124 с.



**Erkin MUXTOROV**
Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasi
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

## VRACH KASBIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Maqolada hozirgi kunda vrachlar kasbiy tafakkurini ifodalash uchun "klinik tafakkur", "tibbiy tafakkur", "vrach tafakkuri" haqida fikr yuritiladi. Vrachlik kasbi xususiyatlaridan kelib chiqib yondashiladigan bo'lsa, vrach tafakkurining eng muhim xususiyatlaridan biri, inson tanasidagi patologik jarayonlarning mohiyatini aniqlash hisoblanadi. Vrach tafakkuri uchun xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri uning ijodiyligidir. Mazkur sifatni vrach tafakkurining zaruriy xususiyatlardan biri deyishimizga sabab, klinik amaliyot jarayonida vrachlar izohlash qiyin bo'lgan, qo'llanma va darsliklarda tavsiflanmagan hodisalarga ko'pincha duch kelishadi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *vrach, tafakkur, amaliy faoliyat, kasallik, notipik, nostandart, refleksiya, vrachning kasbiy faoliyati.*

*В статье размышляется о «мышлении врача», «медицинском мышлении», «клиническом мышлении» для выражения профессионального мышления врача на сегодняшний день. Одним из самых важных свойств мышления врача является определение значений патологических процессов в организме человека. Еще один из свойств врачебного мышления - это креативность. Данное качество служит в клинической практике для определения некоторых понятий указанных в учебниках и пособиях.*

***Опорные понятия:*** *врач, мышление, практическая деятельность, болезнь, нетипический, нестандартный, рефлексия, профессиональная деятельность врача.*

*In article is reflected on "the doctor's thought", "the medical thought" and "the clinical thought" can express the nowadays doctor's professional thought. One of the most important properties of the doctor's thought is to determine values of pathological processes in human body. Creativity is one another property of medical thought. This quality serves in clinical practice to identify certain concepts, which mentioned in the textbooks and manuals.*

***Supporting concepts:*** *doctor, thinking, practical activity, illness, a typical, non-standard, reflection, professional activity of a doctor.*

Tafakkur muayyan darajada subyektning kasbiga, amaliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Shuni hisobga olib, tafakkurning o'qituvchi tafakkuri, vrach tafakkuri, injener tafakkuri, diplomat tafakkuri, savdogar tafakkuri kabi ko'plab turlari farqlanadi.

Vrach kasbining asosiy vazifasi xastaliklarni diagnostika qilish, davolash va profilaktika qilishdan iborat. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda vrach tafakkurining roli katta. Biroq, hozirgi kungacha vrach tafakkurining parametrlari, unga qo'yiladigan talablar aniq belgilangan emas. Shu sababli, nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyodagi mamlakatlarning ko'pchiligida tayyorlanayotgan vrachlarning sifati hozirgi zamon talablariga to'la javob bera olmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, vrachlar kasbiy tafakkurini tadqiq etish bo'lg'usi vrachlarni shakllantirish, amaliyotchi vrachlarning malakasini, kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda vrachlar kasbiy tafakkurini ifodalash uchun "klinik tafakkur", "tibbiy tafakkur", "vrach tafakkuri" kabi atamalar ishlatiladi. Vrachlik kasbi xususiyatlaridan kelib chiqib yondashiladigan bo'lsa, vrach tafakkurining eng muhim xususiyatlaridan biri, inson tanasidagi patologik jarayonlarning mohiyatini aniqlash hisoblanadi. Vrach tafakkuri uchun xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri uning ijodiyligidir. Mazkur sifatni vrach tafakkurining zaruriy xususiyatlardan biri deyishimizga sabab, klinik amaliyot jarayonida vrachlar izohlash qiyin bo'lgan, qo'llanma va

darsliklarda tavsiflanmagan hodisalarga ko‘pincha duch kelishadi. Mana shunday vaziyatlarda ijodiy tafakkur qo‘l keladi.

Tajribali va mohir vrachlarning aksariyatida darslik va qo‘llanmalarda ifodalangan kasalliklarning tavsifiga nisbatan tanqidiy munosabat shakllanadi. Buning sababi shundaki, ular amaliyot jarayonida uchratadigan xastaliklarning alomatlari darslik va qo‘llanmalarda ko‘rsatib o‘tilgan tavsiflarga ko‘pincha to‘la mos kelmaydi yoki qisman mos kelmaydi. Bundan tashqari, shunday kasalliklar ham borki, ular tibbiyotga oid adabiyotlarda tavsiflanmagan, biroq amaliyotda vrachlar bunday kasalliklarga tez-tez to‘g‘ri kelib turishadi. Vrachlardan ijodiylikni talab qiladigan vaziyatlardan yana biri shundaki, patologik jarayonlar o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bir bemorda uchragan muayyan xastalikning alomatlari boshqa bemorda boshqacharoq tarzda, boshqacharoq shaklda yuz beradi. Shuning uchun tibbiy amaliyotda “notipik”, “nostandart” alomatlar iborasi ko‘p ishlatiladi. Aynan mana shunday vaziyatlarda qoliplar, stereotiplar asosida fikr yuritadigan vrachlar qiynalib qolishadi. Mana shunday vaziyatlarda stereotip asosida fikr yurituvchi vrachlar xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi. Bunday holatlarda ular o‘zlarining xatoliklarini xastalikning “notipikligi” bilan oqlamoqchi bo‘lishadi.

“Notipik”, “nostandart” vaziyatlarda ham xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun vrach egiluvchan, vaziyatga tez moslashuvchan tafakkurga ega bo‘lishi lozim. Shundagina u vaziyat taqozosi bilan davolash usuli, taktikasini, diagnostik xulosalarni obyektiv vaziyatga moslab o‘zgartira oladi. Mana shunday vaziyatlar ham vrach tafakkuri ijodiy xususiyatga ega bo‘lishi zarurligidan guvohlik beradi.

Tibbiyot oliygohida ta’lim olayotgan talabalarda ijodiy tibbiy tafakkur shakllantirishga harakat qilinadi. Lekin bunday maqsadga faqatgina bevosita amaliy jarayondagina erishish mumkin. Chunki, oliygohda talabalarning tafakkuri u yoki bu fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarida uchragan kasallik belgilari asosida shakllana boshlaydi. Lekin uning yakunlanishi, mahorat bosqichiga ko‘tarilishi yillar davomida ko‘plab tipik va notipik xastaliklarga duch kelish jarayonida yuz beradi.

Tafakkurning ijodiylik xususiyati hamma mutaxassislarda ham shakllanavermaydi. Kasbiy tafakkur ijodiy xususiyatga ega bo‘lishi uchun u, avvalo, refleksiv va nazariy xarakterga ega bo‘lishi lozim. Aynan nazariy tafakkur vrachning diagnostik, davolash va profilaktikaga oid kasbiy vazifalarni bajarishida qo`l keladi. Vrachning nazariy kasbiy tafakkuri oliy o‘quv yurtida o‘quv materiallarini o‘rganish jarayonida, keyinchalik esa vrach o‘z ustida ishlashi jarayonida shakllanadi.

Klinist vrachning kasbiy tafakkuri nazariy tafakkur bo‘lishi uning empirik xususiyatlarini inkor etmaydi. Aksincha, vrachning kundalik faoliyati uning empirik tafakkuriga asoslanadi. Empirik tafakkur amaliyot jarayonida uchrab turadigan vaziyatlar va holatlarning tor doirasiga asoslanadi. Bunday vaziyatlarda vrach har bir muayyan holatni tahlil qilish o‘rniga uning tashqi, yuzaki belgilariga asoslanib xastalikning kechishi uning “mumtoz” manzarasiga mos keladi, degan xulosani chiqaradi. Bunday ho-latlarda tashxis bilan davolash rasmiy qo‘llanma va yo‘riqnomalardagi ko‘rsatmalar asosida olib boriladi. Mana shunday vaziyatlarda yo‘l qo‘yiladigan vrachlik xatolari, yuqorida aytilganiday, xastalik-ning notipikligi bilan oqlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash mumkinki, empirik tafakkur sohibi bo‘lgan vrach o‘zining boy tajribasi tufayli ajoyib vrach bo‘lishi mumkin. Biroq, notipik va nostandart vaziyatlar yuz berganda uning zaifligi ko‘rinib qoladi.

Biz vrachlarning kasbiy vazifalarini hal qilishi uning kasbiy mahorati va tafakkur tipiga qay darajada bog‘liqligini aniqlash uchun bir qator tajribalar o‘tkazdik. Bu tajribalarda turli ish stajiga va tafakkur turiga ega bo‘lgan 200 dan ortiq vrachlar ishtirok etishdi. Ularning asosiy qismini xirurglar, terapevtlar va pediatrlar tashkil qildi. Tajribada ishtirok etgan vrachlarning ish staji to‘rt yildan yuqori edi.

Tajribaning birinchi bosqichida ishtirokchilarda nazariy tafakkurning komponentlari (tahlil, refleksiya, ichki rejalashtirish) mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlandi. Shu maqsadda sinaluvchilarga ularning kasbiga bog‘liq bo‘lmagan topshiriqlar berildi. Tafakkurning qay darajada ijodiy va nazariy ekanligini aniqlash uchun topshiriqlarning murakkabligi bosqichma-bosqich oshirib borildi. Vazifalarni qay yo‘sinda bajarishiga qarab, sinaluvchilarning nazariy tafakkuri to‘g‘risida xulosalar chiqarildi.

Sinaluvchilarning tafakkurida refleksiyaning darajasini aniqlash uchun turli toifadagi topshiriqlar berildi. Bu topshiriqlarning tashqi belgilari bir-biriga o‘xshamas edi. Barcha topshiriqlar bajarilgandan keyin sinaluvchiga ularni guruhlarga ajratish va har bir guruhga xos bo‘lgan yangi masalalar topib qo‘shish aytildi. Bunday topshiriqlar ularning yechish usuli va qurilish tamoyiliga mos ravishda bajarilsa, bunday hol refleksiyaning mavjudligi va darajasidan dalolat berar edi.

Topshiriqlar ularning mohiyati va tamoyillari hisobga olinmay, faqatgina ularning tashqi belgilari asosida bajarilsa, bunday hol sinaluvchida refleksiyaning yo‘qligi yoki juda past darajada ekanidan dalolat beradi.

Topshiriqlarni yechish usuliga ko‘ra, tasniflash o‘zining aqliy faoliyati va uning asosini tahlil qilishni taqozo etadi, bu esa, sinaluvchida refleksiya mavjudligiga ishoradir. Tahlil va refleksiya darajasini aniqlash uchun biz A.Z. Zak tomonidan ishlab chiqilgan “belgilarning o‘rnini almashtirish” va “anagramma” metodikalarining katta yoshlilar uchun moslashtirilgan modifikatsiyasidan foydalandik [1].

Mazmunni rejalashtirish qobiliyati sinaluvchilarga tahlil va refleksiya bo‘yicha berilgan topshiriq asosida aniqlandi. Buning sababi shundaki, tahlilni bajarish topshiriqning shartlarini uning mohiyatiga oid belgilarini aniqlash maqsadida topshiriq shartlarini fikran o‘zgartirish bilan bog‘liq. Refleksiv harakatlar rejalashtirishni taqozo etadi. Chunki ular topshiriqni bajarish usullarini uning mohiyatiga oid xususiyatlar bilan bog‘lab, aniqlashni taqozo etadi.

Biz foydalangan metodikalardan yana biri Y.A. Ponomaryov tadqiqotlarida taklif etilgan “5 o‘yini” metodikasidir. Bu metodika V.N. Pushkin tadqiqotlarida ishlab chiqilgan [2]. Biz tadqiqotda rejalashtirishning faqat ikki usulini aniqlashni maqsad qilib qo‘ygan edik. Bu usullar g‘oyani qadam-baqadam rejalashtirish va oldindan rejalashtirish usullaridir.

Tadqiqotlarimiz sinaluvchilarni 12,3 foizigina oldindan rejalashtirish usulidan foydalanishlarini ko‘rsatdi. Refleksiyaga asoslanib, topshiriqlarni sinaluvchilarning 4-5 yillik tajribaga ega bo‘lganlaridan 12,8 foizi bajarishgan bo‘lsa, 6-10 yillik tajribaga ega bo‘lgan vrachlarning 11,6 foizi bajarishdi. Maqsadni oldindan rejalashtirish usulidan 4-5 yillik stajga ega bo‘lgan vrachlarning 10,8 foizi foydalanishgan bo‘lsa, 6-10 yillik stajga ega bo‘lgan vrachlarning 9,4 foizi foydalanishdi. Bu natijalar amaliyotchi vrachlarning juda oz qismi topshiriqni nazariy yondashuv asosida bajarishini ko‘rsatdi.

Sinaluvchilarning ko‘pchiligi empirik tafakkurga egaligi ma’lum bo‘ldi. Bunday toifadagi vrachlarning ko‘pchiligi topshiriqni tavakkal qilish yo‘li bilan bajarishga harakat qilishdi. Ular topshiriqning mohiyatini emas, balki tashqi nomuhim belgilarini hisobga olishdi, xolos. Bu guruhdagi vrachlarda nazariy tafakkur juda past darajada rivojlangani ma’lum bo‘ldi.

Topshiriqlarni bajarishda 6-10 yillik stajga ega bo‘lganlarning 4-5 yillik stajga ega bo‘lganlarga nisbatan ozroq qismi oldindan rejalashtirish va refleksiya singari nazariy tafakkur shakllaridan foydalanishi sabablarini o‘rganish maqsadida qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazdik. Bu tadqiqot ekspert so‘rovlari va intervyu usullariga asoslanib o‘tkazildi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, 4-5 yillik stajga ega bo‘lganlarning xotirasida oliygohlarda olingan nazariy bilimlar hali to‘laroq saqlanar ekan. Bundan tashqari, ular o‘z kasbiga oid adabiyotlardan staji ko‘proqlarga nisbatan ko‘proq foydalanishar ekan.

6-10 yillik stajga ega bo‘lganlar esa oliygohda olingan bilimlarni anchagina unutishar, kasbga oid adabiyotlardan kamroq foydalanishar ekan. Bunday holning sabablarini o‘rganish uchun o‘tkazgan intervyularimiz jarayonida, oila tashvishlari, jamoat topshriqlari ko‘pligi, qishloq xo‘jalik ishlariga jalb qilinish kabi sabablarni ko‘rsatishdi.

Bizning kuzatishlarimiz ko‘rsatishicha, vrachlarning staji ortib borgani sari ularda tajriba ortib borar va bu tajriba stereotiplar shakllanishiga ko‘proq sabab bo‘lar ekan.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida vrachlarning ixtisosligiga bevosita aloqador bo‘lgan belgilar asosida xirurgiya bo‘yicha diagnostika va davolash taktikasiga bog‘liq topshiriqlar ishlab chiqildi. Bu topshiriqlar quyidagi nozologik shakllarga asolanib tuzildi: appenditsit. churra, xoletsistit, oshqozon yarasi, pankreatit, endarterit. Bu topshiriqlar ham birinchi bosqichdagi topshiriqlar mantiqiga asoslanib tuzildi. Bunda quyidagi holatlar hisobga olindi: turli kasalliklar bir-biriga o‘xshash alomatlarga ega bo‘lishi, bir-biriga o‘xshash kasalliklar esa turli bosqichlarda turlicha alomatlarga ega bo‘lishi. Bunday yondashuv diagnostik topshiriqlarning bir nechtasi bir turga mansubligi va tur ichida barcha topshiriqlar tashqi belgilariga ko‘ra bir-biridan ajralib turishi; shuningdek, davolashning turli taktikasiga asoslanadigan topshiriqlar (masalan, operativ va konservativ davolash) Sinaluvchilar tomonidan diagnostik, davolash taktikasi va davolash texnikasiga oid topshiriqlarni yechishda ularni yechish usullari, vrach xatolari, tasniflash asoslari, tashxislash va davolash taktikasi asoslarining to‘g‘riligi, tashxis qo‘yishda hal qiluvchi simptomlarning minimumidan foydalana olish, kasallikning patologik manzarasi bilan etiologik omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topa olish qobiliyati hisobga olindi.

Ikkinchi bosqichdagi tadqiqotlar individual va guruh shakllarida oʻtkazildi. Bu bosqichdagi natijalarning xususiyati shundaki, birinchi bosqichdagi kasbga bevosita oid boʻlmagan topshiriqlarni nazariy yondashuv asosida ozchilik vrachlar bajarishgan boʻlsa, ikkinchi bosqichda nazariy yondashuvga murojaat qilganlarning soni biroz koʻproq boʻldi. Bunday holatning sabablarini biz ekspert soʻrovlari asosida hal qilishga harakat qildik. Bu soʻrovlar mazkur holatning sababi xirurglarning koʻproq tajriba talab qiladigan kasbiy faoliyati xususiyatlari bilan bogʻliqligini koʻrsatdi. Bir necha ekspertlar bunday holning sababi xirurglar boshqa ixtisoslikdagi vrachlarga nisbatan koʻproq daromad topish imkoniyati-ga ega ekanliklari bilan izohlashdi (4 ekspert). Ularning tushuntirishcha, koʻproq daromad topish im-koni boʻlgani sababli xirurglar maxsus adabiyotlarni koʻproq oʻqishar va oʻz ustida koʻproq ishlashar ekan.

Xirurglarning nazariy yondashuviga koʻproq murojaat qilishlarining sababi, ular odatda bemorni oʻrganish va davolash taktikasini tuzishi davolashning borishini muntazam baholab borishi, zarur tuzatishlar kiritishi, xastalikning tadrijini, bosqichlarini prognoz qilishi, vrachning u yoki bu ta'siriga bemorning reaksiyasini, inson tanasidagi va atrof-muhitdagi patogen omillarni aniqlash va bartaraf etishga harakat qilishi bilan bogʻliq. Bularning bari vrach tafakkuridagi refleksiv xususiyatlarning rivojlanishiga ta'sir koʻrsatadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida vrachning kasbiy mahorati va uning kasbiy tafakkuri oʻrtasidagi bogʻlanish bor yoki yoʻqligini aniqlash maqsadi qoʻyildi. Bu bosqichda ham avvalgi bosqichda qatnashgan sinaluvchilar ishtirok etishdi.

Vrachlarning kasbiy mahorati ekspert baholash usulida aniqlandi. Ekspertlar guruhi 5-7 mutaxassisdan iborat boʻldi. Bunda biz ekspertlarga kasbiy mahorat mezonini aniqlash uchun vrach xatolarini asos qilib olishlarini taklif etdik. (Bunda xastalikning notipik manzarasiga duch kelgandagi vaziyatlarga alohida e'tibor berish tavsiya etildi). Xatolar diagnostik, davolash taktikasi va davolash texnikasiga oid boʻlishi mumkinligi qayd etildi. Vrachning kasbiy mahorati u tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolarga teskari proporsional boʻlishi hisobga olindi. Vrach qanchalik kam xatoga yoʻl qoʻysa, uning kasbiy mahorati shunchalik yuqori ekanidan dalolat beradi.

Barcha sinaluvchilar 9 balli shkala boʻyicha guruhlarga boʻlindi. Vrachning kasbiy mahorati qanchalik yuqori boʻlsa, u toʻplagan ballar ham shunchalik koʻp boʻladi. Keyingi amallar natijasiga koʻ-ra, barcha sinaluvchilarning kasbiy mahorati yuqori, oʻrta va quyi bosqichga boʻlib chiqildi. Bu bosqichlar sinaluvchilarning tafakkur tipiga bogʻlab belgilandi.

Eksperiment natijalarini qiyosiy tahlil qilish kasbiy mahorat va tafakkur tipi oʻrtasida yuqori darajadagi bogʻliqlik mavjudligini koʻrsatdi. Masalan: yuqori kasbiy mahoratga ega boʻlgan klinist vrachlarning 69 foizi nazariy kasbiy tafakkurga ega ekanligi ma'lum boʻldi. Shunday qilib, oʻtkazilgan tadqiqotlarimiz kasbiy tafakkurning nazariy tipi bilan klinitsist vrachning yuqori darajadagi kasbiy mahorati oʻrtasida qat'iy korrelyasiya mavjudligini koʻrsatdi.

Tadqiqotimiz kasbiy tafakkurning nazariy tipiga ega boʻlgan vrachlar klinik faoliyatda eng yuqori muvaffaqiyatlarga erishishini koʻrsatdi. Aynan oʻshalarda tashxislash va davolarni belgilash, tahlil qilish, refleksiya va rejalashtirishga asoslanish kuzatildi. Aynan shunday vrachlar kasallikning evolyutsiyasini oldindan koʻra bilishar, bir necha bosqichni oldindan rejalashtirar, bir-biriga zid, tashqi jihatdan oʻxshash boʻlmagan vaziyatlarni bir umumiy maxrajga keltira olishar ekan, ular oldindan rejalashtirilgan harakatlar dasturini olinayotgan natijalarga qiyoslashar, oʻzlarining subyektiv taassurotlarini tahlil qilishar, undagi muhim va obyektiv holatlarni toʻgʻri klinik talqin qila olishar ekan. Shu bilan birga, yuqori kasbiy mahoratga ega boʻlgan vrachlar orasida tafakkurning empirik tipiga oid klinitsistlar ham boʻlishi mumkinligi ma'lum boʻldi. (Bizning tadqiqotimizda 4 ta shunday vrachlar uchradi). Shunday holatlarni batafsil tahlil qilish ularning sabablarini ajratib koʻrsatishga imkon yaratdi. Ana shunday sabablardan biri klinik faoliyatda katta tajribaga ega boʻlishdir. Shunday tajribaga ega boʻlgan vrach kasallikning notipik manzarasiga duch kelganda ham oʻzining vazifalarini yuqori mahorat bilan bajarar ekan. (Chunki u katta tajriba jarayonida bunday holatlarga bir necha marta duch kelgan boʻladi). Mazkur holatlar kasbiy mahoratning yuqori darajasiga uzoq tajriba asosida ham erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Biroq, bunday yoʻl optimal yoʻl emas va u har doim ham kutilgan natijalarni bera olmaydi.

Bizning tadqiqotlarimiz asosida oliygohda vrachlarni tayyorlashda va oliygohdan keyingi ta'lim bosqichlarida faqat konkretlikdan abstraktlikka qarab emas, aksincha koʻproq abstraktlikdan konkret-

likka qarab borish kerak. Shu yo‘l bilangina vrachning haqiqiy nazariy kasbiy tafakkurini shakllantirish mumkin. Vrach uning yordamida nostandart vaziyatlarda ham diagnostik, davolash va profilaktika vazifalarini ham to‘g‘ri bajara oladi.

Vrach kasbiy mahoratini yuksaltirishning samarasi, bizningcha, bu jarayonga faoliyatli yondashuvni amalga oshirish bilan bog‘liq. Shuni ham qo‘shib qo‘yish kerakki, malaka oshirish instituti va kurs-laridagi o‘quv rejalarining mazmuni faqatgina tegishli o‘quv fanlarining mazmuni bilan emas, vrachlarning muayyan ixtisosliklar bo‘yicha kasbiy faoliyati xususiyati bilan ham belgilanishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, vrachlar kasbiy tafakkurini rivojlantirishning usullari va mazmunini belgilashda quyidagilarga asoslanish lozim:

1) vrachlarning nazariy kasbiy tafakkurini rivojlantirish ularning ijodiy kasbiy faoliyatining negizi sifatida qaralishi kerak;

2) vrachlar nazariy kasbiy tafakkurini rivojlantirish ularning o‘z faoliyatlari predmeti, genezisi va rivojlanishi bilan amaliy faoliyatining birligi o‘rtasidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish asosidagina amalga oshirilishi mumkin. (Mazkur holatda so‘z patologik jarayonning genezisi va rivojlanishi va uni diagnostika qilish, davolash va profilaktika qilish bo‘yicha vrach faoliyatini tashkil qilish haqida bormoqda);

3) vrachlar kasbiy mahoratini oshirish vrachlik faoliyati kelib chiqishi va rivojlanishi hamda uning predmeti bo‘lgan patologik jarayonning mantiqiga mos bo‘lishi kerak. Bu ikki holat o‘rtasidagi bog‘-lanish qanchalik mustahkam bo‘lsa, vrachlar malakasini oshirish ham shunchalik samarali bo‘ladi;

4) vrach kasbiy tafakkurining asosini mazkur ixtisoslikda kelib chiqishi va rivojlanishi o‘rganiladigan jarayon predmet tashkil etadi (Har bir ixtisoslik bo‘yicha vrachning faoliyati uchun shunday predmet vazifasini patologik jarayon va uning inson tanasida tashqi muhitdagi patogen omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik tashkil qiladi);

5) vrachlar malakasini oshirish instituti va o‘quv kurslaridagi predmetlarning mazmuni va mundarijasi abstraktlikdan konkretlikka borish tamoyiliga mos ravishda tashkil qilinishi lozim. Shunday tashkil qilish genetik asosni izlash va topishni taqozo etadi. Bunday asosning kelib chiqishi va rivojlanishi malaka oshirish jarayonida chuqur kuzatiladi (Ana shunday hujayralardan biri patogen omillar inson tanasidagi patologik o‘zgarishlar o‘rtasidagi munosabatdan iborat);

6) kasbiy tibbiy vazifalarni hal qilish vrachlar tomonidan genetik asosni izlash zarurligini to‘laroq anglanishini ta’minlashi lozim. Ana shunday asos vazifani hal qilishning ehtimoliy variantlarini ko‘rsatib beradi.

## Adabiyotlar

1. Психическое развитие школьников: экспериментальное психологическое исследование. Под ред. В.В. Давыдова. – М.,1999.

2. Пушкин В.Н. Эвристика – наука о творческом мышлении. – М., 2000.

3. Пономарев Я.А. Знания, мышление и умственное развитие. – М., 1967.



**Risolat ACHILOVA**
Teacher of department of interfaculty foreign languages of the Bukhara state university



**Sitora QODIROVA**
Student of the pedagogical and psychological direction of the Bukhara state university

## UNDERSTANDING EDUCATIONAL PSYCHOLOGY

*Maqolada psixolosiyaning ta`lim jarayonidagi o`rni va o`qituvchining fanini o`qitish jarayonidagi psixologik yondashuvi haqida fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:** ta`lim sohasi, psixologiya, nazariya, qobiliyat, o`qitish, usul, mahorat.*

*В статье рассматривается роль психологии в процессе обучения и психологический подход преподавателя в процессе обучения своего предмета.*

***Опорные понятия:** система образования, психология, теория, способность, обучение, стиль, компетенция.*

*In article is considered the role of psychology in learning process and teacher's psychological approach in teaching subject process.*

***Supporting concepts:** education system, psychology, theory, ability, training, style, competence.*

Today's educational system is highly complex. There is no single learning approach or style that works for everyone. That's why psychologists working in the field of education are focused on identifying and studying learning methods to better understand how people absorb and retain new information. Educational psychologists apply theories of human development to understand individual learning styles and inform the instructional process. While interaction with teachers and students in school settings is an important part of their work, it isn't the only facet of the job. Learning is a lifelong endeavor. People don't only learn at school, they learn at work, in social situations and even doing simple tasks like household chores or running errands. Psychologists working in this subfield examine how people learn in a variety of settings to identify approaches and strategies to make learning more effective. Education and psychology are interdependent. One psychologist said that I did not understand how a teacher could teach without the knowledge of education Psychology. Psychology had changed the spirit of education and it gives new meaning to learning in classroom. Psychology also changed the old concept of education where only upper class had the ability and right to learn. Psychology gives education the theory of individual differences that every child has different mental ability and learns with different pace. Today in modern era, education psychology is the foundation of education. Psychology effect education in every field of teaching learning process. For years, teacher educators have written about the purposes, aims, and goals of educational psychology and have stressed the relevance of the field for the practice of teaching and learning. However, as Sternberg (1996) noted, educational psychologists seem to be having more and more trouble explaining to educators what they do and why educators should care. In this special issue, authors explore the relevance of educational psychology in teacher education programs, noting how educational psychology contributes to the preparation of teachers. It is very essential for a teacher to teach his students according to their mental abilities. Educational psychology helps the teacher in doing so. It enables the teacher to teach where and how? The way in which teachers are educated and supported to meet the challenges of the 21st century has become a contended issue. In raising alarm, criticizing the status quo, and making recommendations, various study groups and blue ribbon panels have focused on economic issues, equity and excellence, the need for more rigorous subject matter preparation, and on the restructuring

of incentives and the career ladder for teachers. Traditional models of teacher training often emphasized pedagogy (particularly general pedagogy) at the expense of content area preparation, at least according to the critics. This is by now well recognized and has led to a variety of reform proposals focusing on increasing content area preparation. One influential model of reform Shulman, 1987 construes teacher expertise as comprised of three, interwoven, strands:

(1) content knowledge,

(2) pedagogical knowledge,

(3) knowledge of learners and learning.

The first strand has been the focus of several critiques and subsequent revisions of teacher training programs. The second strand represents the traditional focus of teacher preparation programs, i.e., methods instruction. The third strand, however, has received relatively little attention in the recent reform literature. We propose that what is needed is a model for preparing teachers which includes as a key component a strong focus on expertise in diagnosing human learning, motivation, and development. We wish to note, to avoid misunderstanding, that we are not dismissing the importance of either pedagogical or content preparation. Such a recommendation would be unsound. Nevertheless, turning tea-chers into skilled diagnosticians of learners and learning, we argue, is an essential ingredient in upgra-ding teacher preparation and professional development. Hence, this approach is not so much a matter of replacing current reforms as it is a matter of completing them. Promoting the development of diagnostic expertise with regard to learning/cognition, motivation, and development is, we believe, the critical missing element in typical teacher preparation programs. 2. Review of Literature The fact that teachers should possess an understanding of human development, learning and motivational theory has traditionally not been a matter of dispute. Courses focusing on these topics have been standard fare in teacher preparation programs for at least 100 years . Unfortunately, such courses, as currently taught; rarely produce much beyond a rudimentary understanding of their core content. Typically, they are chiefly educational psychology survey courses whose primary aim is to cover as many theories and as much information as possible in the shortest amount of time. In fact, where once the importance of such courses were taken for granted, educational psychology now finds itself in the position of having to defend inclusion of its content in teacher preparation programs. Proposals for how courses in educational psychology might become more relevant and useful have been many and varied. Although considered useful and a positive development overall, such changes have not gone unchallenged for example, “It is not enough simply to contend that educational psychology can be taught more effectively.” There may be a role for educational psychology in methods instruction; however, we do not think this represents the central contribution of educational psychology to teacher preparation and professionalization. The type of knowledge that Doyle and Carter emphasize, while not unimportant, is largely procedural and tacit in nature and does not, therefore, is not ideally suited for the development of the kinds of reflective engagement with practice that will lead to generalize and flexible principles of practice needed for today’s professional educators. Instead, what is needed is a solid grounding in knowledge of learners and learning (development, cognition, motivation, etc.) coupled with extensive and penetrating practice in the application of such knowledge via diagnosis of learners and learning situations. The question remains, however, how is this to be accomplished? One approach that has been widely recommended in reform proposals for educational psychology involves the use of rich cases from educational settings to situate and apply the theoretical concepts taught in an educational psychology course. By situating the teaching of theoretical knowledge of cognition, development, and motivation in discussion of case exemplars and tutoring conditions, teacher education candidates can be taught that such content represents a set of useful tools for the diagnosis of learners and learning, both of the general and content specific variety. Furthermore, within such a process they can be prompted to develop and hone analytical skills not typically emphasized in teacher preparation programs. If teachers are to become thoughtful professionals, they need to have both meta cognitive knowledge for classroom learning as well as meta cognitive knowledge for classroom teaching. The former involves learners' self-awareness of their own cognitions through which they acquire information, gain understanding, and learn in the classroom. Met cognitive knowledge for classroom teaching includes self-awareness and ability to reflect on one's own cognitive knowledge for classroom learning, as well as ability to reflect on knowledge about classroom teaching. Although little research has been done on

such met cognitive knowledge of teachers, many researchers, including educational psychologists, are now suggesting that teachers' self-awareness and deliberate action are important aspects of teaching expertise that need to be studied. 4. Teachers' Learning and Thinking as a New Domain in Educational Psychology Both the above discussion as well as several current research endeavors suggest the emergence of a new domain of knowledge in educational psychology the psychology of teachers' learning. Although the subject of teachers' learning was the focus of some early studies by educational psychologists learning to teach more than a decade ago, 36 educational psychologists have tended not to focus on teachers' learning as an important area of study. Only in the past decade have educational psychologists turned their attention from the study of teachers' behavior to the study of teachers' thinking, cognitions, and knowledge. One can begin to see that research why and how teachers come to behave as they do. This literature and that of other researchers on teacher thinking have explored the many ways in which teachers think, plan, and decide, and how teachers' work is constrained by the world in which teachers operate. Using psychology to understand the teacher in this way might make contact with teachers in powerful ways. More recently, educational psychologists and teacher educators have begun working together to conduct a longitudinal study of how teachers' learn to teach. They are studying the development of teachers' knowledge, skills, and dispositions related to teaching writing and mathematics in 11 different teacher education programs over a three-year period. They are also examining teachers' beliefs including their conceptions of knowledge. This research represents an ambitious new effort and the methods as well as the findings may be useful to educational psychologists who want to study the learning of students in their own teacher education program. Because both research on teachers' thinking and research on teachers' learning is relatively recent, not much of the content and findings from this work have appeared in contemporary educational psychology textbooks. Knowledge of the psychology of teachers' learning might contribute to the effective teaching of educational psychology in two ways. First, such knowledge would be useful as educational psychologists begin the process of conceptualizing the learning and teaching of educational psychology in the preparation of teachers for the 21st century. Second, such knowledge would be particularly informative as educational psychologists think about the possibility of adapting the content and methods of educational psychology to the individual learner.

**Conclusion**. The above discussion illustrates the centrality of knowledge of the psychology of teachers' learning. In reflecting on this topic, we propose three points for consideration: first, that the psychology of teachers' learning constitutes an important new domain of knowledge in educational psychology; second, that the knowledge of theories and research findings on the psychology of teachers' learning may be meaningful and important for students in teacher education, and further, may enhance their teaching practice – and third , that knowledge of the psychology of teachers' learning may enhance the ability of faculty to teach educational psychology more effectively in teacher preparation programs. Finally, as mentioned, it would lead to more effective practice in the classroom. The long-term results of the emphasis will be presented in various professional forums and optimistically will change the look of educational psychology courses and textbooks. Moreover, adding this element to teacher preparation will raise both the competence and profile of teachers as professionals, while allowing us to challenge on empirical grounds the popular notion that "anyone can teach".

## Literatures

1. Anderson L. M. et. al. Educational psychology for teachers: Reforming our courses, rethinking our roles. Educational Psychologist, 30, 3, 143–157 (1995).
2. Educational psychology and the education of teachers: a reaction. Educational Psychologist, 31, 1, 23-28 (1996).
3. Educational psychology within teacher education. Teachers and Teaching: Theory and Practice, 11,6, 555-574 (2005).



**Dildora TOSHEVA**
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

## SHAXS KAMOLOTIDA O'QITUVCHI-MURABBIYNING O`RNI

*Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamolotida ta'lim-tarbiyaning roli va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. O`qituvchi-murabbiy faoliyati, uning kasbiy va shaxsiy sifatlari e'tirof etilgan bo'lib, ishda asosiy o'rganish obyekti sifatida "Mahbub ul-qulub" asari olingan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *ustoz-murabbiy, komillik, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, barkamol inson, shaxs kamoloti, maktab, ma'naviy meros.*

*В статье обсуждается роль и важность образования в совершенстве человека на примере произведениях мыслителя Алишера Навои. В данной работе изучаются деятельность учителя, его профессиональные и личные качества, которые были использованы как предмет исследования произведения А.Навои «Махбуб ул –кулуб».*

***Опорные понятия:*** *учитель-наставник, совершенство, наука и образование, воспитание, просветительство, совершенный человек, совершенство личности, школа, духовное наследие.*

*In article is discussed the role and importance of education in human perfection by the example of the works of the thinker Alisher Navoi. In this paper is learned the work "Mahbub ul-kulub", as a subject of research of his activity, professional and personal qualities.*

***Supporting concepts:*** *teacher-mentor, perfection, science and education, education, enlightenment, perfect man, perfection of personality, school, and spiritual heritage.*

O`tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o`gitlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o`rganish xalqimizning ma'naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo`lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sharq murafakkirlaridan biri, o`zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o`rganish, undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo`lsa ham, o`zining bu haqidagi fikrlarini deyarli barcha ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g`oyalari bosh o`rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir.

Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o`z asarlarida har bir so`zdan unumli va o`rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo`ladi.

Ulug` shoir o`zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo`shdi, umuminsoniy fazilatlar to`g`risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

Har bir o`qituvchi-pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo`lishi uchun o`z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o`stirishi, o`quvchilar bilan bo`ladigan munosabatlarni puxta o`ylab, ularning ko`ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. Muomala madaniyati, o`zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo`ladi. Muomalaning asosiy vositasi – tildir. Xalqimizda shunday naql bor "Bola – shirin so`zning gadosi". Shunday ekan, tarbiyachi muomala jarayonida juda ehtiyotkor bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: "Shirin so`z ko`ngillar uchun bamisoli asaldir".

Shuning uchun ham o`qituvchi har on nutq madaniyatiga qattiq e'tibor berishi, o`zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi muhim. O`qituvchi o`zining pedagogik faoliyatida to`g`riso`z bo`lishi, ishlarni adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan o`quvchi o`rtasida yaqinlikni oshiradi, chunki adolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir.

Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: "Loaqal bir harf o`rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo`lmaydi". Biz ulardan umrbod qarzdormiz.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar va ustoz-murabbiylarning o`zlari ham bilimli va tarbiyali bo`lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlalarni tanqid etadi va o`qituvchi ma'lumotli, o`qitish yo`llarini biladigan muallim bo`lishi zarur, deydi. Masalan, "Mahbub ul-qulub" asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularni o`ta qattiqqo`l, jo-hil va ta'magirliklarini qoralaydi. Darhaqiqat, johil muallimlar gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga, kaltaklashga o`rgangan, g`azabli, qoshi chimirilgan, gunohsizlar bilan achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko`pchiligida ko`ngil qattiqligi va ta'b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham giriftor. Ular qiynash yo`li bilan bolalar ko`nglini o`zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do`q-po`pisa bilan tartibga solmoqchi bo`ladilar. Ulardagi ko`rinib turgan qo`pollik, yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir. Ular ishi odam qo`lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o`rgatadi. Darhaqiqat, mu-allim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko`p, agar shogird ulg`aygach podshohlik martabasiga erishsa ham o`z muallimiga qulluq qilsa arziydi.

Ayni o`rinda o`qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o`tadi: "Uning ishi odam qo`lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to`da bolaga ilm va adab o`rgatadi, ko`rkim bunga nima yetsin.

Shunisi ham borki, u to`dada fahm-farosati ozlar bo`ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo`ladi. Har qanday bo`lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko`pdir.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U "Bilim va donishmandlik insonning bezagidir", deb yozadi.

A. Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini "hayot chirog'i" deb ta'riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim, deb hisoblaydi. Shuningdek, Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u "Mahbub ul-qulub" asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug' sochib hosildan bahra olmaganga o'xshaydi, deydi.

Ilm o'qib qilmagan amal maqbul,
Dona sochib ko'tarmadi mahsul.

Olim bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi.

Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi.

Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ta'lim tizimini belgilab beradi: ya'ni Alisher Navoiy ta'lim tizimini o'z davrida o'quv muassasasi, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alloma yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug' bo'lib, doimo izzatda, hurmatda bo'ladilar, deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.

Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o`zining kuch-quvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong`ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo`lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko`rsa-tadigan olim sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni "Nazm ul-javohir" asarida:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni,
Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni,
Har kimsaki yo`q ilmga anga ahmoq de oni,
Majlisdaki ilm bo`lsa uchmas de oni.

Yoki ilmli, aqlli odam o`z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikka ham chidaydi, kim ilmni o`ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo`lmaydi va ilmning vazifasi inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, – deb ta'kidlaydi.

Demak, Alisher Navoiy o`zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy–axloqiy asarlarida o`zi orzu etgan komil insonga xos axloqiy fazilatlari deb qanoat, adolat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to`g`rilik, rostgo`ylik va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonga yomonlik razillik bo`lmasligi, bunday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin, – deb hisoblagan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta'limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Allomaning qarashlari o`zidan oldin o`tgan olimlarning bu boradagi ilg`or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo`riqlariga asoslanadi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko`rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O`z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

## Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami.Yigirma jildlik. 16-jild. – T.: "Fan", 2000. – B. 26.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. Yigirma jildlik. 14-jild. T.: "Fan", 1998. – B. 83.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O`n besh jildlik. 13-jild. – T.: "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1966. – B. 189-190



**Feruz SHADIYEV**
Buxoro shahar 123-maktab-internat bosh tarbiyachisi,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

## PSIXODIAGNOSTIKA — PSIXOLOGIK XIZMATNING MUHIM YO`NALISHLARIDAN BIRI

*Maqolada tajribaga asoslangan psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida vujudga kelganligi hamda xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarqalganligi, psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi xususida fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *psixodiagnostika, simptomatik diagnoz, eksperimental tadqiqot, psixik holat, shaxs, psixologik diagnoz, psixodiagnostik tadqiqot.*

*В статье размышляется о психодигностической науке, которая возродилась как наука в конце XIX века.*

***Опорные понятия:*** *психодиагностика, симптоматический диагноз, экспериментальное исследование, психическое состояние, личность, психологический диагноз, психодиагностическое исследование.*

*In article is reflected on psych diagnostic science, which is revived as a science at the end of the XIX century.*

***Supporting concepts:*** *psych diagnostics, symptomatic diagnosis, experimental research, mental state, personality, psychological diagnosis, psych diagnostic research.*

Tajribaga asoslangan psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarqaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar psixikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'langan.

**Psixodiagnostika** psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandir. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iborat.

Psixologik diagnoz (diagnosis — grekcha, aniqlash, bilish degan ma'nolarni anglatadi) shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishini oldindan aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalardan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.

Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi:

1) simptomatik diagnozda mavjud har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi;

2) etimologik diagnozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligigina emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi;

3) tipologik diagnozda sinaluvchi shaxs tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi.

Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun yetakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi.

Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh va pedagogik psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda (faoliyatda, muloqotda va boshqalarda) shaxs xulq-atvori tavsifnomalarini tuzishda hisobga olinadi. Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oilada, bog'chada, maktab va boshqa jamoat joylarida individual va guruhli tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar sxemasi tuzishda qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'z ishida doimo bolalar psixofiziologik masalalari bilan to'qnashadi. Uni vaqtinchalik natijalargina

emas (masalan, chorakning oxiriga kelib o‘quvchilarning o‘zlashtirishi kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlarning rivojlanish istiqbollarini aytib beradigan natijalar qiziqtiradi.

Bolalar bog‘chalarida yoki boshlang‘ich sinflarda psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Diagnostika uchun zarur ma’lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlarining ba’zi belgilari ko‘rinishini o‘rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar yordamchi xarakterga ega bo‘lib, bola xulq-atvorining haqiqiy xususiyatlari, uning psixik funksiyalari taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan: darsda bola diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to‘plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg‘ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Lekin xulq-atvorning ko‘rsatilgan belgilari bola xulq-atvori ehtiyojlari va motivlari ierarxiyasining (bosqichma-bosqich) o‘zgarishi natijasi bo‘lishi mumkin. Bunda o‘qituvchi shaxs nonormal holati ko‘rinishlaridan biriga, yoki miya yetishmovchiligining funksional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu o‘quvchining o`qishi va intizomining pasayishi tashqaridan sezilsa-da, psixodiagnostik tadqiqotlarda o‘rganilayotgan o‘zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo‘lishi psixologik belgilari ham o‘rganiladi. Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik rivojalinishi funksiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyot darajasi, yosh va ma’lumot bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun ham o‘tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma’lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o‘zgarishini o‘rganish uchun zarur ma’lumotlarni to‘plash. Agar “ko‘ndalang kesim” metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma’lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya’ni psixik funksiyalar rivojlanishi dolzarb zonasi aniqlanadigan bo‘lsa, “uzunasiga kesim” (longityud) psixodiagnostik tadqiqotlarida bola psixik taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishda, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida o‘rganiladi.

O‘yin va o‘qish faoliyatida juda ko‘p martalab o‘tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ma’lum faoliyatning ta’sir ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Bolada o‘tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga ega. Chunki qo‘llanilgan metodlarning o‘quv-tarbiyaviy ta’sirini hisobga olgan holda shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlash imkoni yaratiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o‘qishi haqida masala hal bo‘layotganida tibbiy pedagogik hay’at (komissiya) yordamidan foydalanish mumkin.

4. Bolalarda paydo bo‘lgan yetarlicha o‘rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o‘tkazish. Vazifa bunday qo‘yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala bo‘yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o‘tkaziladi. Bu yerda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental psixologik tadqiqotlarni o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish: tarbiyachi qanchalik ko‘p eksperimental psixologik tadqiqotlarni o‘tkazsa, uning tajribasi shunchalik ortib bordi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bola faoliyatining xususiyatlarini o‘quv vaziyatlarida tahlil qilish; maktab, bolalar bog‘chasi, oila sharoitiga moslashish, moslasha olmaslik darajasini aniqlash; bolaning ichki hayotini tushunib olish istagi; shaxsiy xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishda unga har qanday yordam ko‘rsatish.

Psixolog-eksperimentator faoliyati tadqiqotda ta’sir qiladigan maxsus xususiyatlarga ega. Shuning uchun tadqiqotchi M.P. Kononova (1963) ta’kidlaganidek, o‘zida quyidagi sifatlarni shakllantirmog‘i lozim.

a) tadqiqot qarorlarini tez va aniq tuzish;

b) o‘z diqqatini bola topshiriqni qanday bajarayotganligiga va uning xulq-atvorini kuzatishga qaratish;

d) bola bilan yaxshi aloqaga kirishish, uning hamma aytganini yozib, uning xulqidagi ba’zi reaksiyalarni to‘g‘ri baholash qobiliyatini yo‘qotmaslik va boshqalar. Bundan tashqari, tadqiqotchi eksperimental tekshiruvga turlicha munosabatda bo‘lishi kerak. Masalan: bog‘cha yoshidagi bolalarni qiziqtirish kerakki, bolalar eksperimentator xonasida ko‘proq bo‘lib, uning hamma talablarini bajarishga intilishi kerak. Bunga bolalarga qiziqarli rasmlarni ko‘rsatib, ularni hikoya qilib berish yoki kubiklardan har xil narsalar yasash orqali erishish mumkin. Bolada qiziqish paydo bo‘lishi bilan birga uning xoti-

rasi, diqqati, mantiqiy jarayonlari o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘smirlar bilan tadqiqot o‘tkazgan paytda ular bilan shunday kirishib ketish kerak-ki, bolalarda tajribaga qiziqish, tadqiqotchiga ishonch va o‘z ichki dunyosini ochish istagi paydo bo‘lsin. Shuni ta’kidlash kerakki, hamma bolalar ham tekshiruvga qiziqadilar. Lekin ba’zi hollarda ular takroran tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortadilar. Ko‘pincha bu tengdoshlariga nisbatan yomon natijalar olganda, yoki eksperimentator tomonidan ortiqcha so‘z eshitganda paydo bo‘lishi mumkin. Bunday bolalarga o‘zgacha munosabatda bo‘lish darkor. Ular arzimas sabab uchun ham maqtovga muhtojlar.

Eksperimental-psixologik tadqiqot natijalari ishonchli bo‘lishi uchun, tadqiqotchi uni o‘tkazishda ma’lum sxema (umumiy reja)ga amal qilishi kerak. Dastlab tadqiqotchi bolaning hayoti uning jismoniy va psixik taraqqiyotining xususiyatlarini, oilada, maktabda, bog‘chada ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy madaniy sharoitlarini aks ettiradigan materiallar bilan tanishishdan boshlash kerak. Tadqiqotchi bola tug‘ilishining (onasida homiladorlik toksikozlari bo‘lganligi, chala tug‘ilganligi va h.k.), 3 yoshgacha bo‘lgan davrdagi taraqqiyotning xususiyatlari haqida ham ma’lumot muhimdir (nevrologiya va tanasida kasallik mavjudligi — titrab-qaltiraydigan xuruj, kunduzgi va tungi enurez (siyib qo‘yish), duduqlanish, bosh miya va markaziy nerv sistemasi kasalliklari, bola qachondan boshlab yura boshlagan, gapira boshlagan,  bog‘chaga va maktabga kelishdan oldin qanday rivojlangan). Bu ma’lumotlarni ota-onalar bilan tanishganda, bola shaxsiy daftari bilan tanishganda, u bilan bevosita suhbatlashganda olish mumkin.

Bolaning individual-psixologik xususiyatlarini o‘yin faoliyatida, topshiriqlarni bajarish jarayonida, o‘quv faoliyatida, psixologik-pedagogik eksperiment sharoitlarida bola xulq-atvorini kuzatib ham o‘rganish mumkin. Kuzatishda olingan ma’lumotlar oldindan tayyorlangan tadqiqot qaroriga yoziladi.

Eksperimental-psixologik tadqiqot sharoitida kuzatish jarayoni ixtiyoriy bo‘lib, odatda hayotiy sharoitlarda esa pedagog ixtiyoriy ravishda kuzatadi. Bog‘chada, boshlang‘ich maktabda bo‘lajak tarbiyachining ishi ixtiyoriy va ixtiyorsiz kuzatish malakalarini bir xilda rivojlantirishni talab qiladi.

Eksperimental-psixologik tadqiqot o‘tkazishdan oldin pedagog-tadqiqotchi bola bilan suhbatlashadi. Bunda u bola bilan ijobiy-hissiy aloqa o‘rnatib, bajariladigan topshiriqning maqsad va vazifalarini tushuntirib beradi. Suhbat psixologik tadqiqot metodi sifatida bola haqida ma’lumot olishga imkon beradi. Suhbat oldindan tayyorlangan savollar asosida o‘tkazilishi yoki ixtiyorsiz xarakter kasb etishi mumkin. Bunda tadqiqotchi suhbat jarayonida bolaga uning oilasiga yoki tengqurlariga tegishli bo‘lgan, bolaga yoqmaydigan savollarni bermasligi kerak. Suhbatda bola shaxsining xususiyatlari, o‘zining jismoniy va psixik holatiga, ishchanligiga baho berishi aniqlanadi.

Tekshiruvchining ijtimoiy-madaniy darajasi, ma’lumoti, qiziqishlari, ehtiyojlari, o‘zaro fikrlashuv qobiliyatlari aniqlanadi. Ba’zi hollarda suhbat psixoprofilaktik va psixoterapevtik maqsadlarda o‘tkaziladi, bunda bola boshidan kechirayotgan qo‘rqinch, xavotirlanish, o‘ziga ishonmaslik kabi holatlar yo‘qotiladi. Shunday qilib, tarbiyachi suhbat jarayonida tadqiqot oldiga qo`ygan vazifaga bog‘liq ravishda bola hayoti haqida muhim ma’lumot olishi kerak. Eksperimental psixologik tadqiqot o‘zining quyidagi shartli sxemasiga ega (1-chizma).

Eksperimental vaziyatda bola beriladigan yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmani tushunishi muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rsatma tushunarli, bolaning yoshi va aqliy rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi kerak. Bola topshiriqni bajarishni boshlaganidan so‘ng ko‘rsatmani misollar bilan yoki, qo‘llab-quvvatlash bilan mustahkamlash zarur, bu esa sinaluvchida faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Tajriba jarayonida tadqiqotchi bola nimada qiynalayotganini aniqlaydi va unga yordamlashadi. Ko‘rsatmaga kiritilgan barcha qo‘shimcha va o‘zgartirishlar haqidagi barcha ma’lumotlar oldindan tayyorlangan tadqiqot qaroriga yozib qo‘yiladi.

Eksperiment jarayonida olingan natijalarni puxta yozib borish, keyingi sifatiy tahlil yoritib beradi. A. Binening (1910) ta’kidlashicha, eksperimental-psixologik tadqiqotni o‘tkazish uchun ruchka, ozgina qog‘oz va ko‘p chidam zarur, degan edi. Tadqiqotchi u yoki bu olingan ma’lumotni iloji boricha tezroq qarorga yozib olishi kerak. Har bir tajriba qarori alohida qog‘ozda bo‘lishi kerak (1-jadval).

Tekshiruv qog‘ozlari har xil bo‘lishi mumkin. Ular alohida psixodiagnostik tadqiqot natijalarini yozib olish uchun maxsus shaklga ega bo‘ladi. Unda qator metodikalar majmui ham aks etishi mumkin. Tekshiruv qog‘ozlarini to‘g‘ri to‘ldirish, qarorlarini yozib borish har xil metodikalar bo‘yicha olingan natijalarni umumlashtirish, tekshirilayot-gan bolalarni bir yosh guruhida taqqoslash imkonini beradi. Tajriba davomida pedagog-psixolog bola faoliyatini iloji boricha tabiiy sharoitlarga yaqinlash-

tirishi kerak. Masalan, o‘rta guruh bolalari uchun shunday topshiriqlarni tanlash kerakki, ular o‘yin vaziyatida bajarilsin. Katta bog‘cha bolalari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu topshiriqlar o‘quv faoliyati elementlari bilan birga qo‘shilishi mumkin.




**1-chizma. Bolani eksperimental-psixologik o`rganish sxemasi.**

Eksperimental psixologik tadqiqot bir necha bosqichda o‘tkazilishi zarur. Bu bolaning yangi sharoitga yaxshi moslashishiga, u bilan ijobiy aloqa o‘rnatishga imkon beradi. Birinchi bosqichda tadqiqotchi bola bilan aloqa o‘rnatadi, uning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlaydi. Bola ba’zi topshiriqlarni tadqiqotchi oldida bajaradi. Ikkinchi bosqichda olingan ma’lumotlarga aniqlik kiritiladi, boshqa metodikalarda olingan natijalar bilan o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi. Uchinchi bosqichda tajribada olingan natijalar tahlil qilinadi, ular umumlashtirilib, xulosa chiqariladi.

Olingan ma’lumotlarni bir joyga to‘plab, tadqiqotchi sinaluvchi shaxsining xarakteri, aqli, xotirasi, hissiyoti, psixik buzilishlar mavjudligi yoki yo‘qligi haqida xulosa chiqariladi.

**1-jadval.**

**Bolani eksperimental-psixologik tekshiruv qarori**

| Topshiriq, uning xususiyatlari | Ko‘rsatmani tushunishi | Topshiriqni bajarish (muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz ketkazilgan vaqt) | Sinaluvchi xulq-atvori (hissiy, nutqiy reaksiyalar) |
|---|---|---|---|
| | | | |

Tadqiqotning so‘nggi qismidagi xulosalar shaxsga psixologik diagnoz qo‘yish, sinaluvchi psixikasidagi o‘zgarishlarni oldindan aytib berish, olingan ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq ravishda hamda pedagog amaliy faoliyatida tavsiyalar berish maqsadida qiziqarlidir. Shuni esda tutish zarurki, eksperimental vaziyat bola uchun odatdagidan boshqacha bo‘ladi. Shuning uchun olingan natijalar har doim ham haqiqiy ko‘rsatkichlarga mos tushmasligi mumkin.

Eksperimental tadqiqot xarakteriga bog‘liq ravishda undan olingan natijalarni o‘quv tarbiya jarayonida foydalanish mumkin.

Quyidagi kuzatishni keltiramiz: tarbiyachi bog‘chada mashg‘ulotlar o‘tkazish jarayonida 6 yoshli Gulnora (K.) ismli qiz xulq-atvoridagi ba’zi boshqalarnikidan farq qiluvchi xususiyatlarni payqab qoladi. Qiz mashg‘ulotlarda tez-tez chalg‘ib ketadi, ko‘pincha parishonxotir. Tarbiyachi topshirig‘ini tez bajarmaydi. Bir topshriqni tashlab, ikkinchisiga tez o‘tib ketadi, hech bir ishni oxiriga yetkazmaydi. O‘quv topshiriqlari bajarilmaydigan boshqa vaqtlarda u o‘zgalardan farq qilmaydi. Qizning diqqat, tafakkur, hissiy jarayonlarini o‘rganish uchun bog‘chada tadqiqot o‘tkazildi. Tekshiruv natijalari qizning psixik jarayonlarida hech qanday psixik o‘zgarish yo‘qligini tasdiqlaydilar. Topshiriqlarni bajarish vaqtida charchash, faol diqqat darajasining pastligi kuzatiladi. Lekin bu xususiyatlar sinaluvchi diqqatini ishning boshqa shakllariga ko‘chirish bilan osonlikcha bartaraf etilgan. Shunday qilib, eksperimental psixologik tadqiqot qizning psixik taraqqiyoti normada ekanligini, psixik jarayonlarning o‘zgarib turishi esa ba’zi omillarning ta’siri natijasi ekanligini ko‘rsatdi.

Tarbiyachining vazifasi — bu omillarni to‘g‘ri aniqlash, keyinchalik bola bilan individual ish olib borib, ko‘rsatilgan xususiyatlarni yo‘qotishdan iborat. Yuqoridagi misolda ixtiyoriy diqqat darajasining pastligi, ish qobiliyatining pastligi o‘zining obyektiv sabablariga ega. Qizning 3 yoshgacha rivojlanish tarixidan ma’lum bo‘ladiki, u asfiksiya (kislorod yetishmasligi sababli bo‘g‘ilish) bilan tug‘ilgan, tug‘ruqdan so‘ng bosh miyasi yallig‘langan. Uzoqroq ish faoliyatida bu narsa o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, qiz tez charchab qoladi. Tarbiyachi bola bilan individual ish olib borganda, albatta shuni hisobga olishi zarur.

Bolalarning eksperimental-psixologik o‘rganish natijalaridan o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida psixik jarayonlarining ixtiyoriyligini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.

Psixologik tadqiqot natijalaridan bolalar bilan individual ish olib borishdagina emas, balki guruhiy o‘quv tarbiya tadbirlarini o‘tkazishda ham foydalansa bo`ladi. Bunda tarbiyachi o‘quv tarbiya jarayonida har bir guruh a’zosining rolini to‘g‘ri aniqlashi kerak. Shunga asosan ta’sirning u yoki bu shaklini ishlatish mumkin. Psixodiagnostik tadqiqotlar tarbiyachiga guruhning, har bir shaxsning u yoki bu psixik funksiyalari rivojlanish prinsiplarini hisobga olgan holda o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

## Adabiyotlar

1. G‘oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. institutlari va universitetlarining talabalari uchun o’quv qo’l. – Toshkent: O’qituvchi, 1994. – 244 b.
2. G‘oziyev E. O’quvchilarning o’quv faoliyatini boshqarish. – T.: “O’qituvchi”, 1988. – 104 b.
3. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi (metodik qo’llanma) – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2010. – 162 b.
4. Shadiyev F.J. Psixodiagnostika – psixologik xizmatning muhim yo`nalishi sifatida. Magistrlik dissertatsiyasi. – Buxoro, 2017. – 117 b.
5. Общая психодиагностика. – М.: Изд-во Мос-ва. Ун-та, 1987. – 305 с.
6. Психодиагностика: теория и практика/Пер с нем. – М.: Прогресс, 1986. – 207 с.
7. Худик В.А. Психологическая диагностика детского развития: Методы исследования. – К: Остива, 1992. – 220 с.
8. Практическая психология образования: учебное пособие 4-е изд./Под редакций И.В. Дубровиной – СПб.: Питер, 2007. — 592с.
9. Дубровина И.В. Рабочая книга школьного психолога. – М. 1991.



**Shabon FARMONOVA**
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi
1-bosqich tayanch doktoranti

# LOYIHAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH DIDAKTIK MUAMMO SIFATIDA

*Maqolada loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish xususida fikr yuritilgan. Pedagogning kommunikativ faoliyatiga uning qobiliyatlari kiradi. Jumladan, didaktik (mavzuni tushunarli, sodda tilda bayon qilib bera olish), hissiy-irodaviy ta'sir eta olish, perseptiv – pedagogik kuzatuvchanlik asosida o'quvchi ruhiyatiga ta'sir qilish, ekspressiv – nutqiy, mimika, pantomimika asosida fikrni tushuntirish, o'quvchilar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, pedagogik takt, talabchanlik kabilar kommunikativ madaniyat komponentlari sifatida qayd etilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *pedagogik mahorat, muloqot, interaktiv, perseptiv, loyihaviy ta'lim, kommunikativ madaniyat, bo'lajak o'qituvchi, o'qituvchi faoliyati, kasb madaniyati.*

*В статье размышляется о развитии коммуникативной культуры будущих учителей посредством проективного обучения. В коммуникативную деятельность педагога входят его способности, а также, отмечаются – как компоненты коммуникативной культуры дидактического, эмоционально-волевого, перцептивного, экспрессивного воздействия.*

***Опорные понятия:*** *педагогическое мастерство, общение, интерактивный, перцептивный, проективное обучение, коммуникативная культура, будущий учитель, деятельность учителя, профессиональная культура.*

*In article is considered the development of the communicative culture of future teachers via projective learning. The communicative activity of teacher includes his abilities. Meanwhile, the didactic, emotional-volitional, perceptive, expressive influences are noted as components of communicative culture.*

***Supporting concepts:*** *pedagogical skills, communication, interactive, perceptive, projective learning, communicative culture, future teacher, teacher activity, professional culture.*

Darhaqiqat, barcha kasblar tizimida o'qituvchilik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb-hunar egallashlariga ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darkor. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchi-yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi pedagogik mahorati ustida doim izlanishi, unga zamonaviy talablar asosida yondashishi o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishga ko'maklashadi. Pedagogik mahoratning mohiyat-mazmunini, kasb malakalarini shakllantirish va rivojlantirishning yo'llari, vositalari, shakllari tashkil etadi. Chunonchi, pedagogik mahorat mazmunidan o'qituvchi – tarbiyachiga pedagogik ijodi, pedagogik texnikasi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish qobiliyati o'qituvchi – talaba hamkorligi, muomalasi, kasb madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish madaniyati va uni amalga oshirishi va bu jarayonda o'z xulq-atvorini, hissiyotini tartibga solish va rivojlantirish kabi masalalar o'rin olgan. Shuningdek, zamonaviy o'qituvchida kasbiy malakaga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish hamda unga rahbarlik qilish, pedagogik-psixologik nuqtayi-nazaridan yondashish, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish ko'nikmasi mujassamlashgan bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki, gaplashayotgan kishilar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi [1].

Mutaxassislarning aniqlashicha, ishlayotgan kishilar vaqtining 45%i kimlarnidir tinglashga sarf qilar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar – savdo xodimlari, aloqachilar, rahbarlar, muxbirlar 35-40% oylik maoshlarini odamlarni tinglaganliklari uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Muloqot – insonlarning ma'lum bir jamoda yoki guruhda hamkorlikdagi faoliyatlari jarayonida vujudga keladigan ehtiyojlaridan bo'lib, faoliyatlari davomida o'zaro munosabatlarga kirishish jarayoni hisoblanadi [2]. Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi. Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda, avvalo, tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o'z "Meni" atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri – bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Pedagogik muloqot – bu muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Biz bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi kommunikativ madaniyat xususiyatlarini rivojlantirishimiz zarur:

– muomala madaniyatining nazariy asoslarini;
– shaxslararo munosabatlar qonuniyatlarini;
– pedagogik muloqotning qonuniyatlarini;
– oilada, guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;
– shaxsda muloqot shakllanishini o'rganish;
– muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;
– shaxslararo munosabatlarda muloqotning ahamiyatini kuzatish;
– muloqot sirlarini bilish va qo'llay olishni;
– guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish;
– oilada muloqot madaniyati, muloqot sirlaridan xabardor bo'lish;
– muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik maslahatlar tashkil etish yuzasidan ko'nikma hosil qilish.

Pedagogik muloqot – pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Uning asosini o'zaro hurmat va ishonch tashkil qiladi. Bu pedagogik ta'sirning samarali yo'li bo'lib, tajribali o'qituvchilar bolani o'z-o'zini hurmatlashga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqa-

li o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Muloqotning o‘ziga xos 3 ta darajasini qayd etish mumkin. Bular: makro darajada (katta) — insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi. Mezo darajada (o‘rta) — muloqot ma’lum mavzu asosida kechadi. Mikro daraja (kichik) — muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi. Muloqotning turlari: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruhli (guruh-guruh), ommaviy kommunikatsiya (radio, televideniye, gazeta va jurnallar) kabi turlari mavjud.

Pedagogik muloqot — murakkab hodisa. Shaxs pedagogik muloqot qilishdan avval o‘z oldiga bir necha vazifalarni qo‘yadi. Jumladan, maqsad qo‘yadi, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o‘tkazilishini rejalashtiradi. Pedagogik muloqotning birinchi bosqichi – bu modellashtirish hisoblanadi. Masalan, darsga tayyorlanish, mavzuni rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi. Birinchidan, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchidan, dars jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim-tarbiya usullari tanlanadi. To‘rtinchi-dan, bolani aqliy rivojlantirish imkoniyati hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqich – bu bevosita muloqot bosqichi. Buni “kommunikativ hujum” deb atash mumkin. Chunki o‘qituvchi to‘liq tashabbusni o‘z qo‘liga olib dars boshlaydi. Uchinchi bosqich esa – bu muloqotni boshqarish bosqichi bo‘lib, kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogik muloqotning vazifasi – texnologiyani o‘zlashtirish bo‘lib, unda o‘qituvchi iliq munosabatlarni qo‘llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo‘ladi. Darsda tashabbusni qo‘lga olish usullari quyidagilardan iborat:

– sinf bilan aloqani yo‘lga qo‘yishda zudlik bilan harakat qilish;
– tezlik bilan tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichiga o‘ta olish;
– sinfni ijtimoiy-pedagogik yakdilligini, “biz” hissini shakllantirish;
– vaziyatga qarab o‘quvchilar bilan muloqot usullarini qo‘llash;
– butun sinf jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;
– latofatlilik, dilkashlik, sofdillikni o‘zida shakllantira olish, darsda namoyon qila bilish;
– darsga zid pedagogik talablarni kamaytirish, vaziyatga qarab ish tutish;
–mimika (yuz ifodasi), pantomimika (harakatlar), ko‘z bilan ta’sir qilish (noverbal muloqot)ni faol qo‘llash;
– o‘zaro bir-birini tushunishni his qilish.

Muloqot madaniyatining muvaffaqiyatli bo‘lishida o‘qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchi o‘qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Bo‘lmasa ko‘ngildagidek muloqot amalga oshmaydi. Ayrim o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo‘ladilar. O‘qituvchi o‘quvchini katta bo‘layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyatini shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Pedagog kommunikativ madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

– o‘quvchini sabr-toqat bilan tinglash madaniyati;
– o‘quvchini diqqat bilan tinglash;
– o‘quvchi zerikayotganligini sezib, mavzuni boshqa qiziqarli tomonga burib yuborish;
– suhbatlashishdan avval o‘quvchining kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilish;
– dars mavzusiga mos keladigan muloqot madaniyatini o‘zlashtirishni ta’minlash kabi maqsadlar qo‘yiladi.

O‘qituvchi o‘zi uchun boshqalar bilan bo‘ladigan muloqotni yaxlit loyihasini tuzib olishi kerak. Bu sinf bilan bo‘ladigan munosabatlarni tashkil qilishga yordam beradi. Pedagogik muloqot – o‘quv jarayonining muhim qismi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ faoliyati pedagogik faoliyatdagi muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Kommunikativ ko‘nikma quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1. Kishilar bilan muloqotda bo‘lish ko‘nikmasi.
2. O‘quvchilar bilan birgalikdagi ijodiy faoliyatni tashkillashtirish ko‘nikmasi.
3. Maqsadga yo‘naltirilgan muloqotni tashkillashtirish va boshqara olish ko‘nikmasi (uquvi).

Kommunikativ qobiliyatlarning asosiy tarkibiy qismi muloqotchanlikning turlicha namoyon bo‘lishidir. Biz bilamizki, muloqotmand kishilar oson, tez, zudlik (operativ) bilan muloqotni tashkillashtiradilar. Bunday kishilar har doim kommunikativlikning eng markazida turadi. O‘qituvchi faoli-

yatidagi muloqotchanlik shaxsiy fazilat sifatidagina emas, balki kasbiy-shaxsiy fazilat sifatida yuzaga chiqadi.

Muloqotchanlik ko‘p qatlamli bo‘lib, uni quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin:

1) muloqotga kirishuvchanlik-kommunikatsiya jarayonidan qoniqishni his qila olish qobiliyati;

2) ijtimoiy yaqinlik-jamiyatda bo‘lishga xohish, kishilar orasida bo‘lish istagi;

3) alturistik (boshqalar manfaati uchun harakat qilish, yordam berish) yo‘nalishlar.

Ko‘rinib turibdiki, barcha pedagogik qobiliyatlar kommunikativ qobiliyatlar bilan bog‘liq. Birinchi marta darsga kirganda, o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lganda “ijodiylik hissi” tug‘iladi. Darsni takrorlashda esa ikkinchi bor “ijodiylik hissi” namoyon bo‘ladi. Pedagogning ijodiylik hissi, intellektual, emotsional tomonini tashkil etadi. O‘qituvchining ijodiylik hissi, ayniqsa, adabiyot darslarida kuchli namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining tajribasi ham muhim rol o‘ynaydi. Tajribasi ortib borgani sari o‘qituvchi dastlabki materiallardan ko‘ngli to‘lmaydi, yangi-yangi materiallarni dars jarayonida qo‘llashga harakat qiladi. Buning uchun esa ijodiylik hissi shakllangan bo‘lishi lozim. Ijodiylik hissi bo‘lsa, o‘qituvchi izlanadi, imkon topadi. O‘zini hissiy tomondan tayyorlash pedagogda ijodiylik hissini keltirib chiqaradi. Quyida bir necha tavsiyalarni berib o‘tamiz:

– material bilan ishlashda undagi asosiy o‘rinlarni qidirib topish;

– auditoriyaga murojaat qilish, ya’ni ular bilan muloqotda ijodiylikka e’tibor berish;

– darsdan qoniqishni his qilish.

Biz ko‘z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o‘sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. O‘quvchilar bilan bo‘lgan damlarimiz esda qolsa, iz qolsa, demak, bu muloqot uslubiga bog‘liq. Pedagog kommunikativ madaniyattining mahsuldor bo‘lishi uchun u pedagogik ta’sir kuchining tizimlarini, uning har bir qismini bilishi zarur. Dars jarayonida o‘qituvchi qaysi usulni qo‘llayotganini doimo eslab turishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi ikkita muhim muammoni hisobga olishi lozim:

– o‘zining xatti-harakatini to‘g‘ri tashkillashtirishi;

– kommunikativ ta’sir samaradorligini ta’minlashi zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchi muloqotini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) o‘quvchi va o‘qituvchi muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli);

2) o‘qituvchi faoliyatining aniq bosqichi uchun xos bo‘lgan muloqot tizimi;

3) aniq o‘qituvchi va kommunikativ masalalarni yechishda namoyon bo‘ladigan muloqotning vaziyatli tizimi.

O‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik ta’sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin:

a) o‘qituvchining kommunikativ imkoniyatlari;

b) o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar tabiati;

d) o‘qituvchining ijodiy individualligi;

e) o‘quvchilar jamoasining xususiyatlari [3].

O‘qituvchi u yoki bu so‘zni ishlatganda uning o‘zi ham, uning tinglovchilari ham yolg‘iz o‘sha bitta hodisani nazarda tutadi va ularda anglashilmovchilik yuz bermaydi. Mohiyatlar tizimi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Uni sobitqadamlik bilan shakllantirish o‘rta ta’limning ham, oliy ta’limning ham markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Demak, til bilan muloqot uzviy bog‘liq holda rivojlanib boradi.

Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o‘zaro ta’sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasi qo‘llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va undan nimani ko‘rishga tayyor ekanligini to‘g‘ri, aniq, xatosiz ko‘chira olish qobiliyati takt deb ataladi. A.V. Petrovskiy fikricha, axborotni boshqa kishiga yo‘llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (resipiyent) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona tizimidan foydalanishlari, ya’ni bitta tilda so‘zlashishlari kerak [4]. Mohiyat – belgining tevarak-atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qismi sifatidagi mazmunga ega bo‘lgan jihatidir. Qurol odamlarning mehnat faoliyatini ifodalagani singari belgilar ham ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi. So‘zlar belgisi tizimi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. Til yordamida muloqotga kirishish tufayli borliqning

alohida bir kishining miyasidagi in’ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgani bilan doimiy ravishda to‘ldirilib turadi o‘y-fikrlarini ayirboshlash, axborot berish ro‘y beradi. O‘qituvchi o‘quvchilar jamoa-si kishilardan tashkil topganligini unutmasligi har bir o‘quvchi shaxsini e’tibordan chetda qoldirmas-ligi kerak. Bog‘lanish (lotincha bo‘lib, “yaqinlashish” degani) – muloqotga kiruvchilar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa bo‘lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko‘ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatga kirishuvchi shaxslarning o‘zaro bir-birlariga hurmati, ishonchidan iboratdir. Pedagog o‘quv-tarbiya ishi jarayonida o‘quvchilar bilan aloqa bog‘larkan, ulardan o‘qituvchi rolining o‘zi taqo-zo etadigan darajada izzat-ikrom kutadi. Agar pedagog o‘z tarbiyalanuvchilariga nisbatan ishonch va hurmat bilan munosabatda bo‘lsa, u har qancha qattiqqo‘l va talabchan bo‘lgan taqdirda ham, uning eng arzimas tanbehlari ta’sirli bo‘ladi. Demak, shaxslararo mojarolar o‘z-o‘zidan kelib chiqmas ekan, balki shaxslarning o‘zaro kelishmovchiliklari, ma’naviy anglashilmovchiliklar, nizolar, ishga doir, shaxsiy nizolar natijasida kelib chiqar ekan.

Pedagog tarbiya vazifalarini amalga oshirarkan, o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta’sir tarbiyalanuvchilar ko‘rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning muayyan darajada o‘zgarishini taqozo qiladi. Pedagog ko‘rsatadigan ta’sirning turlicha samara kasb etishi zamirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, uning o‘zini davom ettirish, o‘zining shaxsiyatiga oid mazmunlarni yoshlarga o‘tkaza bilish qobiliyati, uning pedagogik munosabati xarakteri va samaradorligi aksi mujassamlashgandir. Taniqli psixolog S.L. Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: “Kundalik hayotda odamlar bilan muloqotga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo‘ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma’lumotlari mohiyatini go‘yo “o‘qib”, ya’ni “mag‘zini chaqib” chiqamiz, shu yo‘sinda matnning ichki psixologik jihati mavjud bo‘lgan mazmunini aniqlaymiz. Bunday o‘qish naridan beri tez yuz beradi, chunki atrofdagilar bilan muloqot jarayonida bizda muayyan darajada ularning fe’l-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma’no hosil bo‘ladi [5]. Shuning uchun u boshqalar xatti-harakatining sabablarini o‘ylab chiqishga majbur bo‘ladi. Boshqa kishining harakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, his-tuyg‘ular, intilish va fikrlashning o‘ylab chiqarilishi kauzal atributsiya deb ataladi. O‘qituvchilar tomonidan bola harakatlarining shunday sababini talqin qilinishi maktabdagi pedagogik muomalani qiyinlashtiradi.

Pedagogik muloqotning 5 ta bosqichi bor. Bular quyidagilar:

1. Muloqot jarayonida oriyentirovka (mo‘ljal olish) qilish. Bu bosqichda pedagog muloqotining anglanganligi yuzaga chiqadi. Shuningdek, muloqot uslubini yangi kommunikativ faoliyat sharoitida aniqlash ham yuzaga chiqadi. O‘z ustida ishlashda pedagogik muloqotning quyidagi bosqichlariga e’tiborni qaratish lozim:

– bolada yaxshi taassurot qoldirish uchun tashqi ko‘rinishingiz haqida o‘ylang;

– bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda muloqotning bu bosqichini e’tibordan chetda qoldirmang;

– boshqalar bilan muloqotda keskin burilishga yo‘l qo‘ymang;

– bugungi muloqot ko‘ngildagidek bo‘lmasa uni tuzatishga harakat qiling;

– darsda qaror qabul qilishda improvizatsiya (vaziyatni yaratish, real hayotda bor narsani ko‘rsatib vaziyatdan chiqish)ga harakat qiling;

– sinf bilan ish boshlashdan avval faqat o‘zingizning pedagogik masalalaringiz haqida emas, balki bolaning holati, faoliyatga tayyorligi haqida o‘ylang.

2. Pedagogik faoliyatning muhim jihati e’tiborni o‘ziga tortish bo‘lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida bolaning diqqati barqaror bo‘lishi kerak. O‘ziga jalb qilishning quyidagi usullari mavjud:

– verbal muloqotda bo‘lish (nutqiy);

– tanaffus qilish;

– harakatli (doskaga yozish, ko‘rgazmani osish);

– aralash usul (yuqoridagilarni birgalikda qo‘llash).

Darsda ko‘pincha aralash variant usulidan foydalaniladi. Olimlarning fikricha, 40% (yuz ifodasi) va imo-ishoralar orqali ma’ruzada axborot beriladi.

3. Obyektning (kishi) qalbini zabt etish bosqichi pedagogik muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Mohiyati jihatidan bu bosqich kommunikatsiyaning o‘ziga xos izlash bosqichidir. Masa-

lan, yangi materialni bayon etishda pedagog bolalarni muloqotga tayyorlab oladi. O'qituvchining o'quvchini tushunishi kasbiy-pedagogik muloqotning kaliti hisoblanadi.

4. Pedagogik muloqotning yana bir bosqichi bu verbal muloqot, ya'ni o'qituvchining yangi materialni o'quvchilarga og'zaki bayon qilib berishidir. Bo'lajak o'qituvchi uchun nutq muloqoti juda muhim. Bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot tizimida pedagogning so'zi obrazlar qo'zg'atuvchisi bo'lib hisoblanadi.

5. Bo'lajak o'qituvchi bilan tinglovchi o'rtasidagi o'zaro harakatda kommunikativ vositalar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, bo'lajak o'qituvchining nutqi jonli, ohanglarga boy, tushunarli, aniq, sodda tilda bo'lishi kerak. Shunda tinglovchilarning idroki to'liq, obrazli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchi faoliyatda muloqotning turli bosqichlarida hissiy jihatdan o'zini his qilish muhim rol o'ynaydi. U faoliyatga tayyorlanish jarayonida sinfdagi muloqotdan so'ng uni tadbiq qilishda namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kommunikativ ruhlantirishning vujudga kelishi va uni tatbiq qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Bevosita muloqot jarayonida bo'lajak o'qituvchi kommunikativ madaniyat holati yuzaga chiqadi. Tabiiyki, kommunikativ o'zini his qilish bo'lajak o'qituvchining umumiy va kommunikativ madaniyati darajasiga, pedagog shaxsining kasbiy-pedagogik darajasi o'quvchilar bilan ishlash xohish-istagiga bog'liq.

## Adabiyotlar

1. Дейл Карнеги. Муваффақият калити. – Тошкент, "Янги аср авлоди", 2010. – 221 б.

2. Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. – Тошкент, "Ўқитувчи", 1995. – 254 б.

3. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: Кн.для учителя. – М.: Просвещение, 1987. – 190 с.

4. Петровский А.В. Социальная психология коллектива. – М.: Просвещение, 1978. – 292 с.

5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М.: Педагогика, 1989. – Т.1. – 489 с.



**Юлия БОРДЮГ**
аспирантка Кременчугского национального университета
имени Михаила Остроградского, воспитатель-методист
высшей категории, тифлопедагог, логопед, психолог.

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГОТОВНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ К РАБОТЕ С ДЕТЬМИ В УСЛОВИЯХ СПЕЦИАЛЬНЫХ ГРУПП ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

*Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining malakasini oshirish va metodik ishlari tizimiga o`qitishning interfaol texnologiyalarini samarali qo`llashning tashkiliy-pedagogik sharoitlari tahlil qilingan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *alohida ta'lim ehtiyojlari bo`lgan bolalar, tayyorgarlik, texnologiya, sharoit, malaka oshirish tizimi, metodik ishlar.*

Mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish fani boshqa o‘quv fanlaridan o‘zining mujassamlangan fan ekanligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, ushbu ta’limni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar umumta’lim fanlaridan olgan bilimlarini keng ko‘lamda qo‘llaydilar. Bundan tashqari, ushbu ta’limning o‘zi ham, o‘z tizimida bir qancha soha (turli materiallarga ishlov berish, qishloq xo‘jaligi, sanoat, pazandachilik, gazlamashunoslik va boshqa) larni biriktiradi. Ushbu sohalarning har biri esa, bir-biriga o‘xshamagan turli xil ishlab chiqarish faoliyati sohalaridan hisoblanadi. Yoshlarning mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish bilan shug‘ullanadigan o‘qituvchilar, o‘quvchilar, murabbiylar, rahbarlar va boshqa mutasaddilar ushbu mashg‘ulotlarning o‘ziga xosligini yaxshi farqlashlari lozim bo‘ladi.

## Adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. – 64 b.
2. Конышева Н.М. Теория и методика преподавания технологии в начальной школе: учебное пособие/Н.М. Конышева. – М.: Ассоциация XXI, 2006. – 296 с.
3. Кругликов Г.И. Методика преподавания технологии с практикумом./Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академия, 2004. – 418 с.
4. Выгонов В.В. Я иду на урок в начальную школу: трудовое обучение: Композиции, подарки, модели: Книга для учителей/В.В.Выгонов. – М.: Владос, 2002. – 140 с.



**Dilfuza MIRZAYEVA**
Buxoro davlat universiteti
boshlang`ich va maktabgacha
ta’lim uslubiyoti kafedrasi o`qituvchisi

## MUSTAQIL ISHLASH – BILIM OLISH VA TALABALAR FAOLLIGINI TA’MINLASH USULI

*Maqolada mustaqil ishning muhim jihatlaridan biri yosh mutaxassislarda ularning duch kelishlari muqarrar bo‘lgan hayotiy va professional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun zarur bo‘ladigan ijod qilish, bilishga intilish, mustaqil va muntazam fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *mustaqil ish, pedagogik tuzilma, oily o`quv yurti, pedagog, talaba, mustaqil ijodiy faoliyat, mustaqil ta’lim, kasbiy malaka.*

*В статье размышляется о развитии навыков самостоятельной работы, которая необходима для эффективного решения жизненных и профессиональных задач, неизбежно столкивающиеся молодым специалистам.*

***Опорные понятия:*** *самостоятельная работа, педагогическая структура, высшее учебное заведение, педагог, студент, самостоятельная творческая деятельность, самостоятельное образование, профессиональный навык.*

*In article is reflected to develop the skills on independent work that is necessary in effective solution of life and professional problems, which is an inevitable clash of young professionals.*

***Supporting concepts:*** *independent work, pedagogical structure, higher educational institution, teacher, student, independent creative activity, independent education, professional skill.*

Talabaning mustaqil ishi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash ishini qayta qurish jarayonida muayyan o‘rin tutadi. O‘quv faoliyatining mazkur turini tashkil etish bir qator, ancha murakkab pedagogik muammolar bilan bog‘liq. Ulardan ayrimlarini sanab o‘tishga urinib ko‘ramiz. Eng avvalo, bu mustaqil ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish, talabalarning vaqti hamda undan samarali foydalanishning real imkoniyatlarini aniqlash oliy maktabdagi yaxlit o‘quv jarayonida talabalarning bilim olish va ilmiy faoliyatini maqbul darajada mujassam olib borish yo‘llarini belgilash bo‘yicha aniq uslublarning yo‘qligidir. Bundan tashqari, bu jarayonda alohida o‘rganilayotgan fanning aniq amaliy vazifasi, shu bilan birga uning ilmiy jihatdan dolzarb muammo ekanligi kuzatilmaydi. Faol o‘qitish uslublarini qo‘llash orqali talabaning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil eta oladigan, unga kasbiy yo‘nalishni tanlashda yordam bera oladigan o‘qituvchini tayyorlashga kam e’tibor qaratiladi. Sanab o‘tilganlar hozirgi zamon oliy maktabining talabalarning mustaqil ijodiy ishini tashkil etish borasidagi muammolarining hammasi emas, hali. Shuni ta’kidlash kerakki, uzoq vaqt faqat maktabda o‘qitish jarayoniga doir mustaqil ish muammosigina hal etib kelingan. Oliy o‘quv yurtidagi o‘quv jarayoniga doir bunday muammoni hal etishga esa ancha kech kirishilgan.

Mustaqil ishni ta’riflashga yondashuvlar tahlil qilinar ekan, uning o‘quv jarayonidagi rolini ancha ilgari anglab yetishganligini ko‘rish mumkin. F.A. Disterveg o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini kuchaytirish g‘oyasini ko‘rib chiqar ekan, quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Yetuklik va bilim bironta ham odamga berilishi yoki xabar qilinishi mumkin emas. Har bir shaxs unga o‘z mehnati bilan erishishi lozim. Insonning mustaqil ravishda erishmagan narsasi o‘ziniki emas” [1]. Biroq, “mustaqil ish” tushunchasining aniq pedagogik tizilmasi belgilab olingan taqdirdagina mohiyatan to‘la qonli bo‘ladi. Talabaning mustaqil ishiga berilgan barcha ta’riflarning mohiyati asosan bir xil bo‘lib, quyidagicha ta’rifdan iborat: “… o‘quvchi o‘z faoliyatini bevosita pedagogning rahbarligisiz bajargan taqdirda o‘quv jarayonida mustaqil ish uslubi qo‘llanilayotganidan dalolat beradi”. Biroq mustaqil ish ta’rifiga bunday yondashish chuqur o‘qitish tizimida qoniqarli bo‘lmaydi, chunki bunday ta’riflarda o‘quv jara-

yonining mohiyatidan emas, balki uni tashkil etish shaklidan kelib chiqilgan. Shuning uchun A.V. Petrovning asarlarida, subyektning mustaqil ishi pedagogning qatnashmayotgani bilan ham, biron bir vazifasini o'qituvchining yordamisiz bajar olishi bilan ham chegaralanmaydi. U ancha kuchli qobiliyati, ya'ni: hech qanday yordamsiz o'z oldiga biron-bir vazifa, maqsadni qo'yish, o'z faoliyatini rejalashtirish va uni amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Professor A.V. Petrovning chuqur o'qitish ilmiy maktabida talabalarning mustaqil ishlashi ularda mustaqil o'qish, o'z-o'zini tarbiyalash, ongini oshirish, shaxsiy faolligini ongli ravishda boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish deb ta'riflanadiki, talabalarning mustaqil ishlashiga bunday yondashish uni chuqur o'qitish tizimiga kiritish huquqini beradi [2]. Shu sababli, mustaqil ta'lim olish chuqur o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishishning eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Bularning barchasini nazarda tutib, biz mustaqil ish tushunchasining quyidagicha ta'rifida to'xtalamiz, ya'ni mustaqil ish – o'quvchining biron-bir vazifa, maqsadni o'z oldiga ongli ravishda qo'yish, o'z faoliyatini rejalashtirish, uni amalga oshirish va tahlil qilish qobiliyati bilan belgilanadigan mashg'ulotdir. Bunday faoliyatni ko'rsatib turuvchi har bir jihatning o'qish jarayonida shakllanib va rivojlanib borishi hisobga olinib, mustaqil ish darajali tushuncha ya'ni: qayta hosil qilinadigan samarali va ijodiy ish deb qaralishi lozim.

Mustaqil ish mohiyatini belgilashda biz shaxsning aql-zakovati, ta'sirchanligi va qat'iyati kabi sifatlarining ijtimoiy shart-sharoitlarga hamda shaxsiy xususiyatlarga bog'liqligiga asoslandik. Bu hol shaxsning ijodiy mustaqilligi kabi xususiyati ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadi degan ma'noni anglatadi. Muammoni tadqiq qilishning hozirgi holati ijodiy mustaqillikning uchta eng muhim tarkibiy qismi, ya'ni: asoslovchi, tarkibiy-amaliy va ixtiyoriy qismlari haqida so'z yuritish imkonini beradi. Mustaqil ijodiy faoliyat tarkibiy qismlarini sxema tarzida bayon etish mumkin. Tarkibiy qismlarning barchasi o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etadi, shu tufayli o'quv jarayonida ularni qismlarga ajratish mumkin emas. Sanab o'tilgan tarkibiy qismlarni tadqiq qilinayotgan tushuncha mohiyatini chuqur o'rganish maqsadida faqat shartli ravishda ajratish mumkin.

Asoslovchi tarkibiy qism. Asos bu aniq maqsadga qaratilgan faoliyatni talab etuvchi mayldan iborat. Asosning o'zi esa ehtiyoj tufayli yuzaga kelib, o'quvchining ijod qilishga tug'ilgan ehtiyoji bilan uni mustaqil qondirishning imkoni yo'qligi o'rtasidagi ziddiyatni anglab yetishi jarayonida shakllanadi.

Mustaqil faoliyatning ikkinchi tarkibiy qismi tarkibiy-amaliy qism bo'lib, u talabaning yetakchi bilimlar tizimini va ta'lim berish usullarini egallashidan iborat. Talaba yetakchi bilimlarning muayyan tizimini o'zlashtirgan hamda ularni mustaqil o'rganish ko'nikmasini egallagan taqdirdagina o'z bilimini to'ldirish va faoliyatning yangi usullarini o'zlashtirish sari qat'iy intilishi mumkin.

Yetakchi bilimlar yangi bilimlarni egallash uchun asos bo'ladigan va fanning negizini tashkil etuvchi bilimlardir. Psixologik-pedagogik yo'nalishdagi fanlar uchun pedagogik nazariya va uslublar yetakchi hisoblanadi.

Bilimni egallash – bu uni faqat tushunish va eslab qolish emas, balki undan amaliy vazifalarni hal etishda foydalana bilishdan hamda bilim va faoliyat usulini yangi vaziyatga ko'chira bilishdan iborat. Bunday natijaga erishishning asosiy vositasi talabalarning mustaqil ishini tashkil etishdir.

Tarkibiy – amaliy qismning asosini – intellektual, umumiy va maxsus ta'lim usullari ham tashkil etadi. Intellektual usullarga qiyoslash, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi fikrlash amallari kiradi.

Talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligi ularda ta'lim bo'yicha mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq. Bunday mehnat umumiy ko'nikmalarining tarkibiy qismi – mustaqil ishni rejalashtirish, uni oqilona tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish va muayyan sur'atda ishlash qobiliyatidan tashkil topadi.

Talaba bilim olish jarayonida hamda ularni qo'llash bosqichida qiyinchiliklarni yengib o'tishni o'rgangan taqdirdagina unda ijodiy mustaqillikni shakllantirish mumkin. Ixtiyoriy jarayonlar faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, "ixtiyor kurtaklari insonning harakat qilish borasidagi mayllari bo'lmish ehtiyojdan iborat". Bundan mustaqil faoliyatning asoslash va tarkibiy-amaliy qismlari ixtiyoriy jarayonlar bilan uzviy bog'langan, degan ma'no chiqadi.

O'qituvchining mustaqil ishni tashkil etishdagi roli nazarda tutilsa, talabalarning mustaqil faoliyatini ularning ehtiyojlarini hisobga olmagan taqdirda tashkil etish mumkin emasligi ayon bo'ladi.

Shu munosabat bilan talabalarning o‘zlari mustaqil ishlaridan qanchalik qoniqadilar, degan savol tug‘iladi. So‘nggi yillardagi tadqiqodlar har uchta talabadan bittasi mustaqil ishni tashkil etish holatlari, uning natijalari, o‘qituvchilar, nazoratning unga munosabatidan qoniqmasligini ko‘rsatmoqda.

Talabalar o‘zlariga shaxs sifatida o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishlari, o‘zlarini pedagog sifatida sinab ko‘rishlari; qo‘shimcha bilim sifatida yangi bilimni olish; fikrlash madaniyatini rivojlantirish; materialni yanada chuqur o‘zlashtirish; shaxsning o‘z fazilatlarini rivojlantirish; o‘rganilayotgan masala bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini ishlab chiqish uchun, shuningdek birga tahsil olayotgan talaba o‘rtoqlari bilan fikrlashish uchun imkoniyat berilganligini mustaqil ishni tashkil etishdagi ijobiy jihatlardan deb ta’kidlashmoqda. Demak, talabalar mustaqil ishning ham ta’lim berishdagi xizmati, ham intellektual rivojlanish va shaxsning o‘z-o‘zini namoyon etishi va pedagogik qoniqish nuqtai nazaridan ijobiy jihatlarini qayd etadilar.

Shu bilan birga, talabalar mustaqil ishlash jarayonida duch kelishayotgan qator qiyinchiliklar ham mavjud. Ularning ba’zilarinigina sanab o‘tamiz, ular: mustaqil ishlash bo‘yicha tegishli ko‘nikmaning yo‘qligi; nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash malakasining yetishmasligi kabilardir. Bu hol, mustaqil ishni tashkil etish muammosining keskin turganligidan dalolat beradi. Vaziyatni o‘zgartirish uchun mustaqil ishning maqsad va mohiyatini boyitish lozim, bu talabalarning ko‘rsatayotgan sabablarini o‘zgartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mustaqil faoliyatning asosiy maqsadi ham o‘zgaradi, ya’ni: imtihon yoki zachyot topshirish istagidan muayyan kasbiy malakani egallash, demak, moddiy jihatdan ta’minlangan hayotiy mavqeni egallash istagi tomon o‘zgaradi, mazkur holatda o‘quv jarayonining umumiy strategiyasini ham o‘zgaradi. Hozirgi paytda talabalar o‘qish vaqtining asosiy qismi auditoriyalarda o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlariga to‘g‘ri keladi.

Bunday mashg‘ulotlar hajmining an’anaviy suratda juda katta ekanligidan jismoniy imkoniyatlari va vaqtlarining yetishmasligi sababli talabalar muntazam hamda mas’uliyat bilan shug‘ullanishga qodir emaslar.

Biroq hozirgi ta’lim jarayoni jadallashib borayotgan bir sharoitda bunga an’anaviy ta’lim vositalarini qo‘llash bilangina erishib bo‘lmaydi, bunday holatda faol uslublar, xususan, amaliy o‘yinlar alohida tan olinadiki, ularning ijodiy imkoniyatlarining yuqoriligi pedagogika uslubiyatchilari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanadi. Ulardan foydalanish talabalarga intellektual qiyinchiliklar tug‘diradigan, bilishga qiziqishni kuchaytirib yuboradigan, yangi bilimlarni faol va mustaqil o‘zlashtirishlari uchun sharoit yaratib beradigan bilish-izlanishga xos vazifalarni taklif etish orqali ularning mustaqil ijodiy ishlashini tashkil etish imkonini beradi.

Yana muhimi, o‘qitishning faol uslublaridan foydalanish an’anaviy ta’lim jarayoni qolipini o‘zgartirib yuboradiki, bunday jarayonda talaba ma’ruzalarda xabar qilingan narsalarnigina takrorlaydi, chunki mazkur holatda faol mustaqil faoliyat yuritish haqida ko‘rsatma berilmaydi. Natijada talabalar nazariyani o‘rganish bilan cheklanib qolib, o‘z bilimlarini amalda qo‘llay olmaydilar.

1. Hozirgi vaqtda pedagog va tadqiqodchilar oldida mustaqil ishni tashkil etish doirasida talabalarda bilimni mustaqil egallashga, ilgari uchramagan yangi vazifalarni mustaqil hal etishga qiziqish uyg‘ota oladigan ta’lim tizimini ishlab chiqish vazifalari turibdiki, bunday tizim talabalarda mustaqillik va mas’uliyat hissini shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi.

2. Talabalarning o‘rganilayotgan vaziyatga chuqur kirib borishga, faol harakat qilishga, muvaffaqiyat uchun qayg‘urishga va o‘z xatti-harakatlarini asoslab berishga undaydigan o‘qitish uslublari puxta o‘ylab tanlangan taqdirdagina mazkur vazifalarni hal etish mumkin bo‘ladi.

3. Bizningcha, bu talablarning hammasiga faol ta’lim berish uslublari, xususan amaliy o‘yinlar javob beradi, asosan.

Oliy ta’lim muassasasida o`qitishning nazariyasi va amaliyotida mustaqil ishning ta’riflari uchraydi. Ayrim tadqiqodchilar uni mustaqil faoliyat deb qarab, oliy o‘quv yurtidagi o‘quv jarayonida musta-qil ish ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda, laboratoriya ishlarida va seminarlarda, talabalarning o‘qituv-chi tomonidan xabar qilingan ma’lumotlarni qabul qilishi va mustaqil anglab yetilishi, takrorlanishi, vazifalar, hisob-kitob ishlarida ishtirok etishi kabilarda namoyon bo‘ladi, deb hisoblashadi. Boshqalar esa talabaning o‘quv materialini o‘qituvchining yordamisiz mustaqil mushohada qilishi, tahlil qilishi va umumlashtirishini, o‘z xulosalarini va natijalarini tekshirishinigina talabalarning mustaqil ishi deb hisoblaydilar. Nihoyat, uchinchilar bir qadar rasmiy nuqtai nazarda turib, butun

e’tiborlarini talabalar-ning o‘quv vazifalarini majburiy mashg‘ulotlar va auditoriyadan tashqari ishlarga bo‘linishiga qaratadilar hamda auditoriyadan tashqari ishlarni mustaqil ish deb baholaydilar.

Oliy maktab didaktikasida talabalarning mustaqil ishi - o‘quv jarayonida talabalarning ijodiy faolligini ta’minlashning asosiy yo‘li deb qaraladi. U talabalarda tashabbuskorlik, maqsadga erishish uchun qat’iy harakat qilish hissini rivojlantiradi, fakt va hodisalarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini hosil qiladi, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadiki, bu hol ularni ijodiy kamol toptiradi. Mustaqil ish olingan bilimlarni malaka va ko‘nikmaga aylantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bular:

1. Talabalarning mustaqil ishi deyilganda “O‘qituvchining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan ko‘pchilik o‘quv faoliyati turlari” tushuniladi.

2. Talabalarning mustaqil ishining puxta o‘ylanib tashkil etilishi quyidagi vazifalarni hal etish imkonini beradi: ijodiy faollik, kuzatuvchanlik, mantiqiy mushohadani rivojlantirish; aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini singdirishga, mustaqil mehnat qilish, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun samarali va qiziqish bilan harakat qilish; oliy o‘quv yurtini tugatgandan so‘ng tanlangan kasbni takomillashtirishga tayyorlash. Shuningdek, mazkur faoliyat turi bo‘lajak mutaxassis shaxsining shakllanishida hal etuvchi ahamiyat kasb etadi va uning ijodiy faoliyatini amalga oshirish borasidagi potensial imkoniyatini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, mustaqil ish talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishlarini ta’minlabgina qolmasdan, balki ularga bu bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalari-ni hosil qilishda ham yordam beradi.

3. Mustaqil ish mohiyatini ochib berishning yuqorida bayon etilgan dastlabki fikrlar ayni vaqtning o‘zida mustaqil ishlar turlari va shakllarini tasniflash uchun ham ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tasniflashning asosini talaba faoliyatidagi takror hosil qilish bilan ijodiy jarayonlarning nisbati tashkil etib, uning tizimida takror hosil qilish faoliyati ijodiy faoliyatga nisbatan, bir tomondan asos sifatida, ikkinchi tomondan esa ularning oqibati sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Ijod esa takror hosil qilish faoliyatidan kelib chiqib, uning rivoji hisoblansada, ijod o‘zida takror hosil qilish jarayonlarini o‘z oqibati sifatida mujassam etadi.

Talabalarning mustaqil ishidek murakkab muammo haqida gapirilar ekan, bizningcha, mustaqil ishlarni tasniflash masalasiga murojaat qilish kerak, chunki tasnif doimo biron-bir bilim yoki inson faoliyati sohasidagi bir-biriga teng tushunchalar tizimi bo‘lib, unda tadqiq qilinayotgan tushunchaning umumiy tizimdagi o‘rnini aniqlab, ko‘rsatib berish maqsadida tushunchalar obyektlari o‘rtasidagi qonuniy bog‘liqlik qayd etilishi lozim. Bu o‘rinda shuni qayd etamizki, hozirgi didaktikada mustaqil ishlar tasnifi masalasida yagona fikr yo‘q.

Mustaqil ish asos sifatida olingan u yoki bu ta’rifga binoan asosan tashqi belgilari hisobga olingan holda tafsiflanadi. Masalan, ayrim tadqiqodchilar mustaqil ishlar turlarini talabalarning o‘quv, ilmiy va ijtimoiy faoliyatlaridan kelib chiqib belgilaydilar. Bunday yondashuvga binoan mustaqil ish uch turga bo‘linadi: o‘quv, ilmiy va ijtimoiy. Umuman olganda esa tasniflash turli asoslarga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin, ya’ni:

- o‘quvchilarning o‘quv faoliyati xususiyatiga ko‘ra;
- didaktik maqsadga ko‘ra;
- mazmunga ko‘ra;
- bilim olish faoliyatining xususiyatiga ko‘ra;
- ishning qay darajada mustaqilligi va oshkora yoki yashiriqchaligiga ko‘ra.

Birinchi turga V. Strezikozinning tasnifini kiritish mumkin, u mustaqil ishning quyidagicha turlarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Darslik va o‘quv kitobi bilan ishlash.
2. Ma’lumotnoma adabiyotlar (statistika to‘plamlari, alohida bilim sohalariga doir ma’lumotnomalar, lug‘atlar, ensiklopediyalar va h.k.). bilan ishlash.
3. Vazifalarni hal etish va tuzish.
4. O‘quv mashqlari –oddiy va bosmali daftarlarda.
5. Insho va bayonlar.
6. Kuzatuv va laboratoriya ishlari.
7. Ishlar – illustrasiya, xarita, sxema, grafika va tarqatilgan materialdan foydalanish bilan bog‘liq vaziflar.
8. Grafikaga doir ishlar.

Mustaqil ishlarning ikkinchi turi ilk bor B.P.Yepisov tomonidan ko‘rib chiqilgan. B.P. Yepisov unda mustaqil ishlarni quyidagi maqsadlarda foydalaniladigan guruhlarga ajratadi:

- yangi bilimlar olish;
- olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- o‘quvchilarning bilimlarini qaytarish va tekshirish ko‘nikma va malakalarini tekshirish.

Mazkur tadqiqodda mustaqil ishning bevosita ishtirokchisi va natijalarga olib keluvchi tomoni bo‘lmish talabaning ijodiy faoliyati yetarlicha yoritilmagan.

I.T. Siroejkin ham mustaqil ishlarni didaktik maqsadlar bo‘yicha ajratishga urinib ko‘rgan va bu ishning uchta turini ajratib ko‘rsatgan bular:

- yangi bilimlarni egallash maqsadida amalga oshiriladigan ishlar;
- bilimlarni takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladigan ishlar (takrorlash, mustahkamlash, qo‘llash);
- bilimlarni tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan ishlar.

Mazkur tasnifning qator kamchiliklari bo‘lib, ular mustaqil ishlarni guruhlarga ajratishda qo‘llaniladigan belgilarning tasodifiyligidan, shuningdek turli guruhlarga bo‘lingan turlicha mustaqil ishlarning o‘zaro bog‘liq emasligidan iborat.

I.I. Malkin mustaqil ishlarni bilim olish faoliyatining xususiyatiga qarab tasniflashni taklif etadi:

1. Reproduktiv mustaqil ishlar turi:

a) qayta tiklovchi;

b) mashq qildiruvchi;

v) sharhlovchi;

g) tekshiruvchi;

2. Bilish-izlanishga doir mustaqil ishlar turi:

a) tayyorlovchi;

b) tasdiqlovchi;

v) tajriba va izlanishga doir;

g) mantiqiy izlanishga doir.

3. Bilish va amaliyotga doir mustaqil ishlar turi:

a) o‘quv-amaliyotga doir;

b) ijtimoiy va amaliyotga doir

I.I. Malkinning tasnifi hozirgi ta’lim talablariga javob beradi, biroq, unda qator kamchiliklar ham mavjud. Birinchidan, tushunchalar ko‘lamini muallif turli asoslarga binoan taqsimlaydi. Shunday qilib, bilish va izlanishga doir turdagi ishlar reproduktiv va ijodiy turdagi bilish va amaliyotga doir turdagi mustaqil ishlardan ajratib qo‘yilgan. Ikkinchi tomondan, masalan, mustaqil ishning tekshirish, tayyorgarlik va boshqa turlari boshqa turdagi mustaqil ishlarga ham kiritilishi mumkin. Bilish va amaliyotga doir mustaqil ishlar ham asossiz taqsimlangan. Olimning bilish jarayonidagi ilmiy ijodi bilan o‘quvchining yordamida bilish jarayonidagi ijodini aynan deb hisoblanishi I.I. Malkin tadqiqodining shubhasiz yutug‘i bo‘lib, bu talabalar mustaqil ishining ijodiy tomoniga urg‘u berish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif mustaqil ishlar turlarini ko‘rib chiqar ekan, qayta tiklashga doir faollik va mustaqillikni ijodning birinchi bosqichi deb; qayta tiklash – isloh qilishga doir faollikni ijodning o‘rtancha bosqichi deb; ixtrochilik, o‘z loyihalarini yaratishga doir faollikni – talabalar ijodining eng yuqori bosqichi deb baholaydi.

A.V. Usova esa “o‘quvchilarning ijodiy tasavvurlari va bilimlaridan foydalanishga nisbatan yuksak bosqich bo‘lmish mustaqil ishlarning mana shu ikkala turi o‘rtasida qator oraliq ish turlari mavjud”ligiga e’tiborni qaratadi [ 3].

B.A. Saxarov esa o‘zgacha fikrni ilgari suradi. U o‘quvchilarning barcha mustaqil ishlarini uch turga bo‘ladi, bular: “qayta tiklovchi, mashq qildiruvchi va ijodiy” ishlardir. Bu o‘rinda talabaning bilish faoliyatining muayyan tizimga asosan olib borilishi tamoyili va qiyinchiliklarning ortib borishi tamoyili asos qilib olingan. Bir qaraganda bunday yondashuv ancha oqilona va mustaqil ishni tasniflash muammosini ilmiy jihatdan asoslagan holda hal etilishi bo‘lib ko‘rinadi. Biroq, talabaning bilish faoliyati ikkita asosiy jarayondan, ya’ni qayta tiklash va ijodiy jarayondan iborat bo‘lib, bu ikkala jihatning nisbati turlicha bosqichlarda o‘zgarib boradi. Binobarin, ijodiy va qayta tiklashga doir mustaqil

ishlar oʻrtasiga keskin chegara qoʻyib boʻlmaydi. Shu sababli mustaqil ishlarni tasniflashning boshqacha prinsiplarini aniqlash zarurati mavjud [4].

A.V. Usovaning asarlarida mustaqil ishlarni tasniflash muammosini hal etishga koʻproq mukammal yondashilgan. Bundan oldingi mualliflardan farqli oʻlaroq, u mustaqil ishlar turlarini har-xil belgilarga qarab tasniflash mumkinligini ta'kidlaydi. Faqat tanlangan belgi u yoki bu padagogik vazifani hal etish uchun muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Masalan, muallif mustaqil ishlarni ularning tushunchalarni shakllantirishdagi roliga qarab tasniflashni taklif etadi. A.V. Usova belgilarni tasniflash uchun asos qilib olib, mustaqil ishlarni beshta guruhga boʻladi:

1. Tushuncha bilan dastlabki tanishuv, tushunchalarning muhim belgilarini qismlarga ajratish.

2. Tushunchaning belgilarini aniqlab olish: a) tushunchalarning muhim belgilarini aniqlash; b) muhim belgilarni nomuhimlaridan ajratib olish; v) tushunchalarning nomuhim belgilarini turli variantlarga ajratish; g) tushunchalarni tabaqalashtirish (qiyoslash, qarama-qarshi qoʻyish).

3. Bilim orttirishga xizmat qiladigan va amaliy xususiyatga ega vazifalarni hal etishda tushunchalardan foydalanish koʻnikmasini hosil qilish.

4. Tushunchalarni aniqlashtirish.

5. Ijodiy xususiyatga ega vazifalarni hal etishda tushunchalardan foydalanish.

Mustaqil ishlar asosiy faoliyat turlari va usullariga koʻra yettita guruhga boʻlinadi:

1) darslik va qoʻshimcha (oʻquv va ilmiy-ommaviy) adabiyotlar bilan ishlash;
2) eksperimental va amaliy ishlar;
3) tahliliy-hisoblash;
4) grafik;
5) loyiha-konstruktorlik;
6) bilimlarni tasniflash va tartibga solish;
7) bilimlardan hodisalar va jismlar xossalarini tushuntirish hamda bashorat qilish uchun foydalanish.

Shunday qilib, biz quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin:

1. Mustaqil ishlarni ta'riflash va tasniflash muammolarini hal etishdagi turli yoʻnalish va yondashuvlar sharhi bu muammolarning uslubchilar hamda didaktik mutaxassislar e'tiborini doimo jalb etib kelganligi va yana jalb etishda davom etishidan dalolat berib turibdi.

2. Pedagogika oliy oʻquv yurtlari talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish masalalarini koʻrib chiqishda pedagogik yoʻnalishning xususiyatlarini, kelgusida oʻz oʻquvchilarining mustaqil ishini tashkil eta oladigan ijodiy shaxsni kamol toptirish lozimligini nazarda tutmoq kerak. Bu vazifalarni ta'lim berish uslublarini puxta tanlash orqaligina yechish mumkin boʻladi.

Hozirgi zamon raqobatlar kuchayganligi bilan ajralib turganligi natijasi oʻlaroq oliy maktabni bitiruvchilarni tayyorlashga boʻlgan talablar ham oʻzgarmadi. Oʻz faoliyatiga ijodiy yondasha bilish mehnat va bandlik sohasidagi oʻzgarishlar munosabati bilan ish yoʻnalishini oʻzgartirishga yoki butunlay qayta tayyorgarlikdan oʻtishga shaylik mutaxassislarga xos xusisiyatlar boʻlib bormoqda.

## Adabiyotlar

1. Дистервег Ф. О природосообразности и культуросообразности в воспитании. Три заметки о воспитании и стремлениях учителей. – Москва // История социальной педагогики: хрестоматия-учебник: учебное пособие / ред. М.А. Галагузова. – Москва, Владос, 2001. – С. 181-200.

2. Петров А.В. Новые педагогические технологии в системе образования. – М., 2001.

3. Усова А.В. Формирование у учащихся учебных умений / А.В. Усова, А.А. Бобров. – Москва: Знание, 1987.

4. Агибова И.М., Куликова Т.А. Самостоятельная работа студентов в вузе: виды, формы, классификации.//Вестник Ставропольского государственного университета. 71/2010. https://cyberleninka.ru/article/n/samostoyatelnaya-rabota-studentov-v-vuze-vidy-formy-klassifikatsii

# BOSHLANG`ICH TA'LIM



**Sobid AVEZOV**
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubiyoti
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi



**Mahbuba SHARIPOVA**
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubiyoti
kafedrasi o'qituvchisi

## QO'SHIQLARNING LINGVOPOETIK TABIATI VA TAHLILI XUSUSIDA

*Maqolada xalq qo`shiqlari badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo'lgan bu lirik merosning badiiy tili nuqtayi nazaridan o'rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf-odatlari, qadriyatlarini yanada chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotganligi xususida fikr yurutilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *xalq qo`shiqlari, folklor, do`ppi, badiiy san'at, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, lirik qo`shiq.*

*В статье размышляется о национальной культуре, образе жизни и обычаях нашего народа, изучения их с точки зрения художественного языка лирического наследия, являющийся в художественно-эстетическом и поэтическом мышлении.*

***Опорные понятия:*** *народные песни, фольклор, тюбетейка, художественное искусство, фольклороведение, любовь, национальная культура, лирическая песня.*

*In article is reflected on the national culture, the lifestyle and customs of our people, to study the artistic language of lyrical heritage is being an artistic-aesthetic and poetic thinking from the point of view.*

***Supporting concepts:*** *the folk songs, folklore, skullcap, art, folklore, love, national culture, lyrical song.*

O'zbek xalq qo'shiqlari folklorning alohida va ommalashgan janrlaridan sanaladi. Unda xalqimizning dunyoqarashi, ma'naviy-estetik olami o'z ifodasini topgan. Komil inson shaxsini tarbiyalashda qo'shiq eng ta'sirli va samarali vosita sifatida juda katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo'lgan bu lirik merosning badiiy tili nuqtayi nazaridan o'rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf-odatlari, qadriyatlarini yanada chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qiladi.

O'zimiz tomonimizdan yozib olingan quyidagi qo'shiq bandida ham oddiy ona tilidan bo'lg'usi keliniga bildirilayotgan nasihati, go'zalligi tavsifi jozibali ifodalangan:

Qizginaning sochi qalin tushibti,
Soyasiga qizil olma pishibti.
Yor ketganda olmalar g'o'ra edi,
Endi kelsa, nozu ne'mat pishibti.

Go'zal ma'shuqaning qalin sochi soyasi – uning husni kamoli, xushsurat bo'lib ulg'aygani timsoli. Qizil olma esa qalbida jo'shqin muhabbat tug'yoni jo'shqinligidir. Ma'shuqa uning qanday tuyg'u ekanligini hali his qilmagan, anglamagan. Soch soyasida olmaning pishgani-mubolag'a, shunday bo'l-sa-da,u hali xom, bo'rttirib aytilganda – g'o'ra. Yor ulg'ayganligi ramzi – olmaning pishib, nozu ne'-

matga aylanganligidir. Bu baytda g‘o‘ra va nozu ne’mat so‘zlari asosida tazod san’ati hosil qilingan. Keyingi bandda qizning yor tanlashdagi iztirob, o‘y-kechinmalari ona tililidan bayon etiladi:

Qizginaning kalapo‘shi shirador,
Qizgina doim bizodan gilador,
Qizginani o‘z tavriga qo‘ysang,
Chor tarafdan sevib qolgan yori bor.

Kalapo‘sh (do‘ppi) – go‘zallik timsoli. Bu go‘zallik “shirador” deya olqishlanadi. Chunonchi, tabiatdagi hamma yaxshi mevalar shira to‘playdi, shira so‘zi bu yerda insondagi yaxshi fazilatlar egasi sifatida ko‘rinadi. Biroq, u erkatoy, sho‘x, shu sababli, haq gapni tanlay olmaydi, haq gap oldida “giladorlik” qiladi. Ona nazdida: “uning ixtiyoriga (tavriga) qo‘ysang, atrofida girdikapalak bo‘lgan – xohlagan bir yigitga turmushga chiqib ketaveradi”. Qo‘shiqda shirador so‘zi orqali – tashbeh, ona xayoli orqali tipiklashgan jonli obraz yaratilgan.

Bu xayol, qizga munosabat yanada orttiriladi:

Qizgina oqar bulog‘ing boshlama,
Moli ko‘p deb, har yigitni eshlama,
Mol degani qo‘l kiri, yuvsang ketar
Qora zulfing har tomonga tashlama.

“Oqar buloq” ham tashbeh. Bu yerda qizginaning aql-zakovati, mehnati va mehr-muhabbati ramzi sifatida ifodalanmoqda. Ona: “Hali bu tiniq fazilatingni hech kimga bildirmagin”, – deb nasihat qilmoqda. Yana bandda xalq maqoli orqali boylikka hirs qo‘yib aldanmaslikka da’vat etmoqda. Qora zulf (pok muhabbat ramzi)ni har yonga tashlab oshiqlaringni ko‘paytirib, o‘zingni qiynama” – deb beg‘ubor ko‘nglini izhor qilmoqda. Demak, bu band ham o‘ziga xos badiiy tasviriy vositalari bilan qo‘shiq husniga husn qo‘shgan.

Aslida badiiy bo‘yoqlar qanday yuzaga keladi? Ijodkor bu badiiy san’at namunalarini qanday ehtiyoj asosida yaratadi? Bunday san’at namunalari psixologik parallelizm tamoyili asosida paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi rus akademigi A.N. Veselovskiy. U: “Ibtidoiy odam atrofidagi olamni turli xususiyatlarini his qilishga intilgan. Subyekt va obyekt kategoriyalari o‘rtasida bir-birini anglash harakati va munosabati boshlangan. Subyekt – shaxs. Obyekt esa tashqi olam: hayvonot, o‘simliklar, ayniqsa, asosiysi inson tasavvur qilingan. U tabiatning o‘zgarishi: quyoshning chiqib va botishi, shamolning bulutlarni tebratishi, chaqmoqning chaqinlashidan hayratga tushgan. Neorganik, harakatsiz dunyo ixtiyorsiz ravishda pallelizm silsilasini yuzaga keltirgan [2].

Yuqorilardan ayon bo‘ladiki, inson hamisha tabiat bilan munosabatda bo‘ladi. Shunga ko‘ra, biror predmetdagi xususiyatni boshqa shunday predmet yoki voqea–hodisaga o‘xshatadi, qiyoslaydi. Bu jarayon, ayniqsa, xalq maqollarida yaqqol ko‘rinadi. Chunonchi, ko‘zi moshdek ochildi maqolida ko‘z va mosh bir-biriga taqqoslanadi. Moshning yaltiroq, qoramtir, ko‘rinishi ko‘zning qorachig‘iga tasvir jihatidan mos. Shuning uchun ham xatosini aniq tushungan, uning haqligiga to‘la ishongan kishiga nisbatan ham ushbu maqol qo‘llaniladi. Yoxud ilon zaharli hayvon. Uning zahar sochishi, insonni o‘z zahri bilan o‘ldirishi hammaga ayon narsa. Biroq quyidagi qo‘shiqda shunday zaharli ilon ham oq rangda tasvirlanib, bevafo oshiqning salbiy tasviri yaratiladi:

Oq ilon, Oppoq ilon,
Oydinda yotgoning qani?
Men yomondan ayrilib,
Yaxshini topganing qani?

Qo‘shiq – inson ruhining tarjimoni. U beshikdan qabrga qadar qo‘shiq tinglaydi. Qo‘shiq bilan dil rozini bayon etadi. Qayg‘uli kunlarida ham, quvonchli damlarida ham qo‘shiq bilan hamnafas bo‘ladi, qo‘shiq og‘ushida bo‘ladi, qo‘shiq yaratadi. Rivoyat qilinishicha, inson tanasiga Olloh ruhni qo‘shiq orqali olib kirgan deyishadi. Shunday ekan, uning butun turmush tarzi va hayoti qo‘shiqlarda o‘z in’ikosini topgan.

Qo‘shiqlarda xalq hayoti, milliy urf-odati, qadriyat va an’analari butun qirralari hamda jozibasi bilan o‘z ko‘rinishiga ega. Qo‘shiqlarda xalq tafakkuri, dunyoqarashi va o‘ziga xos tabiati mujassamlashgan.

O‘zbek folklorshunosligida ham qo‘shiq janri tahlili, uning badiiy jilvakorlikka nihoyatda boyligi-yu, tashbehlari sermazmun ekanligi ko‘pgina tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Ularning juda ko‘p qismi yozib olinib, ma’naviy merosimizga aylantirilgan. Ayniqsa, bu sohada o‘zbek milliy qo‘shiqshunosi va yozib oluvchisi Muzayyana Alaviya, filologiya fanlari doktori, professorlar T.Mirzayev, Mamatqul Jo‘rayev, filologiya fanlari doktori A. Musoqulov, olim R. Nosirov, tadqiqotchi N.Ortiqmatov va boshqalarning qo‘shiq janri rang-barangligi, lirik ohangdorligi, poetik xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan. Yana taniqli olim Ergash Ochilovning “Shoda-shoda marvarid” nomli o‘zbek xalq qo‘shiqlarining to‘plab nashr etilishi ham ulkan yutuqlardan biridir. Shuningdek, folklorshunosligimiz zamiridagi Buxoro folklorida ham o‘zbek xalq qo‘shiqchiligini o‘rganish, uni tadqiq etishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, ustozimiz professor O. Safarovning “To‘y muborak, yor-yor” asariga kiritilgan nikoh marosimi bilan bog‘liq marosim qo‘shiqlari, ”Buxorcha” va “Mavrigi” taronalari asarlari salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Kitobda faqat Buxoroga xos bo‘lgan turkumlarning poetik tarkiblari, turkumlarning tarixiy genetik asoslari, ijro usullari va kompozitsion xususiyatlari mahorat bilan talqin etilgan. Bundan tashqari, professor Darmonoy O‘rayeva va olim Dilshod Rajabovning Buxoro xalq qo‘shiqlari va termalari to‘planib, “Buxor elda gul sayli” kitobida jamlangan. Kitobning muvaffaqiyatli tomoni shundaki, unda o‘zbek xalq qo‘shiqlari janriy tarkibi jihatidan boy ekanligi e’tirof etilib, yozib olingan qo‘shiq va termalar shu janr mavzusiga xos guruhlarga ajratib keltirilgan. Xalq qo‘shiqlarining mehnat, lirik, nikoh to‘yidan tashqari, satirik va yumoristik qo‘shiqlar, motam qo‘shiqlari, mavsumiy qo‘shiqlar, zamonaviy va axloqiy qo‘shiqlar, bolalar folkloridagi munojot, nasihat janridagi qo‘shiqlar ham yangi ko‘rinishdagi qo‘shiq namunalaridir.

Qo‘shiqning o‘ziga xos boyligi – badiiy tashbeh va tasviriy vositalarga nihoyat darajada boyligidir. Ulardagi misralar obrazli tashbehlar, iboralar, detallar va badiiy vositalarga boyligi bilan, kishi qalbida muhrlanib qolishi bilan boshqa janrlardan farqlanadi. Xalqona ruh, xalqona teranlik va ijodkorlik alohida ko‘rinib turadi. Qo‘shiqlardagi ro‘mol, ro‘molcha, uzuk, tikan, ilon, gul, bulbul, olma, lola, daryo, ot kabi badiiy tasviriy vositalar mavjudki, ularning har biri ramziy mazmun kasb etadi. Chunonchi, ro‘molcha – ko‘ngil, ishq–muhabbat ramzi. Ma’shuqaning oshiqqa ro‘molchani berishi u bilan birga hayot qurishi, birga bo‘lishga rizoligidir. Biroq oshiq uchun eng yuksak orzu. Hayot – mamot jangida g‘oliblik sanaladi. Ro‘molcha timsoli yozma adabiyotda ham shu ramz-timsolni bildiradi. Alisher Navoiy g‘azalida ham ro‘molcha timsolida oshiqning g‘am-alamlari, mehr-muhabbati va sadoqati har bir nina qatidagi iplarda mujassam ekanligini badiiy tarzda ifoda etadi:

Yog‘lig‘in, eykim, tikarsen, igna mujgonimni qil,
Naqsh etarda tori oning rishtai jonimni qil.

O‘zbek xalqi lirik qo‘shiqlarida badiiy tasviriy vositalari rang-barangligi bilan ajralib turadi. Undagi har bir tashbeh: o‘xshatish, takror, ritm, jonlantirish, sifatlash va ramz kabilar shaxs ruhiyatining turli kechinmalar suratini ifodalashda aniq detal vazifasini bajaradi. Chunonchi, mashhur “Sunbula” qo‘shig‘idagi o‘xshatish har bir o‘quvchi ongida umrbod muhrlanib qolgandir. Bu o‘xshatish firoq o‘tida yongan har qanday oshiq ko‘ngliga malham bo‘la oladi:

Bu dunyoda bor bo‘lsa,
Yurak-bag‘ri butuni.
Qog‘ozdan o‘choq yasab,
Guldan qilay o‘tinni.
Qadamingga gullar ochilsin!

Shu narsa aniqki, inson bu olamda yashar ekanmi, abatta u bir narsani qo‘lga kiritsa, bir narsani yo‘qotadi. Baxt qatida qandaydir baxtsizlik tuyg‘ulari: sarflangan behad kuch, g‘am-tashvish, alam, mahzunlik va armon kabilar ham yashiringan bo‘ladi. Insonga baxt shu yo‘qotishlar evaziga beriladi. Bu hayot shartidir. Qog‘ozdan hech qachon o‘choq yasab bo‘lmaganidek, gul hech qachon o‘tin vazifasini bajarmaganidek to‘la-to‘kis, yo‘qotishsiz baxtga erishib bo‘lmaydi, degan hayot haqiqati bu o‘xshatish orqali yorqin bayon etilgan.

Qo‘shiqlarda olma obrazi ko‘p uchraydi. Olma ham folklorda oshiqlar o‘rtasidagi ishq-muhabbat ramzi. U aniqroq ifodalanganda oila, farzand ko‘rish orzusi timsoli:

Olmaning nozikligidan,
Ko‘rinadi donasi.
Bargiga shabnam tushibdi,

Men uning devonasi.

Olmaning nozikligi – muhabbatni asrash, unga erishish juda murakkab, o‘ziga munosib yor topish o‘ta hayotiy muammo ekanligi bo‘lsa, uning donasi – farzanddek ulug‘ ne’matga erishish esa undan ham buyukroq baxt. Shabnam – shu yo‘l, baxtga tomon qo‘yilgan qadamning sofligi, beg‘uborligidir. Devonalik esa ana shu sa’y-harakatning egasi bo‘lishdir.

Qo‘shiqlarda takrorlash san’ati alohida o‘rin egallaydi. Bu takrorlar so‘zda, undovlarda, misralarda va naqarotlarda ko‘p qo‘llaniladi va har biri muayyan poetik vazifa bajaradi:

Oh, ukajonim-ey,
Quralay ko‘zim-ey.
Ranginamni sariq qilgan
Shul qalam qosh-ey.

Misralardagi o‘xshatishlar (ukajon – juda yaqinlik, quralay – ohu bolasining ko‘zidek go‘zal ko‘z, sariq rang – hajr, iroq azobi)lardan tashqari – ey undovining keltirilishi bu hissiyotdagi ehtiroslarni yanada kuchaytirib bayon etish uchun xizmat qilgan.

Qo‘shiqlarda yor-yor takrori ko‘p uchraydi. Buning asl mohiyati yor-yor-nikoh to‘yi marosimini ifoda etadi. Ushbu marosim bilan bog‘liq ibora an’anaviy takror turlaridan biri bo‘lib, u qo‘shiqlarda ritmik musiqaviylikni yaratishda muhim vazifa bajaradi:

-Qoshingni qaro, deydilar
Qora ko‘z ukam, yor-yor,
Shirinso‘z ukam, yor-yor,
Ko‘rsat qoshingni bir ko‘rayin – bir ko‘rayin,
Jonim ukam-ey, yor-yor.

Bizning davrimizda xalq qo‘shiqlarini ijro etishga bo‘lgan qiziqish yanada kuchaydi. Ular xalq kuyida, estrada janrida va terma yo‘lida kuylanib kelinmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, respublikada xizmat ko‘rsatgan artistlar Hosila Rahimova, Xurshid Rasulov, Dilroz kabi san’atkorlar repertuaridagi milliy o‘zbek qo‘shiqlari xalqimizga manzur bo‘lmoqda. Shu o‘rinda xalq qo‘shiqlaridagi so‘zlarni aniq his qilmay, so‘zlar talaffuzini buzib ijro etayotgan ayrim xonandalarni ham kuzatish mumkin. Bu esa nafaqat o‘sha matnni buzish, balki xalq ijodkorligiga hurmatsizlik bo‘lib sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘rganish – milliy madaniyatimizga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbat va ehtiromimiz namunasi. Har bir qo‘shiq xalqimiz ijodkorligi sanalib, yuksak ma’naviyatimiz ummoniga qo‘shilgan beqiyos xazinadir.

## Adabiyotlar


1. O‘zimiz yozib olgan qo‘shiq matnidan.
2. Веселовский А.Н. Собранное сочинение. Т.1. с. 131.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: “O‘qituvchi”, 1990. – 304 b.
4. Shoda-shoda marvarid: O‘zbek xalq qo‘shiqlari (To‘plab nashrga tayyorlovchi Ergash Ochilov). – T.: “Sharq”, 2006. – 416 b.
5. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-jild. (Mas’ul muharrir: filologiya fanlari doktori, professor Mamatqul Jo‘rayev). – T.: “Fan”, 2010. – 171 b.
6. Safarov O. To‘y muborak, yor-yor. – T.: “Ma’naviyat”, 2000.
7. Buxor elda gul sayli. To‘plab nashrga tayyorlovchi: filologiya fanlari doktori, professor D. O‘raeva, filologiya fanlari nomzodi, dotsent D. Rajabov)
8. Nosirov R. Xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi. – T.: “Fan”, 2006.
9. Ortiqmatov N. Qo‘shiqlarda takrorlarning tiplari. O‘TA, 2008. 6-son, 77-79-betlar.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik, Toshkent, 1998. 3-jild. 216-bet.



**Firuz SAFAROV**
Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim usuliyoti
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA LUG‘ATDAN FOYDALANISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish usullari bayon qilingan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *o‘quv lug‘atlari, madaniyatni o‘stirish texnologiyasi, lug‘atdan foydalanish ko‘nikmalari, imlo lug‘ati, izohli lug‘at, alifbo tartibi, lug‘at bilan ishlashga doir topshiriqlar.*

*В статье излагаются методы формирования пользования лингвистическими словарями младшими школьниками.*

***Опорные понятия:*** *учебные словари, технология развития культуры, умение пользования словарями, орфографический словарь, толковый словарь, алфавитный порядок, задания, связанные со словарём.*

*In article is described the methods of forming the ability to use the linguistic dictionaries among younger schoolchildren.*

***Supporting concepts:*** *vocabularies, technology of cultural development, ability to use dictionaries, spelling dictionary, explanatory dictionary, alphabetical order and tasks related to the dictionary.*

Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda umumiy o‘quv ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy o‘quv ko‘nikmalari orasida turli lug‘at va ma’lumotnomalardan foydalanish ko‘nikmasi muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda kishida lingvistik qiyinchiliklarini ang lash va ularni lug‘at yordamida hal qilishga intilish ehtiyoji, odatining mavjudligi insonning shaxsiy xususiyati, uning madaniyatlilik belgilaridan biridir. Shunday qilib, lug‘atlarni o‘quvchiga ta’lim berishgina emas, balki tarbiya berish vositasi ham deb hisoblash mumkin.

Hozirgi kunda yurtimizda vazifasiga ko‘ra turlicha bo‘lgan ko‘plab lug‘atlar nashr qilingan va nashr qilinmoqda. Masalan, yuqori sinf o‘quvchisi nafaqat imlo lug‘atidan, balki izohli, so‘z yasalishi, o‘zlashma so‘zlar, eskirgan so‘zlar, sinonim, antonim, omonim va hokazo lug‘atlardan [1;3;5;10;12] foydalanishi mumkin. Biroq o‘quvchi o‘zidan bilib lug‘atga murojaat qiladimi?!

Bizning kuzatishimizga ko‘ra ko‘pchilik o‘quvchi hatto unga zarur bo‘lgan lug‘atlar yonida, kitob javonida turgan bo‘lsa ham, qo‘lida bo‘lgan boylikdan foydalanmaydi. Bunday hodisaning sabablaridan biri quyidagi hammaga ma’lum jumlada mujassamlashgan: hamma narsa bolalikdan boshlanadi. Bolada ta’limning dastlabki bosqichlarida lug‘atlarga murojaat qilish ehtiyoji uyg‘otilmasa, unda yordamchi vositalarda mo‘ljal olish va kerakli ma’lumotni tez topib olish ko‘nikmasi shakllantirilmasa, uning mavjud lug‘atlar boyligidan to‘laqonli foydalanuvchi shaxsga aylanishi gumon. Mana shuning uchun lug‘atlar bilan ishlashni boshlang‘ich sinflardan boshlash lozimligi allaqachon ayon bo‘lgan.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining qo‘lida turli lug‘atlar bor (Biroq yurtimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun zarur bo‘lgan ma’nodosh, zid ma’noli, uyadosh so‘zlar, iboralar lug‘ati kabilar hali chiqarilmagan). Yaqin kunlarda ona tili darsining lug‘at bilan ishlash qismi har bir sinfda doimiy ish bo‘lishi, turli xildagi lug‘atlar bilan ishlash esa zaruratga aylanishi lozim. Lug‘at bilan ishlash har bir darsga kiritilishi lozim: so‘z ma’nosini tushuntirish, so‘zni to‘g‘ri yozish, to‘g‘ri talaffuz qilish, uning tuzilishi (yasalishi)ni izohlash. Barcha so‘zlar oldindan doskaga yozib qo‘yiladi. Bolalarning fikri lug‘atdagi to‘g‘ri variant bilan qiyoslanadi. Bu o‘rinda bolalarga uyga vazifa ham beriladi: lug‘atdan so‘zning ma’nosi (izohli lug‘at), to‘g‘ri yozilishi (imlo lug‘ati), to‘g‘ri talaffuzi (orfoepik lug‘at), har qanday iboraning ma’nosini (frazeologik lug‘at) va hokazoni aniqlash. Keyingi darsda topshiriq tekshirilib, yangi topshiriq beriladi. Shunday qilib, o‘qvchilarda lug‘at bilian ishlash ko‘nikmasi, so‘ng malakasi ham shakllanadi. Har bir darsda o‘quvchilarga lug‘at bilan ishlash uchun indivi-

dual topshiriq bajarish: o‘tilgan mavzu bo‘yicha lug‘at diktanti tuzib kelishni, keyingi darsda esa o‘qituvchi rolini bajarishni tavsiya qilish mumkin. Bunday ish turi bolalarda shubhasiz qiziqish uyg‘otadi.

Buning hammasi o‘qituvchining kichik yoshli o‘quvchilarda lingvistik lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorgarlik ko‘rishini taqozo qiladi. Bu tizim uchun avvalo lug‘atdan foydalanish murakkab ko‘nikmasining tarkibiy ishlari (operatsiyalari) bo‘lmish ko‘nikmalar sirasini belgilab olish lozim.

Lug‘atdan foydalanishga doir elementar, ko‘nikmalar quyidagilar:

1. Darsliklarga yordamchi lug‘atlardan foydalanish.
2. Kirish maqolasi matnini diqqat bilan o‘qib chiqish.
3. Lug‘atning nomlanishiga qarab tavsiflanadigan til birligini aniqlash.
4. Alifboli so‘z ko‘rsatkichi bilan ishlash.
5. Lug‘at tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
6. Lug‘at maqolasi tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
7. Shartli belgilar, ramzlar, shartli qisqartmalar bilan ishlash.
8. Lug‘atlar bilan ishlashda o‘qish-qarab chiqish va o‘qish-izlashdan foydalanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi quyidagilarni bilishi (aniqlashi) kerak:

1. Lug‘atning nomini.
2. Lug‘atning muallifi, muharririni.
3. Nashriyoti va nashr qilingan yilini.
4. Lug‘atning turini.
5. Lug‘atning vazifasini.
6. Lug‘atda so‘zlarning joylashish tartibini: alifbo, uyali, mavzuviy tartibda joylashtirilganini.

Ishni yengillashtirish uchun har bir lug‘atga unda qabul qilingan shartli belgi, qisqartmalar yozilgan xatcho‘p-eslatma qilib qo‘yish tavsiya qilinadi.

O‘qituvchilar tajribasini o‘rganish natijasida ona tili darslarida lug‘at ishi yetakchi o‘rin egallamog‘i lozim degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Yangi texnologiyalardan foydalanish bolaning darsga qiziqishini oshiradi. Lug‘at bilan ishlash esa – ona tilini o‘rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri – madaniyatni o‘stirish texnologiyasidir. O‘quvchilarda lug‘atning barcha turidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bu shubhasiz ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

**Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida imlo lug‘atidan foydalanish.**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini imloga o‘rgatishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan “Imlo va talaffuz lug‘ati” [8] hamda Sh. Rahmatullayev va A. Hojiyevning “Imlo lug‘ati” [7] dan foydalanish mumkin.

Imlo lug‘ati bilan ishlash natijasida o‘quvchilarda mustaqil ravishda lug‘atdan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish kerak. Mustaqil ishlashga o‘rgatish murakkab, ziddiyatli jarayon. Shunga qaramay o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

1. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida tayyor namunaga qarab ish ko‘radi (taqlid qilish bosqichi).
2. O‘quvchi ishning bir qismini mustaqil bajaradi (qisman mustaqil ishlash bosqichi).
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi muayyan ishni ish takrorlangan vaziyatlarda mustaqil bajaradi.

Birinchi sinfda lug‘at bilan ishlashda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

1. O‘quv-biluv motivatsiyasi asoslarini yaratish.
2. Maxsus kitob – lug‘atga qiziqish uyg‘otish.

Bu maqsadlardan kelib quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

1. O‘quvchilar lug‘atda so‘zlar birinchi harfiga ko‘ra alifbo tamoyili asosida joylashishini bilishi kerak.
2. O‘quvchilar lug‘atdan so‘zni birinchi harfiga qarab topa olishi kerak.

Birinchi sinfda lug‘at bilan ishlash taqlid qilish bosqichida o‘qituvchi yordamida tayyor namunaga qarab, qisman mustaqil ishlash bosqichida lug‘at sahifasini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Birinchi sinfda imlo lug‘ati bilan ishlashni qachon boshlash kerak? Rus tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha mutaxassis olima L. N. Kalininaning fikricha, lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini o‘quvchining maktabdagi birinchi qadamlaridan, savod o‘rgatish darslaridan boshlash lozim.

Kichik yoshli maktab o‘quvchilarida biluv faoliyati shkllari, usullariga qiziqish kuchliligini hisobga olib lug‘at bilan ishlashda turli qiziqarli usullar, ta’limiy o‘yinlar, musobaqa elementlaridan foydalanish lozim.

Lug‘atni darsga olib kirish o‘zbek tili alifbosini o‘zlashtirishga doir katta tayyorgarlik ishi bilan boshlanadi. Bu vazifani bajarishga qaratilgan o‘yinlarga misol keltiramiz.

*“Nima nimadan keyin?”* o‘yini.

Bu o‘yinda bolalar hayvonlar rasmi tushirilgan kartochkalarni alifbo tartibida joylashtiradi. Masalan, birinchi o‘ringa ayiq rasmini (a harfiga), ikkinchi o‘ringa bo‘ri rasmini (b harfiga), uchinchi o‘ringa delfin rasmini (d harfiga) va hokazo tarzda qo‘yib chiqishadi.

O‘yinning maqsadi: alifboni mustahkamlash, undan amaliy foydalanishni o‘rgatish.

*“Kutubxonachining yordamchilari”* o‘yini.

Jihozlar: kitob dastalari, harflar yozilgan kartochkalar.

O‘yinning borishi: O‘qituvchi shunday deydi: “Bolalar, biz siz bilan yangi kutubxonadamiz. Kutubxonachiga kitoblarni to‘g‘ri va tez terib chiqishga yordam berishimiz kerak. Birinchi tokchada familiyasi A dan K gacha, ikkinchi tokchada L dan U gacha , uchinchi tokchada X dan Ch gacha bo‘lgan harflar bilan boshlanuvchi mualliflarning kitobi turadi. O‘quvchilar dastalardan kitoblarni ajratib, tokchalarga qo‘yib chiqadi.

Bunday o‘yinlarni har bir darsda o‘tkazish mumkin. Lug‘at bilan tanishtirish uchun esa maxsus dars ajratish kerak.

Imlo lug‘atidan lug‘at-ma’lumotnoma sifatida foydalanishni namoyish qiluvchi topshiriqlarga misol keltiramiz.

1-sinf. 1-topshiriq. Lug‘atdagi dastlabgi 10 ta so‘zni o‘qing, ular qaysi harf bilan boshlanadi? Oxirgi 10 ta so‘z qaysi harf bilan boshlanadi?

2-topshiriq. *Maktab, oftob, ozod, umid* so‘zlarining oxirida qaysi harf yozilishini lug‘atdan aniqlang.

Imlo lug‘atidan lug‘at-darslik sifatida foydalanish.

3-topshiriq. Lug‘atdan tutuq belgisi qatnashgan 5 ta so‘z topib yozing.

4-topshiriq. (“Joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi” mavzusini o‘rganishda) Lug‘atdagi ilovadan foydalanib O‘zbekistonning 5 ta asosiy shahri va 5 ta asosiy daryosining nomini yozing.

Ikkinchi, uchinchi sinfda lug‘at bilan ishlash maqsadi murakkablashadi:

Bolalarda lug‘atga murojaat qilish ehtiyojini tarbiyalsh.

Vazifalar: 1. O‘quvchilar so‘zlarning faqat birinchi harfiga qarab emas, keyingi harfiga ham qarab joylashtirilishi tamoyilini bilishi kerak.

2. O‘quvchilar lug‘atdan so‘zni birinchi, ikkinchi harfiga qarab topa olishi kerak.

3. Orfogrammalarni tekshirishda mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini tekshirish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Ish qisman mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini tekshirish bosqichida olib boriladi.

2-sinfda imlo lug‘ati bilan ishlashga doir quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. (“Ona tili” darsligi [6]dagi “Unli tovushlar va harflar” mavzusida berilgan 20-mashqqa qo‘shimcha. Mashqda “Tushirib qoldirilgan a va o harflarini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni o‘qing” degan topshiriq berilgan. Mashqda quyidagi so‘zlar berilgan: *S...bzi, b...dring, kar...m, q...vun, k...rt...shka, t...rvuz, sh...lg‘...m, h...nd...lak, l...vl...gi, q...v...q* ). Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga i yoki u harfini qo‘yib, so‘zlarni yozing: *bur...n, qur...q, qo‘r...q, sov...q, qul..pnay, mush..k, kum...sh, qum...rsqa, qorong‘..., kulg...* Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

3-topshiriq. Bolalar k(o\a)nsert, k(o\a)mbayn, k(o\a)lbasa, k(o\a)missiya so‘zlarida a yoki o harfi yozilishini lug‘atdan tekshirdi. Sobir *ka-* bilan boshlanadigan barcha so‘zni o‘qib chiqdi va bu so‘zlar lug‘atda yo‘q dedi. Nodir bir necha sahifani ag‘darib, to‘rtala so‘zni ham topdi. Nima uchun Sobir bu so‘zlarni topolmadi?

4-topshiriq. Lug‘at diktanti. (“Aytilishda tushib qoladigan undoshlar” mavzusiga) *Baland, go‘sht, qand, payvand, g‘isht, tirband, dasht, farzand, taft, band.* Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

5-topshiriq.("So'z ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar" mavzusiga) Nuqtalar o'rniga zarur o'rinda harf qo'yib yozing. Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring: *Laq...a, chaq...a, baq...a, mal...a, tol...a, kos...a, has...a, mar...a, qar...i, pash...a, tesh...a.*

6-topshiriq. Lug'at diktanti ("Tutuq belgisi" mavzusiga). "Zarur o'rinda tutuq belgisini qo'yib yozing. Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring". O'qituvchi quyidagi so'zlarni aytib turib yozdiradi: *A'lo, a'zo, ta'm, sa'va, qal'a, ta'na,ta'rif, ta'sir, ta'til, mash'al, ma'no, ma'qul, me'yor, jur'at, in'om, ba'zi.*

7-topshiriq. ("Tutuq belgisi" mavzusiga). Imlo lug'atidan m harfi bilan boshlanuvchi tutuq belgisi qatnashgan 5 ta so'z topib ko'chiring.

3-sinfda imlo lug'ati bilan ishlashga doir quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. Lug'atdan *yalpiz* so'zini toping. Undan oldin qaysi so'z kelgan? Undan keyin-chi? Nima uchun?

Tajriba shuni ko'rsatadiki, nostandart, muammoli topshiriqlar hatto passiv o'quvchilarda ham darsga qiziqish uyg'otadi.

2-topshiriq. "Qiyin so'zlar do'koni" o'yini ("Ot" mavzusiga [2]). O'quvchilar "sotuvchilar" va "xaridorlar"ga bo'linadi. Birinchi guruh lug'atdan muayyan mavzu ("Sabzavot", "Meva" va hokazo)ga oid so'zlarni tanlaydi va ulardagi ayrim harflarni tushirib yozadi. Ikkinchi guruhdagi bolalar so'zlarni oladi va lug'tdan foydalanib tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib yozadi. Masalan, sabzavotlar: k...rt...shka, p...midor, tur..., sa...zi, q...voq.

3-topshiriq ("Ot" mavzusiga). Imlo lug'atdidagi t harfi bo'limidan nima so'rog'iga javob bo'luvchi 10 ta so'z topib yozing. O'quvchilar misol uchun quyidagi so'zlarni yozib oladi: *tabiat, tanbur, tandir, tariq, taroq, tarozi, taxta, tanga, ta'til, televizor.* Bu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilar lug'atdan kerakli so'zni topishni va so'zlarga so'roq berishni o'rganadi hamda shu so'zlarning qanday yozilishini bilib oladi.

4-topshiriq. ("Sifat yasovchi qo'shimchalar"mavzusiga). *Sovi, quri* so'zlariga -q qo'shimchasini qo'shib sifat yasang va yozing. Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring. So'zlarning o'zagida qanday tovush o'zgarishi yuz berdi?

5-topshiriq. ("Fe'l yasovchi qo'shimchalar"mavzusiga). Quyidagi so'zlarga *-illa* yoki *-ulla* qo'shimchasini qo'shib fe'l hosil qiling: *taq, g'uv, shuv, tiq, shiq, shov, lov, biq, qur, lik, viz.* Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring.

3-sinfda imlo lug'atidan tekshrish diktantini yozishda ham foydalanish mumkin. O'qituvchi diktantnni yozdirgach, shunday topshiriq beradi: "Diktantdagi xato yozgan bo'lishingiz mumkin bo'lgan so'zlarni imlo lug'atidan tekshirib, xatongizni tuzating". Bunday topshiriq o'quvchini imloviy sezgirlik va o'z-o'zini tekshirishga o'rgatadi.

4-sinfda imlo lug'ati bilan ishlashning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Lug'atdan foydalanishni ona tili darslaridagi har kungi ishlar tizimiga, insho, bayon ustida ishlash tizimiga kiritish.
2. O'z-o'zini tekshirish malakasini shakllantirish.

4-sinfda imlo lug'ati bilan ishlashga doir quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. ("Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi" mavzusiga [4]). Quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchasini qo'shib, tovush o'zgarishi yuz bergan-bermaganligiga qarab ikki guruhga bo'lib yozing: *bilak, tilak, xulq, ishtirok, buloq, axloq, erk, tok, farq, xalq, huquq, yutuq.*

Bu topshiriqni bajarish uchun Sh. Rahmatullayev va A. Hojiyev tomonidan tuzilgan imlo lug'atining "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" berilgan qismiga murojaat qilish kerak bo'ladi. Bunda "Asos va qo'shimchalar imlosi" bo'limidagi 34-bandda shunday deb yozilgan: "k, q undoshi bilan tugan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak–tilaging, bek–begi.* Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *erk – erki, huquq – huquqim*".

O'quvchilar qoida asosida so'zlarni quyidagicha yozadi: *bilagi, tilagi, bulog'i, yutug'i*; *xulqi, ishtiroki, axloqi, erki, toki, farqi, xalqi, huquqi.*

Bunday holda imlo lug'ati o'quv qo'llanma vazifasini bajaradi.

2-topshiriq. (“Sifat yasovchi qo‘shimchalar”mavzusiga). Imlo lug‘atidan ser-, be- qo‘shimchalari bilan yasalgan 5 tadan sifat topib yozing, so‘zlarning o‘zagi va qo‘shimchasini belgilang.

**Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida izohli lug‘atdan foydalanish.**

Boshlang‘ich sinflarda foydalaniladigan asosiy lug‘atlardan biri izohli lug‘atdir. Izohli lug‘at bilan ishlashning asosiy vazifasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligini oshrishdir. Ma’lumki, 6-7 yoshli bolaning so‘z boyligi katta emas. Ular odatda ko‘p so‘zlarning faqat bitta, o‘z ma’nosini biladi. Ularning nutqida aniq ma’noli (narsa-buyumni bildiruvchi) so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi, mavhum ma’noli so‘zlar esa (masalan, *do‘stlik, tinchlik, baxt*) ancha kam. Izohli lug‘at bilan ishlashda lug‘at ishining quyidagi umumiy metodik tamoyillariga rioya qilish kerak:

1.O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8 –10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4 – 6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirtirish, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutqiy faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida F. Safarov va S. Safarov tomonidan tuzilgan “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at”dan [9] foydalanish maqsadga muvofiq. Bu lug‘atda boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish kitobi darsliklaridagi o‘quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan 2000 dan ortiq so‘z o‘quvchiga mos tarzda izohlab berilgan.

1-sinfda izohli lug‘at bilan ishlashning vazifasi o‘quvchida lug‘atdan kerakli so‘zni topish va lug‘at maqolasining tuzilishini tushunish (asosan bir ma’noli so‘z-larda) ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Lug‘at maqolasini topish va sahifa raqamini aytish musobaqa, o‘yin shaklida amalga oshiriladi.

Bolalarning lug‘at maqolasini o‘zlashtirish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Masalan, *yalpiz* so‘zini o‘rganishda quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Lug‘atda *yalpiz* so‘zi qanday izohlangan?
2. Izohdan keyin berilgan gaplarni o‘qing. Bu gaplardagi *yalpiz* so‘zining ma’nosi izohga to‘g‘ri keladimi?
3. *Yalpiz hidi gupurdi* gapining ma’nosini izohlang.
4. Yalpiz so‘zini *hid, barg, termoq, xushbo‘y* so‘zlari bilan bog‘lang (yalpiz hidi, yalpiz bargi, yalpiz termoq, xushbo‘y yalpiz).

2-sinfda izohli lug‘at bilan ishlashning vazifasi o‘quvchida lug‘at maqolasining tuzilishi tushunish, ko‘p ma’noli va shakldosh so‘zlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Shuni qayd qilish kerakki, izohli lug‘at bilan ishlashni ham so‘z darajasida, ham so‘z birikmasi, gap va matn darajasida tashkil qilish lozim.

Misol uchun, so‘z darajasida ishlaganda so‘z ma’nosini aniqlashtirishga qaratilgan topshiriqlarni berish mumkin.

1-topshiriq. Lug‘atdan *randa, ufurmoq, hashamatli* so‘zlarini topib, lug‘at maqolasiga qarab har birining ma’nosini izohlang.

Izohlai lug‘at bilan ishlashda o‘quvchilarni so‘z ma’nosini izohlashning turli usullariga o‘rgatish mumkin. Izohli lug‘atda so‘z ma’nosi quyidagi usullarda izohlanadi:

1) jins ma’nosini bildruvchi so‘z va tur belgilarini bildiruvchi so‘zlar orqali;
2) ma’nodosh so‘z keltirish orqali.

Ko‘pchilik so‘zning ma’nosi jins ma’nosini bildruvchi so‘z va tur belgilarini bildiruvchi so‘zlar orqali izohlanadi. Masalan, beqasam so‘zi lug‘atda shunday izohlanadi: *Ipakdan to‘qiladigan yo‘l-yo‘l gulli pishiq gazlama* [9,19]. Bu izohdagi *gazlama* so‘zi beqasamning qaysi jinsga kirishini, *ipakdan to‘qiladigan yo‘l-yo‘l gulli pishiq* so‘zlari bu gazlamaning o‘ziga xos belgilarini anglatadi. Shuning uchun topshiriqlar izohdagi jins ma’nosini bildiruvchi yoki asosiy, umumlashtiruvchi va tur belgisini bildiruvchi yoki ikkinchi darajali so‘zlarni aniqlashga qaratilishi lozim. Buning uchun quyidagi topshiriqdan foydalanish mumkin:

2-topshiriq. So‘zning izohini o‘qing. Izohdagi asosiy va ikkinchi darajali so‘zlarni topib, tagiga chizing.

Shundan so‘ng mustaqil ravishda so‘z ma’nosini izohlashga o‘rgatishga o‘tish mumkin. Buning uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

3-topshiriq. (O‘quvchilarga ayrim so‘zlar yozdiriladi.) So‘zlarni izohlang. Izohingizdagi asosiy so‘z va ikkinchi darajali belgilarni ayting. Izohingizni lug‘atdan tekshiring.

4-topshiriq. Lug‘atdan so‘zlarning izohini o‘qing. Namunaga qarab berilgan so‘zlarning izohini yozing.

a) Obod – ko‘rkam binolar, chiroyli ko‘chalar, bog-u rog‘lar bilan go‘zallashgan. (Sarishta – ...)

b) Sumalak – undirib yanchilgan bug‘doy va undan tayyorlanadigan holvaytarsimon ovqat. (Lag‘mon – ...).

d) Do‘l – yumaloq muz holida yog‘adigan yog‘in. (Jala – …).

5-topshiriq. So‘zning ma’nosini ma’nodosh so‘z orqali izohlang. Yozganingizni lug‘atdan tekshiring. Masalan, armug‘on [9, 11], baxil [9, 16], betinim [9, 19]. Bunda ma’nodoshi bo‘lgan har qanday so‘zni aytish mumkin.

Lug‘at bilan gap darjasida ishlaganda ko‘p ma’noli so‘zlar ishtirok etgan gaplarni tanlash kerak.

6-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni *mol* so‘zi ma’nolarining lug‘atda berilgan tartibiga ko‘ra yozing.

Mol (lug‘at)

1. Yirik shoxli uy hayvoni. Qoramol.
2. Bisotdagi buyum, boylik.
3. Sotiladigan narsa, buyum, tovar.

Gaplar:

1. Yigit moli yo‘lida. (Maqol)
2. Bu do‘konda oziq-ovqat mollari sotiladi.
3. Nodir mollarga o‘t terib keldi.

7-topshiriq. *O‘lja* so‘zi ishtirokida uning lug‘atda berilgan ma’nolari tartibiga ko‘ra gaplar tuzing.

O‘lja (lug‘at)

1. Dushman ustidan g‘alaba qilish tufayli qo‘lga kiritilgan narsa.
2. Ovda qo‘lga tushiriladigan, tutib yoki otib olinadigan narsa.

3 – 4-sinflarda o‘quvchilarni lug‘at bilan mustaqil ishlashga o‘rgatuvchi topshiriqlardan foydalanish lozim. Shunday topshiriqlarga misollar:

1-topshiriq. (3-sinf “O‘qish kitobi” darsligi [11]dagi “Mehrjon sayli” matniga) Matnni o‘qing. O‘zingiz uchun tushunarsiz so‘zlarni yozib oling. Shu so‘zlarning izohini lug‘atdan topib, daftaringizga ko‘chiring.

Matn quyidagicha:

*Mehrjon bilan Navro‘z o‘zbeklarning eng go‘zal, eng tarovatli bayram sayillaridan hisoblanadi. Chunki ular xalqchil, hayotiy an’analardir.*

*Navro‘z bahor kirishi, qishning ayozli kunlaridan uzil-kesil qutulib, yangi kun, yangicha hayotning boshlanishini nishonlash bayramidir.*

*Mehrjon esa hosil ko‘tarib, qishga tayyorgarlik ko‘rishdir, to‘kin-sochinlikka shukronalik, hayotga muhabbat ramzidir.*

*Xalq kuzgi bayram sayilining nomini “Mehrjon” deb bilib qo‘ygan. U dehqon yil bo‘yi qilgan mehnatining lazzatini totib ko‘rayotgan paytda – 25-sentabrga o‘tar kechasi nishonlanadi.*

*Abu Rayhon Beruniy so‘zi bilan aytganda, Quyosh va Oy falakning ikki ko‘zi bo‘lganidek, Navro‘z bilan Mehrjon ham zaminning ikki ko‘zidir.*

O'quvchilar matndagi taxminan quyidagi so'zlarni yozib olib, izohli lug'at orqali ma'nosini bilib oladi: *tarovatli, sayil, xalqchil, hayotiy, an'ana, uzil-kesil, shuk-ronalik, falak, zamin.*

Bunday topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchida izohli lu'g'at bilan mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanadi.

Izohli lug'atdan faqat so'z ma'nosini aniqlash emas, o'quvchi lug'atini faollashtirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga ma'nosi izohlangan so'z ishtirokida so'z birikmasi va gap tuzdiriladi.

2-topshiriq. (3-sinf "Ona tili" darsligidagi 40-mashqqa) *Ma'naviyat, ma'rifat, da'vogar, ta'sirchan, ma'murchilik, mas'uliyat, ta'minot, e'tiqod, ma'yuslanmoq* so'zlarining ma'nosini lug'atdan foydalanib izohlang. Shu so'zlardan foydalanib gap tuzing.

Mashqda berilgan mazkur so'zlar ma'nosini 3-sinf o'quvchisi bilmaydi. Bu so'zlar ustida lug'at ishi o'tkazilmasa, ular hatto o'quvchining nofaol lug'atiga ham kirmay qoladi.

3-topshiriq. 3-sinf "Ona tili" darsligidagi 42-mashqqa. Lug'atdan foydalanib *qur'on, qo'rg'on, mo'jiza, da'vat, so'na, mas'ul, me'mor, qit'a, so'gal, sa'va, to'ng'iz* so'zlarining ma'nosini izohlang.

Shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi tuzing. Foydalanish uchun so'zlar: *mustahkam, tabiat, hushyorlik, shaxs, o'qimoq, bino, olti, g'adir-budur, mitti, ovlamoq.*

Xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin.

Kuzatishlarimiz ko'rsatadiki hozirgi kunda boshlang'ich va yuqori sinflardagi ona tili va adabiyot darslarida lug'atlardan foydalanish darajasi juda past. Bunday hodisaning sabablaridan biri o'quvchilarda bolalikdan lug'atdan foydalanish ehtiyoji va ko'nikmasi shakllantirilmaganligidir. Shuning uchun lug'atlar bilan ishlashni boshlang'ich sinfdan boshlash lozim.

O'qituvchilar tajribasini o'rganish natijasida ona tili darslarida lug'at ishi yetakchi o'rin egallamog'i lozim degan xulosaga kelish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchisida u yoki bu lug'atga (muammoga bog'liq ravishda) murojaat qilish odat tusiga kirsa, lingvistik masalalarni o'z oldiga qo'yib, ularga ongli ravishda javob topishga tayyor bo'lgan va bu ishni qila oladigan madaniyatli odamni tarbiyalashga asos yaratildi deb hisoblash mumkin.

## Adabiyotlar

1.Bobojonov Sh., Islomov I. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati (maktab o'quvchilari uchun). Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007. – 51 b.

2. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili 3-sinf uchun darslik. – Toshkent.: « O'qituvchi», 2012. – 144 b.

3. Hamrayeva Y. O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007.– 104 b.

4. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: «O'qituvchi», 2013. – 192 b.

5. Mengliyev B, Xudoyberdiyeva M, Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007.– 39 b.

6. Qosimova K., Fuzailov S., Ne`matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: «Cho'lpon», 2008. – 128 b.

7. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1995. – 192 b.

8. Rizayev S. Imlo va talaffuz lug'ati (boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun). – Toshkent: «O'qituvchi», 1998. – 80 b.

9. Safarov F., Safarov S. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun izohli lug'at. – Toshkent: «Fan», 2012. – 218 b.

10. To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlario'quv lug'ati. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007. – 38 b.

11. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: «O'zbekiston», 2012. – 224 b.

12. Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug`ati. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007. – 49 b.





**G'ulom SAYFULLAYEV**
Buxoro davlat universiteti boshlang'ich va maktabgacha ta'lim usuliyoti kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi

**Luiza ALIMOVA**
Buxoro davlat universiteti ekologiya kafedrasi o`qituvchisi

**Aziza SAYFULLAYEVA**
Buxoro pedagogika kolleji maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA KUZATISH METODIDAN FOYDALANISH

*Maqolada maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish, ekologik tarbiya berishning samarali metodlari xususida fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *maktabgacha ta'lim muassasasi, tarbiya, ekologik tarbiya, kuzatish, qushlar, ekskursiya, tarbiyachi, tabiiy boyliklar.*

*В статье размышляются об эффективных методах экологического воспитания в дошкольных учреждениях.*

***Опорные слова:*** *дошкольное учреждение, воспитание, экологическое воспитание, наблюдение, птицы, экскурсия, воспитатель, природные богатства.*

*In article is reflected on effective methods of environmental education in preschool institutions.*

***Supporting words:*** *preschool, education, ecological education, observation, birds, excursion, educator, natural wealth.*

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: ko`rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko`rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o`yin tarzida, mehnat, oddiy tajribalar, vaziyatlar yaratish), og`zaki (tarbiyachining hikoyasi, so`zlab, tushuntirib berishi, badiiy asarlarni o`qib berishi, bolalar bilan suhbatlashishi, she'rlarni o`qib berishi).

Kuzatish – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berishning yetakchi uslublaridan biri hisoblanadi. Kuzatish ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish maqsadida tarbiyachi-pedagog tomonidan tashkil etiladi va maktabgacha ta'lim muassasasida keng qo`llaniladi.

Kuzatish – murakkab bilish faoliyati bo`lib, unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi bilish vazifalariga ko`ra tarbiyachi kuzatishning xilma-xil turlaridan foydalaniladi. Ta'limiy va tarbiyaviy vazifaga ko`ra kuzatish uzoq muddatli va qisqa muddatli bo`lishi mumkin.

O`simlik va hayvonlarning o`sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o`zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg`arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi – uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to`g`ri keladi.

Kuzatish predmetning ayrim belgisiga ko`ra uning holatini aniqlash (masalan, o`simlikning tashqi ko`rinishiga qarab sug`orish, oziqlantirish, issiqlik, yorug`lik bilan ta'minlash, tagini yumshatish, akvariumdagi baliqlarning xatti-harakatiga ko`ra suvni qisman almashtirish zarurligini aniqlash va hokazo). Kuzatishlar davomida tarbiyachi tomonidan bolalarni o`simlik va hayvonlar, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirishda va shunga o`xshashlarda tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg`ulot va ekskursiyalarda, tabiat burchagida olib boriladi. Tarbiyachining kuzatishga qancha

bolani jalb etishi kuzatishning mazmunini hamda tarbiyachi o`z oldiga qo`ygan vazifaga bog`liq bo`ladi.

Kuzatish bolalarning aqliy faoliyatga o`tishi, ularni fikr yuritishga qo`yilgan masalalariga javob topishga undashi ularni tabiat hodisalarini bilib olishga bo`lgan qiziqishini o`stirishi, tabiatga ehtiyot-korona munosabatda bo`lishni tarbiyalashi, uni yanada go`zallashtirish tabiat boyliklarini ko`paytirish uchun faol harakat qilishga ishtiyoq uyg`otishi lozim.

Kuzatishni shunday tashkil etish kerakki, bolalar tabiatni bilib olishlariga samarali ta'sir ko`rsatsin. Kuzatishni bolalarni hayvonlar va o`simliklarni parvarish qilish bo`yicha amaliy faoliyat (qushlarga don berish, yo`laklarni qordan, xazondan tozalash, daraxt va butalar tanasi atrofiga qorlarni to`plash, o`simliklar ekish, sug`orish, begona o`tlardan tozalash) bilan qo`shib olib borilsa, yaxshi natijaga erishish mumkin.

Odamlarning g`amxo`rligiga qushlar o`zining sayrashi bilan minnatdorchilik bildiradi. Bolalar qushlarni parvarish qilayotib ular to`g`risida juda ko`p narsalarni bilib olishlari mumkin. Qushlar o`zining faqat chiroyli ko`rinishi, yoqimli sayrashi bilan kishilarni maftun etib qolmay, shu bilan birga tabiat sanitarlaridir. Ular juda ko`p zararkunanda hasharotlar bilan ovqatlanadilar. Ko`kragi sariq chittaklar juda ishonuvchan va vafodor qushcha. Agar ularni qish bo`yi ovqatlantirib turilsa, ular odamga o`rganib qoladi va bahorda ham u yerdan uchib ketmaydi.

Yilning har bir fasli o`zgacha tarovatga ega. Bahorda va yozda bolalar daraxtlar, butalar va boshqa o`simliklarning urug`larini sepadilar hamda ko`chatlar o`tqazadilar, o`simliklarning tevarak-atrofini yumshatadilar, vaqti –vaqti bilan suv quyib, begona o`tlardan tozalaydilar, oziqlantirib boradilar. Shu yo`sinda ish olib borib, ular o`simliklarning unib chiqishini, barg yozishini, gullashini, meva tugishi va pishib yetilishini kuzatib boradilar. Kuzatish va ekskursiya paytlarida ochilib turgan gullarni uzishlari, ninachi va har xil qo`ng`izlarni tutib cho`ntaklarga yoki qutichalariga solib olishlari mumkin. Oqibatda gullar so`lib, ninachi va qo`ng`izlarning qanotlari uzilib, oyoqlari sinadi. Bolalarga bunday bema'ni ishlardan o`zlarini tiyib turishga o`rgatishimiz va bu yomon oqibatlarga olib kelishini tushuntirishimiz kerak. Masalan: bolalarga shunday deyish mumkin: Ninachilar chivinlar bilan ovqatlanadi, bu bilan ular odamlarni har xil yuqumli kasalliklardan saqlaydi. Chunki chivinlar odamlarni chaqib, kasallik yuqtiradi. Kapalaklarni ham tutish kerak emas ekanligini, ularning tabiat quchog`ida guldan gulga o`tib uchib yurganini, ularning har xil ranglar bilan tovlanadigan qanotlarining chiroyliligini ku-zatib zavqlanish kerakligi haqida, bundan tashqari, ularning ko`pchiligi gullarni changlatishi va natijada o`simliklarning hosildorligi ortishi haqida tushuntirish lozim. Buning uchun tarbiyachi o`zi o`ta kuzatuvchan bo`lishi hasharotlar dunyosi biologiyasini, qaysi hasharot qayerda, qanday sharoitda yashashini, nima bilan ovqatlanishini, qanday foydasi va qanday zarari borligini yaxshi bilishi kerak.

Bolalarga chumolilarni o`ldirish, uyasini buzish kerak emasligi, ular ko`plab zararli hasharotlar bilan ovqatlanishi va tuproqni yumshatishi, shu bilan ular o`simliklarning o`sib chiqishi va yaxshi rivojlanishi uchun sharoit tug`dirishi haqida ham tarbiyachi bolalarga hikoya qilib berishi lozim. Tarbiyachi bolalar bilan chumolining uyasini kuzatadi. Ularni hamjihatlik bilan uyasini tozalayotganini, uyasidagi donlarni tashqariga olib chiqish oftobda quritayotganini yoki uyasiga donlarni, boshqa ovqat-larni tashib ketayotganini birgalikda kuzatadi. Kuzatishni tashkil etishda quyidagilarga rioya etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

1. Kuzatishdan ko`zlangan maqsad va vazifa bolalar uchun aniq bo`lsin.

2. Kuzatish jarayoni rejali ravishda, ma'lum izchillik bilan amalga oshirish kerak. Masalan: tarbiyachi bolalar bilan hayvonlarni kuzatayotganda, eng avvalo, bularning etiborini hayvonning xatti-harakatiga qaratadi. Nima qilyapti?, Nimani yeyapti? Qanday yeydi? keyin hayvonning tashqi belgilari ko`rib chiqiladi: tanasi qanday, nima bilan qoplangan? Oyoqlari qanday? Uzunmi yoki qisqami?

O`simliklarni kuzatish ularning eng yorqin, ko`zga tashlanadigan belgilarini kuzatishdan boshlanadi. O`simlikning guli yoki bargi shunga o`xshash belgilardandir. Ana shundan so`nggina o`simlikning tashqi tuzilishdagi xususiyatlari aniqlanadi: kattaligi, shakli, poyasi, (yoki tanasi ) ko`rib chiqiladi. Takroriy kuzatishlar bevosita asosiy vazifani hal qilishdan boshlanadi.

3. Kuzatish obyektini tanlashda bolalarning yoshi, bilim doirasi e'tiborga olinishi kerak. Kuzatadigan obyekt katta bo`lmasligi va ma'lum darajada aniq bo`lishi zarur.

4. Kuzatish bolalarni aqliy faolligini uyg`otadigan, mustaqilligini ta'minlaydigan qilib tashkil etilishi shart. Kuzatishda xilma-xil usullar (bolalarning yoshlarini nazarda tutib): savollar, topshiriqlar, predmetni sinab ko`rish, qiyoslash, solishtirish, o`yin va mehnat harakatlaridan foydalaniladi.

5. Kuzatishdan olayotgan taassurotni tarbiyachi aniq so`zlar bilan tushuntirish orqali to`ldirib boradi. Kuzatilayotgan obyekt to`g`risida to`laroq tasavvurni shakllantiradi, bolalarning lug`atini boyitadi, faol nutqi o`sadi.

Bolalarda qiziqish, kuzatishga nisbatan emotsional his uyg`otish, predmetlarni estetik idrok etilishini ta'minlash maqsadida pedagog kichkintoylar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarda she'rlardan, folklorning kichik shaklidan katta guruh bolalari bilsan esa mashg`ulotlar yakunida badiiy asarlarni o`qishdan ham foydalansa bo`ladi.

Kuzatish jarayonida tarbiyachi bolalarga gullarni behuda uzmaslik kerakligini, chunki gullardan meva tugishi, mevasidan yana shunday o`simlik o`sib chiqishi, aks holda bunday o`simliklar butunlay yo`q bo`lib ketishi mumkinligi to`g`risida hatto ko`pchilikka keraksizdek ko`ringan yovvoyi o`t o`simliklaridan odamlarning sog`ligi uchun juda zarur va foydali bo`lgan dorilar olinishini ularning bargi, mevasi bilan ko`pchilik hasharotlar, hayvonlar, qushlar ovqatlanishini tushuntirib beradi.

Uyda parvarish qilish uchun sharoit bo`lmasa, ayrim hayvonlarni uyga olib kelish kerak emas (toshbaqa, tipratikan, jo`ja, baliqchalar va hokazo), chunki sharoitning ko`pligi natijasida bolaga hayvonga nisbatan befarqlik yuzaga keladi, bola uni yo tashlab yuboradi yoki ochdan o`lib qoladi. Ba'zan bolalar ba'zi bir hayvonlarni ulardan qo`rqqanidan o`ldirib qoyadi. Shuning uchun kattalar bolalarga ona tabiatning go`zalligini ko`rsata bilishlari, undan keladigan foyda tabiatda o`z-o`zidan mavjud emasligi, tabiatdagi mavjud narsalarning hayoti rivojlanishi bir-biriga bevosita bog`liq ekanligini tushuntirishlari zarur. Yer yuzidagi jonzotlar ichida odamlar aqlli, shu bilan birga, rahmsiz bo`lishi ham mumkinligini eng vahshiy hayvonlar ham odamdan qochib qutula olmasligini, hayvonlar va o`simlik-lar o`zini-o`zi himoya qilolmasligi haqida, shuning uchun ularni asrab-avaylashimiz va himoya qilishimiz kerakligi haqida bolalarga tushuntirib berish lozim.

Mamlakatimizning iqlim sharoiti ayrim issiqsevar o `simliklarning o`sishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini bilib olishlari uchun maktabgacha ta'lim muassasasi maydonchasidan joy ajratib, yerga ishlov berish, paxta o`simligining chigitini o`tkazib uning hosili yetilgunga qadar parvarish qilish, o`sishi va rivojlanishini kuzatib borish samarali natija beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi gulzordan ma'lum joyni ajratib, bolalar bilan gullarning o`sishi va rivojlanishini hamda vaqtga va ob-havoga qarab o`zgarishini kuzatish mumkin. Bunday kuzatishlar bolalarda katta qiziqish uy-g`otadi va ularni asrab-avaylash uchun tabiiy xohish yuzaga keladi. Ular bunday kuzatishlar natijasida tabiat qonunlari, tabiiy hodisalar bir-biri bilan bog`liq ekanligini osonlik bilan anglab oladilar.

Momoqaymoq – o`tloq quyoshi, quyosh katta qora bulutlar ortiga yashirinishi bilan boshini yashil ro`moli bilan yopib oladi. Lola – har gal yomg`ir yog`ishidan oldin gullari yumilib qoladi. Yomg`ir yog`ishdan oldin karnay gulining qalin bargida suv tomchilari paydo bo`ladi. Tugmachagul, binafsha, beda gulining gullari yomg`ir yog`ishidan oldin yumilib qoladi.

Ko`p gullar ma'lum vaqtda ochilib yumiladi. Ularning ochilish va yumilish vaqti shunchalik aniqki, shunga qarab vaqtni aniqlash mumkin.

Hozirgi vaqtda ekologik tarbiya dolzarb masalalardan biri bo`lib turibdi. Yer yuzida aholi soni yil sayin o`sib bormoqda. Tabiiy resurslarni iste'mol qilishning ko`lami kengayib, sur'ati ortib bormoqda. Insonning tevarak-atrofdagi muhit bilan o`zaro munosabati esa murakkablashmoqda. Odamlarning xo`jalik faoliyati natijasida butun biosfera o`zgartirilib, yer yuzidagi jonzot uchun yangi, o`zgartirilgan muhit yuzaga keldi-ki, u bugungi kunda butun o`simlik, hayvonlar, shuningdek, odamlarning yashashi uchun zararli bo`lib qolmoqda. Shu sababli, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan unumli foydalanish masalasi hozirgi kunda butun insoniyat uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ekologik masalalarni yaxshi anglab olish hamda ularni to`g`ri amalga oshirish jamiyatimiz har bir kishising hayotiy zaruratiga aylanmog`i lozim.

Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, tabiatni qo`riqlash masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta`lim muassasalari, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o`quv yurtlarida ishlab chiqarish va jamoat joylarida kamol topayotgan yoshlar tabiat sirlarini va undan to`g`ri foydalanish usullarini har tomonlama puxta bilib olishlari shart. Kelajagimiz hozir makta-

bgacha ta`lim muassasalarida ta`lim va tarbiya olayotgan yoshlar qo`lidadir. Shu sababli, ularni tabiatga oid bilimlar bilan shunday qurollantirish kerakki, ular kelajakda tabiat boyliklarini muhofaza qila oladigan va ulardan rejali ravishda foydalana oladigan bo`lishsin.

Bolalar tabiat haqidagi elementar bilimlarni egallab olib, o`simliklarni o`stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o`rganib, tabiatni kuzatish, uning go`zalliklarini ko`ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va g`amxo`rona munosabatda bo`lishni tarbiyalash imkoniyati tug`iladi.

Bolalarda ona vatanga, uning tabiatiga, jonajon o`lkasiga muhabbat xuddi ana shu asosda shakllanadi.

Bolalarda tabiatga nisbatan faol muhabbatni, o`simliklar va hayvonlar haqida g`amxo`rlik qilish ko`nikmasini tarbiyalash, tabiat qo`ynida o`zini odob bilan tutish ko`nikmalari, ularda o`simliklarni o`stirish, hayvonlarni parvarish qilish va ularni muhofaza qilishga qiziqish uyg`otish, butalar va daraxt larni sindirmaslik, hayvonlarni qiynamaslik va qo`rqitmaslik, dam olish joylarida axlat qoldirmaslik ko`nikmalarini tarbiyalashni kichik guruhdan boshlab amalga oshirish ko`zda tutilgan.

Tabiatning faol himoyachilarini tarbiyalash kattalar rahbarligida tabiatni asrash bo`yicha ma’lum hajmdagi bilimlarni (o`simlik, hayvonlarning nomi, tuzilishi, yashash sharoiti, o`simlik-odam-hayvon, tabiiy omillar o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik) egallash, tabiatga tog`ri munosabatni shakllantirishni taqozo etadi.

## Adabiyotlar

1. Yusupova P. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. – Toshkent: “O`qituvchi”, 1995.
2. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslik o`qitish metodikasi. – Toshkent, 2005.
3. To`xtayev A. Ekologiya. – Toshkent, 1998.



**Rustam JUMAYEV**
Buxoro davlat universiteti
milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi kafedrasi o'qituvchisi



**Sadoqat MAXMUDOVA**
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich va maktabgacha ta'lim
uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi

## AHMAD DONISHNING PEDAGOGIK QARASHLARI VA HOZIRGI ZAMON

*Maqolada Ahmad Donishning boy ilmiy merosi va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish xususida fikr yuritilgan. Ahmad Donishning pedagogik qarashlarida bola tarbiyasining shakllanishiga ota rolining beqiyosligi keltiriladi va bu an'ana asrlar davomida O'zbekiston zaminida shakllanayotgan ta'lim tarbiyada o'z ifodasini topmoqda. Shuningdek, mutafakkir qarashlarining o'ziga xosligi uning sodda tilda o'quvchilarda tushunarli bo'lganligidadir. Inson umri davomida vaqtini behuda sarflashi, kasb-hunar egallamasligi oqibatini dalillar asosida keltiradi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *"Navodirul vaqoe", ma'naviy islohot, axloq, odob, insonparvarlik, odamiylik xislati, an'ana va urf-odatlar, madaniyat, san'at, fan, ta'lim.*

*В статье размышляется об использовании богатого научного наследия Ахмеда Даниша в процессе обучения и воспитания. В педагогических взглядах А.Даниша приводится о роли отца в формировании и воспитании ребенка, и этот обычай веками выражается в формировании воспитания в Узбекистане. А также, своеобразность взглядов мыслителя в том, что они доступны и понятны всем читателям.*

***Опорные понятия:*** *"Наводирул вакое", духовная реформа, мораль, гуманизм, человеческое качество, традиции и обычаи, культура, искусство, наука, образование.*

*In article is reflected on the use of rich scientific heritage of Ahmed Danish in the process of education and upbringing. In the pedagogical views of A. Danish was told the role about father in the forming and upbringing of child, and this custom is expressed by the forming of education in the land of Uzbekistan. Thereby, the peculiarity of the thinkers' minds is that they are accessible and understandable to all readers.*

***Supporting concepts:*** *"Navodirul vaqoe", the spiritual reform, morality, humanism, human quality, traditions and customs, culture, art, science, an education.*

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy islohotlar bevosita jamiyat turmush tarzi va dunyoqarashiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Davlat mustaqilligi e'lon qilingan dastlabki kunlardanoq ma'naviy islohot davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir" [1], – deb ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan mutafakkir Ahmad Donishning boy ilmiy merosi va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifoda etishda uning "Navodirul vaqoe" (Nodir voqealar), "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro" (Buxoro amirlarining tarjimayi hollari), "Risola dar nazmi tamaddun va taovun" (Sivilizatsiya tartibi va o'zaro yordam haqida) kabi o'nlab asarlari

e'tiborga molikdir. Bu asarlarda uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi:

1. Davlat boshqaruv tizimi va hukmdorga oid.
2. Davlat amaldorlari va rahbar-kadrlarni tanlash hamda joy-joyiga qo'yishga oid.
3. Harbiy qo'shinni tartibga keltirish va yuksaltirishga oid.
4. Xalq farovonligi va jamiyat siyosiy ongini oshirishga oid.

a) oilada ta'lim-tarbiya masalalari;
b) ta'lim tizimini isloh qilish;
d) huquqiy sohani isloh qilish.

Biz tadqiq etishga harakat qilgan mavzu "Xalq farovonligi va jamiyat siyosiy ongini oshirishga oid" ijtimoiy-siyosiy qarashlaridir. Ahmad Donish shoh asarlaridan biri hisoblangan "Navodirul vaqoe" ("Nodir voqealar") asariga "Farzandlarga vasiyat. Kasb hunarning foydalari haqida" deb nomlangan maxsus bob kiritgan. Mazkur bob mutafakkirning ellik yillik hayoti tajribasi xulosasi hisoblanadi va o'z-o'zidan ayonlashadaki, mutafakkir ta'lim-tarbiya xususida ham nazariy va amaliy boy ilmiy meros qoldirgan.

O'tdi umrim oh kim, g'aflat bilan,
O'tmasin umring sening mendek bo'lib.
O'zgalarning ko'rmishidan ibrat ol,
Boshqalarga qolmagil ibrat bo'lib.

Biz mutafakkirni yetuk olim va jamoat arbobi, ayni shu kezda Buxoro amirligi diplomatik missiyasining nufuzli davlat xodimi sifatida bilsakda, mazkur to'rtlikdan Ahmad Donish o'zining umrining yarmidan ko'pini yashab bo'lsa-da, hali ko'p bilim va hunarni egallashga ishora bildiryapti. Vaholanki, bu mutafakkirning kamtarona, odamiylik xislati edi. Biz avlodlar bundan yetarlicha xulosa chiqarib, oz o'rgangan bilimimiz bilan cheklanmay, aksincha, mutafakkir aytganidek hamisha izlanishimiz, ta'lim va tarbiya olishimiz zarurdir.

Allomaning pedagogik qarashlarida bola tarbiyasining shakllanishiga ota rolining beqiyosligi keltiriladi va bu an'ana asrlar davomida O'zbekiston zaminida shakllanayotgan ta'lim-tarbiyada o'z ifodasini topmoqda. Shuningdek, mutafakkir qarashlarining o'ziga xosligi uning sodda tilda o'quvchilarda tushunarli bo'lganligidadir. Inson umri davomida vaqtini behuda sarflashi, kasb-hunar egallamasligi oqibatini keltiradi. Mashaqqatsiz rohat, mehnatsiz ne'mat bo'lmas. "Topgan-tejaganlari, bola-chaqa, yor-do'stlari bu yerda qolib, o'zi qanday tug'ilgan bo'lsa shu holda, yalang'och dunyodan o'tadi" [2, 325], – deb yozadi Ahmad Donish. Tarixda boylikka hirs qo'ygan "Namrud, Fir'avnlarning halok bo'lganlari, Qorinu Shaddotning yer yutib, jahon xalqlarining la'natlariga qolganlarini", ya'ni hukmdorlarning ayanchli taqdirlarini misol sifatida keltiradi.

Mutafakkir shunday bir ilm va hunar o'rganish kerakki, u faqat millat va Vatanga xizmat qilishini uqtiradi. "Har bir hunarmand o'z hunarini qilsa-yu, lekin bundan maqsadi xalqqa foyda yetkazish bo'lmasa, unday hunardan baraka topa olmaydi" [2, 326] – deb uqtiradi. Boshqa bir joyda ilm va hunarlar insoniyat uchun foydali bo'lib, shu bilan birga ilmning o'sishiga yo'l ochadi. Biroq bulardan asl maqsad xalqqa foyda keltirishdan ibort bo'lishi lozimdir: buning orqasidan, albatta, non ham topiladi. Aks holda, har qanday ilm-hunar ham oxiri o'zi uchun zararli bo'lib chiqadi. Butun hunarlarning a'losi ilmdir. Hunar egallashdan oldin ta'lim-tarbiya olmog'i, shundan so'ng jamiyat foydasiga xizmat qiladigan hunar egallash lozimligini ta'kidlaydi. "Har bir musulmon odam eng avval o'ziga zarur bo'lgan ilmlarni o'qishi farzdir. Shundan so'ng tirikchilik uchun biror kasb-hunar egallashi lozim. Ahmad Donishning ta'kidlashicha: "Hunar va san'atlar ichida eng yaxshisi aql va ruh gavharlariga jilo berib uni quvvatlashdir. Kishi aql tajribasini oshirsa, ruhini poklasa u, shubhasiz, ilm va hunarning qadr-qiymatiga yetadi. Shuning uchun sof ruhlik, oqil odamlar boshqa odamlar u yoqda tursin hatto podshohlarga ham keragidan ortiqcha bosh egmaydilar. Balki alqning ehtiyoji doimo ularga tushib turadi. Mana, ko'rmaysanmi, dunyoning muhim ishlari, ayniqsa, saltanat va davlat ishlari aqlli kishilarning yordamisiz bitmaydi. Qaysi saltanat – davlatning qoida va qonunlari aql tadbiriga moslashtirib qurilmagan bo'lsa, unday davlatdan hech vaqt yaxshilik ko'ra olmaydilar..." [2, 125].

Mustaqillik sharofati bilan bugun ozod yurt farzandlari kasb-hunar kollejlarida mutafakkir Ahmad Donish orzu qilganidek, dastavval ilm olmoqda va o'zlari xohlagan kasb-hunar egasiga aylanmoqda. Mutafakkir qarashlari markazida axloq va odob, insonparvarlik, boylikka hirs qo'ymaslik g'oyalari

ustuvor hisoblanadi. Agar dunyo orttirish maqsadida ilm o'qib, eng yuqori darajaga yetib, shayxulislom bo'lsanglar ham, xudo oldida sizlardan go'laxda (hammomda o't yoquvchi – R.J.) yotgan bir fosiq yaxshiroqdir". Kasb-hunar tanlanganda ham uning qiyinchiliklari bo'lishi mumkinligi va shu holatda ortiqcha qayg'urmasdan shukr va sabr qilishlikni, sinovli kunlarda bardoshli, umidsiz bo'lmasdan doimo harakatda bo'lishi lozimligini aytadi. Mutafakkirning mazkur fikrlari bugungi globallashuv jarayonida, ayniqsa, endigina kasb-korga ega bo'lgan yoshlar hayotning o'nqir-cho'nqirlariga sabrli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ahmad Donish zamonasining kasb-hunarlari haqida ham ma'lumot keltiradi. Ular ichida markaziy o'rinda mudarrislik, muallimlik kasbi turadi. Mutafakkir aytganidek, "bundan ulug' kasb yo'qdur" [2, 358]. Shunday bo'lsa-da, alloma zamonasining ta'lim tizimi va xodimlarining faoliyatini tanqid qiladi. Savdogarlar va hunarmandlarning topgan davlatlari ko'p mehnat va mashaqqatlar topganlaridan keyin erishganlar. Buni qo'lga kiritish uchun bozor va rastalarda yugurib yurish, safarlarda ko'p og'irliklarga sabr qilib, chidash lozimdir. Qanday kasb-hunarni qilmoqchi bo'lsangiz, uning tinchlik tomonini o'ylash kerak. U, ayniqsa, tarix, falsafa, falakiyot, tibbiyot, riyoziyot, adabiyot, handasa (geometriya) ilmlarini chuqur o'rganishga harakat qiladi. Ahmad Donish astronomiya asoslarini o'rganishga ko'p e'tibor berdi. O'zining aytishiga qaraganda, astronomiyani Mirzo Abdulfattoh munajjimdan o'rgangan [3]. Ulardan olingan saboq Ahmad Donishning kamolotiga yordam beradi.

Mutafakkir pedagogik qarashlarining yana bir ajralib turadigan jihati bugungi zamon bilan hamnafas vazifalardan biri til o'rganish masalasini o'rtaga tashlaydi. Ahmad Donish yashagan davr nuqtayi nazaridan qaraganda, arab tili va Yevropa tillarini o'rganishni taklif etadi. Qisqa muddat davomida Ahmad Donish Peterburgda bo'lgan bo'lsada, vaqtdan unumli foydalanishga alohida e'tibor berdi. Unga safardosh bo'lgan Rossiya tashqi ishlar vaziri drogmani, sharqshunos Qozimbek bilan yanada qadrdonlashdi, har qanday vaziyatda imkon topib har kuni besh soatcha vaqt davomida rus tilini o'rgana boshladi. Shu tariqa u o'z fikrini rus tilida mustaqil ifodalash darajasiga erisha olgan [4]. Buning natijasida Ahmad Donish amir hukumati nomidan rus ma'murlari bilan muzokaralar olib borganligini manbalarda keltiriladi [5]. Shu nuqtayi nazardan u "Navodir ul vaqoe" asaridagi "Farzandlarga vasiyat" bobida arab [2,370] tilini o'rganishni, "Risola yo muxtasari az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya" (Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida esa ruslar va fransuzlar [6] bilan boshqa bir asarida esa inglizlar [7] bilan bo'lib o'tgan suhbatlarini keltiradi. Til o'rganish va til bilishning ko'p hollarda foydali jihatlarini yoritishga harakat qiladi va buni yaxshi madaniyat sohibi ekanligini anglatuvchi omil sifatida baholaydi.

## Adabiyotlar


1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 76-77.
2. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe – T.: Fan, 1964.
3. Homidiy H. Ko`hna sharq darg`alari. – T.: Sharq, 1999. – B. 332.
4. Хади-Заде Р. Ахмад Дониш – писатель и просветитель. – Душанбе: «Дониш», 1976. – Б. 19.
5. Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. С подробным маршрутом от Ташкента до Бухары. С. Петербург: Бортиевского, 1871. – С. 72-73.
6. Ahmad Donish. Risola yoxud mang`itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. (Tarjima, izohlar va kirish so`zi muallifi Q.Yo`ldoshev). – T.: "O`zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014. – B. 60.
7. Дониш Ахмад. Путешествие из Бухары в Петербург. 1960. – С. 68.



**Nigora ADIZOVA**
Buxoro davlat universiteti boshlang`ich va
maktabgacha ta'lim uslubiyoti kafedrasi o`qituvchisi

# ONA TILI TA'LIMI MAZMUNINI YANGILASHNING METODIK AHAMIYATI

*Maqolada boshlang'ich va o'rta ta'lim ona tili ta'limini uzviylashtirish muammosi xususida fikr yuritiladi. Ona tili ta'limini uzviylashtirishda bilimlar izchilligiga e'tibor berish bosh parametr sifatida tahlil qilinadi.*

***Tayanch tushunchalar:** boshlang'ich ta'lim, uzviylik, ona tili darsliklari, ijodiylik, bilim, topshiriq, uzluksizlik.*

*В статье идет речь о проблемах последовательности обучения родному языку в начальной и средней школе. Анализируется основной параметр заострения внимания к последовательности знаний по родному языку.*

***Опорные понятия:** начальное образование, последовательность, учебники по родному языку, творчество, знание, задание, непрерывность.*

*The article deals with the problems of consistency in teaching the mother tongue in primary and secondary school. It is analyzed the main parameter of treatt attention to the sequence knowledge in native language.*

***Supporting concepts:** primary education, succession, textbooks in native language, creativity, knowledge, task, continuity.*

Uzluksiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. "Samaradorlik" va "sifat" inson faoliyatining barcha sohalarida eng ko'p qo'llanadigan tushunchalardir. Ammo ularning pedagogik mohiyatini tahlil qilishga oid ishlar barmoq bilan sanarli darajada oz. Bu tushunchalarning mazmuni, hajmi va ularning pedagogik jihatlarini o'rganishga oid adabiyotlarning tanqisligi samaradorlik va sifat tushunchalarining o'ta murakkabligi, fanlararo hodisa ekanligi bilan izohlanadi.

Samaradorlik va sifat o'zaro korrelyativ sabab va oqibat shaklida bog'langan hodisalar bo'lib, oldingisi – samaradorlik keyingisi – sifatning yaxshilanishiga olib keladi. Binobarin, o'quvchilar o'zlashtirishining sifatini yaxshilash uchun ta'limning samarali, interaktiv usullari, vositalaridan foydalanish ehtiyoji tug'iladi. Samaradorlik ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad bilan erishilgan natija o'rtasidagi tafovutga ko'ra o'lchanadi. Agar erishilgan natija qo'yilgan maqsadga qancha yaqin bo'lsa, ta'lim jarayoni shuncha samarali amal qilgan hisoblanadi. Aks holda natija qo'yilgan maqsaddan qancha tafovut qilsa, ta'lim jarayonining samarasi shuncha past sanaladi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, samaradorlik ta'lim jarayoni jihatidan o'rganiladigan, tahlil qilinadigan hodisadir.

Agar ta'limning samaradorligi ta'lim jarayoni jihatidan o'rganiladigan va baholanadigan hodisa bo'lsa, sifat o'quvchi o'zlashtirishi jihatidan tadqiq qilinadigan didaktik-metodik hodisa deb baholaymiz.

Ta'limning sifati deyilganda bilim, faoliyat usullarini atroflicha chuqur o'zlashtirshi, bilim va faoliyat usullaridagi tezkorlik-operativlik bilan foydalanish, muammo, topshiriq, test va mashqlarni bajarish tempi, o'rganilgan bilimlarni tatbiq qilish darajasi – sekin, o'rtacha, tez, matn mazmunini qisqartirib yoki kengaytirib so'zlay olish, bilimlarning to'liqligi kabilar tushuniladi. Misol tariqasida ta'lim sifatining eng so'nggi belgisi – bilimlarning to'liqligini olib ko'raylik. Bilimlarning to'liqligi Davlat ta'lim standart (DTS)larida belgilangan me'yoriy talablarga, o'quv dasturlarida belgilangan bilim, ko'nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi mazmuni va hajmiga ko'ra tahlil qilanadi.

Shunday ekan, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining istagan bo'g'iniga e'tibor beradigan bo'lsak, qaysidir tomondan yangicha yondashuvmi? yoki zamonaviy talablar doirasida o'qitishga oid sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'limni isloh qilish yoshlarni hayot, ishlab chi-

qarish, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashga yordam beradi. Prezidentimiz tadqiqotchilar diqqatiga havola qilgan didaktik va metodik muammolar:

-boshlang‘ich sinflar mohiyati (“Zamonaviy boshlang‘ich ta’limning o‘zi nimadan iborat bo‘lishi kerak”);

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining real o‘quv imkoniyatlari (“Norasida bolaning miyasi, ongi nimani o‘ziga singdira oladi...”);

-shaxs kamolotida mustaqil fikrlashning o‘rni (“Bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi”);

-ta’lim subyektlari – o‘qitish va o‘qish faoliyatining o‘zaro munosabati (“O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatida ongli intizom”);

-bolalarni mustaqil fikrlashga maxsus o‘rgatish lozimligi (“O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat...”);

-shaxsning umumiy taraqqiyotida gumanitar ta’limning ahamiyati (“... chet tillarni o‘rganish, minba’d ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo‘lmasligi lozim”);

-ona tili ta’limining maqsadi (“O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olish zarurligi”)ga daxldor masalalar bo‘lib, ular ta’limni zamonaviy talablar asosida tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Qayd etilgan muammolarni tadqiq qilish qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Avvalo, ta’limda o‘quvchilarning maqomini yangilash, ularni ta’lim jarayonining faol sub’ektiga aylantirishga ehtiyoj tug‘iladi. Qolaversa, ta’limni bolalarning o‘quv-biluv faoliyatiga, binobarin, tafakkuriga mo‘ljallab tashkil etish tamoyillari, usullari, vositalarini asoslashga, o‘quvchilarning o‘quv-biluv imkoniyatlarini keng yoritish zaruriyati dolzarb bo‘lib qoladi. Shuningdek, bugungi davr boshlang‘ich ta’lim dasturi mazmunini yangilash, darsliklarning mazmunini boyitish, boshlang‘ich va o‘rta ta’limda uzviylikni ta’minlash kabi vazifalarni mutaxassislar oldiga ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, bugungi amaliyotdagi ona tili dastur va darsliklariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim ona tili darsliklaridagi nomutanosiblik mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda boshlang‘ich va hozirgi amaldagi V sinf darsliklarida berilgan ayrim mavzular yuzasidan fikrlarimizni bayon etmoqchimiz.

Amaldagi boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarining bezalishi, o‘quv materiali va o‘quv topshiriqlari shu yoshdagi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga mos tarzda berilgan. Ammo ushbu darsliklarda o‘quvchini ijodiylikka, mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar nihoyatda kam berilgan. Hozirgi davr talabi esa o‘quvchini ko‘proq mustaqil va ijodiy fikrlashga undovchi o‘quv topshiriqlari miqdori ko‘proq bo‘lishni talab etadi. Ijodiy xarakterdagi topshiriqlar ko‘paytirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

V sinf uchun chop etilgan darslik (Mualliflar: N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo‘raboeva) bir oz bo‘lsada puxtaroq tuzilgan bo‘lib, unda o‘quvchini mustaqil fikrlashga undovchi o‘quv topshiriqlariga alohida e’tibor berilgan. Ammo mazkur darslikda nazariy bilimlarning berilishida qandaydir murakkablik bordek tuyuladi. Chunonchi, darsliklarimiz yosh avlodni bilimli qilishga mo‘ljallangan ekan, avvalo, talab darajasida bo‘lmog‘i lozim. Nazarimizda, hozirgi kunda maktablarda qo‘llanib kelayotgan ona tili darsliklaridagi o‘quv materiallarining bog‘lanmasligi kelajakda o‘zining salbiy oqibatlari, o‘quvchilarining leksik, sintaktik hamda nutq malakalariga ziyon yetkazishi mumkin. Birgina misol: 3-sinf ona tili darsligida (Mualliflar: S.Fuzailov, M.Xudoyberganova) “Gap va uning turlari” mavzusi keltirilgan. Mavzuda gapning darak, so‘roq va undov kabi turi mavjudligini bola (3-sinfning 1-choragida) o‘rganadi. Xuddi shunday ma’lumotni 4-sinfda mustahkamlaydi. Lekin 5-sinfning 1-choragida bola shu mavzuni quyidagi tushunchalar orqali o‘zlashtiradi: “Darak gap”, “So‘roq gap”, “Buyruq gap”, “Istak gap”, “His-hayajon gap”. Ko‘rinib turibdiki, kechagina boshlang‘ich sinfdan o‘rta ta’limga o‘tgan bolada chalg‘ish, ikkilanish holatlari kuzatiladi. Negaki, ular bundan oldin “Buyruq gap”, “Istak gap”, “His-hayajon gap” degan tushunchalarni ishlatmagan bo‘ladi. Xuddi shunday holat 5-sinfda “So‘z birikmasi” mavzusida ham kuzatiladi.

Bizningcha, 5-sinf ona tili darsligida (Mualliflar: N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshqalar) berilgan mavularning ketma-ketligini boshlang‘ich sinf ona tili darsligi hamda o‘quvchi o‘zlashtiradigan bilimlar tizimi asosida joylashtirilishi zarur. Masalan, 5-sinf darsligidagi 46-47-48-49-darslarda o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar o‘quv yilining boshida o‘rgatilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Saba-

bi mazkur mavzular yuzasidan beriladigan bilimlar bevosita 4-sinfda ham o‘rganilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, darslikning 118-betidan 163-betigacha bo‘lgan “Fonetika” va “Grafika” bo‘limlari yuzasidan o‘rganiladigan mavzular o‘quv yilining boshida o‘qitilsa, ya’ni “Sintaksis va punktuatsiya” bo‘limining o‘rniga joylashtirilishi o‘quvchilarning o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, darslikning “Leksikologiya” bo‘limida berilgan “Shakldosh so‘zlar”, “Uyadosh so‘zlar”, “Paronimlar”, “Tasviriy ifoda”, “Shevaga xos so‘zlar”, “Lug‘at va lug‘atshunoslik” kabi mavzularni o‘quvchilar o‘zlashtirish jarayonida qiyinchilik tug‘diradi. Negaki, boshlang‘ich sinflarda bu tushunchalar xususida hech qanday nazariy ma’lumotlar berilmaydi. Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, ikkala bosqich darsliklarida tilshunoslik nazariyasidan beriladigan bilimlar, o‘quv topshiriqlari o‘rtasida qandaydir bo‘shliq paydo bo‘layotganga o‘xshaydi. Holbuki, o‘quv darsliklari ketma-ketlik, izchillik kabi didaktik tamoyillarga bo‘ysunishi lozim.

Endi darsliklardagi mashqlarga nazar tashlasak: 2-sinf ona tili (K.Qosimova, S.Fuzailov, A.Ne’matova) darsligidagi 65-66-67-68; 89-90-91; 101-102-103-mashqlarning sharti tayyor qoidani eslashga, ya’ni xotiraga mo‘ljallangan. Bunday ko‘rinishdagi mashqlar o‘quvchini bir xillikka – tayyor qoliplar asosida ishlashga o‘rgatadi. Holbuki, darsliklarimiz ijodiy xarakterdagi topshiriqlarga boyitilishi zarur.

5-sinf darsligida ijodiy xarakterdagi topshiriqlar to‘ppadan-to‘g‘ri murakkab holatda beriladi. Jumladan, darslikda matn tuzish bilan bog‘liq mashqlar ko‘plab berilgan. Matn yaratishga doir mashqlarni me’yor asosida berilishi metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, 127-129-132-136-mashqlar matn tuzish bilan bog‘liq. Bolaga bunday mashqlarning ortiqcha berilishi uning aqliy zo‘riqishiga olib keladi hamda psixologik va fiziologik tomonlariga salbiy ko‘rsatadi.

Darsliklar o‘rtasidagi uzviylik ta’minlanmasa, yosh avlodning fonetik, leksik, orfografik, morfologik va sintaktik bilimlaridagi kemtiktik ochiq qolaveradi. Darsliklar xususida gapirayotib, u yoki bu darslikni maqtash yoki qoralash maqsadidan yiroqmiz. Har bir tuziladigan darslik yosh avlodni har tomonlama yetuk, dunyoqarashi rivojlangan, mustaqil va ijodiy fikrlash doirasi keng bo‘lgan barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmog‘i shart.

## Adabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997.

2. Hamroyev A.R. Boshlang`ich sinf ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish. Ped.fanl.nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2005.

3. Ne’matov H.G`., G`ulomov A.Q. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: O`qituvchi, 1995.



**Nigora SAFAROVA**
Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim uslubiyoti
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

# O‘YINCHOQLARNING BOLALAR YOSHIGA, JINSIGA VA O‘YIN MAZMUNIGA KO‘RA TURLANISHI

*Maqolada o‘yinchoqlar o‘yin harakatini ta’minlashda o‘ziga xos vazifa o‘tovchi muhim vosita sanalishi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, bolalar o‘yin faoliyatiga oid harakatni predmet boshqaradigan o‘yinlarning kattagina qismi esa o‘yinchoqlar vositasida o‘ynalishi qayd qilingan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *o`yin, o`yinchoq, chaqaloq, qo`g`irchoq, marosim qo`g`irchoqlari, qo`riqchi qo`g`irchoq, harakatlanadigan qo`g`irchoq.*

*В статье идет речь об игрушках, которые являются своеобразным важным средством при выполнении игровых движений. А также, отмечается что дети посредством игрушек управляют игровой деятельностью.*

***Опорные понятия:*** *игра, игрушка, новорожденный, кукла, куклы церемоний, куклы-хранители (чучела), движущиеся куклы.*

*The article reflects on toys, which is an original important tool in the performance of game movements. In addition, it is noted that children can control the game activity through the toys.*

***Supporting concepts:*** *game, toy, newborn, doll, ceremonial dolls, guardian dolls (stuffed animals), and driving dolls.*

O‘yinchoqlar ham, o‘yinlar kabi, bolalar yoshiga, jinsiga, mazmuniga ko‘ra farqlanadi. Shuni inobatga olib, Y.M. Peshcherova o‘yinchoqlarni bolalar yoshiga qarab ikki guruhga ajratgan: chaqaloqlar o‘yinchoqlari; o‘rta yoshli bolalar o‘yinchoqlari.

Chaqaloqlar o‘yinchoqlari, asosan, beshikka ilib qo‘yiladi. Bunga munchoq-tumorlar, ot shaklidagi yog‘och osma haykalchalar, har xil ovozli, shovqinli, shaqqildoq, chiyildoq, siltab o‘ynaladigan, tortib o‘ynaladigan, yengil va kichik hajmli o‘yinchoqlar kiradi.

O‘tmishda beshikka maxsus shisha munchoq tumorlar ilib qo‘yilgan. Ular bir tomondan bolani yomon ko‘zdan, hasadu suqdan asraydi deb qaralgan, ikkinchi tomondan, bola uchun o‘yinchoq vazifasini o‘tagan.

Ilgari chaqaloqlarni ovutib o‘ynatish uchun aylana yoki uzunchoq shaklidagi sopol shaqshaqalar yoki ichi o‘yib olinib, oftobda quritilgan oshqovoqqa toshchalar to‘ldirib yasalgan shaqqildoqlardan, yana mofirrak, bomfirrak, bodbizak, viz-vizak, g‘urrak, churrak, obxo‘rak kabi turli shovqinli o‘yinchoqlardan keng foydalanilgan. Bolalar 5-6 yoshgacha shunday o‘yinchoqlarni o‘ynashgan.

Ma’lumki, bola qo‘llari narsa ushlaydigan bo‘lgach, hamma narsani o‘yinchoq sifatida o‘ynamoqchi bo‘ladi. Shuning uchun ba’zida uning oldiga bodring, handalak, olma, nok kabi iste’mol qilinadigan, bola og‘ziga solib yutib yubormaydigan, qattiq va silliq narsalar o‘yinchoq sifatida tashlab qo‘yilaverilgan.

2-3 yashar bola ko‘rgan-bilganlarini o‘yinchoqlar vositasida aks ettiradi, jonlantiradi. Bu uning uchun o‘yin hisoblanadi.

Bolalar yosh paytida o‘ynaydigan o‘yinchoqlar bola jinsiga qarab ajratilmaydi. Go‘daklik davrida hamma bolalar bir xilda ovozli va shovqinli, harakatli o‘yinchoqlarni o‘ynaydilar. Biroq bolalar ulg‘aygan sayin o‘z jinsiga qarab, o‘yinchoqni tanlab o‘ynay boshlaydi. Masalan, o‘g‘il bolalar ko‘pincha ushpulak (hushtak), to‘p, kalto‘p, miltiq, o‘q-yoy, mashina, raketa, samolyot, traktor kabi o‘yinchoqlarni o‘ynasalar, qiz bolalar, asosan, qo‘g‘irchoq va ro‘zg‘or buyumlari shaklidagi o‘yinchoqlarni o‘ynaydilar. Bolalar to ommaviy holda majburan maktabga jalb qilinguniga qadar, o‘g‘il bolalar esa 6-10 yasharliklarigacha o‘yinchoq o‘ynaganlar. Shundan keyin esa ular darsdan kelib, ota-

onalariga uy-ro‘zg‘or ishlarida ko‘maklashishgan, o‘qituvchi uyga berib yuborgan vazifani bajarganlar. Shu sababli, ularning o‘yinchoq o‘ynashga vaqti qolmagan. O‘tmishda qiz bolalar ko‘p holda maktabga tortilmagan. Shu sababli, ular o‘g‘il bolalarga qaraganda uzoq vaqt o‘yinchoq o‘ynaganlar. Hozir esa qiz va o‘g‘il bolalar o‘rtasida bu sohada hech qanaqa farq qolmadi.

O‘tmishda o‘rta yoshli o‘g‘il bolalar uchun ko‘pincha dehqonchilik; duradgorlik kasbida ishlatiladigan mehnat qurollari o‘yinchoq shaklida kichkina, ixcham qilib yasab berilgan. Bolalar ular ko‘magida ota-onalariga yordamlashishgan. Masalan, kichkina, miniatyur omoch, poza orqali bola otasi bilan bir safda turib yer haydagan. Yoki kichkina o‘roq vositasida o‘t yo bug‘doy o‘rgan; o‘yinchoq bolta bilan o‘tin yorgan va hokazo. Kichkina qilib yasalgan mehnat qurollari bola qo‘liga mos bo‘lib, ish jarayonida uni charchatmagan. Qaytaga bola kattalar bilan bir safda turib, ular qatori foydali ish qilayotganligidan shod-mamnun bo‘lgan.

Qizlar uchun ham ko‘pincha ro‘zg‘orda ishlatiladigan maishiy buyumlar nusxasida o‘yinchoqlar yasab berilgan. Jumladan, yog‘och nova, korson, guppi, yorg‘uchoq kabi. Ular vositasida qizaloqlar katta ayollarning mehnat sharoiti, ro‘zg‘or ishlarini bajarishga daxldor ko‘nikma va malakalarini egallay borganlar. Bunday o‘yinchoqlar bolalar uchun o‘yin faoliyatidan mehnat faoliyatiga oson moslashib ketishga yordam ko‘rsatgan. Katta bo‘lgach, ular bu xil ishlarni qiynalmay bajaradigan bo‘lishgan.

O‘rta yoshli o‘g‘il bolalar uchun yog‘ochdan, gildan, sopol va toshdan hayvon tasviridagi o‘yinchoqlar yasab berilgan. Ayniqsa, “Ot” – “Aspak” nomli o‘yinchoq keng tarqalgan. U ba’zan aravali, ba’zan aravasiz ko‘rinishda yasalgan. Otning usti kashtado‘z qizlar tomonidan tikilgan xurjin osib bezatilgan. Unga berilgan zeb “bezanak” deb yuritilgan. Ot-o‘yinchoq ko‘pincha yog‘ochdan yasalgan. Yog‘ochdan yana tulki, tuya nusxasidagi o‘yinchoqlar ham ishlov berilgan.

Hayvon obrazidagi o‘yinchoqlarni kulollar ham yasashgan. Ular ot, eshak, qo‘chqor, taka, qo‘y, ho‘kiz, qizlar uchun esa sigir, echki kabi sog‘iladigan jonivorlarning o‘yinchoq shaklini, shuningdek, turli uy-ro‘zg‘or idishlari akslangan o‘yinchoqlarni yasab berganlar.

Temirchi ustalar o‘g‘il bolalarga atab gurzi, kamon, miltiqcha, to‘p, palaxmon, shamshir, kordcha (pichoqcha) kabi o‘yinchoqlarni yasashgan. O‘g‘il bolalar ulardan bog‘dorchilikda mevalarga hujum qilgan qushlarni haydashda foydalanishgan.

Demak, o‘yinchoqlar burungi zamonlarda ma’lum bir ijtimoiy maqsadni ko‘zlab yaratilgan. Ular bolalar maishiy turmushida alohida o‘rin tutib, muayyan vazifalarni ado etgan.

Doira, chang, dutor, rubob, karnay, nay kabi musiqa asboblari nusxasida yaratilgan an’anaviy o‘yinchoqlar vositasida bolalarning musiqaga havasi, intilishi, e’tibori kuchaytirilgan.

O‘rta yoshli qizlar o‘yin faoliyatida eng ko‘p qo‘llanadigan o‘yinchoq-qo‘g‘irchoqdir. Qo‘g‘irchoqlar qayerda va nima uchun qo‘llanishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. O‘yinchoq qo‘g‘irchoqlar.
2. Marosim (magik) qo‘g‘irchoqlari.
3. Qo‘riqchi (xo‘sa) qo‘g‘irchoqlar.
4. Harakatlanadigan qo‘g‘irchoqlar (marionetkalar).
5. Artist yoki teatr qo‘g‘irchoqlari.

Qo‘g‘irchoq qadimiy o‘yinchoqlardan biri sifatida mashhur. Uning qadimiyligini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan ma’lumotlar orqali ham bilib olish mumkin. Unda qo‘g‘irchoqning qadimgi turkiy xalqlar orasida “Oxshanchik, oxshog‘u, kuzurchik, qoborchuq” deb yuritilgani ma’lum. Sug‘diylar qo‘g‘irchoqni “zocha va zochak” shaklida ishlatishgan. Alisher Navoiy davri adabiyotlarida esa bu o‘yinchoq turi “lo‘bat, lo‘batak” shakllarida uchraydi. “Zochak” so‘zi hozir ham buxoroliklar orasida qo‘g‘irchoqni anglatadi.

Lutfak, liftak, luftuk, luxkak, vazoq, puchchak, argush, lo‘bat, zocha, zochakcha kabi nomlar qo‘g‘irchoq nomlarini ifoda etadi. Qo‘g‘irchoqlar ikki jinsda yaratiladi: Ayol jinsida ko‘pincha “kelinchak” (“Arus”), “raqqosa” (“bozingar”) otli, erkak jinsida esa “shohkak” (“podsho”), “mortiyak”, “askar” nomli qo‘g‘irchoqlar yasalganligi ma’lum.

Qiz bolalar o‘z qo‘g‘irchoqlarini juda asrab-avaylab o‘ynashgan. Hatto ko‘pchilik qizlar turmushga uzatilganda, o‘z qo‘g‘irchog‘ini ham eri xonadoniga olib ketgan va uni birinchi farzandi tug‘ilgunicha asrab-avaylagan. Bolasi tug‘ilgach esa, uni bolasiga tortiq qilgan. Qo‘g‘irchoqni bunday e’zozlash bejiz emas. Chunki qadimda unga nisbatan hosildorlik, farzand ramzi sifatida qaralgan. Jumladan,

chukotkalik ayollar uchun qo‘g‘irchoq “farzand ko‘rish homiysi” hisoblangan. Qizlar qo‘g‘irchog‘i turli joylarda turlicha nomlar bilan atab kelinadi:

Qo‘g‘irchoqlar odam shaklida yaratilishi bilan boshqa o‘yinchoq turlaridan farq qiladi. Ammo ilgarilari qo‘g‘irchoqlarning yuz tasviri ifoda etilmagan. Yuz o‘rnida romb yoki iks shaklida belgi qilib qo‘yilgan. Chunki qo‘g‘irchoqqa yuz chizilsa, qayta tirilish kunida u ham boshqa insonlar qatori tirilib, uni yasagan ustadan jon talab qilarmish. Shunda usta unga o‘z ruhidan baxsh etishga majbur bo‘larmish, deya irim qilingan. Qo‘g‘irchoq o‘yinlarida, asosan, ayol personajlar qiyofasi jonlantiriladi. Chunki aksariyat qo‘g‘irchoqlar qiz yo ayol timsolida yasalgan bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoq o‘yinida xotin-qizlar ishtirokida o‘tadigan xalq an’anaviy marosimlari o‘ziga xos tarzda sahna ko‘rinishida jonglantirib beriladi. Bu jihatdan qizlarning qo‘g‘irchoq o‘yinini o‘ziga xos sahna asari sifatida baholash mumkin. Chunki ular u yoki bu hayotiy voqelikni o‘z idroklari asosida qo‘g‘irchoq vositasida jonlantirib, sahna asari namoyish etadilar. Shuning uchun qizaloqlarning bu o‘yinini ba’zan katta yoshli kishilar yoki bu o‘yinga qatnashish huquqidan mahrum qilingan o‘g‘il bolalar, yo qo‘g‘irchog‘i yo‘q boshqa qizaloqlar ortda turib, zo‘r qiziqish va e’tibor bilan, zerikmasdan uni tomosha qilib turadilar. Qo‘g‘irchoq o‘yinini o‘shnash ham, uni kuzatib turish ham zerikarli kechmaydi. Shuning uchun qo‘g‘irchoq o‘yinlari uzoq vaqtgacha, aniqrog‘i, ikki soatdan besh-olti soatgacha davom ettirilaveradi. Uning tomoshabinlari garchi o‘yinda ishtirok etmayotgan bo‘lsalar-da, uning qatnashchilari kabi tomoshadan olam-olam zavq oladilar.

Qo‘g‘irchoq o‘yinida qizaloqlar hayot sahnasini yaratar ekanlar, u yoki bu voqelikning kechishini ko‘rsatib berib, unga nisbatan o‘z munosabatlarini namoyon etadilar. Asosan, bunda qizaloqlarning ayrim marosimlar, urf-odatlar, irim-sirimlar haqidagi bilimlari namoyon bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoq o‘yinida ba’zan qizaloqlar o‘yin mazmuniga mos keladigan xalq qo‘shiqlaridan namunalar ham kuylashadi. Masalan, ular “Bola-bola” (Buxoroda bu o‘yin nomi “bacha bozi” yoki “bacha-bacha” deb yuritiladi) o‘yinini o‘ynash jarayonida “bola-chaqaloq” ko‘rinishida yo‘rgaklangan qo‘g‘irchoqlariga “alla” kuylab, ona obrazini ifoda etadilar. Bunda qizaloqlar onalar nutqiga xos bolani erkalatuvchi va ovutuvchi so‘zlardan, onalar repertuariga oid suyish qo‘shiqlari hamda beshik qo‘shiqlaridan foydalanadilar. Agar qizaloqlar “Xola-xola”, “Mehmon-mehmon”, “Uycha-uycha”, “To‘y-to‘y” o‘yinlarini o‘ynasalar, bunda o‘z qo‘g‘irchoqlari vositasida biror-bir marosimning o‘tkazilish tarzini yoki insonlar o‘rtasida kechadigan qarindoshchilik yo qo‘shnichilik munosabatlarini ko‘rsatib beradilar.

Xullas, o‘yinchoqlar o‘yin harakatini ta’minlashda o‘ziga xos vazifa o‘tovchi muhim vosita sanaladi. Bolalar o‘yin faoliyatiga oid harakatni predmet boshqaradigan o‘yinlarning kattagina qismi esa o‘yinchoqlar vositasida o‘ynaladi. Shu sababli bolalar o‘z faoliyatida o‘yinchoqlardan o‘yin predmeti sifatida samarali foydalanishlari kuzatiladi.

O‘yinchoqlar inson aqlu zakovati, qo‘l mehnati natijasida estetik jihatdan sayqal berib ishlangan madaniy predmetlardir. Shuning uchun O‘yinchoqlarni insoniyat yaratgan madaniy boyliklardan biri deb hisoblash mumkin. Ular o‘ziga xos ijod namunasi, san’at asari hisoblanadi.

O‘yinchoqchoqlar inson hayotida tasodifan paydo bo‘lmagan. Ularning kelib chiqishiga turli kultlar (ajdodlar kulti, olov kulti, suv kulti, shamol kulti va hokazolar)ga, homiy kuchlarga sig‘inish bilan bog‘liq har xil diniy-e’tiqodiy marosimlar, mifologik tasavvur-tushunchalar yetarli ta’sir ko‘rsatgan. Aytaylik, qadimda ajdodlar kultiga sig‘inish tufayli o‘lgan kishilarning loydan yoki yog‘ochdan haykalini (qo‘g‘irchog‘ini) yasab, uni bir yilgacha marhum yashagan uyda saqlaganlar. Qirg‘izlar marhumning yostig‘iga uning kiyimini kiydirib, yostiqni qo‘g‘irchoq shakliga solganlaru to bir yil muddatgacha uni marhum o‘rniga yotqizib qo‘yganlar. Bu bilan ajdodlar kultiga hurmat, ishonch, e’tiqodiy munosabat ifoda etilgan. Shuningdek, qadimgi ajdodlarimizning suv tangrisi Tishtriya (Sust xotin) sharafiga marosim o‘tkazib, unda marosim jarayonida Sust xotinning ramzi sifatida yog‘och qo‘g‘irchoqni ko‘tarib, eshikma-eshik yurib “Sust xotin” qo‘shig‘ini kuylashlari haqidagi ma’lumot ham e’tiborga loyiq. Yoki yana ekin-tikinlarni qushlar hujumidan himoyalash maqsadida poliz-paykallar o‘rtasiga qoqib qo‘yiladigan “qo‘g‘irchoq-himoyachilar” (xo‘salar) aslida qut-barakani ta’minlovchi hosildorlik kultlarining ramziy shaklidir.

Bora-bora kultlarga nisbatan bunday ibtidoiy-mifologik qarashlar so‘na borgach, asta-sekin kultlar tasviri aks ettiriladigan qo‘g‘irchoqlar batamom bolalar qo‘liga tushib, o‘yinchoqqa aylangan.

O‘yinchoqlar tarixi juda qadimga borib taqaladi. Ularning qadimiyligini arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan talay namunalari to‘la tasdiqlaydi. Shu asosda aytish mumkinki, o‘yinchoqlar hali elatlar shakllanmagan davrlarda paydo bo‘lgan. Negaki, turli mamlakatlarda olib borilgan arxeologik qazishlar jarayonida topilgan o‘yinchoqlar deyarli biri-ikkinchisidan farq qilmaydi. Bu esa qadimda barcha xalqlar orasida o‘xshash shakldagi o‘yinchoqlar keng tarqalganligini, insoniyat dunyoqarashining o‘zanlari bir nuqtada tutashishini ko‘rsatadi. Qolaversa, bolalar o‘yinchoqlarida talay regional o‘xshashlik belgilarining saqlanib kelinayotganligi ildizlarini shu asosda izlash mumkin. Aytaylik, rus sopol qo‘g‘irchoqlarining yasalish usuli, bo‘yoqdorligi, aksaran, odam qiyofasida yoki totem jonivorlar timsolida bo‘lishi, pishirib tayyorlanishi hech shubhasiz vobkentlik oddiy o‘zbek usta ayoli Hamro buvi tomonidan yasalgan o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlardan deyarli farq qilmaydi. Ular orasidagi farq faqat obrazlar mazmunidagina seziladi. Chunki rus qo‘g‘irchoqsozlari yaratgan san’at asarlari orasida ayiq kulti asosida ishlangan qo‘g‘irchoq-o‘yinchoq: ayiq, cho‘chqa obrazi ko‘p uchraydi. O‘zbek sopol o‘yinchoqlari orasida esa ot, ot arava obrazi keng tarqalgan. Buning sababi shundaki, rus xalqi qadimda ayiq kultiga sig‘ingan. Cho‘chqa esa ular ko‘p va sevib tanovul qiladigan go‘sht mahsulotidir. O‘zbeklar uchun ot totem hayvon hisoblanadi. Shuning uchun sopol o‘yinchoqlarda uning tasviri ko‘p uchraydi. O‘zbek o‘yinchoqlari orasida cho‘chqa obrazi asosida yaratilgan namunalar uchramaydi. O‘zbeklar Qur’oni Karimda bu jonivor harom sanalganligi uchun uning go‘shtini iste’mol qilishdan o‘zlarini tiyadilar. Aslida cho‘chqa issiqligi baland hayvon bo‘lgani uchun uni janubiy (quyosh ko‘p qizdiradigan) o‘lkalarda iste’mol qilish inson ahvolini tang qiladi. Bundan janubliklarning issig‘i yanada oshib, ularni turli-tuman toshma va qichima xastaliklariga mubtalo qiladi. Sopol o‘yinchoqlar orasida inson qiyofasida yasalgan sopol qo‘g‘irchoqlar ham bor. Faqat ular turli yumoristik yoki satirik qiyofalarda tasvirlanganligi kuzatiladi.

Ijtimoiy-milliy munosabatlarning paydo bo‘lishi va shakllana borishi jarayonida paydo bo‘lgan xalq o‘yinchoqlari, asosan, bolalar predmetli o‘yinlarining yetakchi personajlari hisoblanadi. Ularda har bir millatning ruhiyati, urf-odatlari, dunyoqarashi mujassamlantiradi.

Xullas, o‘yinchoqlar bolalarning yoshiga, jinsiga, qiziqishiga, turmush tarziga qarab tanlab o‘ynaladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. O‘yinchoqlar bolalarga o‘yin orqali hayot voqealarini badiiy ifoda etishga yordam beradigan, ularni chinakam hayotni o‘zlashtirish sari yo‘llaydigan, yashashga daxldor malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘yin predmetidir. O‘yinchoqli o‘yinlar predmetli o‘yinlarning tarkibiga kiradi.

2. O‘yinchoqlar turlicha bo‘lib, o‘yinning xarakteriga, mazmun yo‘nalishiga, o‘ynalish tarziga qarab, turlicha obrazlarni ifodalab keladi. O‘yinchoqlar har xil obrazlarda bo‘lib, ular vositasida muayyan hayot voqeligi tasvirlab ko‘rsatiladi.

3. O‘yinchoq o‘yini shunchaki bolalarning ermagi emas. Ular xalqimizning qadimiy va an’anaviy san’at turini o‘zida namoyon etadi.

4. O‘yinchoq o‘yinlari teatr tomoshalaridan tubdan farq qiladi. Chunki ular aniq bir sahnada, muayyan ssenariy asosida tashkitl etilmaydi. Ular situativ xususiyatga ega. Ya’ni ular ma’lum vaziyatdan kelib chiqib o‘ynaladi va bir martalik xarakterga ega bo‘ladi. O‘yinchoqli o‘yinlar bolalardan professionallikni talab etmaydi. Bolalar o‘yinchoq o‘yinlarini tashkil qilish uchun maxsus maxsus tayyorgarlik talab qilinmaydi.

5. O‘yinchoqlar inson aqlu zakovati, qo‘l mehnati natijasida estetik jihatdan sayqal berib ishlangan madaniy predmetlardir. Shuning uchun o‘yinchoqlarni insoniyat yaratgan madaniy boyliklardan biri deb hisoblash mumkin. Ular o‘ziga xos ijod namunasi, san’at asari hisoblanadi.

6. O‘yinchoqlar inson hayotida tasodifan paydo bo‘lmagan. Ularning kelib chiqishiga turli kultlar (ajdodlar kulti, olov kulti, suv kulti, shamol kulti va hokazolar)ga, homiy kuchlarga sig‘inish bilan bog‘liq har xil diniy-e’tiqodiy marosimlar, mifologik tasavvur-tushunchalar yetarli ta’sir ko‘rsatgan.

7. O‘yinchoq o‘yinida ba’zan bolalar o‘yin mazmuniga mos keladigan xalq qo‘shiqlaridan namunalar ham kuylashadi.



**Zarif UMUROV**
Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim uslubiyoti
kafedrasi katta o‘qituvchisi

## O‘QUV - BILUV MUAMMOLARI TURLARI

*Maqolada o‘quv-biluv muammolarining turlari haqida fikr yuritilgan. Bola ijtimoiy aloqalashuvning turli sohalarida ishtirok etib, o‘yinlar vositasida atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni o‘zlashtirish, kuzatish va tajribalar yo‘li bilan tilni o‘rganish, katta kishilarning ostensiv tushuntirishidan yangi-yangi so‘zlarning ma’nolarini, turli sintaktik qurilmalarni egallash, ta’lim sharoitida til va nutqni o‘zlashtirish kabilar xususida bayon qilinadi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *muammo, o‘quv-biluv muammosi, muloqot, o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘quv topshirig‘i, dars, o‘quv materiali.*

*В статье размышляется о видах учебно-познавательных проблем, об усвоении детьми, учавствуя в разной сфере социальных контактов, изменений посредством игр, наблюдение и изучение языка, освоивание синтактических построений языка и речи в образовательных условиях.*

***Опорные понятия:*** *проблема, учебно-познавательная проблема, общение, учитель, ученик, учебное задание, урок, учебный материал.*

*In article is reflected on types of educational and cognitive problems. It is told about the assimilation by children participating in the different sphere of social contacts of changes through games, the observation and study of the language, to master of syntactic language constructions and speech in the educational conditions.*

***Supporting concepts:*** *the problem, the educational and cognitive problem, communication, teacher, student, the educational task, lesson, the teaching material.*

Muammo har xil shart-sharoit, turli shakllarda amal qilishi, yo‘nalishi, maqsad va ehtiyojlari, motiv hamda emotsiyalariga ko‘ra bolalarning o‘yin, muloqot, mehnat, o‘quv hamda biluv faoliyatlari bir-biridan farqlanadi. O‘yin bolaning dunyoni bilishidagi dastlabki faoliyati bo‘lib, u o‘zining jozibadorligi, erkin ishtirok, bola ruhiyatiga mosligi bilan faoliyatning boshqa turlaridan farq qiladi. Atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo‘lish ehtiyojidan bolada asta-sekin nutq faoliyati ham shakllana boshlaydi. Nutq faoliyatining shakllanib, rivojlanib borishi bolani mehnat o‘quv, biluv faoliyatiga tayyorlaydi. Bola taraqqiyotining turli bosqichilarida faoliyatning ma’lum bir turi yetakchi bo‘lib, uning qolgan boshqa turlari shu faoliyatni amalga oshirish vositasi shart-sharoiti, tashkiliy shakli funksiyalarini bajaradi. Mutaxassislarning, jumladan, A.K. Markovaning yozishicha, maktabgacha yoshda o‘yin, boshlang‘ich sinflarda o‘qish yetakchi o‘quv faoliyati sanaladi [1, 31].

Bolalarning o‘quv o‘rganishi, bilishi faoliyatining boshqa turlarida ham amal qiladi. Qo‘g‘irchoq, avtomashina modeli bilan o‘ynayotgan bola ularda katta kishilarning xatti-harakatlarini takrorlaydi: qo‘g‘irchoqni davolayotgan, turli detallardan mashina tayyorlayotgan bola tevarak-atrofdagi narsalarning mohiyatini bilib, oladi. Shunga o‘xshab, mehnat faoliyatida ham o‘rganish, bilish jarayonlari amal qiladi. Xo‘p, shunday ekan, bolalarning o‘quv faoliyati va bilish faoliyati bir xil hodisalarmi? Agar ular har xil hodisalar bo‘lsa, unda bu ikki xil hodisaning umumiyligi va ularning har birining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Bola ijtimoiy aloqalashuvning turli sohalarida ishtirok etib, o‘yinlar vositasida atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni o‘zlashtirish, kuzatish va tajribalar yo‘li bilan tilni o‘rganish, katta kishilarning ostensiv tushuntirishidan yangi-yangi so‘zlarning ma’nolarini, turli sintaktik qurilmalarni egallash, ta’lim sharoitida til va nutqni o‘zlashtirish. Ijtimoiy aloqalashuvning har bir shakliga faoliyatning ma’lum turi to‘g‘ri keladi: o‘yin, o‘yin faoliyatini, kuzatish va tajribalar til dalillari bilan ishlashni, ostensiv tushuntirish o‘zgalar nutqini tinglashni, darslik va o‘qituvchi nutqi ona tilining lingvistik hamda nutqiy jihatlarini egallash faoliyatini taqozo qiladi.

Tilni o‘zlashtirishning turli shakllari va ularga oid faoliyat turlari o‘zaro aloqador bo‘lsa-da, ular bir-biriga ijobiy yoki salbiy ta’sir qiladi. Bolalarning maktabga kelguncha hosil qilgan nutq malakalari – nutq tovushlarini fahmlash, ularni ijro eta bilish, bola nutqida turli-tuman so‘zlarning mavjudligi, so‘z ma’nolarini ajrata olish tajribasining asta-sekin takomillasha borishi, gap, nutq tuzish layoqati, fikrni o‘zgalarga yetkazish va sh.k. maktab ona tili predmetini o‘zlashtirish uchun manba hisoblanadi.

Maktab ona tili ta’limi bolalarning maktabgacha hosil qilingan nutq tayyorgarligi ustiga quriladi. Bola maktabga kelgunga qadar ayrim nutq tovushlarini noto‘g‘ri eshitib, noto‘g‘ri o‘rgangan bo‘lishi mumkin. O‘quvchining nutqida sheva elementlari ham ancha topiladi. Zero, har bir maktab, har bir o‘quvchi sheva sharoitida yashaydi. Bular ona tili ta’limining o‘qitilishiga salbiy ta’sir qiladi. Ularni bartaraf etish orqali ona tili ta’limining samaradorligi oshirila boriladi.

Ona tili ta’limi sharoitida bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini kuzatish shu xulosaga olib keldiki, ma’lum mavzuga oid bilimlar o‘rganilgach, shu bilimlarga rioya qilib intellektual va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalar xatolarga yo‘l qo‘yadi. Bu o‘quvchilarning bilimlarni yomon o‘rgan-ganining natijasi emas, balki o‘rganilgan bilim bilan uni nutq faoliyatida qo‘llash o‘rtasida mustahkam aloqadorlikning hosil qilinmaganligidir. Bilim va uning nutq faoliyatida qo‘llanishi o‘rtasidagi bog‘-liqlik mashq qilish orqali o‘rnatiladi. Mashq, savollarga javob izlash, topshiriqlarni bajarish yo‘llari bi-lan bolalarning nutq faoliyatidagi nuqsonlari kamaytiriladi.

An’anaviy metodika qoidalariga ko‘ra o‘quvchilar ona tilidan ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda qator bosqichlarga rioya qilib, faoliyatni amalga oshiradi: 1) mavzu doirasida ta’rif, qoida, aniqliklarni o‘rganish – bu bosqichda o‘rganilgan bilimlarni isbotlash, sharhlash uchun dalillar tanqisligi mavjud bo‘lib, o‘quvchilar o‘zlashtirgan mavzuga doir dalillarni keltirishga qiynaladi, oldin o‘rganilgan mavzularga oid dalillarni yangi mavzuga doir dalillardan farqlay olmaydi; 2) bilimlarga oid dalillarni to‘plash va ularni tahlil qilish davom ettiriladi, o‘rganilgan bilimlarga rioya qilib mashqlarni bajaradi. Endi bolalar ta’rif, qoidalarni sharhlashda yetarli dalillarni egallab olishgan bo‘lsa-da, bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq qilishda qiynaladi. O‘z-o‘zidan mavzuni o‘zlashtirishni davom ettirishga ehtiyoj tug‘iladi. Shu ehtiyojga binoan yana mashq qilishga vaqt ajratiladi; 3) o‘rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq qilish malakalarini rivojlantirish. Bu bosqichda o‘rganilgan bilimlarni nutqda ishlatish, matn yaratish ustida ish qilinadi; 4) o‘rganilgan ta’rif, qoida, aniqliklarni ona tili predmetiga oid keyingi mavzularni o‘rganish jarayonida davom ettirish bosqichi. Sanab o‘tilgan bosqichlarning barchasida bolaning o‘quv-biluv faoliyati tildan, tilning turli nuqtai nazarlariga mansub bilimlardan nutqqa qarab borish tamoyiliga rioya qilib, ona tili ta’limi amalga oshiriladi.

Ta’lim sharoitida bolalarning ona tilini o‘zlashtirishiga oid o‘quv-biluv faoliyati o‘ta murakkab, yaxlit tizim bo‘lib, tarkiban, motiv, maqsad, vosita, natijadan iborat. Ammo yaqin-yaqingacha bolalarning o‘quv-biluv faoliyati alohida o‘rganilmagan edi. Keyingi yillarda bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini alohida o‘rganish moyilligi kuchayib bormoqda. Biz bu yerda O.R. Roziqov, A.Q. G‘ulomov, B.R. Adizov kabi qator olimlarning uzoq yillar o‘tkazgan tadqiqotlarini nazarda tutyapmiz. Shu izlanish orasida B.R. Adizovning ilmiy-pedagogik tadqiqoti alohida ahamiyatga molik. U o‘quv-biluv faoliyatining umumiy qurilishini o‘rgandi. Uning ta’rifiga ko‘ra, faoliyat – “bu ijtimoiy qimmatli motivlarga ko‘ra maqsad sari yo‘nalgan, o‘ziga oid vositalar asosida ma’lum natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir” [4, 119].

"Biz, – deb yozadi muallif, – o‘quv faoliyati va biluv faoliyatini yaxlitning ikki tomoni sifatida qaraymiz. Ular bir nuqtadan chiqqan, bir-birini to‘ldiradigan, shu bilan birga, bir-birini taqozo qiladigan disparat – bir-birini inkor qilmaydigan hodisalardir" [4, 119].

O‘quv faoliyati ham, biluv faoliyati ham bitta ijtimoiy hodisaga-ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga daxldor. B.R. Adizovning ilmiy-pedagogik izlanishida o‘quv faoliyati va biluv faoliyati o‘rtasidagi farqlar juda keng tahlil qilingan: agar o‘quv faoliyati bilim, ko‘nikma, malakaga yo‘nalgan bo‘lsa, biluv faoliyati bilim, ko‘nikma, malaka bilan birga ijodiy faoliyat tajribasi munosabatlarini shakllantirishga yo‘nalgan. Binobarin, dastlabki farqni o‘rganiladigan hodisalar kengligi, biluv faoliyatining boyligida ko‘ramiz; o‘quv faoliyatida o‘zlashtirish reproduktiv xarakterda bo‘ladi. Bola o‘qituvchi aytgan topshiriqlarni ijro etadi, o‘qituvchi va o‘rtoqlari faoliyatiga ergashadi. Biluv faoliyatida o‘zlashtirish mahsuldor amal qiladi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan hamkorlikda o‘z oldiga topshiriqlar

qo‘yadi, muammo, topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Demak, bu faoliyat turlarining yana bir farqi faoliyatning amal qilish xarakteri bilan izohlanadi; o‘quv faoliyatida bola ta’limning obyekti, biluv faoliyatida esa ta’limning subyekti rolida ishtirok etadi. Ta’limning obyekti yoki subyekti funksiyalarida ishtirok etish bu ikki xil faoliyatning navbatdagi farqlaridir; o‘quv faoliyati va biluv faoliyati o‘rtasidagi yana bir farqni bolalarning mustaqilligi darajasida ko‘ramiz. Biluv faoliyatida bolalar mustaqilligi yanada yuqori darajada bo‘ladi [4, 120-121].

Keltirilgan tahlildan ko‘rinadiki, bolalarning o‘quv-biluv faoliyati murakkab hodisa bo‘lib, o‘ziga xos tarkibiy qismlarga ega: motiv, maqsad, vosita, natija.

Motivlar o‘quv-biluv faoliyatini harakatga tushiradi. Maqsad – bu oldindan anglangan natija. Natija o‘quv-biluv faoliyati ixtiyoriga o‘tgach, vositaga aylanadi. Bola o‘z ixtiyoridagi bilim, faoliyat usullari, aqliy mehnat usullari u yoki bu muammoni, o‘quv topshirig‘ini bajarishda vosita vazifasini bajaradi.

Bolalar faoliyatining ikki tomonini farqlaymiz: o‘quv faoliyati; biluv faoliyati. O‘quvchi faoliyatining har ikkala tomoni uchun umumiylik o‘rganishdir. Boshqacha aytganda, bola o‘quv faoliyati vositasida ham, biluv faoliyati vositasida ham ijtimoiy tajribani o‘rganadi. Shu bilan birga, ularning farqli tomonlari ham mavjud. Bolada oldin o‘quv faoliyati shakllanadi. Shu tufayli o‘quv faoliyatini genetik jihatdan birlamchi deb qaraymiz. Biluv faoliyati genetik jihatdan ikkilamchi bo‘lib, u bolalar tafakkuriga mo‘ljallab tashkil etiladi. Bola biluv faoliyati vositasida yangi bilimlarni, faoliyat usullariga oid axborotlarni egallaydi. Faoliyatning biluv tomoni yangi axborot, yangicha faoliyat usullarini egallash bilan, o‘quv tomoni bilim, faoliyat usullarini tanish sharoitlarda ishlatish bilan izohlanadi.

O‘quv materialining o‘quv topshirig‘i shaklida o‘zgartirilishi qancha rang-barang bo‘lsa, bolalar ona tili mavzularini shuncha puxta, atroflicha o‘zlashtirishadi. Shu bilan birga, o‘quv topshirig‘i bilimlarni tanish va yangi sharoitlarga ko‘chirish, ularni nutq amaliyotiga tatbiq etishning eng qulay vositasi sanaladi. Ona tilidan o‘quv topshiriqlarini bajarish yo‘li bilan bolalarda nutq faoliyati takomillashadi, ona tili bo‘yicha hosil qilingan ko‘nikmalar takomillashib, malakaga aylanadi. Binobarin, o‘quv topshirig‘i bolalarda ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan faoliyatni tarbiyalashning bosh omili hisoblanadi.

Ona tilidan o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida qator talablarga rioya qilinadi: topshiriqni bajarish uchun yaroqli bilimni o‘quvchi o‘z shaxsi faoliyatidan izlaydi. O‘z faoliyatidan topshiriqni bajarishga asqotadigan bilimni izlash bolalarda tanlay olish layoqatini o‘stiradi; o‘rganilgan bilim va faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq qilish. Bilimni, faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq qilish yo‘li bilan mashq qilinadi; o‘rganilgan bilim va faoliyat usulini yangi-notanish o‘quv holatiga tatbiq qilish. Shunday yo‘l bilan o‘quvchi bilimlarni ijodiy tatbiq qilish usullari, sharhlarini egallaydi; o‘quv topshirig‘i vositasida ona tilidan o‘rganilayotgan obyekt (so‘z yoki gap, nutq tovushi yoki bo‘g‘in)ning yangi belgilarini ajratish. Bunday o‘quv topshirig‘i vositasida ona tiliga oid mavzular ijodiy yo‘l bilan o‘r-ganiladi. O‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida rioya qilinadigan talablarga ko‘ra ularning quyidagi tiplarini belgilaymiz.

Mashq qilishga oid o‘quv topshiriqlari. "Mashq" va "mashq qilishga oid o‘quv topshirig‘i" tushunchalarini ikki xil hodisa deb tushunamiz. Mashq o‘quv topshirig‘i vositasida o‘tkaziladi. U o‘qish va o‘rganish usuli bo‘lib, o‘quvchiga taalluqli. Mashq qilish uchun tuzilgan topshiriqlar asosida bolalar ona tilidan o‘rganilgan bilimlarni o‘xshash, bir xil o‘quv holatlariga tatbiq qilishadi. O‘rganilgan bilimlarni bir xil, o‘xshash o‘quv holatlarda takrorlash ko‘nikmalarining takomillashib, malakaga aylanishiga olib keladi. Mashq qilish uchun o‘quv topshiriq asosida mashq qilinadi. Mashqdan erishiladigan natija o‘quvchi faoliyatida saqlanadi.

Bilishga oid o‘quv topshiriqlari – yangi bilim, yangicha faoliyat usullarini mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan o‘quv vazifalaridir. B.R. Adizovning yozishicha, biluv topshiriqlarini ikki jihatdan: 1) ta’lim mazmuni tarkibi; 2) bola faoliyatida bajaradigan ishi bo‘yicha tasnif etish mumkin [4, 154].

O‘quv-biluv faoliyatiga ko‘ra biluv topshiriqlari. Hozirgi didaktik va metodik izlanishlarda ta’lim mazmuni tarkibida bilim, ko‘nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlar tizimini ajratish moyilligi kuchayib, umumiy qarash maqomini olmoqda.

**1-jadval**

**Ta’lim mazmunini o‘rganish jarayonida bajaradigan ishiga ko‘ra o‘quv-biluv muammolarining tasnifi**

| № | O‘quv-biluv muammolarining turlari | O‘quv-biluv muammolarining tavsifi |
|---|---|---|
| 1. | Yangi bilimlarni qayd etishga oid o‘quv-biluv muammolari | Bu tipdagi muammolarni o‘quvchilar bajara turib, o‘rganilayotgan hodisaning yangi nuqtai nazarini mustaqil belgilab, bilimlarni yangi sharoitlarga qo‘llab, xulosa chiqaradi |
| 2. | Ko‘nikma va malakalarni yanada takomil-lashtirishga oid o‘quv-biluv muammolari | Ular vositasida hosil qilingan malakalar yanada takomillashtiriladi, mavzuga oid yangi dalillar to‘planadi |
| 3. | Ijodiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirishga oid o‘quv-biluv muammolari | Bu xildagi topshiriq vositasida bolalar yangicha faoliyat tajribasini egallab oladi |
| 4. | Tilga munosabatni shakllantirishga oid o‘quv-biluv muammolari | Bolalar o‘zlari, o‘rtoqlari tuzgan matnlarni tanqidiy baholab tekshiradi. Bunday topshiriqlar bolalarda tilga munosabatni tarbiyalaydi |
| 5. | O‘rganilgan bilimni yangi o‘quv sharoitiga tatbiq qilishga oid o‘quv-biluv muammolari | O‘quv-biluv muammolarining ikkinchi turini ta’limga tatbiq etish yo‘llarini oydinlashtirishga dalillar keltiradi |

1- va 2-topshiriqlar yangi mavzuga oid obyektlarni tanlash ularni ikki guruhga ajratib yozish usulini aniqlash bilan:

Masalan, 2-sinf o‘quvchilariga quyidagicha topshiriq berish mumkin.

Ikki ustunda so‘zlar (otlar) berilgan. Ularni o‘zaro taqqoslab, farqlarni aytib berishga tayyorlaning.

| **1-ustun** | **2-ustun** |
|---|---|
| qush | qushlar |
| daftar | daftarlar |
| kitob | kitoblar |

Ikkinchi ustundagi otlar nimasi bilan birinchi ustundagi otlardan farq qiladi?

Tasavvur qiling: bolalar atoqli otlarni o‘rgangan bo‘lsa-da, qishloq nomlarining yozilishini hali o‘rganishmagan. Shunday holatda bolalar diqqatini matnga tortsak. Matnda qishloq nomlari ham bor.

Topshiriq: matnni o‘qib, qishloq nomini bildirgan so‘zlarni yozing. O‘zingiz yozgan so‘zlardan qanday xulosa chiqarish mumkin.

3-topshiriq esa otlarni so‘roqlariga ko‘ra ikki guruhga ajratish usulini yangi o‘quv holatiga tatbiq qilish bilan izohlanadi. O‘quvchi 1-tur biluv topshirig‘ida amaliy faoliyat asosida xulosa chiqarishga, 2-tur biluv topshirig‘ida esa o‘rganilgan bilimni esga tushirishdan va uni yangi o‘quv holatiga tatbiq qilishga qarab boradi.

3. Biluv topshiriqlarining 3-turi ikki yoki undan ortiq mavzu doirasida o‘tkazilib, umumlashtiruvchanlik xususiyatiga ega. Masalan, 3-sinfda ot, sifat, son, fe’l so‘z turkumlarini o‘rgatish yakunlangach, quyidagicha umumlashtirish tipidagi biluv topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Savollarga mos misollar o‘ylab yozing.

| Kim? | Qanday? | Nechanchi? | Nima qildi? |
|---|---|---|---|
| ……………….. | ……………….. | ……………….. | ……………….. |
| ……………….. | ……………….. | ……………….. | ……………….. |
| ……………….. | ……………….. | ……………….. | ……………….. |

O‘zingiz yozgan so‘zlarni qayta tahlil qilib, har bir so‘z turkumining ta’rifini esga tushiring.

2-topshiriq. Matnni o‘qib, ot, sifat, son, fe’llarga oid to‘rttadan so‘z ajratib yozing va so‘roqlarini aniqlang.

4. Biluv topshiriqlarining 4-turi o‘z bilimlarini xolisona baholash, o‘rtoqlari erishgan natijalarni tahlil qila olish layoqati bilan daxldor.

5. O‘quv-biluv muammosining 5-turida o‘quvchilar olgan bilimlarini yangi vaziyatlarga qo‘llash malakasiga ega bo‘ladi:

1-topshiriq. Sinfni kuzating. Ko‘zingizga ko‘ringan jonli va jonsiz predmetlarning nomini yozing.

2-topshiriq. O‘ylang. O‘zingiz yozgan so‘zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratib yozsa bo‘ladi.

3-topshiriq. 12 ta so‘z berilgan (o‘quvchi, daftar, kitob, doska, o‘qituvchi, agronom, chizg‘ich, bola, rassom, qalam, kundalik, shoir). Shu so‘zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratib yozsa bo‘ladi.

Shunday qilib, biluv topshiriqlarini ikki jihatdan *ta'lim mazmuni va o‘quvchilar faoliyati nuqtai nazaridan* ko‘rib chiqamiz. Biluv topshiriqlari mohiyatini yanada aniqlashtirish maqsadida ularning xususiyatlarini jadval shakliga keltiramiz.

**2-jadval**

**O‘quv-biluv muammolarining turlari**

| **O‘quv-biluv muammolarining turlari** | **O‘quv-biluv muammolarining xususiyatlari** | |
|---|---|---|
| | **O‘quv-biluv muammolari vositasida bolalar amalga oshiradigan amaliy ish** | **O‘quv-biluv muammolari vositasida bolalar erishadigan natija** |
| 1-tur | O‘rganilayotgan mavzuga oid hodisani ajratish va kuzatish | o‘quv-biluv muammolarining bajarilishidan yangi xulosani qayd etish |
| 2-tur | O‘rganilgan bilimni yangi o‘quv holatiga tatbiq qilish | Bilimlarni yangi o‘quv holatiga tatbiq qilish yo‘li bilan malakalarni takomillashtirish |
| 3-tur | Ikki yoki undan ortiq mavzu doirasida til hodisalarini taqqoslash | Mavzular doirasida umumlashgan xulosa chiqarish |
| 4-tur | O‘zining va o‘zgalar bilimiga munosabat bildirish | Faoliyat natijasini baholash |

O‘quv muammolari biluv topshiriqlari va mashq o‘tkazishga mo‘ljallab tuzilgan topshiriqlar o‘rtasidagi oraliq halqa bo‘lib, o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning eng unumdor vositasi sanaladi. Ular o‘quvchilarda bilim, faoliyat usuli, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni o‘zlashtirishda ijodiy layoqatlarni tarbiyalashning yetakchi vositasi hisoblanadi. Ijodiy ta'limda natija bilish jarayonidan ajratilishi lozim. Natijani bilish jarayonidan ajratish o‘quvchilar faoliyatini ilmiy ish bilan mashg‘ul olimlar faoliyatiga yaqinlashtirib tashkil etish, bolalarda mustaqil ishlash, fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish hamda tarbiyalashga keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘zaro ta'sirni o‘quv materiali nuqtai nazaridan sistem tahlil qilish, o‘zlashtirish jarayonini "Konseptual jadval" orqali umumiy va xususiy tomonlarini qayd etamiz.

**3-jadval**

**O‘quv materialining sistem tahlili**

| **Muhim jihatlar** | **Asosiy belgi (tavsif)lar** | | |
|---|---|---|---|
| | **1-belgi (tavsif)** | **2-belgi (tavsif)** | **3-belgi (tavsif)** |
| **1. Fiziologik nuqtai nazar** | o‘quvchining o‘rganilayotgan obyekt – o‘quv materiali bilan to‘qnashuvi | oldingi bilim, hayotiy tajribani faollashtirish | narsalar yoki ularning belgilari – yozuv bilan muomala qilish |
| **2. Psixologik nuqtai nazar** | o‘zaro ta'sirning boshlanish va yakunlanish nuqtalari | ijodiy faoliyat | bilishning psixologik mexanizmlari – analiz, sintez, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish |
| **3. Didaktik nuqtai nazar** | erishilgan natijani tahlil qilish | muammo yoki topshiriqni shakllantirishda ishlatilgan tushunchalar vositasida faoliyat ko‘rsatish | mantiqiy usullar – taqqoslash, induktiv yoki deduktiv xulosa chiqarish |

Didaktik nuqtai nazardan muammo, topshiriqlarni bajarishda mantiqiylik ustun turadi. Ijtimoiy bilish taraqqiyotining har bir bosqichida fikrlashning ma’lum turi hukmron bo‘ladi. Hozirgi paytda dialektik logika elementlari, alternativ fikrlash fanda, fan orqali ishlab chiqarish, shuningdek, maktab ta’limida ustuvorlik mavqeini olmoqda. Deduktiv, shuningdek, alternativ fikrlash maktab darsliklarida, ta’limda o‘z o‘rnini olgan sayin, bolalarning ijodiy fikrlashini ta’minlashga oid usul, vositalarning tabiati ham oydinlasha boradi.

O‘quv materialini anglash, tushunish va tushunilgan hodisalarga rioya qilib faoliyat ko‘rsatish o‘quvchi shaxsida turli yangi bog‘lanishlarni, binobarin, bilimlarni shakllantiradi. O‘quvchida shakllangan yangi bilim, yangicha faoliyat usuli ikki xil ish bajaradi: faoliyat ko‘rsatish sharti; faoliyat vositasi.

Birinchi holatda o‘rganilgan yangi bilim, o‘zlashtirilgan faoliyat usuli yangi bilim, yangicha faoliyat usullarini egallash sharti sifatida amal qiladi. Masalan, morfologiyaga oid bilimlarni o‘zlashtirmasdan sintaktik hodisalarni bilish bola uchun ancha qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Shunday qilib, oldin o‘zlashtirilgan bilimlar keyingi, yangi bilimlarni o‘rganish shartiga aylanadi.

Ikkinchi holatda o‘rganilgan bilimlar yangi muammo, topshiriqlarni bajarish vositasi sifatida amal qiladi. Masalan, qo‘shish amalini o‘rganish ayirish yo‘llarini, ko‘paytirish bo‘lish usulini o‘rganishda vosita bo‘lganidek, algebra va geometriyadan o‘rganilgan bilimlar trigonometrik masalalarni bajarish vositasiga aylanadi. Xuddi shuning singari muammo, topshiriqlarni bajarish yo‘li bilan hosil qilingan faoliyat usuli bundan keyin qo‘yiladigan yangi muammo, topshiriqlarni bajarish, yangi maqsadlarga erishishda vositasi vazifasini o‘taydi.

O‘zaro ta’sirni o‘quv materialiga ko‘ra tahlil qilish yo‘li bilan bolalarning o‘quv-biluv faoliyatining qanday amalga oshishi, bilimlarning yangi maqsadlarga erishish vositasiga aylanishi, erishilgan natijaning bundan keyin o‘rganiladigan bilimlar bilan vorislik asosida bog‘lanishi haqida xulosa chiqara olamiz.

## Adabiyotlar

1. Маркова А.К. Психология усвоения языке как средства общения. – М.: Педагогика, 1974. – 239 с.
2. Roziqov O.O. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish // Ta’lim jarayonida o`quvchilarning ijodiy aktivligini rivojlantirish – T.: O`qituvchi, 1980. – B. 21-43
3. Гулямов А.К. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания (родного) узбекского языка: Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. – Т., 1991. – 37 б.
4. Adizov B.R. Boshlang`ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ... diss. – T., 2003. – 280 b.



**Ruxshona ISROILOVA**
Navoiy davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

## O`QISH DARSLARIDA RIVOYAT VA PANDNOMALARNI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA O`RGATISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

*Maqolada boshlang`ich sinf O`qish kitoblaridagi rivoyat va pandnomalarni odobnoma, tasviriy san'at, tarix darslari bilan integratsiyalash, bunday darslarni tashkil qilishning didaktik asoslari haqida so`z boradi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *didaktika, pandnoma, rivoyat, integratsiya, tarixiy shaxs, san'atkor, rejissor, notiq, mumtoz, a'zo, nafs, saxiy.*

*В статье идёт речь о дидактических основах организации интеграционных уроков с историей, изобразительным искусством и азбукой этики, нравоучениях и сказаниях приведенные в книге чтения для начальных калассов.*

***Опорные понятия:*** *дидактика, нравоучение, сказание, интеграция, историческая личность, искусный мастер, режиссёр, оратор, классик, член, страсть, щедрый.*

*The article deals with the didactic principles of organizing integration lessons with history, fine arts and the basics of moral ethics and legends which is given in the reading-books for primary classes.*

***Supporting concepts:*** *didactics, moralizing, legend, integration, historical personality, skillful master, director, orator, classic, member, passion, generous.*

"Bu yorug` dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi [1]". Darhaqiqat, O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti bola tarbiyasida ma'naviyatning alohida o'rnini ta'kidlab o'tishi bejiz emas edi. Tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, yozma adabiyotning vujudga kelishi bilan har bir xalqda axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini ifodalovchi asarlar ham paydo bo'la boshlagan. Bu asarlarning aksariyati didaktik xarakterda bo'lib, asosan, kattalarning didi va tili bilan yozilgan, ularda kattalarning hayotiy tajribalari asosidagi axloqiy-tarbiyaviy qarashlar, mushohada va mulohazalar ifodalangan. Shu ma'noda Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi asarlari pandnomachilikning mumtoz namunalaridir. Zero, bu singari didaktik adabiyot namunalari umrboqiylik kasb etib kelayotgani bejiz emas. Pandnomachilik didaktik adabiyotning muhim tamoyili sifatida alohida e'tirofga sazovordir. Xususan, unda ilm-fan madhi ustuvorligiga ko'ra hamisha yosh avlodni ma'naviy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, bunday asarlarning ayrim namunalari yangi avlod darsliklari sahifasidan o`rin olgani diqqatga sazovor. Xususan, boslang`ich sinf O`qish kitoblaridagi "Non isi", "Odob", "Yurak" (1-sinf); "Tandir", "Ma'naviyatli xalqni yengib bo`lmaydi", "Non – ulug` ne'mat" (2-sinf); "Til qudrati", "Bobur va kabutar", "O`g`lon", "Cho`pon yigit Shiroq", "Ibn Sinoning shogirdlari", "Sohibqiron Temur bobo", "Navoiyning do`sti" (3-sinf); Husayn Voiz Koshifiyning "Salomlashish odobi", H. Hamidovning "Pahlavon va shoir", Yusuf xos Hojibning "Bahor ta'rifida", "Yaxshidan bog` qoladi", "Najmiddin Kubro", "Sulton Mahmud va Beru-niy", Xondamirning "Tanbeh", "Hidi, tilimi va mazasidan" (4-sinf) kabi rivoyat va pandnomalar shunday axloqiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Mashhur nemis shoiri va mutafakkiri Hyote: "Har kuni aqalli bitta qo`shiq eshitish, yaxshi rasm ko`rish va iloji bo`lsa, istagan bir hikmatli so`zni o`zlashtirib olish kerak",– degan edi. Qadimgi yunon olimi Demokrit ta'kidicha bundan kishida uch qobiliyat hosil bo`lar ekan: eng to`g`ri xulosa chi-

qarish, nuqsonsiz gapirish vanima qilish kerakligini aniq bilish”. Shuning uchun ham Luqmoni hakim taomdan och bo`lsang ham, hikmatdan to`q bo`l, degan. Zotan, hikmatlar cho`kkan ko`ngilni ko`taradi, tushkun ruhga umid bag`ishlaydi.

Axloqiy tarbiya kitoblarida asrlar davomida sayqallanib kelgan rivoyat va hikoyatlar hayotiy voqealar asosida talqin etiladi. Ularni o`qigan va qalbiga joylagan farzandlar bu orqali ezgulik olamiga qadam qo`yish bilan birga atrofdagilarni ham yaxshilik sari yetaklashga sababchi bo`ladilar.

Binobarin, O`qish kitoblaridagi rivoyat va pandnomalarni integratsiyalashgan darslar shaklida tashkil qilish esa bu fikrni yaqqol oydinlashtiradi. Masalan, 1-sinf O`qish kitobidagi “Odob” sarlavhali rivoyatning mazmuni quyidagicha: bir kishi: “Odobni kimdan o`rgandingiz?”– deb Luqmoni Hakimdan so`rabdi. “Odobni odobsizdan o`rgandim”,– deb javob beribdi Luqmoni Hakim. “Odobni odobsizdan qanday o`rgandingiz?”,– deb so`rabdi u kishi. Luqmoni Hakim javob beribdi: “Doim odamlarning qilgan ishlariga, so`zlagan so`zlariga e’tibor berib yurdim. Kimdan bir yomon so`z eshitsam, shu so`zni hech bir so`zlamadim. Kimda-kim bir yomon ish qilsa, shu ishni hech bir qilmadim [2]”.

Luqmoni Hakim kimligini 1-sinf o`quvchilari tushunmasligi tayin. Ammo rivoyatning mohiyati uning mazmunida. Eng donishmand tabib, saxiy, odobli inson sifatida naql qilinuvchi Luqmoni hakimning ibrat maktabi, ya’ni yomon narsalarni takrorlamaslik, hamma narsadan hikmat izlashi, odobsizdan ham odob o`rganishi rivoyatning tub mazmunini belgilaydi. Bundan jajji o`quvchilar har qanday dashnomga sabab bo`luvchi odat va so`zlarni takrorlamaslik kerakligini uqib oladilar. Rivoyat Sharq mumtoz adabiyoti va xalq og`zaki poetik ijodidagi donishmand tabib obrazi haqida ekanligi uning janr xususiyatini asoslaydi. U ko`pgina hikoya, afsona va ertaklar qahramonidir. Luqmoni Hakim Navoiy, Xondamir asarlarida tarixiy shaxs – payg`ambar sifatida gavdalanadi. Aytish mumkinki, bu tarixiy shaxslar haqidagi rivoyat turiga kiradi. Shunga ko`ra uning ta’sirchanligi ko`proq. Shunga ko`ra, bu rivoyatni qiziqarli o`tishda adabiyot, tarix fanlari integratsiyasi hamda Luqmoni Hakim timsolini obrazlantirish didaktik asos hisoblanadi. O`quvchilardan biri donishmand chol qiyofasida sinfni aylanib, qaysi o`quvchi odobsiz bo`lsa, uning odatlarini qilmaslikka da’vat etuvchi so`zlarni, harakatlarni o`quvchilar ko`z o`ngida namoyon qila olsa, rivoyat zamiridagi tarbiyaviylik teran his qilinadi.

Yoxud shu darslikdagi “Yurak” rivoyatida qo`l kerilib, ikki tomonga tarvaqaylab: men zo`rman, chunki hamma narsaga cho`zilsam yetaman, – deb maqtanadi.

Oyoq gerdayib:

Men sendan ko`ra zo`rman, qayerga xohlasam bora olaman,– deb yer tepinibdi.

Bosh o`zini mag`rur tutib:

Hammangdan zo`rroq men bo`laman, chunki men o`ylasamgina ishlaring bitadi,– debdi.

Betinim ishlab holdan toygan yurak bir pas dam olmoqchi bo`lib to`xtabdi. Shu payt qo`l bo`shashib ikki tomonga shalpayib tushibdi. Oyoqning biri ikkinchisiga chirmashib, yurolmay qolibdi. Shilq etib bosh o`zini yelkaga tashlabdi. Yurak: “Yo`q, bir zum to`xtashga haqqim yo`q ekan,”– debdi-da, tag`in ishlay boshlabdi. Keyin qo`l, oyoq va boshga qarab:

– Meni ehtiyot qilishlaring kerakka o`xshaydi. Men to`xtasam, sizlarga qiyin bo`lar ekan,– debdi kamtarlik bilan [2].

Bu rivoyatni esa odam va uning salomatligi fani integratsiyasisiz tushuntirish qiyin. Haqiqatan, insondagi har bir a’zo o`z vazifasiga ega, ular orasida yurak faoliyati hayot mazmuni, umrimiz davomida bir daqiqa ham dam olmay ishlaydigan a’zo hisoblanadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga bu haqda atroflicha tushuntirish uchun shu shakldagi obrazlarni gavdalantirish, rasmini chizish, ularni asosiy personajlarga ajratib, sahnalashtirish darsni integratsiyalashning didaktik asosini belgilaydi. Natijada maqtanchoqlik hamisha salbiy odatligi, kamtarinlik esa kamolga yetaklovchi fazilat ekanligi anglashiladi. Qo`l, oyoq, boshning maqtangani bolalar o`rtasida uchrab turadigan manmanlikka o`xshaydi. Aksincha, halol mehnat qiladigan, odobli kishilar o`zini hech qachon maqtamaydi. Ana shu hayotiy voqealar asosida yurakning muhim ahamiyati ham anglashilib boradi. O`quvchilar shu tariqa odam va uning salomatligi faniga xos ma’lumotni –yurak bir soniya to`xtadimi, hayoti so`nishi mumkinligini anglab oladilar.

Darslikda Amir Temur, Alisher Navoiy haqida ham ibratli rivoyatlarning berilishi diqqatga sazovor. 1-sinf o`quvchilari tarixiy shaxslar haqidagi bunday rivoyatlarni o`qish orqali, ulug` shaxslarning oqil va donishmandligini bilib oladilar. Bunda ham darsni interaktiv metodlar orqali

o`tish samarali natija beradi, albatta. O`qituvchi Amir Temur haqidagi rivoyatni o`tishda ulug` sarkardaning jangovar yurishlari, bunda qat'iy intizomga amal qilishi, sarkardalarni har jihatdan tarbiyalay olgani haqida ma'lumot beradi, albatta. Tarix va ma'naviyat fanlari integratsiyasiga asoslangan bunday darslarda Amir Temur, yoxud Alisher Navoiy obrazlarini gavdalantiruvchi didaktik o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan: rivoyat o`qib berilgach, kim Amir Temur rolini jro etishi, yoxud u haqda o`z fikrlarini, taassurotlarini bayon qila olishi so`ralganda, mard, jasur bo`lishga intiluvchi yigitlarda bunday qiziqish paydo bo`lishi tabiiy. Ularga shu rol ishonib topshirilgach esa, rivoyat mazmuniga ko`ra ularning nonni e'zozlashi, jonivorlarga g`amxo`rligini ko`rsatuvchi sahnaviy o`yinlar qiziqarli bo`lishdan tashqari, hayotiy saboq vazifasini o`taydi.

2-sinf O`qish kitobida ham "Tandir", "Ma'naviyatli xalqni yengib bo`lmaydi", "Non – ulug` ne'mat" rivoyatlari berilgan. "Tandir" [2] Alisher Navoiyning donishmandligini dalillovchi hikoyadir. Unda otasidan qolgan uyni sotmoqchi bo`lgan bolaga Navoiyning dono maslahati hikoya qilingan. Ya'ni, tandiri eskiligi, yangisini qursa uy qimmatroq ketishini aytganda, haligi bola ikki-uch marta tandir qurishga urinib, eplay olmagani, shu voqea sabab uyni sotmasdan hunar o`rganishga kirishgani o`quvchilarga ibrat bo`ladi. Demak, rivoyatdan ko`zlangan maqsad ham tarbiyani ibratli hikoya orqali asoslashdir. Bu hikoya tarixiy, mutafakkir shaxslar haqida bo`lgani o`quvchining ishonchini ortishiga yordam beradi. Ma'lumki, o`quvchilarni ta'lim jarayonining ishtirokchilarigina emas, balki ijrochilari deb qarash didaktikaning asosiy tamoyili. Darhaqiqat, ta'lim o`quvchilarning ichki ehtiyojlariga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib bo`lmaydi. Shu ma'noda, yuqoridagi rivoyatni odobnoma, rasm fanlari bilan integratsiyalash, bunda o`uvchilar bilan birga darsda tandir rasmini chizish, o`g`il bolalarga hatto loydan uni yasab kelishni buyurish muddaoni oydinlashtiradi. Chunki uysozlik, biror inshootni bunyod etish qanchalik qiyin ekanligini his qilgan o`quvchilar nafaqat maktab va atrofdagi binolar, o`zlari yashab turgan uylarini ham avaylab-asrashga harakat qila boshlaydilar.

Umuman, boshlang`ich sinf o`qish kitoblarida bu janrning o`rni kengligi ham shunda. Jumladan, 3-sinf o`qish kitobida ham o`nga yaqin rivoyatlar o`z ifodasini topgan. Masalan: "Til qudrati" rivoyatida ona tilining ulug`ligi haqida so`z boradi. Ya'ni bir olim farzand ko`rsa falakiyot, riyoziyotdan saboq bermoqchi, ikkinchi olim esa avloddan-avlodga meros qoladigan asosiy boylik – til ekani, ona tili uchun jonini ham fido qilishni o`rgatmoqchi, tilga xiyonat qilmaslikni uqtirmoqchi bo`ladi. Shuning uchun qo`shiq, ertak, dostonlar aytib bermoqchiligini bildirganida uni masxara qilib kuladi va aqlsizlikda ayblaydi. Tortishuv janjalga aylangach, ular oqil kishining maslahati bilan ulug` donishmand-ning oldiga boradilar. Ularning gapini tinglagan donishmand ikkinchi olimga qarab : "Farzandga bilim o`rgatishdagi sening fikrlaring ma'qul",– debdi [3].

Chindan ham 3-sinf o`quvchilari ona tilining qadr-qimmatini, har bir xalqning ona tilisi uning o`zligini anglashga asos bo`lishini anglab yetadilar. Yuqoridagi rivoyat bu tashunchani mustahkamlash uchun vosita bo`la oladi. Darslikdagi "Bobur va kabutar" rivoyati ham diqqatga sazovor. Bu Mirzo Boburning ziyrakligi haqidadir. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy a'yonlari bilan qasrda o`tirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib, ayvon peshtoqiga qo`nibdi-da, "g`ulu-g`ulu-g`ulu" qilaveribdi. Umarshayx a'yonlaridan "Kabutar ne deydur" deb so`rab qolibdi. Anchadan buyon urush ko`rmay, qilichlari qonsirab qolgan a'yonlar: "Oliyhazrat, kabutar qilichlarni qindan sug`urmoq kerak, deydur", deb javob berishibdi.

Gapga qo`shilmay, bir chekkada jim o`tirgan Mirzo Bobur: "Yo`q, kabutar unday demaydur, ota, u qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor xushxabar keltiribdur" debdi. Haqiqatan, uni tutib kelsalar, oyog`idagi mis halqada xat bo`lib, oliy hazratni qovun sayliga chorlagan bo`ladilar. Bunga lol qolgan otasi Boburmirzodan qanday bilganini so`raydi. Yosh Bobur esa zehn berib, kabutarning o`ng qanotidagi xoldan tanigani, u o`tgan yili qovun pishig`idan xabar keltirgan qush ekanini aytadi. Shunda Umarshayx Mirzo a'yonlariga qilichni emas, aql-idrokni ishga solish darkorligini uqtiradi [3].

Haqiqatan, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida o`quvchilar 1-sinfdan ma'lumotga ega bo`la boshlaydilar. Uning shoh va shoirligi, ulug` sarkarda va xalqparvarligini, o`z ona-yurti haqida talay ruboiylar bitganini yaxshi biladilar. Ana shunday ulug` siymoning bolaligi haqidagi rivoyat 3-sinf o`quvchilarining tafakkurini kengaytirish, bu mavzudagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Qolaversa, o`quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirishga, jonivorlarga ozor yetkazmaslikka xizmat qiladi. Boburning ziyrakligi orqali esa zukko bo`lishga harakat qiladilar.

"O`g`lon" rivoyati ham bugungi yosh avlod uchun g`oyat muhim. Uning mazmuni o`z otasini qullikdan ozod etgan farzand haqida. Keksa cholni qaroqchilar ushlab, qul qilib sotmoqchi bo`lganda o`zini uning o`rniga topshirgan o`g`lonning mardligi qaroqchilar boshlig`ini ham xursand qilib, ikkalasini ham ozod etadi. Rivoyat mazmuni Hazrat payg`ambarimizning quyidagi hadislariga o`xshashligi ham ta'kidlangan: "Hech bir farzand otasining haqini to`la o`tay olmaydi. Faqat qul bo`lsa-yu, uni sotib olib ozod etsa, o`shandagina haqini o`tagan bo`ladi" [3].

Ko`rinadiki, rivoyatlar turli mavzuda, har xil munosabat bilan aytilgan hikoyatlarga yaqin turadi. Ularning hech birini yolg`on, yoki uydirma ekanligini bilib bo`lmaydi. Biror tarixiy manba, hadis, hatto ertak yoxud badiiy asar mazmunidan olib, rivoyat shaklida hikoya qilinishi mumkin. Shu sababli ularning ko`pchiligini muallifi aniq bo`lsa, ayrimlari muallifsiz. Masalan, 4-sinf O`qish kitobidagi "Najmiddin Kubro"(193-bet), "Hidi, tilimi va mazasidan"( 200-b.), "Yaxshidan bog` qoladi"(174-b.) kabi rivoyatlar.

Umuman, turli fanlarga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari, majmualar, lug'atlar, ilm-fanning turli sohalariga oid "Qiziqarli botanika", "Qiziqarli kimyo", "Qiziqarli tilshunoslik", "Mo'jizalar kitobi" singari bolalarbop qomuslar, "Mashhur kishilar hayoti" rukniga kiruvchi badialar, tabiat va jamiyat hodisalariga, tarixga oid ilmiy-ma'rifiy asarlar, xilma-xil o'quv adabiyotlari mumtoz adabiyotimizdagi didaktik an'analar vorisi sifatida yashab kelmoqda. Endilikda boshlang`ich sinf o`qish, matematika, odobnoma, tabiatshunoslik darslarini integratsiyalash asosida shunday maqsadga to`liq erishilayotir. Bunday darslarni tashkil etishning didaktik asoslari esa o`quvchilarni yuqoridagi kabi qiziqargli bilimga ega bo`lishlarini ta'minlaydi. Boshlang`ich sinf o`qituvchilarining o`zi ana shu fanlar o`rtasidagi bog`liq nuqtalarni zukkolik bilan ilg`ab, ularni o`tishda pedagogik mahoratlari– notiqlik, san'atkorlik, va savodxonlik qobiliyatlarini to`liq namoyon eta olsalar har bir darsdan ko`zlangan samarali natijaga albatta erishiladi. Bunda interaktiv metodlar ham albatta har bir o`quvchi shaxsi, kichik guruhlar, sinf qiziqishining yo`nalishiga, salohiyatiga ko`ra tashkil etiladi. Jumladan, rivoyat va pandnomalarning janr xususiyati didaktik asos uchun tabiiy omil hisoblanadi. Ya'ni har bir darsni tashkil qilish usullari asosida ta'lim-tarbiyaviylik ko`zda tutilgan. Boshlang`ich sinf darslarining har birida deyarli ulardan keng foydalanish mumkin.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., "Ma'naviyat", 2008. – 176 b.

2. G` afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G.. O`qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – T.: "Sharq", 2015. – B.72

3. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O`qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – T.: "O`qituvchi", 2016. – B.9



**Mohigul JUMAYEVA**
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI IJODIY TASHKIL ETISH SAMARADORLIK OMILI

*Maqolada boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etish istiqbollari hamda ijodiy ta’limning boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati xususida fikr yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *boshlang‘ich ta’lim, ijodiy ta’lim, o‘quv topshirig‘i, biluv topshirig‘i, ijodiy qobiliyat, an’anaviy ta’lim, ijodiy o‘zlashtirish, faoliyat.*

*В статье размышляются о значении творческой организации начального обучения и о ее перспективах.*

***Опорные понятия:*** *начальное обучение, творческое обучение, учебная задача, познавательная задача, творческая способность, традиционное обучение, творческая успеваемость, деятельность.*

*In article is reflected on the importance of creative organization in primary education and its perspectives.*

***Supporting concepts:*** *initial training, creative training, educational task, cognitive task, creative ability, traditional learning, creative achievement, activity.*

“Samaradorlik” va “sifat” inson faoliyatining barcha sohalarida eng ko‘p qo‘llanadigan tushunchalardir. Ammo ularning pedagogik mohiyatini tahlil qilishga oid ishlar barmoq bilan sanarli darajada oz. Bu tushunchalarning mazmuni, hajmi va ularning pedagogik jihatlarini o‘rganishga oid adabiyotlarning tanqisligi samaradorlik va sifat tushunchalarining o‘ta murakkabligi, fanlararo hodisa ekanligi bilan izohlanadi.

Samaradorlik va sifat o‘zaro korrelyativ sabab va oqibat shaklida bog‘langan hodisalar bo‘lib, oldingisi – samaradorlik keyingisi – sifatning yaxshilanishiga olib keladi. Binobarin, o‘quvchilar o‘zlashtirishining sifatini yaxshilash uchun ta’limning samarali, interaktiv usullari, vositalaridan foydalanish ehtiyoji tug‘iladi. Samaradorlik ta’lim jarayonida qo‘yilgan maqsad bilan erishilgan natija o‘rtasidagi tafovutga ko‘ra o‘lchanadi. Agar erishilgan natija qo‘yilgan maqsadga qancha yaqin bo‘lsa, ta’lim jarayoni shuncha samarali amal qilgan hisoblanadi. Aks holda natija qo‘yilgan maqsaddan qancha tafovut qilsa, ta’lim jarayonining samarasi shuncha past sanaladi. Bulardan ma’lum bo‘ladiki, samaradorlik ta’lim jarayoni jihatidan o‘rganiladigan, tahlil qilinadigan hodisadir.

Agar ta’limning samaradorligi ta’lim jarayoni jihatidan o‘rganiladigan va baholanadigan hodisa bo‘lsa, sifat talaba o‘zlashtirishi jihatidan tadqiq qilinadigan didaktik-metodik hodisa deb baholaymiz.

Ta’limning sifati deyilganda bilim, faoliyat usullarini atroflicha chuqur o‘zlashtirshi, bilim va faoliyat usullaridagi tezkorlik-operativlik bilan foydalanish, muammo, topshiriq, test va mashqlarni bajarish tempi, o‘rganilgan bilimlarni tatbiq qilish darajasi–sekin, o‘rtacha, tez, matn mazmunini qisqartirib yoki kengaytirib so‘zlay olish, bilimlarning to‘liqligi kabilar tushuniladi. Misol tariqasida ta’lim sifatining eng so‘nggi belgisi-bilimlarning to‘liqligini olib ko‘raylik. Bilimlarning to‘liqligi Davlat ta’lim standart (DTS)larida belgilangan me’yoriy talablarga, o‘quv dasturlarida belgilangan bilim, ko‘nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi mazmuni va hajmiga ko‘ra tahlil qilanadi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishning eng muhim usuli-o‘qitish tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash hamda talabalarning amaliy ko‘nikmalarini tubdan yaxshilash va kengaytirishga qaratilgan tadbirlar. Masalan, bu borada ona tili o‘qitish usuliyotining ham o‘z o‘rni bo‘lib, u milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyasi bo‘lmish komil insonni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ona tili o‘qitish usuliyoti fanini oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ilg‘or pedagogik va interfaol usullar asosida tashkil qilish kutilgan samarani beradi.

XXI asr – intellektual salohiyat asri bo‘lganligi tufayli, O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodning bilish faoliyatini shakllantirish va uzluksiz rivojlantirib borishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari, metodlarini ilmiy pedagog asoslarga tayangan holda belgilab berishni taqozo qilmoqda. Ushbu muammoning yechilishi o‘quvchilarni ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga bog‘liq. Bunda kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning davlat darajasidagi masalaga aylanishi bejiz emas. Chunki mustaqil fikrga ega fuqarolarning shakllantirilishi jamiyatning kuchli bo‘lishi garovidir. Respublika Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasidagi ma’ruzasida: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir [1, 33]”, – deya millat rivoji va jamiyat taraqqiyotida mustaqil fikrlashning ahamiyati nechog‘lik zarurligini ko‘rsatib berdi. Shu nuqtai nazardan ijodkor yoshlarni tarbiyalash ko‘p jihatdan o‘quv-tarbiya jarayonini ijodiy tashkil etishga bog‘liq. Ta’limni ijodiy tashkil etmasdan turib, ijodkor yoshlarni tarbiyalash mumkin emasligi hech kimga sir emas. Xo‘p, shunday ekan, ta’limni tashkil etishning an’anaviy nazariyasi va unga oid pedagogik amaliyot zamon talablariga javob bera oladimi?

An’anviy didaktik nazariya va unga oid pedagogik amaliyot bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishga mo‘ljallangan bo‘lib, unda, asosan, o‘quvchi xotirasi, esda olib qolishga ko‘proq e’tibor beriladi. O‘quv ishlariga shu yo‘sinda yondashish, shubhasiz, ta’limning tarbiyalovchilik, rivojlantiruvchanlik funksiyalarini e’tibordan soqit qiladi. Ko‘rinadiki, an’anaviy ta’lim nazariyasi va unga oid pedagogik amaliyotda o‘quvchilarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi, tafakkuriga yetarli e’tibor berilmaydi. O‘quvchi ta’limda ijrochi, o‘qituvchi topshiriqlari, hohish- istaklarini bajaruvchi rolida ishtirok etadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ta’limda o‘quvchilar mavqeini, maqomini, holatini yangilamasdan, zarur o‘rinlarda ularni butunlay o‘zgartirmasdan, bolani o‘quv-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirmasdan, uning ongi, tafakkurini ishlatmasdan o‘quv-tarbiya jarayonini ijodiy tashkil etish mumkin emas.

Ijodiy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonining alohida nuqtai nazari bo‘lib, o‘z mohiyatiga ko‘ra noijodiy ta’limni- bolalarning katta kishilarga ergashib, taqlid qilib o‘rganishlarini inkor qilmaydi. Aksincha, bola faoliyatining ikki tomoni – xotirani, tafakkurni optimal qo‘shib o‘tkazishni taqozo qiladi. Hozirgi sharoitda xotira va tafakkur hodisalari 1+1 yoki 50%+50% qolipida ta’limni tashkil etish o‘quv-tarbiyaviy ishlarning ratsional formulasi hisoblanadi [2, 21].

Ijodiy ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra kompleks pedagogik muammo. U tarkiban ta’limni ijodiy tashkil etish, o‘quv materiallarni ijodiy o‘zlashtirish, ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash muammolaridan iborat. Ta’limni ijodiy tashkil etish muammosi tarkibiy komponentlari o‘zaro sabab-oqibat shaklida bog‘langan. Ijodiy tashkil etish ijodiy o‘zlashtirishga, ijodiy o‘zlashtirish ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalashni talab qiladi.

Ijod insongagina xos, tarixiy, madaniy yaratuvchilik sifatlariga ega, ongli, maqsadga yo‘nalgan, faol xatti-harakatlar kompleksidir. U originalligi, yangiligi, betakrorligi bilan noijodiy faoliyatdan farq qiladi. Shu xususiyatlariga asoslanib, ijodga quyidagicha pedagogik ta’rif berish mumkin: bolalar ijodi – tug‘ma qobiliyat va hosila sifatlar sintezida amal qilib, ijtimoiy va shaxsiy qimmatga ega yangi moddiy, ma’naviy boyliklarni yaratishga yo‘nalgan mahsuldor faoliyatdir.

Ta’limga o‘quvchilar ijodkorligi jihatdan yondashish bolalarni o‘quv-tarbiya jarayoni subyekti sifatida sharhlash masalasini taqozo qiladi. Ana shu asosga ko‘ra bolalar ijodkorligini “subyekt-obyekt” tizimida sharhlash tamoyilini tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida bolalarda shakllanadigan shaxsiy sifatlar onglilik, mustaqillik, topqirlik kabilar nuqul o‘qituvchi ishining natijasi bo‘lmay, ular ko‘p jihatdan o‘quvchining o‘ziga bog‘liq. Shu tamoyilga rioya qilib, o‘quv materiali faoliyat predmeti sifatida qaralib, ijodiy faoliyatning tarkibiy qismlari ajratiladi.

Ijodiy faoliyat yadrosi tafakkur, fikrlash shakllari bo‘lib, ular qobiliyat, layoqat, zehn, mayl, havasni tarbiyalash yo‘li bilan rivojlantiriladi, yangilik, kreativlik, kumilyatsiya, evristiklik ijodiy faoliyat belgilari hisoblanadi. Ta’limni ijodiy tashkil etish yana bir masalani – bolalarning o‘quv faoliyati va biluv faoliyatini o‘zaro muqoyasa qilib o‘rganish muammosini yoritish bilan bog‘liq. Ularni o‘zaro

taqqoslash qator xulosalarga olib keladi: bu ikkala faoliyatning tarkibi bir xil bo‘lib, motiv, maqsad, vosita, natijadan iborat. Ammo ularning qator farqlari ham mavjud: o‘quv faoliyatida normativ talablar doirasida ish qilinadi, biluv faoliyatida normativ talablar doirasidan chiqiladi; o‘quv faoliyati aytilgan, berilganlarni o‘rganishga, biluv faoliyati ijodiy faoliyatni egallashga yo‘nalgan. Bu faoliyat turlari o‘zaro kontrast belgilariga qaramasdan, bir- birini to‘ldiradi, taqozo qiladi.

O‘quv va biluv faoliyatlari o‘zaro taqqoslab o‘rganilgach, ijodiy faoliyatni tarbiyalash vositalari tanlanadi. Biluv faoliyatni tarbiyalashning yetakchi vositasi biluv topshiriqlaridir. Ular mashq bilan o‘quv muammolari o‘rtasidagi oraliq zvenodir. Biluv topshiriqlari o‘quvchilarning tafakkuriga mo‘l-jallangan, o‘quv materiali doirasida o‘tkaziladigan, o‘quvchini amaliy faoliyatdan xulosalar chiqa-rishga yetaklaydi, ularni mustaqil fikrlash hamda izlanishga rag‘batlantiradigan vazifalardir. Biluv top-shiriqlari tizim sifatida to‘rt xil komponentdan iborat: mazmun, maqsad, funksiya, vosita. Bu element-lar biluv topshiriqlarining invariantlari hisoblanadi. Ta’limning obyektiv borishida mavzudan mavzuga o‘tgan sari biluv topshiriqlari ham rang-barang bo‘lib, o‘zgara boradi. Ta’limning borishida biluv top-shiriqlari qanchalik yangilanmasin, ular tarkibida yuqorida tilga olingan invariantlar saqlanadi. Tizim-da qancha o‘zgarish bo‘lishiga qaramasdan o‘z sobitligini saqlab qolgan tarkibiy qismlar biluv top-shiriqlarning invariant sohasi sanaladi. Biluv topshiriqlar tizimini tayyorlashda qator texnologik tal-ablarga rioya qilinadi. Biluv topshiriqlarining o‘quv materiali mazmuniga mosligi, topshiriqlar tizimini ier-arxik tuzilganligi, topshiriqlarning bir-birini to‘ldirishi, murakkablik va qiyinlikning yetarliligi bi-luv topshiriqlarining miqdor jihatidan optimalliligi.

Biluv topshiriqlari tizimini tayyorlashda qator bosqichlarga rioya qilinadi: 1) bolalarning o‘quv maqsadlarini aniqlash. Bolalarning o‘quv maqsadlarining uch ko‘rinishi mavjud: bosh maqsad, oraliq maqsad, harakatga teng maqsad. Bola deduktiv ta’limda oraliq maqsaddan – DTSlardan bosh maqsadga qarab boradi. Boshqacha aytganda, bilimlar o‘rganilib, shu bilimlarning faoliyatda qo‘llanishiga qarab boradi. Induktiv ta’limda harakatga teng maqsaddan oraliq maqsadga – DTSlarga, ulardan bosh maqsadga qarab borishadi [3, 46]. Ta’limning bu ko‘rinishida bolalar o‘z faoliyatlaridan o‘tgan faktlar bo‘yicha xulosalar chiqarishadi. Ta’limni shu yo‘sinda o‘tkazilganda bolalar faoliyat-ning topqirlik la-yoqati taraqqiy etadi; 2) tizimga kiritiladigan biluv topshiriqlari tiplarini oldindan qayd etish. Biluv topshiriqlari uch yo‘nalishda tuziladi: a) o‘quv materiali tarkibiy qismlarini to‘liq qamrab olish. Har bir o‘quv materialida bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosaba-tlar moddiylashtirilgan. Binobarin, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi va munosaba-tlarning o‘zlashtirishga mansub biluv topshiriqlari tizimda mavjud bo‘lishi lozim; b) bolalarda mus-taqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘nalgan biluv topshiriqlarini tanlash. Buning uchun biluv topshiriqlari tizimiga xulosalar chiqarish, xulosalarni turli o‘quv holatlariga tadbiq etish, bilimlar, faoliyat usullarini o‘zaro taqqoslash, bilim va malakalarning zaif tomonlarini tahlil qilishga oid o‘quv topshiriqlari bo‘lishi kerak; v) o‘quv predmetining xususiyatini hisobga olib biluv top-shiriqlari tizimini tuzish. Masalan, ona tilidan “urg‘u” mavzusida tuzilgan biluv topshiriqlari tizimida sintaktik, sintaktik-prosodik, sintaktik-punktuatsion, sintaktik-stilistik ko‘rinishdagi biluv topshiriqlari inobatga olinadi.

Biluv topshiriqlari vositasida ongda biluv holati shakllanadi. Biluv holati o‘quvchining biluv pred-meti bilan faol aloqalashuvini yuzaga chiqaradigan vaziyat bo‘lib, uning xatti-harakat, informatsion, muqobil modellari mavjud.

Ta’limni o‘quv topshiriqlari tizimi shaklida qurish va o‘tkazish jarayonida biluv topshiriqlari inva-riantlari-mazmun, maqsad, funksiya, usul ta’limning markazi – (yadrosi)ni hosil qilib, o‘quv-tarbiya jarayonini bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishini ta’minlaydi.

Topshiriqli ta’limni topshiriqlarni ta’limga tatbiq etish amaliyotining yangi shakli sifatida tavsiflash uchun yuqorida keltirilgan chizmaga aniqliklar kiritamiz.

1-aniqlik. Topshiriqlarning invariantlari – o‘quv materiali mazmuni, maqsadi, faoliyatda bajaradi-gan ishi, faoliyat usulidan yuqoriga harakat (o‘quv topshirig‘iga yo‘nalgan nur-sterelkaga qarang) biluv topshiriqlarini tuzish jarayonini aks ettiradi.Topshiriqli ta’limni tashkil etishning birinchi sharti sinf o‘quvchilarining real bilish imkoniyatlariga mos topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdir [4, 35].

2-aniqlik. O‘quv topshirig‘idan chapga yo‘nalgan nur biluv topshiriqlari tizimini ta’limning loyiha-si sifatida shakllantirishni aks ettiradi. Topshiriqli ta’limdan foydalanishning ikkinchi sharti o‘rgani-

ladigan mavzular mazmunini tahlil qilish, topshiriqlarning invariant tarkibini aniqlash, sinf o‘quvchilarining real bilish imkoniyatlarini belgilash yo‘li bilan ta’lim loyihasini tayyorlashdir.

3-aniqlik. O‘qituvchi faoliyatidan pastga yo‘nalgan nur o‘qituvchi maqsadlarini konkretlashtirish jarayonini aks ettiradi. O‘qituvchi ma’lumot berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan o‘zining didaktik vazifalariga qarab boradi.

4-aniqlik. O‘qituvchi ta’limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda didaktik vazifa mohiyatidan kelib chiqib, DTSlarni amalga oshiradi.

5-aniqlik. O‘quv topshirig‘idan bolalar faoliyatiga yo‘nalgan nur o‘quvchilarning o‘z maqsadlirini oydinlashtirish jarayonini aks ettiradi. Biluv topshirig‘i ta’limning mazmuniy, jarayoniy, maqsad, natija tomonlarini o‘zida jamlagan didaktik birlikdir. Bolalarning bilish faoliyati biluv topshirig‘idan boshlanib, u bilan (ijtimoiy topshiriqlarni bajara olish darajasiga ko‘tarilish bilan) yakunlanadi.

6-aniqlik. O‘quvchi faoliyatidan o‘quv maqsadiga yo‘nalgan nur faol ta’limga daxldor. Bola biluv topshiriqlari ta’limga tatbiq etilgan paytdagina mustaqil o‘ylay boshlaydi.

7-aniqlik. O‘quvchi maqsadidan o‘quv topshirig‘iga yo‘nalgan nur topshiriqni anglash, qabul qulish bilan birga bolaning o‘z maqsadini anglashini ham bildiradi.

8-aniqlik. Didaktik vazifa, o‘quv topshirig‘i va uning invariantlaridan yo‘nalgan nur ta’lim bosqichlari, davrlari tarkib topishi jarayonini bildiradi. Didaktik vazifa va bolalarning o‘z topshirig‘ining (bolalarning o‘zlari o‘quv topshirig‘idan ajratgan maqsadning) bir-biriga to‘g‘ri kelishidan ta’lim sikllari shakllanadi. Bulardan ko‘rinadiki, ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish ijodiy o‘zlashtirish tushunchasi kontekstida tahlil qilinadi. Ijodiy qobiliyat o‘zidan yuqorida turadigan tashkiliy tizimning — ijodiy o‘zlashtirishning yadrosi sanaladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etish kompleks muammo bo‘lib, tarkiban ta’lim mazmunini ijodiy o‘rganishni tashkil qilish, ijodiy o‘zlashtirish, ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash masalalarini qamrab oladi.

## Adabiyotlar

1. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: “Sharq”, 1998. – 182 b.

2. Лейметс Н.С. Способности и одаренность в детские годы. – М. "Знание", 1984. – 96 с.

3. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o`quv dasturi (Boshlang`ich ta’lim). – Toshkent, 2010. – 143 b.

4. Розиков О. Классификация типичных затруднений учителей по применению учебных задач в обучении. В кн. Новые исследования в педагогических науках. – М.: "Педагогика", 1984. – С. 34-37.



**Fayzullo QOSIMOV**
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich va maktabgacha
ta'lim uslubiyoti kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi



**Mavluda QOSIMOVA**
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich va maktabgacha
ta'lim uslubiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

## MASALA QISQA SHARTI UNING MODELIDIR

*Maqolada masala qisqa sharti – uning modelini tuzish metodikasi, masala qisqa shartining qisqa yozuv, chizma, jadval, rasm, diagramma ko'rinishlarini tuzish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *masala, qisqa shart, chizma, diagramma, jadval, rasm.*

*В статье изложена методика составления краткого условия задачи, так как условие является моделью задачи. Даны методические рекомендации по составлению краткого условия задачи по видам: краткая запись, схема, таблица, картинка, диаграмма.*

***Опорные понятия:*** *задача, краткое условие, картинка, диаграмма, таблица.*

*In article is described the method of drawing up technique as a condition of brief task, as it is a task of model. It is given the methodical recommendations on drawing up a brief condition task by types: brief record, scheme, table, picture and diagram.*

***Supporting concepts:*** *a task, brief conditions, a picture, a diagram, a table.*

Masala o'quvchi mantiqiy tafakkurini o'stiruvchi vositadir. Boshlang'ich sinf o'quvchisining fikrlash qobiliyatini o'stirishda masala muhim ahamiyat kasb etadi. Masalani o'zlashtirish, uni yechish uchun berilganlar va izlanadiganlar orasidagi bog'lanish – ko'prikni o'rinli tuzish nihoyatda katta mahorat talab qiladi. Fanda ham, ishlab chiqarishda ham har bir g'oya yoki tadqiqot ishi qandaydir model asosida quriladi. Masalan: konstruktor biror yangi mashinani ixtiro qilar ekan, dastlab uning modelini yaratadi. Arxitektor yangi inshootning eskizi – modelini yaratadi va modelga asoslanib bino barpo etadi. Xuddi shunga o'xshab o'quvchi masalani yechishdan oldin shu masala matnini o'zlashtirib, masala matnida bayon etilgan holatni ko'z oldiga keltirib masaladagi berilganlar, izlanadiganlar va masala savolini oydinlashtirib, ular orasidagi bog'lanishni – masalaning modelini ya'ni uning qisqa shartini tuzadi. "Masalaning qisqa sharti nima uchun kerak?" – degan savol hammani qiziqtiradi. Masalaning qisqacha sharti berilganlar bilan izlanadigan miqdorlar orasidagi bog'lanishni o'rnatib, masalani muhokama qilish va yechimini topish uchun kerak.

Masala qisqacha sharti turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

a) qisqa yozuv shaklida;
b) chizma ko'rinishida;
d) jadval ko'rinishida;
e) rasm asosida;
f) diagramma ko'rinishida.

Masala qisqa shartini tuzishda masala ko'rinishi, sinf o'quvchilarining yosh xususiyati, bilim darajasini inobatga olgan holda yuqoridagi ko'rinishlardan foydalaniladi. Masalaning qisqa sharti 1-sinfning 2-yarim yilidan boshlab o'qituvchi rahbarligida tuziladi. 2-sinfdan boshlab (albatta o'qituvchi ko'rsatmasi bilan) masala qisqa shartini o'quvchi mustaqil tuza boshlaydi. Shuni inobatga olish kerak-

ki, ya'ngi mazmundagi, ayrim tipik matnli arifmetik masalalar qisqa sharti o'qituvchi ko'rsatmasi asosida tuziladi. Birinchi sinfda o'quvchilar rasm asosida masala tuzib, uni yechishdan asta-sekinlik bilan chala matnli masalalarni, so'ngra to'la matnli masalalarni yechishga o'tadilar. Bu yerda qiziq bir holatni kuzatish mumkin. O'quvchi rasm asosida masala tuzib yechadi, so'ngra matnli masala uchun rasm tuzadi.

Rasm → Masala va Masala → Rasm

Juftliklar o'quvchilarni masala modelini tuzishga o'rgatadi. Matnli masala uchun rasmdan foydalanishadi deganimiz aynan masala matnidan rasmni chizmaydi, shu matndagi predmetlariga xos doira, uchburchak, turli xil jismlar rasmlarini chizib masala matni uchun model tuzadi. Masalan: 1-sinfda o'quvchilar "Yig'indini topishga doir" sodda masala bilan tanishar ekan, bunday masalalar uchun qisqa shartni ham tuzishni o'rganib borishadi. Buni quyidagi masala misolida ko`rib chiqamiz.

**Masala:** Nodirda 5 ta kitob, Boburda 3 ta kitob bor. Nodir va Bobirda nechta kitob bor?

Dastlab bu masala ko'rsatmali asosda Nodirdagi 5ta kitob sanab ko`rsatilib, uning ustiga Boburdagi 3 ta kitob sanab qo'yiladi. Ular hammasi nechta ekani so'raladi. Keyin masala qisqa shartini rasm asosida berish o'rgatiladi. Nodirdagi kitoblar soni 5 ta ko'rsatilib, o'quvchilarga katakli daftardagi 5 ta katakni o'rab, ya'ni 5 ta kvadratni ranglashi aytiladi. Uning yonida Boburdagi 3 ta kitob soniga mos yana 3 ta kvadratchani chizib qo'yish aytiladi. Shunda ular 5 ta va 3 ta kvadrat hammasi nechtaligini aniqlaydi. Bu ishni qilishdan oldin o'qituvchining doskada ko'rsatishiga qarab o'quvchilar partasida kvadrat modellaridan foydalanib masala matnini ko'rgazmali rasm asosida tuzishni o'rganadi. So'ngra o'quvchilar ushbu ko'rinishdagi masala qisqa shartining "qisqa yozuv " shaklini ham tuzishni o'rganib oladi. Masala sharti yana bir marotaba o'qitilib, har bir gap o'qilgach unga mos qisqa yozuv yozib boriladi. "Nodirda 5 ta kitob bor" jumlasiga mos yozuv:

Nodir – 5 ta k.

"Boburda 3 ta kitob bor" jumlasiga mos yozuv:

Bobur – 3 ta k.

"Nodir va Boburda nechta kitob bor" savoliga mos, masala shartini to'liq ifodalovchi model tuziladi.

Nodir – 5 ta k. } ?<br>Bobur – 3 ta k. }

Masala "qisqa yozuv" idan foydalanish birinchi sinfning ikkinchi yarim yilida o'quvchilarda yozuv malakasi shakllangandan keyin yaxshi samara beradi. Bir tomondan o'quvchining yozuv malakasi shakllanib, rivojlanib borsa, ikkinchi tomondan masala matniga mos model tuzishni o'rganib oladi. Qisqa yozuvdagi har bir so'z, son, "?" belgisining mazmunini bilib boradi. O'quvchilarda masala qisqa shartini tuzishining "qisqa yozuv shakli" bo'yicha ko'nikmalar hosil bo'la boshlaydi. Birinchi sinf o'quvchilari bilan ayirish amali mazmunini ochib beruvchi masala – "Qoldiqni topishga doir masala" ustida ishlanar ekan, dastlab masala matniga mos rasm tuziladi. Quyidagi masalani ko'raylik:

**Masala:** Likopchada 5 ta pomidor bor edi, tushlikda 2 ta pomidor yeyildi. Likopchada nechta pomidor qoldi?

Ushbu masala matniga mos qisqa shart, ya'ni masala modeli quyidagicha: har bir pomidor doirachalar bilan belgilanib, dastlab 5 ta doiracha chiziladi. Tushlikda yeyilgan 2 ta pomidorni ifodalovchi 2 ta doira usti chizib qo'yiladi.



Keyinchalik o'quvchilarga bu masalaning qisqa shartini "qisqa yozuv" shaklida yozish o'rgatiladi. Bunday ko'rinishdagi masala qisqa shartini tuzishda har bir gapdan keyin "qisqa yozuv"ning bir qismi hosil bo'lib boradi. Darhaqiqat, "Likopchada 5 ta pomidor bor" degan jumla qisqa yozuvi.

| Bor edi – 5 ta p. |
|---|

"Tushlikda 2 ta pomidor eyildi" jumlaga mos:

| Yeyildi – 2 ta p. |
|---|

"Likopchada nechta pomidor qoldi?" savoliga mos:

| Qoldi – ? ta p. |
|---|

Shunday qilib masala modeli quyidagi ko'rinishida bo'ladi.

Bor edi – 5 ta p.

Yeyildi – 2 ta p.

Qoldi – ? ta p.

1-sinfda "ta ortirish", "ta kamaytirish"ga doir masalalarni yechishda masala shartining qisqa yozuvidan foydalanish mumkin:

**Masala:** Birinchi tokchada 8 ta kitob bor. Ikkinchi tokchada esa undan 2 ta ko'p kitob bor. Ikkinchi tokchada nechta kitob bor?

Dastlab ushbu masala qisqa shartini chizmada berish mumkin. 1-tokchadagi kitoblar 8 ta, 2-tokchadagi kitoblar noma'lum bo'lishi va ular 1-tokchadagidan 2 ta ko'p kitob bo'lishini ifodalovchi chizma chizish mumkin.



Masala qisqa shartining qisqa yozuv shakli qo'yidagicha bo'lishi mumkin.

1-tokchada – 8 ta k.

2-tokchada – ?, 2 ta ortiq

O'quvchilar ikki amalli masalalar bilan tanishar ekan, bu masalalarning qisqa shartini tuzishni o'rganib oladilar. Quyidagi masalani qaraymiz:

**Masala:** Rahim 4 ta qo'ziqorin terdi. Salim undan 2 ta ko'p qo'ziqorin terdi. Rahim va Salim birga nechta qo'ziqorin terishdi?

Ushbu masala 2 amalli masala bo'lib, uning qisqa sharti (qisqa yozuv shakli) qo'yidagicha.

Rahim – 4 ta q. Salim } ?
- ?, 2 ta ko'p }

Ikki amalli bo'lgan quyidagi masalani olib qaraymiz:

**Masala:** Po'lat 6 ta baliq tutdi. Jamshid 3 ta baliq tutdi. 2 ta baliqni daryoga tashlashdi. Nechta baliq qoldi?

Ushbu masala uchun model quyidagicha bo‘ladi.

Tutishdi – 6 ta va 3 ta b.
Tashlashdi – 2 ta b.
Qoldi – ?

Masala qisqa shartining boshqa shakllarini ham o‘quvchilarga o‘rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Birinchi sinf o‘quvchilari "Kesma", "Kesma tuzilishi" kabi tushunchalar bilan tanishgach, berilgan uzunlikdan kesmani yasash ko‘nikmasi shakllangan o‘quvchilarga "ta ortiq", "ta kam" ko‘rinishidagi masalalarni, ayrim ikki amalli masalalar qisqa shartini chizmalarda berishni o‘rgatib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol tariqasida yuqorida keltirilgan qo‘ziqorin terish haqidagi masala qisqa shartining chizmada ifodalanishi quyidagi tartibda amalga oshadi. Rahim tergan qo‘ziqorinlar sonini tasvirlash uchun uzunligi 4 smga teng kesma chizish aytiladi. Uning ostida shu kesma uzunligiga mos chizma va yana davomidan 2 sm uzunlikdagi kesma chiziladi. 2 sm kesma ustiga "2 sm" li yozuv yoziladi. Ikki kesma qarshisida jamini ko‘rsatuvchi chiziq chizilib, uning yoniga ? belgisi qo‘yiladi:




Grafik shart tuzishning ahamiyati shundaki, birinchidan, o‘quvchilarning kesma chizish ko‘nikmasi, kesmalarni taqqoslash malakasi mustahkamlanadi, ikkinchidan masala matnidan berilganlarga mos kesmalarni ajratish, masala matnini modelga aylantirish malakasi shakllanadi. Ikkinchi sinfda o‘quvchilar ko‘paytirish va bo‘lish amallari bilan tanishgach bu amallar bilan yechiladigan ayrim masalalar uchun qisqa shartini tuzishning turli shakllaridan foydalanadi. Quyidagi masalani olib qaraylik.

**Masala:** Lola 3 ta she’r yodladi. Akasi Anvar esa undan 2 barobar ko‘p she’r yodladi. Akasi nechta she’r yodlagan? Lola va Anvar nechta she’r yodlagan?

Ushbu masalada 2 ta savol bo‘lgani uchun, buni 2 ta masala sifatida qarash mumkin. Dastlab 1-masala uchun masala qisqa sharti ko‘rinishlarini berishga harakat qilamiz.

a) Rasm asosida:

Lola –
Anvar –



b) chizma asosida

Lola –
Anvar –



d) Qisqa yozuv asosida:

Lola – 3 ta sh.

Anvar – ?, 2 marta ko’p

Endi 2- masala ikki amalli masala uchun qisqa shart ko‘rinishlarini keltiramiz.

a) Rasm asosida:

Lola –
Anvar –



b) chizma asosida




d) Qisqa yozuv asosida:

Lola – 3 ta sh.
Anvar – ?, 2 marta ko'p } ?

Ayrim tipik arifmetik masalalarni yechishda chizmalar, ya'ni masala "Modeli"ning chizma ko'rinishi muhim ahamiyat kasb etadi. 4-sinfda yechiladigan quyidagi masalani qaraymiz.

**Masala:** Maktab hovlisida 70 tup archa va qarag'ay daraxti kuchatlari o'tqazishdi. Archa ko'chatlari qarag'ay ko'chatlaridan 12 ta ko'p. Maktab hovlisida necha tup archa va necha tup qarag'ay daraxti ko'chatlari o'tqazishgan?

Ushbu masala modeli – qisqa yozuv ko'rinishida quyidagicha bo'lishi mumkin.

Archa – ?, 12 ta ko'p
Qarag'ay – ? } 70 tup

Ammo masala yechimini izlashda grafik (chizma) asosidagi modeli yaxshi samara beradi. Qarag'ay daraxtlari sonini biror kesma bilan belgilab, archa daraxtlar soni bu kesmadan uzunroq kesma bilan ifodalanadi, ikkalasining umumiy miqdorini ifodalovchi "70" soni qo'yiladi, ya'ni:




Agar archa daraxtlar sonini qarag'ay daraxtlar sonidek olib bajarilsa quyidagi yechim varianti o'rinli:

1) 70 – 12 =58 (tup)
2) 58 : 2 = 29 (tup, qarag'ay)
3) 29 + 12 = 41 ( tup, archa)

Agar qarag'ay daraxtlari sonini archa daraxtlar soniga teng deb olib yechilsa yechim varianti quyidagicha bo'ladi.

1) 70 + 12 = 82 (tup)
2) 82 : 2 = 41 (tup, archa)
3) 70 – 41 = 29 (tup qarag'ay)

Javob: 41 tup archa, 29 tup qarag'ay

Miqdorlar qatnashgan masalalar qisqa shartlarini jadval ko'rinishida berish maqsadga muvofiqdir. Jadval shaklida qisqa shart beriladigan masalalar turkumiga harakatga doir masalalar (tezlik, vaqt, masofa), bahosi, miqdori, jami pulini ifodalovchi masalalar, ikki miqdor ayirmasiga ko'ra noma'lumni topishga doir masalalar, proporsional bog'lanishda bo'lgan miqdorlar to'g'risidagi masalalarni kiritish mumkin.

**Masala:** Poyezd soatiga 90 km tezlik bilan 3 soat yo'l yurdi. U qancha masofani bosib o'tdi?

Bunday masalalar uchun jadval ko'rinishidagi masala modeli masala yechish uchun xizmat qiladi:

| Tezlik | Vaqt | Masofa |
|---|---|---|
| 90km/ soat | 3 soat | ? |

Vaqt va masofaga ko‘ra tezlikni topishga, tezlik va masofaga ko‘ra vaqtni topishga doir masalalarning qisqa sharti yuqoridagi jadval shaklida bo‘ladi.

**Masala:** Har biri 1200 so‘mdan bo‘lgan 5 ta daftar sotib olindi. Hamma daftar uchun qancha pul to‘landi?

Ushbu masala qisqa sharti ham jadval shaklida bo‘ladi.

| Bahosi | Soni | Jami puli |
|---|---|---|
| 1200 so‘m | 5 ta | ? |

**Masala:** Birinchi sexda 15 ishchi, 2 sexda 12 nafar ishchi ishlaydi. Ishchilar bir xil unumdorlik bilan ishlab bir kunda 2-sexda ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1-sexda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 60 ta ko‘p. Har bir sexda 1 kunda nechtadan mahsulot ishlab chiqarilgan?

Bu 2 miqdor ayirmasiga ko‘ra noma’lumlarni topishga doir masaladir. Bunday masalalar modeli jadval ko‘rinishida bo‘lishi afzal.

| | Ishchilar soni | 1 ta ishchi tayyorlagan mahsulot | Jami mahsulotlar soni |
|---|---|---|---|
| I | 15 ta | Bir xil | ?, 60 ta ko‘p |
| II | 12 ta | | ? |

**Masala yechimi:**

1) 1 sexda 2 sexga qaraganda nechta ishchi ko‘p? 15 – 12 = 3 (ta)
2) bitta ishchi 1 kunda nechta mahsulot ishlab chiqaradi? 60 : 3 =20 (ta)
3) 1-sexda 1 kunda nechta mahsulot ishlab chiqarilgan? 20x15= 300 (ta)
4) 2-sexda 1 kunda nechta mahsulot ishlab chiqarilgan? 20 x 12 = 240 (ta)

Ayrim hollarda murakkab masala modeli qismlarga bo‘linib tuzilishi mumkin. Bunday hollarda masala qismlarga bo‘linib, har bir qismga xos masala sharti tuziladi. Quyidagi masalani yechamiz.

**Masala:** Ikki shahar orasidagi masofa 1200 km. Birinchi poyezd bu masofani 10 soatda, 2-poyezd 15 soatda bosib o‘tadi. Agar bu 2 poyezd 2 shahardan bir-biriga qarab yo‘lga chiqsa, ular necha soatdan keyin uchrashadi?

Bu murakkab masalani 2 qismga ajratib 1-qism masala qisqa shartini tuzib, uni yechib, 2-qismi uchun chizmadan foydalanib masala modelini tuzish masala yechimini to‘g‘ri va tushunarli topishni kafolatlaydi.

1-qism uchun masalada masofa, vaqtga ko‘ra har bir poyezd tezligini topish talab qilinadi. Garchand poyezdlar tezligi masala matnida berilmagan bo‘lsada, ular 2-qism masalada berilganlar qatoriga kiradi. Masalaning 1-qismi uchun model qo‘yidagicha bo‘ladi.

| | Tezlik | Vaqt | Masofa |
|---|---|---|---|
| 1 – poyezd | ? | 10 soat | 1200 km |
| 2 - poyezd | ? | 15 soat | 1200 km |

Yechish: 1) 1200 : 10 = 120 (km/soat)
2) 1200 : 15 = 80 (km/soan)

Endi masalaning 2-qismi uchun model tuzishni chizmada berish afzal.



3) 120 + 80 = 200 (km/soat)

4) 1200 : 200 = 6 (soat)

Javob: 6 soatda uchrashadi.

Ayrim masala mazmunini tushunish va uni yechish uchun diagrammalardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, ulush va kasrlarga doir "Ayirmani solishtirish" nisbatlarga doir masalalar uchun diagrammali modellar masala mohiyatini tushunishga yaxshi samara beradi. Masalan: 3-sinf darsligidagi masalani qaraylik.

**Masala:** Dangasa o'quvchi sutkasining yarmini uyqu bilan o'tkazdi. Sutkaning chorak vaqtida maktabda darsda bo'ldi. Yana choragini televizor ko'rish va o'ynash bilan o'tkazdi. Uning dars tayyorlashga vaqti qoldimi?

Ushbu masala matni uchun xos doiraviy diagramma o'quvchida masala mohiyatini tushunib, masala savoliga to'g'ri javob berish imkonini beradi.




Masala javobi – dars tayyorlash uchun vaqti qolmaydi.

Quyidagi masala uchun ustunli diagramma masala modeli bo'la oladi.

**Masala:** Terak daraxti balandligi 12 m, archa daraxti balandligi 8 metr. Terak archadan necha metr baland? Archa terakdan necha metr past?

**Masala qisqa sharti:**




12 – 8 = 4 (metr)

Javob: Terak archadan 4 metr baland,
archa terakdan 4 metr past

Xulosa sifatida aytish mumkinki, masalaning yechimi aksar holda masala qisqa sharti – modelini tuzishga bog'liq.



**Mehriniso HAKIMOVA**
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich va maktabgacha
ta'lim uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA KO'PBURCHAK PERIMETRI VA FIGURA YUZASI TUSHUNCHALARINI O'RGATISH METODIKASI

*Maqolada boshlan`ich sinflarda ko`pburchak perimetri va figura yuzasi tushunchalarini o`rgatish bo`yicha fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *ko`pburchak, perimetr, uzunlik, geometrik shakl, uchburchak, tushuncha.*

*В статье размышляется об обучении периметра многоугольников и поверхности фигур в начальных классах.*

***Опорные понятия:*** *многоугольник, периметр, длина, геометрическая фигура, треугольник, понятие.*

*In article is reflected on learning of concepts about the perimeters of polygons and the surface of figures in the initial classes.*

***Supporting concepts:*** *polygon, perimeter, length, geometric figure, triangle, concept.*

"Ko`pburchak perimetri" tushunchasi bilan o'quvchilar 2-sinfning 1-choragida, aniqroq qilib aytganda matematika darsligining 13-sahifasidan tanisha boshlaydilar. Ammo unga tayyorgarlik ishlari 1-sinfdan boshlanadi. Bu davrda o'quvchilar quyidagi mazmundagi topshiriqlarni bajarishadi:
Kesma uzunligini chizg'ich yordamida o`lcha.

1. Berilgan uzunlikdagi kesmani yasa. Masalan: 4 sm uzunlikdagi kesma chiz.
2. Ikkita turli uzunlikdagi kesma chiz. Ularni chizg`ich yordamida o'lcha va uzunliklarini taqqosla.
3. Chizg`ich yordamida nuqtalarni ketma-ket birlashtir. Qanday shakllar hosil bo`ldi? (1-sinf darsligidan 92-betdagi 11-topshiriq)
4. a) tomoni 2 sm bo`lgan kvadrat chizing.
   b) tomonlari 2 sm va 3 sm bo`lgan to`rtburchak chizing. (1-sinf 92-betdagi 9-topshiriq)

6. Shakllar tomonlarining uzunligini chizg`ich yordamida o'lchang. (1-sinf 88-betdagi 10-topshiriq)



7. 1-sinf matematika darsligining 87-betida "Kesmalarning uzunligini o`lchash va taqqoslash" degan mavzu ko`pburchak perimetri tushunchasi mazmuni va mohiyatini ochib berish uchun tayyorlov mavzusi hisoblanadi.

1-topshiriq. Shakllarning har bir tomonini chizg`ich yordamida o`lchang.



Bu yerda o`qituvchi sinf o`quvchilari bilan amaliy ish tarzda har bir o`quvchi uchun yakka yoki bir partada 2 ta o`quvchi uchun oldindan tayyorlangan geometrik shakllarni berib, chizg`ich yordamida uning tomonlarini o`lchash topshirig`ini berib, o`quvchilarda ko`pburchak tomonlarini o`lchash ko`nikmalarini shakllantirib boradi.

1. Kesmalarni qo`shish va ayirishga doir ko`p masala va topshiriqlar bajarishadi.

2. Siniq chiziq uzunligini hisoblash. Uni “to`g`irlash” ya’ni siniq chiziqni to`gri chiziq kesmasi orqali ifodalashga o`rgatish.

3. “Ko`pburchak perimetri” tushunchasi bilan tanishtirish.

Dastlab amaliy ish tarzida sinf o`quvchilariga uchburchak rasmi tasvirlangan qog`oz varaqlari topshiriladi. (Hamma o’quvchiga bir xil) Chizg’ich yordamida shu uchburchak tomonlarini o`lchab, ma’lumotlarni uchburchak tomonlari ustiga yozish aytiladi.




Masalan, uchburchak tomonlari mos ravishda 4 sm, 5 sm, 6 sm.

So`ngra shu tomonlar uzunliklarini qo`shish topshirig`i beriladi: 4sm+5sm+6sm=15sm. Bu uchburchak tomonlari uzunliklari yig`indisi ekanligi o`quvchilarga yetkaziladi. Shunda o`qituvchi “Perimetr” atamasi bilan o`quvchilarni tanishtirishi mumkin. Ya’ni “O`quvchilar, biz hozir nimani topdik? Mana shu uchburchak tomonlar yig`indisi bu uchburchak perimetri deb nomlanadi” deb aytish mumkin. Shundan so`ng o`qituvchi o`quvchilar diqqatini doskadagi to`rtburchak tomoni uzunliklari yig`indisini toppish masalasiga qaratadi.




Qoida bilan tanishtiriladi. “Ko`pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig`indisi uning perimetridir”. O`quvchilar diqqati shu mavzuga oid savollarga qaratiladi. Mustahkamlash bosqichida yana o`quvchilarga varaqalar tarqatiladi. Unda shakllar chizilgan bo`ladi. O`quvchi shu shakllarni daftarga chizib olib, uning perimetrini mustaqil ish tarzida topadi.




2-sinf darsligining 17-betidagi 5-topshiriq amaliy ish tarzida o’quvchilar tomonidan bajariladi. Chizg`ich yordamida ko`pburchaklar tomonlarini o’lchang.




a) tayyorgarlik ishlari. Figura yuzasi tushunchasini kiritish: “Ko`pburchak yuzasi shaklining yuzi” mavzusi 2-sinfdan boshlab o`rganiladi. Ammo tegishli tayyorgarlik ishlari 1-sinfdan boshlanadi. Bu davrda o`quvchilarga shakllardagi kataklarni sanash figuralarni berilgan shaklga ko`ra kataklar bo`yicha yasash, figuralar qirqish, ustiga qo`yish yo`li bilan figuralarni taqqoslashga oid mashqlar beriladi. “Shaklllarning yuzi” tushunchasini quyidagi tartibda o`rganish maqsadga muvofiq: 1) taqqoslash, qaysi shakl tekislikda ko`proq o`rin olishini aniqlash asosida shaklning yuzi haqidagi umumiy tasavvurlarni shaklantirish; 2) birlik kvadrat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, bu kvadrat yordamida shakllarning qaysisining yuzi katta ekanligini har doim aniqlash mumkin. Kvadrat santimetr bilan tanishtirish; 3) har xil figuralar yuzlarini kvadrat santimetrlarda topish. “Paletka”dan foydalanish; 4) to`g`ri to`rtburchakning yuzini kvadrat santimetrlarda hisoblash; 5) to`g`ri to`rtburchakning yuzini kvadrat detsimetrlarda hisoblash; 6) to`g`ri to`rtburchakning yuzini kvadrat

**Statement on the problem**: As the authority of digital pedagogy is rising day after day, we cannotimagine the methods of schooling in all educational institutions without it. At the present day the role of digital education in the methods of schooling is so important that we can`t ignore and deny this fact. In other words, today we may observe that traditional education has been squeezed out gradually in modern pedagogy by digital education. But though its opportunities are more and rising day by day, we can`t completely abandon traditional education having 400 years of experience.

**The objectives of the research:** We must discuss the following objectives to understand the topic deeper and clearer:

a) The difference between traditional education and digital education in modern pedagogy;

b) The advantages and disadvantages of both traditional education and digital education;

c) Information cognition and information culture among growing youth from developing countries;

d) Thinking: logical, mathematical, creative, aesthetical, architectural, sociological and psychological as the most important factor in pedagogy;

e) The authority of a pedagogue;

f) Psychological closeness between a teacher (a lecturer) and students.

**The theoretical bases of the research**: First of all, we must know the meaning of traditional education emerged four centuries ago in pedagogy. Traditional education is:

1) The authority of a pedagogue;
2) Learners in a class at about the same age;
3) Having a single plan and a program for full academic year;
4) Attendance education institutions at the same time a year and predefined hours for all learners;
5) Workingon the same textbook during classes;
6) Using textbooks for class works and especially for homework;
7) Explaining a topic (a lecture) with illustrations;
8) Repetition a topic or a text again and again;
9) Development of thinking and skills in all spheres among learners;
10) Existence of strict discipline among learners;

11) Existence of the spirit of collectivism in class;

12) Evaluating the knowledge of learners by a pedagogue at the end of semesters and a year and so on.

In a word, textbooks, illustrations, repetition, strict discipline and the spirit of collectivism in a classare important for traditional pedagogy; computers, network, information technologies, online coursesand distance learning are important for digital pedagogy.

**Practical bases of the research**: As we are living in the century and society of information, digital education is considered the first and main inmodern pedagogy. So we must have the following factors with which digital pedagogy will be successful: First of all, computer classrooms with network in educational institutions; Secondly, computer skills among learners; Thirdly, information cognition and information culture among learners.

Today we have both computer classrooms with network in educational institutions and computer skills among learners even in developing countries. *That is a pity, information cognition and information culture among growing youth haven`t been high up to now.* ***For example, observing students as experienced pedagogues having 15 years pedagogical experience, we can notice that some of them arenot taking themselves their online exams or tests. It means online exams and tests are taken by someone (his friend or classmate) who knows a topic and subject better than him.In sequence a weak student gets excellent grades or good marks not having high knowledge.*** It is the ruin for developing digital pedagogy. So not developing information cognition and information culture among students, we won`t be able to get any expected results from digital education and then it will lost its value in the future [1, p. 4].

In addition, there are the most important factors with which we can get ***more successful results*** in traditional education than digital education. One of these factors is development of ***thinking***. Digital education also supports development of thinking. We don`t, we can`t and we are not going to ignore this fact. But working as teachers for a long time and observing educational processes, we can say that development of thinking is more effective in traditional pedagogy.

As children are our light future, we must improve *their thinking* from childhood. We can achieve high thinking among children of different ages (4-15 years old) through:

1) Solving mathematical puzzles and pike perch;
2) Finding scattered mathematical numbers for a few seconds;
3) Writing how many objects there are in the picture for a few seconds;
4) Putting the suitable object in the empty square of the picture for a few seconds;
5) Thinking and composing any interesting life story looking at the picture;
6) Finding the way to the aim in the picture for a few seconds;
7) Finding the difference in the same pictures for a few seconds;
8) Finding the suitable objects in the picture for a few seconds;
9) Finding twins in the picture for a few seconds using arrows;
10) Coloring the picture with colored pencils;
11) Coloring the non-picturesque picture looking at the overprint;
12) Working with colored papers and so on during the classes.

All these mathematical, logical and psychological games give our growing youth an opportunity to improve their thinking in all spheres. It is better when we make them fantasize different interesting puzzles and games and then draw and paint them. By the way, they all are done on papers using a pen and colored pencils. It is impossible to do all these games on a computer.

The second factor is ***the authority of a pedagogue***. We all know that a pedagogue must be an example for each of his student and in everything: in his words; in his thoughts; in his actions. It means a pedagogue is authority for his pupils and students. So if a pedagogue has authority among his pupils and students, there will be psychological closeness between a teacher (a lecturer) and pupils (students). It is so important for modern pedagogue. ***As all types of lessons are face to face in traditional pedagogue, it can keep both the authority of a pedagogue and psychological closeness between a teacher (a lecturer) and pupils (students).*** But we can`t achieve these results by digital education like in traditional one. A teacher sitting beside the computer or information technology can never be a teacher who is real and close to heart. One should note here that existence of psychological closeness between a

pedagogue and students is such an important factor in the **eastern mentality** that digital pedagogy must take this significant fait into consideration.

**The review of the related literature materials**: The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan related to ***rising a) the authority, role, meaning and activity of libraries again; b) publication and reputation of a book; c) the culture of reading books*** among growing young generation at the present day (on the 13th of September, 2017).

**The methods of the research:** According to 15 years pedagogical experience, the following pedagogical, psychological and sociological methods are conducted for learning the role of traditional education in presentpedagogy. These methods are considered the most important ones of pedagogy, psychology and sociology.

***1) The method of observation***.Usingall the types of observation (*open observation; closed observation; continuous monitoring; discrete observation; concealed surveillance; introspection)* in our professional activity give us the opportunity to learn: **a)**how well information cognition and information culture and thinking (logical, mathematical, creative, aesthetical, architectural, psychological and sociological thinking) are developed in the minds of present schoolchildren and students; **b)** how high the authority of a pedagogue, psychological closeness between a teacher (a lecturer) and schoolchildren (students) and socio-psychological climate are in a class, **c)** how well the spirit of collectivism among schoolchildren (students) is developed and how high its meaning in the minds of learners is and so on;

***2) Experiment***. Conducting severaldifferent interesting psychological trainings and games among disabled schoolchildren and healthy studentsof high schools give us the chance toknow and rise their thinking (logical, mathematical, creative, aesthetical, architectural, psychological and sociological thinking), self-esteem, trust, attention and memory and so on;

***3) Questionnaires and interviewing***. Conducting concrete sociological researches among pedagogues and students give us the opportunity to learn their opinions and point of views about: **a)** the role of both traditional education and digital one in modern pedagogy; **b)**the advantages and disadvantages of both of them; **c)** the influencing factors in both traditional and digital educationson healthy socio-psychological climate in a class; **d)** socio-psychological atmosphere between a teacher (a lecturer) and schoolchildren (students) in both traditional and digital pedagoguesand so on;

***4) Sociometry method***. Conducting sociometry method in classes gives us the chance to know **a)** the socio-psychological atmosphere in groups; **b)** the spirit of collectivism in the cognitions of learners and so on;

***5) Content-analysis (analysis of documents)***. Learning a lot of dailynews, decrees and articles in newspapers and journals about present education and modern pedagogy: gives us the chance to know the experience of both developed and developing countries related to traditional and digital pedagogy.

**The results and discussions of the research:** According to *the results of the conducted concrete sociological researches (the method of observation) and psychological games and trainings* among schoolchildren and students of high schools and universities, we can rise and improve logical, mathematical, creative, aesthetical, architectural, psychological and sociological thinking as pedagogues among growing people through *the followings*:

1) Solving mathematical puzzles and pike perch help torise and improve ***logical, mathematical, psychological and sociological thinking;***

2) Finding scattered mathematical numbers for a few seconds helps to rise and improve ***logical, mathematical, creative, psychological and sociological thinking;***

3) Writing how many objects there are in the picture for a few secondshelps to rise and improve ***logical, mathematical, architectural, psychological and sociological thinking;***

4) Putting the suitable object in the empty square of the picture for a few seconds helps to rise and improve ***logical, mathematical, creative, aesthetical, architectural, psychological and sociological thinking;***

5) Thinking and composing any interesting life story looking at the picturehelps to rise and improve***logical, creative, aesthetical, psychological and sociological thinking;***

6) Finding the way to the aim in the picture for a few seconds helps to rise and improve ***logical, mathematical, creative, psychological and sociological thinking;***

7) Finding the difference in the same pictures for a few seconds helps to rise and improve ***logical, mathematical, creative, psychological and sociological thinking;***

8) Finding the suitable objects in the picture for a few seconds helps to rise and improve ***logical, mathematical, creative, psychological and sociological thinking;***

9) Finding twins in the picture for a few seconds using arrows helps to rise and improve ***logical, mathematical, creative, architectural, psychological and sociological thinking;***

10) Coloring the picture with colored pencils helps to rise and improve ***creative, aesthetical, architectural and psychological thinking;***

11) Coloring the non-picturesque picture looking at the overprint helps to rise and improve ***logical, creative, aesthetical, architectural and psychological thinking;***

12) Working with colored papers helps to rise and improve ***logical, creative, aesthetical, architectural, psychological and sociological thinking***andso on during the classes**.**

So logical, mathematical, creative, aesthetical, architectural, psychological and sociological thinking are so important in the present pedagogy that our growing youth must have:

***Logical and mathematical thinking:***

a) To discriminate important thoughts, opinions and views points from unimportant ones;

b) To discuss very important questions and matters at once;

c) To decide a few issues at the same time:

d) To find the best way of leaving from concrete problem situation and so on.

***Psychological thinking***:

a) To be always in a good mood though they don't see a way to leave from problem situation;

b) To raise their mood though they are in depressive situation;

c) To work hard on their characters;

d) To operate different problem situations in life;

e) To look at future with hopeful eyes and so on.

***Sociological thinking***:

a) To forecast situations in future;

b) To schematize and arrange according to their plans and so on.

In addition, *according to the results of the conducted sociological researches (the method of observation, sociometry method, questionnaires and interviewing)* among pedagogues and students, we can say that **a)** the spirit of collectivism in the cognitions of learners exists; **b)** socio-psychological closeness between a teacher (a lecturer) and pupils (students)is deeper; **c)** the authority of a pedagogue is higher in traditional education which are important for **eastern pedagogy.** Because when there are healthy socio-psychological atmosphere in a class and socio-psychological closeness between a teacher (a lecturer) and pupils (students), **free thinking** appears in the cognitions of growing young people.

**The conclusion of the research**: Digital education has several conveniences in modern pedagogy. We are not going to argue about it. But though its opportunities are more and rising day after day, we can`t completely abandon traditional education having 400 years of experience. Because:

1) Illustrative lessons are more effective as they are saved for a long time in the memory of learners;

2) After getting new information during the classes, learners usually have knowledge through repetition of the topic and discussing it;

3) Informationcognition and information culture among all learners aren`t developed yet;

4) The authority of a pedagogue and healthy psychological climate in a class don`t lose its meaning in modern pedagogy and others.

First of all, we can achieve more great and effective results in pedagogy though illustrative lessons **(1)**, repetition and discussing **(2).** Illustration lessons, repetition and discussing are considered the base of traditional pedagogy. Secondly, we can`t achieve high results without rising information cognition and information culture among learners **(3).** Because information cognition and information culture are so important in digital pedagogy that we can`t expect grandiose changes in digital education without realizing the real meaning of information cognition and information culture and withoutusingthem in practice life. At last, as the authority of a pedagogue and healthy psychological climate in a class are

the most important factors in eastern pedagogy **(4),** we achieve it more and better in traditional pedagogy than digital one.

So we must use the methods of schooling of traditional pedagogy in digital pedagogy not ignoring it and not contradict them to one another.

**References**

1. Gulyamova S. T. Oratory in pedagogical activity of a pedagogue. // Теория и практика современной науки. – Саратов, 2016. – № 9 (15).– P. 3-5.

2. Gulyamova S. T., Toyirova Sh.I. Воспитание детей как актуальная проблема современности. // Проблемы и перспективы развития современной науки: экономика, психология и право. Материалы международной научно-практической конференции. – Москва, 2014. – P. 275-278.

3. Eshov E. S., Gulyamova S. T. Адаптационный процесс первоклассника к школе. – Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире. Том 3. – Санкт-Петербург, 2014 (30 сентябрь). – P. 117-122.

4. Qayumova A. T., Gulyamova S. T. Таълим фалсафаси тарихида воизлик маҳорати: кеча, бугун ва эртага. //The First International conference on development of pedagogical science in Eurasia. – Австрия, 2014. (28 август). – P. 89-94.



**Malika NOROVA**
Buxoro davlat universiteti milliy g‘oya
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
kafedrasi o‘qituvchisi

# MILLIY-MA’NAVIY NEGIZLARGA TAYANISH – DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ZARURIY SHARTI

*Mazkur maqolada mamlakatimizda milliy–ma’naviy negizlarga tayanishning demokratik jamiyat qurishdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *millat, etnos, ma’naviyat, qadriyat, akseologiya, moddiy hayot, iqtisodiyot, ma’rifat, xalq, guruh, mentalitet, milliy ma’naviyat, milliy tiklanish, milliy qadriyatlar, ma’naviy hayot.*

*В данной статье обсуждается роль национальных и духовных основ в построении демократического общества в нашей стране.*

***Опорные понятия:*** *национальность, этнос, духовность, ценность, аксеология, материальная жизнь, экономика, просвещение, народ, группа, менталитет, национальная духовность, национальное возрождение, национальные ценности, духовная жизнь.*

*In this article is discussed the role of national and spiritual foundations in building a democratic society in our country.*

***Supporting concepts:*** *nationality, ethnos, spirituality, value, axiology, material life, economics, enlightenment, people, group, mentality, national spirituality, national revival, national values, and spiritual life.*

Mustaqillikni mustahkamlash davrida jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, barcha jabhalarda tub tarixiy burilish bilan bog‘liq bir qator muammolarni va vazifalarni hal etishni taqozo etadi. Ana shunday ulkan vazifa va mas’uliyat xalqimizdan bir tomondan ma’naviy yangilanish jarayonini to‘liq idrok etishni, ikkinchi tomondan esa, demokratik jamiyat qurishda unga tayanishni taqozo etadi. Negaki, milliy-ma’naviy yangilanish, yuksalish, taraqqiyot omiliga aylanmoqda. Shu bois, mustaqillik yillarida jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk allomalarimizning merosini ham yangidan ijodiy o‘zlashtirish hayotiy ehtiyojga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko‘plab buyuk siymolarimiz ilmiy-adabiy merosini o‘rganish mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning milliy-ma’naviy negizlarini tashkil etadi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz [3]. Masalaning xuddi shu jihatiga urg‘u berib, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida bayon etilgan oltita ustuvor yo‘nalishning bajarilishi kerak bo‘lgan ulkan vazifalar paydo bo‘ldi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritgach, o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘ziga xos milliy ma’naviyat va madaniyatning sohibiga aylandi [5].

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish uchun avvalo, insonlar tafakkurida tub yuzaga kelishi zarur. Zero, eski qolipdagi aqidalardan xalos etmay turib, yangi davr, tarixiy taraqqiyot bilan birgalikda yuzaga keladigan muammolarni hal etib bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, jamiyatni ma’naviy yangilamay, kishilar tafakkurini o‘zgartirmay turib, demokratik jamiyatni qurish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, umuman hech qanday taraqqiyotga erishish mumkin emas. Zero, demokratik fuqarolik jamiyati yuksak ma’naviyat va keng ma’rifat tantana qilgan jamiyatdir.

Mustaqillik tufayli milliy-ma’naviy tiklanish imkoniyati yuzaga keldi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Ma’naviy o‘nglanishni amalga oshirmasdan iqtisodiy o‘nglanish mumkin emas”ligini aytib, “Ma’naviyat xalqni, millatni millat qiladigan kuch-qudratdir” degandi. Shu sababli, mustaqillik yillarida jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk alloma Imom Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy kabi buyuk zotlar merosini o‘rganish demokratik jamiyatning milliy ma’naviy negizlarini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1992-yilda yozgan “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarini ko‘rsatib bergan edi:

1) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
2) xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
3) insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
4) vatanparvarlik.

Bu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda muhim vazifa va manba hisoblanadi. Barkamol shaxs – demokratik jamiyat tushunchasidir. Ma’naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kecha paydo bo‘lgan emas. Uning tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari ijodiy, falsafiy ta’limotlariga borib taqaladi. Shu sabab, “Biz sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz” degan edi I. Karimov va bu borada komil insonga ta’rif berib, ongi yuksak, mustaqil fikrli, xulq-atvori bilan ibratli, bilimli, ma’rifatli kishini tushunishini bayon etgan edi. Shu boisdan ham jamiyatning ma’naviy yangilanishi demokratik jamiyat barpo etish omilidir. Milliy-ma’naviy negizlarni bilish uchun tarixni, milliy o‘zlikni anglash ham zarur, chunki xalq ma’naviyatning asosidir.

Darhaqiqat, demokratiya har bir inson uchun oliy qadriyatga, jamiyatning boyligiga aylanmog‘i kerak. Busiz u shunchaki nazariya yoki qog‘ozda qolgan qonunligicha qoladi, xolos. “Barcha islohotlarimizning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir [3]”. Negaki, bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohotlar – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan ko‘zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijodiy va ma’naviy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdan iborat. “Shu sababli – deb ta’kidlagan edi – Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov – jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o‘tishida bizga islohot chog‘ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadriyatlar, ma’naviy tayanchlar barbod bo‘ladigan, o‘tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andaza maqbul emas” [4]. Binobarin, eng avvalo, erkin fikrlaydigan odamgina o‘z Vatanining haqiqiy farzandiga aylanadi. Chunki tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tayziqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘lolmaydi. Inson ozod emas ekan – jamiyat demokratik tamoyillarni qabul qilmaydi.

Demak, inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqaligina demokratik jamiyatni barpo etish mumkin.

O‘zbekistonda kechayotgan demokratik o‘zgarishlarlarning jamiyat ma’naviy yangilanishi bilan bog‘liqligining yana bir jihati bor. Ana shu bog‘liqlik Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning bir qator risolalarida va ma’ruzalarida alohida ta’kidlangan. U O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi umumiy yig‘ilishida (1994-yil 7-iyul) so‘zlagan nutqida shunday degan edi: “Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma’naviy merosi ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma’naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an’analarimiz, xullas, inson ma’naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti” [2]. Darvoqe, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning ma’naviyat, uning mohiyati to‘g‘risida nazariy-ilmiy fikrlari g‘oyat chuqur va keng qamrovlidir. Shuningdek, u ma’naviy tarbiya – mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti ekanligiga alohida e’tibor beradi. Dunyo tarixida mustaqillik va ozodlik kurashchilari timsoliga aylanganlardan biri, XX asr buyuk hind davlat arbobi Maxatma Gandi: “Insoniyat – bu yagona oila, bo‘linmas oila. Uning har bir a’zosi sodir qilgan jinoyat uchun har birimiz javobgarmiz”, – degan edi. U yoki bu millat yoki davlat ana shu insoniyat degan katta oilaning ichidagi kichik oila. Ana shu oila a’zolarida bahamjihatlik, ma’naviy mushtaraklik bo‘lmas ekan, ular Gandi

so‘zlarida aks etgan ma’naviy burch hissi bilan yashamas ekan, yorug‘ kelajak haqidagi o‘ylar xom-xayol bo‘lib qolaveradi. Zero, demokratik rivojlanish barqarorlik va ijtimoiy hamkorlikka tayanadi.

Odamlar ma’naviyat rishtalari bilan bog‘langandagina, ular xalq, millatga aylanadi. Chunki “ma’-naviyat – insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch” dir [1]. Shu o‘rinda Prezident Sh.M. Mirziyoevning fikrlarini ta’kidlab o‘tmoqchiman: “Adolat va ma’naviyat –o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi [7]”.

Ma’naviyat mavhum tushuncha emas. U millat bilan, milliy tafakkur bilan, millatning tarixi, asrlar mobaynida to‘plangan bilim va tajribasi, tushunchalari, tasavvurlari bilan bog‘liq. Fransuz ma’rifat-chisi Jan Jak Russo Yevropa jamiyati hayotida ulkan siljishlar sodir bo‘layotgan XXI asrda xalqda milliy xarakterni shakllantirishni birinchi vazifa, deb bilgan edi. Chunki uning nazdida “har qanday yaxshi o‘zgarishlarning umumiy maqsadlari har bir davlatda mahalliy shart-sharoit va aholining o‘ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadigan munosabatlarga muvofiq shakl olishi kerak” [1].

Demak, O‘zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifasini ma’naviy yangila-nishlarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu haqiqatni hech qachon unutmaslik kerak. Demokratiya – bu kishilarning birgalikda hayot kechirishi, muammolarni bahamjihatlik bilan hal qilishi, shaxsiy man-faatlarni jamoa, millat, davlat manfaatlari bilan uyg‘un ko‘rishi, bir so‘z bilan aytganda, murosa qilish madaniyatidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun ma’naviyat siyosatning bosh tayanchi bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun ham mamlakatimiz Pre-zidenti Sh.M. Mirziyoyev demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish uchun “insofli, diyonat-li odamlarninggina rahbarlik to‘nini kiyishga ma’naviy haqi bor”ligini ta’kidlab kelmoqda.

Ma’naviyat inson ruhiyatida voqe bo‘ladi. Shuning uchun u, avvalo, alohida olingan inson bilan bog‘liq tushuncha. Ammo inson jamiyatdan ajralmas bo‘lib, jamiyatdan tashqarida o‘z insonlik mohi-yatini yo‘qotar ekan, ma’naviyat insonni o‘zga odamlarga, jamiyatga, butun borliqqa daxldor qiladi. Shu jihatdan ma’naviyat ijtimoiy mazmun kasb etadi. “Inson o‘zini xalqning bir zarrasi deb sezganda-gina, u haqda o‘ylab, mehnat qilib yashagandagina, ma’naviyat bilan tutashadi” [4]. Demak, har bir ki-shi o‘zining yashash tarziga, o‘zgalar bilan bo‘lgan munosabatiga jiddiy e’tiborni qaratmasdan turib, jamiyat bironta muammoni hal etishi mushkul. Bugungi kunda har qanday milliy tiklanish va milliy ri-vojlanishning asosi bo‘lgan ma’naviy meros, urf-odatlar, an’analar, yuksak qadriyatlar, tarixiy xotira xalqimizga qaytarildi. Milliy o‘zligini, huquqlarini tobora teranroq anglab borayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajakni barpo etish yo‘lida bu boy imkoniyatlardan foydalanish, barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlanishga, O‘zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyat qurish ishiga yo‘nalti-rishga safarbar etishdek ulkan imkoniyatlar yaratildi.

## Adabiyotlar


1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: “O`zbekiston”, 1999. – B. 17.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: “O`zbekiston”, 1994. – B. 14.
3. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I. – T.: “O`zbekiston”, 1996. – 322 b.
4. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari. 1-jild. – T.: “O`zbekiston”, 2002. – B. 81.
5. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O`zbekiston”, 1997. – B. 137-138
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. 6-jild. – T.: “O`zbekiston”, 1998. – B. 125.
7. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko`taramiz. – T.: “O`zbekiston”, 2017. – 592 b.



**Nuriddin ESANOV**
Buxoro davlat universiteti
boshlang`ich va maktabgacha ta'lim
uslubiyoti kafedrasi o`qituvchisi



**Feruza O`TAYEVA**
Buxoro davlat universiteti
tarix kafedrasi katta o`qituvchisi

# O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISHDA MATEMATIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH UCHUN TARIXIY FAKTLARNING O'RNI

*Maqolada O`zbekiston tarixi darslarini davr talabi asosida talabalarga yetkazishda ularning mutaxassisligiga yondashilgan holda mavzuni ochib berish haqida fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar**: tarixiy fakt, zamonaviy darsga bo`lgan talablar, allomalar merosi, arifmetika va sonlar nazariyasi, "Ustoz-shogird" an'analari, ta'lim-tarbiya.*

*В статье размышляется о раскрытии тем по истории Узбекистана на основе требований сегодняшнего времени, учитывая специальность студентов.*

***Опорные слова**: исторический факт, требования к современному уроку, наследие предшественников, теория арифметики и числа, традиции учителя-наставника,образования и воспитание.*

*In article is reflected on the disclosure of topics on Uzbek history based on demands of time coming up on their specialties.*

***Supporting concepts:** historical fact, requirements for the modern lesson, the heritage of predecessors, the theory of arithmetic and numbers, the traditions of teacher-mentor, education and upbringing.*

Tarixiy bilimlarni shakillantirishda tarixiy faktlar mohiyatini alohida qayd etish kerakki, tarixiy tushunchalarni shakllantrish birinchi galda tarixiy faktlarni bilishga, shuningdek, aniq yirik obrazlarga suyanmoqni taqozo etadi.

Tarixni bilish jarayoni tarixiy faktlarni o'zlashtirishdan boshlanadi. Tarixiy faktlarning o`ziga xosligi shundan iboratki, ular hech qachon aynan takrorlanmaydi. Shu bilan birga, tarixiy faktlarni talaba-ning o`z ta'lim yo`nalishiga yaqinroq holda yetkazilsa, tarixni o`rganish jarayonida faktlarni shunchaki o`rganmasdan, balki ular orasidagi zarur aloqalarni taqqoslash, aniqlash va ma'lum darajada tizimlashtirib o`zlashtirishni ta'min etadi [8].

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o`z ma'ruzalarida: "O'zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini asrab-avaylash hamda ko'paytirish, shuningdek, yosh avlodni umuminsoniy va milliy an'analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilishini ta'kidladilar [1]. Ilm-fan yutuqlarini taraqqiyotning muhim omillariga aylantirish kerak. Zamonaviy darsga bo`lgan ilmiy-metodik va didaktik talabi xususida T.N. Qori-Niyoziyning quyidagi fikrini keltiradigan bo'lsak, alloma "Ta'lim-tarbiya jarayonida kuzatilgan maqsad talabalarga u yoki bu fandan "qancha" bilim berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki shu bilimlarni qanday maqsadda, qaysi metod va vositalar yodamida ularning kundalik amaliy faoliyatlarida bevosita qo`llay bilishlarini faol shakllantirib borishdan iborat bo`lmog'i darkor" degan [5].

O'zbekiston tarixi fanidan "IX-XII asrlarda ilm-fan va allomalar merosi" mavzusini, matematika, fizika, kimyo, biologiya, ta'lim yo`nalishlari talabalariga ixtisosligiga mos tarixiy dalillardan foydala-

nib o'tish o'rinlidir. IX-XII asrlarda olimlar jahon fani rivojiga hissa qo`shdilar va turli fan sohalari bilan shug`ullanib, bu ilmlarning kelajakdagi taraqqiyotiga zamin hozirlaydi. Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov: "Xorazm Ma'mun akademiyasining ravnaqiga hissa qo`shgan allomalarimiz merosi, ilmu-ma'rifat ziyosi hech qachon so`nmaydi"– deb ta'kidlagan edilar [2].

Abu Rayhon Beruniy jahon fani rivojiga hissa qo`shgan qomisiy olim o`z asarlarida fizika, matematika, kimyo, biologiya sohasiga alohida e'tibor qaratganligini shu ta'lim yo'nalish talabalariga dalillar orqali ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Masalan: "Qonuni Ma'sudiy", "Tafhim" asarlari o`rta asr Sharq matematikasining qomusi bo'la oldi. "Tafhim" – "Yulduzshunoslik san'ati asoslarini tushuntirish kitobi" bo'lib, olim hayotligi davrida yoki undan biroz keyin arabchadan forchaga tarjima qilingan. Kitobda 533 ta savol va ularning javoblari bo'lib, bulardan oldingi 119 tasi matematikaga tegishlidir. 1-37-savollar planimetriyaga, 38-56-savollar nisbatlar nazariyasiga, 57-71-savollar stereometriyaga, 72-95-savollar musiqa nazariyasiga, 96-108-savollar arifmetikaga, 109-115-savollar algebra va harflar bilan hisoblashga, qolgan savollari astronomiyaning turli masalalariga, astrologiyaga va geodeziyaga bag`ishlangan. XX asrda to`la yoki qisman ingliz va rus, tojik tillariga tarjima qilingan. Kitob xorazmlik Rayhona al-Hasan qiziga bag`ishlangan bo`lib, savol-javob tarzida 530 savol-javobdan iborat, sakkiz bobga bo'lingan: 1) geometriya; 2) arifmetika; 3) astronomiya; 4) geografiya; 5) astrologik astronomiya; 6) xronologiya; 7) usturloblar; 8) astrologiya.

"Solishtirma og`irliklar" asari tabiiy fanlar tarixiga yorqin sahifa bo'lib kirdi. O'zi yasagan maxsus asbob yordamida Abu Rayhon Beruniy 50 moddaning, shu jumladan, 9 metall, 18 suyuqlik, 3 ta ma'danning solishtirma og`rligini aniq o'lchadi. Abu Rayhon Beruniy 1031-yilda yozib tugatgan 80 bobdan iborat "Hindiston" nomli mashhur asarining XIII va XVI boblarida arifmetikaga doir masalalar, XV, XXIII va XXIV boblarida esa geometriyaga doir masalalar bayon etilgan.

Arifmetika, algebra va sonlar nazariyasiga bag`ishlangan bilimlarning mundarijasi qisqacha shundan iborat: Abu Rayhon Beruniy son tushunchasiga ta`rif beradi. "Son birliklardan iborat to`plamdir". Bir sonini shartli bo`lishi mumkinligini, masalan: og'irlikni, hajm va yuzalarni o`lchash vaqtida o`lchov birliklarini bo'lish mumkinligini yozadi. Bundan keyin natural sonlar, juft va toq sonlar, tub va murakkab sonlar, kvadrat va kub sonlar, mukammal sonlar va boshqalar bayon etiladi [7].

Geometriya bo'limida shar ichida besh xil muntazam ko`pyoqlar yasash mumkinligini aytib, bu ko`pyoqlarga turli xil ismlar beradi.

Ma'lumki, O`rta asrlarda uchunchi darajali tenglamalarni yechish, uning umumiy nazariyasini qurish sohasida ko`p matematiklar, ayniqsa, O`rta Osiyolik matematiklar ish olib bordilar. Bir qancha amaliy masalalar bunday tenglamalarning ildizlarini topish masalasiga keltirildi. Abu Rayhon Beruniy ham bu sohada tekshirishlar olib borib, muntazam to`qqiz burchak tomonini aniqlash masalasini uchinchi darajali tenglamaga keltirildi va bu tenglamaning takribiy yechimini berdi.

Abu Rayhon Beruniy "Doiradagi vatarlarni, uning ichiga chizilgan siniq chiziqlar yordamida aniqlash haqidagi risola" nomli asarida geometriyaga doir masalalarni bayon etgan. Olim bu asarni 1027- yilda yozrgan.

Ibn Sino va Beruniy bir zamonda yashagan ikki buyuk siymo, Sharq fanining iftixori, qora zulmatdan iborat feodalizm davrida chaqnab yonayotgan va o`z nurlari bilan kelgusi avlodlarga yorug` yo`l, ko`rsatgan ikki yulduz hisoblanadi. Ularning o`tkir zehnlari, chuqur tafakkurlari, ajoyib iste'dodlari fan olamini yangi durdonalar bilan to`ldirdi. Har ikki buyuk olim o`sha zamon faniga doir turli murakkab masalalarni hal etishga birgalashib qatnashdilar. Bu masalalar ustida ilmiy bahslashishlar o`tkazdilar. Abu Rayhon Beruniy bilan Ibn Sino orasida olib borilgan ilmiy bahslashishlar "Ilmiy savol-javoblar" nomli qo'lyozma bizning kunlargacha yetib kelgan.

Falsafa, astronomiya va fizika masalalariga bag`ishlangan bu asar "Ilmiy savol-javoblar" fan tarixida katta ahamiyatga egadir. Ibn Sino Abu Rayhon Beruniy tomonidan berilgan 18 ta savolga javob beradiki, bulardan 10 tasi Aristotelning " Osmon haqidagi kitob"iga va 8 tasi "Fizika" kitobiga tegishlidir.

Ibn Sino Beruniy tomonidan berilgan savollarga, yunon faylasufi Aristotel ta'limoti asosida javob beradi va bu javoblar mazmunini qisqacha tushuntirishga intiladi.

Masalan: Abu Rayhon Beruniy Aristotelning "Osmon haqidagi kitobi"da bayon etilgan fikrlari to`g`risida mulohaza yuritib, Ibn Sinoga shunday savol beradi: "Nima uchun Aristotel falakning mar-

kazdan yoki markazga qarab yo`nalgan harakati yo`qligini sabab qilib, uning yengilligi va og`irligi yo`q ekanini lozim topdi" [3]. Ibn Sino bu savolga javob berib, "Har bir tabiiy jismning tabiiy o`rni bordir. O`z tabiiy o`rnida bo`lgan har bir narsani yengil ham, og`ir ham emas deyishga dalil shuki, yengil narsa yuqoriga harakat qiladi, uning tabiiy o`rni yuqorilik bo`ladi. Chunki og`ir narsa tabiati bo`yicha quyiga harakat qiladi, uning tabiiy o`rni pastlikdir falak jismdir, ya'ni falakning tabiiy o`rni bor. Demak, "Tabiiy o`rinda bo`lgan narsa aslida, og`ir ham emas, yengil ham emas, degan masala isbotlanadi" degan mantiqiy mulohaza yuritadi.

Abu Rayhon Beruniy tomonidan berilgan uchinchi savolda "Nima uchun Aristotel va boshqa faylasuflar tomonlar soni 6 ta deb zikr qilganlar. Biz bu tomonlarni tayinlashda kub shaklini olaylik. Chunki kubning 6 tomoni bor. Kubning har yoniga o`zidek 6 ta kub qo`yilsa, u kubning hosil bo`lgan shaklini yana kubga aylantirish uchun kamchilik joylari to`ldirilsa, hammasi bo`lib 27 kub mavjud bo`ladi. Boshqa yangi tomonlar avvalgi kubning qirra va burchaklariga tegadi. Tomonlar shu songa yetmagan taqdirda, kublar avvalgi kubning qaysi tomoniga tegadi? Shar singari jismlarning tomonlari bo`lmaydi", deb aytiladi.

Matematik tushunchalarni o`z ichiga olgan bu savolga, Ibn Sinoning bergan javobida hamma hollarda ham jismlar 6 tomonga ega, deb hisoblash kerakligi, har bir jismda, uning shaklidan qat`i nazar uchta o`lchov: uzunlik, kenglik, chuqurlik mavjud ekanligi aytiladi.

Ibn Sino yozadi: chunki falsafa tayin qilgan 6 tomon jismning uzunligi, eni va qalinligini chegaralovchilardir. Har bir jism chegarali bo`lgach ravshandirki, u jismning bo`yi, eni va qalinligi chegaralidir. Bundan ma'lumki, har bir uzunlik, kenglik va qalinlikning ikki uchi bo`lib, bu uchlar sanog`i 6 va bularga 6 tomon to`g`ri keladi.

Ensiklopedist olim Ibn Sinoning ko`p asarlarida, shu jumladan, "Ash-shifo" va "Donishnoma" asarlarida fizika va matematika fanlariga bag`ishlangan maxsus bo`limlar bor. Bu bo`limlarda fizika, geometriya, astronomiya, arifmetika va muzika nazariyasiga doir masalalar bayon etilgan.

Mashhur olim Ibn Sino o'zining ilg`or va oliyjanob g`oyalarini ommaga yetkazib, xalq uchun qo`lidan kelganicha ko`proq asarlar yaratish, o`z asarlari orqali yosh avlodga fan asoslarini o`rgatish va o`qitishni asosiy maqsad qilib oldi. Shuning uchun ham olimning "Ash-shifo" va "Donishnoma" asarlarida "Geometriyaga"ga katta ahamiyat berilgan va bu bo`limlar, o`quvchilarga tushunarli bo`lishi uchun, sodda tilda bayon etilgan.

"Ash-shifo" asarida matematikaga doir bo`limlar: "Qisqartirilgan Yevklid", "Qisqartirilgan Almagest", "Sonlar fani", "Musiqa fani" deb atalgan. Masalan: "Sonlar fani" bo'limida 9 soni yordamida sonlarning kvadratga va kubga ko`tarish amallarining to`g`riligini tekshirish haqida qoidalar berilgan [10]. Arifmetikada: natural sonlarning xossalari, Erotosfen g`alvirining tuzilishi haqida qolgan, natural sonlar ustida amallar va ularning xossalari, ayirmasi birga teng bo`lgan arifmetik progressiyaning istalgan hadini va yig`indisini topish, natural sonlar darajasi haqida tushuncha kabi masalalar bilan shug`ullanadi. Amallarning to`g`riligini tekshiruvchi vosita sifatida (mezon) to`qqiz bilan tekshirish usulini kvadrat va kubga ko`tarishga tatbiq etadi. Nisbatlar va sonli va geometrik miqdorli progressiyalarni Yevkliddan farqli o`laroq bir-biri bilan uzviy bog`langan holda qaraydi. U ikki son nisbatini kasr son bilan almashtiradi. Bunday yondashish kelgusida Umar Xayyom va Nasriddin Tusiylar tomonidan rivojlantirilib son tushunchasini musbat haqiqiy sonlargacha kengaytirish imkonini beradi.

"Shifo kitob" asarining geometriyaga bag'ishlangan qismida planimetriya va stereometriyaga tegishli mavzularni 74 ta'rif, 7 postulat, 5 aksioma va 255 teorema orqali bayon etadi. Harakat tushunchasini keng qo'llash natijasida ba'zi teoremalarni Yevklidga nisbatan qisqa va soddaroq usulda isbotlaydi. Yevklidning V postulati esa bu aksiomalar sistemasidan tashqarida bo'lib, teorema sifatida "isbotlangan". Ibn Sino qalamiga mansub turli mavzulardagi 50 ta asarning 60 ta qo'lyozmasi O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Beruniyning ustozi Abu-Nasr Mansur ibn Iroq al-Ja'diy (vafoti 1036-y.) asli xorazmlik, o'rta asrlarda matematikani ancha yuqori pog'onaga ko'tardi. Shoir va astronom Umar Xayyom Ibn Iroq haqida: "Matematika bilan shug'ullanganlar ichida eng ulug'i", – degan edi. Beruniy tug`ilganidan to ustozi Ibn Iroqning o`limigacha 60 yildan ortiq muddat ustozining ta'sirida bo'lgan. Bu ikki buyuk olimning bir umr hamkorligi o`rta asrlardagi aniq fanlar uchun favqulodda unumli bo'ldi.

Ibn Iroqning matematikaga oid ko'plab asarlari bor. "To`g`ri burchakli va uchburchaklar uchun yassi va sferik sinuslar teoremasi haqida risola", "Yettiburchakni yasash haqida risola", "Osmon sfer-

asidagi yoylardan birini boshqasidan "kesishuvchi shakl" va "Tuzilgan nisbat" dan foydalanmay aniqlash haqida risola va boshqa asarlari bizgacha yetib kelgan va matematiklar uchun qo`llanma bo'lib kelmoqda [11].

Abu Ali Hasan al-Xorazmiy al-Hububiy (X-XI asrlar) Xorazmda qozilik bilan shug`ullangan, matematikani yaxshi bilgan. Uning qalamiga mansub quyidagi matematik asarlari mavjud: "Arifmetika, aljabr va almuqobala kitobi", "Arifmetika", "Arifmetika ilmida tadqiq va tasnif kitobi"da algebraik tenglamalarni yechish usullarini takomillashtiradi. "Aljabr va almuqobala hisobida vasiyat masalalarini sharhlash usulini tushuntirish va geometrik usullarni", "Ikki xato", dinor va dirham usuli bilan amal qilishni tadqiq qilish kitobi, bu risolalarning oxirgisida u algebraik tenglamalarni yechish usulini takomillashtiradi. "Keyinchalik Jamshid Koshiy o'zining "Arifmetika kaliti" asarida bu usuldan foydalangan. "Arximed muqaddimalari haqida risola" bu asardan Abu Rayhon Beruniy "Vatarlar" kitobida iqtiboslar keltiradi. "Matematika" asari meros bo`lish masalalariga bag`shlangan. O`zining matematik asarlarida Hububiy Xorazmiy ilmiy an'analarini davom ettirdi.

IX-XII asrlarda vatanimizda ilm-fan yuksak darajada rivojlandi. O`tmishning ilg`or tajribalari mustaqil O`zbekistonni kelajak taraqqiyotini oqilona belgilashga yordam beradi. O`tmish ibratlari xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllantirishga bevosita ta'sir ko`rsatadi.

## Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // Xalq so'zi, 2016-yil 31-dekabr.

2. Karimov I.A. Ilmu ma'rifat ziyosi hech qachon so`nmaydi. Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // Xalq so'zi, 2006-yil 3-noyabr.

3. Beruniy bilan Ibn Sinoning savol-javoblari. – T.: Fan, 1950.– 76 b.

4. Toshpo'latov T., G'afforov A. Tarix o'qitish metodikasi. – T.: Universitet, 2011. – 234 b.

5. Sadiyev A. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish. – T.: O'qituvchi, 1993. –102 b.

6. G`afforov Y. Maxsus fanlarni o`qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. – T.: Universitet, 2008. – 121 b.

7. Rahmonova Y.R. Matematika darslari jarayonida sharqning buyuk allomalari merosidan foydalanish. – T., 2006. – B. 45-48.

8. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000. – 234 b.

9. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O`zbekiston tarixi. Darslik. – T.: 2008. – 324 b.

10. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O`zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Meros, 2002. – 348 b.

11. Xorazm Ma'mun akademiyasi va dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni. // Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bagishlangan xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent-Xiva: 2006.

# ANIQ VA TABIIY FANLAR





**Gulbahor XUDOYNAZAROVA**
Buxoro davlat universiteti kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

**Shaxina ZARIPOVA**
Buxoro davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi

**Shoira XUDOYNAZAROVA**
Buxoro tumani 9-son o`rta umumta'lim maktabi o`qituvchisi

## "METALLAR VA METALLMASLAR. MURAKKAB MODDALARNING TOIFALANISHI" MAVZUSINI O'QITISHDA MAVZULASHTIRILGAN VA KODLASHTIRILGAN JADVALDAN FOYDALANISH

*Maqolada umumiy o`rta ta'lim maktablarining 7-sinf kimyo fanidan "Metallar va metallmaslar. Murakkab moddalarning toifalanishi" nomli mavzuni o`qitishda o`quvchilarga mavzulashtirilgan va kodlashtirilgan jadval orqali topshiriqlar berish xususida so`z boradi. O`quvchilar o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish orqali metallmaslar to`g`risida kimyoviy tushunchalarni o`zlashtirishi va moddalarning simvolikalarni yana bir bor takrorlashlariga imkoniyat yaratiladi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *metallar, metallmaslar, mavzulashtirilgan jadval, kodlashtirilgan jadval, davriy sistema.*

*В статье идет речь о заданиях по тематизированным и кодированным таблицам при обучении темы «Металлы и неметаллы. Группировка сложных веществ» по химии для 7х классов средних школ. Ученикам предоставляется возможность повторения символики веществ и освоение химических терминов о неметаллах путем выполнения самостоятельных задач.*

***Опорные понятия:*** *металлы, неметаллы, тематизированная таблица, кодированная таблица, периодическая система.*

*In article is told about the tasks assigned to thematic and coded tables in the training of the topic "Metals and Non-Metals. Grouping of complex substances "in chemistry for the 7th grade of secondary schools. Students are given the opportunity to repeat the symbolism of substances and the development of chemical terms about non-metals through the performance of independent tasks.*

***Supporting concepts:*** *metals, non-metals, themed table, coded table, periodic system.*

Respublikamizda ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan bo`lib, u o`qituvchilar zimmasiga mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimga ega bo`lgan barkamol shaxsni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklaydi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, yani an'anaviy ta'limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. Dars jarayonida o`quvchilar asosiy obyekt sifatida ishtirok etadi.

Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 7-sinf kimyo fanidan "Metallar va metallmaslar. Murakkab moddalarning toifalanishi" nomli mavzuni o`qitishda o`quvchilarga mavzulashtirilgan va kodlashtirilgan jadval orqali topshiriqlar beriladi va o`quvchilar o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni

mustaqil ravishda bajarish orqali metallmaslar to`g`risida kimyoviy tushunchalarni o`zlashtirishi va moddalarning simvolikalarni yana bir bor takrorlashlariga imkoniyat yaratiladi.

Dastlab o`qituvchi o`quvchilarga davriy sistemadagi metallar va metallmaslar to`g`risida umumiy tushuncha beradi.



Davriy sistemaning katta IV-VI va tugallanmagan VII davrlari qo`shimcha guruhchalariga hamda I, II, III (bordan tashqari) guruhlarining asosiy guruhchalariga kiruvchi barcha elementlar metallardir. Metallarga fizikaviy jihatdan yaltiroqlik, qattiq holat (Hg dan boshqa), yorug`likni qaytarish, issiqlik va elektr tokini yaxshi o`tkazish, deformatsiyalanish xususiyatlari, kimyoviy jihatdan esa oson elektron berish va qaytaruvchilik xossalarini namoyon qilish xosdir.

Metallarda metall bog`lanish – kristall panjaradagi musbat zaryadli atom-ionlar bilan panjara bo`shlig`idagi "elektronlar oqimi" o`rtasida yuzaga keladigan o`zaro tortishuv kuchlari mavjud. Shu sababli, ular issiqlikni va elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Metallar atomlarining elektron tuzilishiga ko`ra s-metallar (ishqoriy va ishqoriy-yer metallari), p-metallar (III-IV guruhlar asosiy guruhchasi metallari), d-metallar, f-metallarga bo'linadi.

Metallarning davriy sistemadagi o`rniga ko`ra, ularning xossalari quyidagi tartibda o`zgarib boradi:

- elementlarning davrlarda tartib raqami ortib borishi bilan metallik xossalari kamayib boradi. Chunki tartib raqami ortib borishi bilan atom radiusi kichrayadi va tashqi elektronning yadro bilan tortilish kuchi ortadi va metallar valent elektronini qiyin beradi. Masalan, Na – Mg – Al qatorida suv bilan ta'sirlashishi Na ishtirokida shiddatli, Mg bilan sekin, Al bilan yuqoti haroratda (qizdirganda) boradi. $Na_2O$ – kuchli, MgO – kuchsiz, $Al_2O_3$ – amfoter oksid.

- guruhlarda elementlarning tartib raqami ortishi bilan ularning metallik xossasi kuchayadi. Chunki tartib raqami ortishi bilan atomdagi elektron qavatlar soni ortib, atom radiusi kattalashadi va tashqi elektronlar osonlik bilan chiqib ketadi. Masalan, Li (ionlanish energiyasi $I$ = 5,39 eV), Na (5,14), K (4,34), Rb (4,7), Cs (3,9) qatorida ishqoriy metallarning faolligi ortib boradi. Agar Li metali oddiy sharoitda ochiq havoda vaqt o`tishi bilan oksidlanib oq rangli moddaga aylansa, Cs – ochiq havoda alanga olib ketadi. Shu singari LiOH ga nisbatan CsOH kuchli asosdir.

Katta davrlarning *p*- va *d*-metallarida bu xususiyatlar saqlanib qolinsa-da, ancha kuchsizroq namoyon bo`ladi. *s*-metallardan farq qilib, ular o`zgaruvchan oksidlanish darajalarini namoyon qiladilar. Masalan: IV guruh *p*-metallari qalay Sn va qo`rg`oshin Pb +2 va +4 oksidlanish darajasidagi oksidlarni hosil qiladilar. Lekin bu oksidlarda metallarning oksidlanish darajasi ortishi bilan ularning kislotali xossasi kuchayadi. Past oksidlanish darajasidagi birikmalari $Sn^{2+}$, $Pb^{2+}$ qaytaruvchi, yuqori oksidlanish darajadagi $Sn^{4+}$, $Pb^{4+}$ birikmalari oksidlovchi bo'ladi. Shu sababli $PbO_2$ kuchli oksidlovchi sifatida keng qo'llaniladi.

*s*-metallarning vodorodli birikmalari (gidridlari – LiH, NaH, $CaH_2$) tipik ionli bog'lanishga ega bo'lsa, *p*-metallar gidridlari ($AlH_3$, $GaH_3$, $BiH_3$) da kovalent hissasi ortadi, ular beqaror bo'ladilar. *d*-Metallarning gidridlari deyarli mavjud bo'lmay, ular o'zlarining sirtlarida vodorodni molekulyar ($H_2$) holda, molekulalararo ta'sir kuchlari vositasida tutib (adsorbilab) turadilar. Masalan: Pt metali $H_2$ gazini adsorbilab ($H_2$/Pt) vodorod elektrodining ishlashini ta'minlaydi.

Metallar tabiatda erkin holda (Au, Ag, Cu, Fe, Hg) va turli birikmalar (oksidlar, sulfidlar va boshq.) holida tarqalgan. Metallarni olish, ular asosida turli qotishma va maxsus birikmalar ishlab chiqarish bilan kimyo sanoatining o'ziga xos sohasi – metallurgiya shug`ullanadi.

Metallurgiya deb, kimyo sanoatining tabiiy manbalar va rudalardan metallarni olish va qayta ishlash bilan shug`ullanadigan sohaga aytiladi. Metallurgiya qora (temir va uning asosidagi qotishmalar) va rangli metallurgiyaga bo'linadi.

**Metallurgiya**

| **Pirometallurgiya** | **Gidrometallurgiya** | **Elektrometallurgiya** |
|---|---|---|
| Turli oksid, sulfid, xloridlardan qaytaruvchilar yordamida yuqori haroratda metallarni olish | Metallar rudalarini eritma holiga o`tkazib, eritmalardan kuchli (aktiv) metallar yordamida qaytarib, metall olish usuli | Metallarning tuzlari eritma yoki suyuqlanmalarini elektr toki ta'sirida qaytarish (elektroliz) usuli bilan metallar olish |
| Qaytaruvchilar: C – koks, CO – is gazi, $H_2$ – vodorod | Ajratib olinadigan metallar Au, Ag, Hg, Cu, Pt, Pd | Ajratib olinadigan metallar Na, K, Ca, Mg, Al, Ni, Be |

So`ngra o`qituvchi quyidagi sxema yordamida metallarning tarqalishini tushuntirib beradi.



Metallar to`g`risida ma'lumot berilgach, metallmaslarning fizik-kimyoviy xossalari ta'riflanadi va tegishli reaksiya tenglamalari yoziladi.

1. Tipik metallmaslar metallar bilan ta'sirlashish natijasida ion bog`lanish hosil bo'ladi.




**Metallar va metallmaslarning ba'zi xossalarini taqqoslash.**

| Oddiy moddalar | Agregat holati (n.sh.) | Ba'zi fizik xossalari | Kristall panjara turi | Bog' turi |
|---|---|---|---|---|
| **Metallar** | Hg va Fr dan boshqa barchasi qattiq | Metall yaltiroqligi, issiqlik va elektr o'tkazuvchanlik, plastiklik, cho'ziluvchanlik | **Metall** Misol: Natriyning kristall panjarasi  | Metall |
| **Metallmaslar** | Qattiq (oltingugurt $S_8$, fosfor $P_4$, yod $J_2$ va b.) | Metall yaltiroqligi yo'q, issiqlik va elektr o'tkazuvchanlikning yomonligi yoki yo'qligi | **Atom** (olmos, bor)   | Qutbsiz kovalent |

Dars jarayonida o`qituvchi o`quvchilarni 2 guruhga bo`lib, birinchi guruhga "Metallarning xossalari", ikkinchi guruhga esa "Metallmaslarning xossalari" nomli mavzulashtirilgan va kodlashtirilgan

jadvallarni topshiriq sifatida tarqatadi. O`quvchilar berilgan jadvaldan topshiriqdagi savollarga javob topishadi, bunda kod raqamiga mos javob izlaydi (1 yoki 7 vertikal qatorlarda)

***Masalan:*** 4 vertikal qatordan amfoter gidroksidni toping. Agar sizning variantingiz 1 bo`lsa, u holda to`g`ri javob 5, 6, 7 (ya'ni bu raqamlar 4 vertikal qatorda joylashgan Al $(OH)_3$, Cr $(OH)_3$, Zn $(OH)_2$ formulalarga mos keladi). Agar sizning variantingiz 2 bo`lsa, u holda to`g`ri javobni 7 vertikal qatordan izlanadi: bu formulalarga 5, 10,7 raqamlar mos keladi.

"Metallarning xossalari" nomli jadvaliga beriladigan topshiriqlar:

***1- variant (1- kod):***

1. Natriy gidroksid bilan ta'sirlashadigan metallarni ko`rsating (2 vertikal qator).
2. 5 vertikal qatordan mis metali bilan o`zaro ta`sirlashadigan tuzni toping.
3. Kons. $HNO_3$ qaysi metalni passivlashtiradi (2 vertikal qator).
4. Amfoterli xossasini namoyon qiladigan metall oksidlarini ko`rsting. (3 vertikal qator).
5. 4 vertikal qatordan erimaydigan asosni toping.

## "METALLARNING XOSSALARI" NOMLI MAVZULASHTIRILGAN VA KODLASHTIRILGAN JADVAL

| (I) kod | Metallar | Metallarning oksidlari | Gidroksidlar | Tuzlar | Reaksiyalari | (II) kod |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | **7** |
| 1 | Ca | $Ag_2O$ | $Fe(OH)_3$ | $HgCl_2$ | Cu + $H_2SO_{4(kons)}$ → | 1 |
| 2 | Na | $Fe_2O_3$ | $Cu(OH)_2$ | $FeCl_3$ | Ag + HCl → | 2 |
| 3 | Cu | $Al_2O_3$ | KOH | $CuSO_4$ | Fe + $CuCl_2$ → | 3 |
| 4 | Ag | $Na_2O$ | NaOH | $CrCl_3$ | Cu + $Zn(NO_3)_2$ → | 4 |
| 5 | Fe | $K_2O$ | $Al(OH)_3$ | $KNO_3$ | Na + $H_2O$ → | 5 |
| 6 | Al | BaO | $Cr(OH)_3$ | $CaCl_2$ | Al+ NaOH → | 6 |
| 7 | K | CaO | $Zn(OH)_2$ | $Na_2SO_4$ | Al + HCl → | 7 |
| 8 | Cr | ZnO | $Ba(OH)_2$ | $KAlO_2$ | Cu + $HNO_3$ → | 8 |
| 9 | Ba | $CrO_3$ | AgOH | $PbCl_2$ | Zn + $HgCl_2$ → | 9 |
| 10 | Zn | CuO | $Ca(OH)_2$ | $Al(NO_3)_3$ | Ca+$H_2O$→ | 10 |

***2- variant (II kod):***

1. Qaysi metallar suyultirilgan kislotadan vodorodni siqib chiqaradi? (2 vertikal qator).
2. Odatdagi sharoitda qaysi metallar suv bilan ta'sirlashadi? (2 vertikal qator).
3. Qaysi metallar suyultirilgan xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishmaydi? (2 vertikal qator).
4. Qaysi gidroksidlar ishqorlar deyiladi? (4 vertikal qator).
5. 6 vertikal qatorda keltirilgan moddalardan qaysi birini amalga oshirib bo`lmaydi?

**3-** ***variant (1- kod):***

1. Qaysi reaksiya orqali vodorod olinadi? (6 vertikal qator).
2. 4 vertikal qatordagi qaysi gidroksidlar rangli?
3. Qaysi metall oksidlari kislotali xossaga ega? (3 vertikal qator).
4. 4 vertikal qatordan erimaydigan ishqorni toping.
5. Qaysi tuzlar eritmada rangli bo'ladi? (5 vertikal qator).

***4- variant (II kod):***

1. Qaysi metallar pichoq bilan kesiladi? (2 vertikal qator).
2. Tuzlardan qaysi biri anion bo'yicha gidrolizga uchraydi? (5 vertikal qator).
3. Cho'yan tarkibiga qanday metallar kiradi? (2 vertikal qator).

4. 4 vertikal qatorda eriydigan ishqorni toping.
5. Tuzlardan qaysi birining eritmasi rangli? (5 vertikal qator).

***5- variant (1 kod):***

1. 2 vertikal qatordan elektr o`tkazuvchanligi yuqori bo`lgan 3 ta metallni ko`rsating.
2. 2 vertikal qatordan ishqoriy-yer metallarni toping.
3. 5 vertikal qatordan qizdirilganda parchalanadigan tuzni ko`rsating.
4. 6 vertikal qatordan qaysi reaksiyada tuz hosil bo`lmaydi?
5. Suv bilan ta'sirlashadigan oksidlarni tanlang (3 vertikal qator).

**Topshiriqlarning javoblari:**

| **Variantlarga mos keladigan kodlar** | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 6,10 | 2,3,5,6,7,8,9, 10 | 5, 6, 7, 10 | 7,8 | 3,4,6 |
| 2 | 1 | 3, 6, 7,8 | 1,2,6,9 | 9 | 1,9 |
| 3 | 5,6,8 | 1,4 | 9 | 5 | 5,10 |
| 4 | 2,3,8 | 1,2,4,9 | 8 | 2 | 5,10 |
| 5 | 1,2,5,6,7,9 | 1,8 | 1,2,4,8 | 1,4,8 | 4,5,6,7 |

O'quvchilar kimyo fanini o'zlashtirishda har bir mavzuga oid tayanch so`z va iboralarga duch kelishi va mana shu so`z va iboralarni o`qituvchi tomonidan to`g`ri izohlanishi hamda ularga aniq tushunchalar hosil qilishga erishilsa, kimyo fanini o'quvchilar tomonidan qiynalmasdan tushunishlari va shu fanga qiziqishlari tobora ortib borishga erishish mumkin.

**Adabiyotlar**

1. Jo`rayev R.X., Tolipov O`.K. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar, mahorat. // Uzluksiz ta'lim, 2003.– № 2.
2. Nishonov M. Kimyoni o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari // "Kimyo fani yutuqlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to`plami. – Toshkent, 2007. – 179 b.
3. Ходиев Б.Ю., Гимранова О.Б. Современные образовательные технологии. – Тошкент, 2007. – 319 с.
4. Венецкий С.И. Рассказы о металлах. – М.: Металлургия, 1986.
5. Ксензова Г.Ю. Инновационные технологии обучения и воспитания школьников: Учеб. пособ. – М.: Педагогическое общество России, 2005. – 128 с.
6. Курганский С.М. Интеллектуальные игры по химии. – М.: 5 за знания, 2006.
7. Смирнов Н.К. Здоровьесберегающие образовательные технологии в работе учителя и школы. – М.: АРКТИ, 2003.
8. Штремплер Г.И., Пичугина Г.А. Дидактические игры при обучении химии. – М.: Дрофа, 2005.
9. Kimyo fanidan uzviylashtirilgan o'quv dasturi asosida taqvim-mavzu reja. Maktabda kimyo. 8 (92)-son. – 2016. – B.2-9.
10. Kimyo: Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 7-sinfi uchun darslik / I.R. Asqarov, N.X. To'xtaboyev, R.G.G'opirov. / I.R. Asqarovning umumiy tahririyati ostida. – 2 nashr. – T.: "O`zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. – 160 b.






**Gulnora IXTIYAROVA**
Toshkent davlat texnika universiteti umumiy kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori

**Nigora JURAQULOVA**
Qarshi davlat universiteti kimyo kafedrasi o`qituvchisi

**Chori XAYRULLAYEV**
Buxoro tibbiyot instituti tibbiy kimyo kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi

**Ma'murjon AHADOV**
Navoiy davlat pedagogika instituti kimyo o`qitish kafedrasi o`qituvchisi

# KIMYO FANI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ELEKTRON DARSLIKLARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

*Maqolada kimyo (umumiy, kolloid va organik kimyo va kimyoviy texnologiya) fanlaridan o'qitiladigan mashg'ulotlarini avtomatlashtirish maqsadida yaratilgan elektron darsliklarning roli haqida ma'lumotlar keltirilgan.*
***Tayanch tushunchalar:*** *elektron darslik, informatsion texnologiyalar, annimatsiya, dasturlashtirish.*
*В статье изложены сведения о роли электронных учебников для автоматизации лекционных и лабораторных занятий по предмету химии.*
***Опорные понятия:*** *электронный учебник, информационная технология, анимация, программирование.*
*In article is contained the information about the role of electronic textbooks for the automation of lecture and laboratory classes in the subject of chemistry.*
***Supporting concepts:*** *an electronic textbook, information technology, animation, programming.*

O`zbekistonning Birinchi Prezidenti aytganlaridek, "Xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar asosida texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir" [5]. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" respublikamizda yoshlarni yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi vaqtda undan barcha sohalarda samarali foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Kimyo ta'limida axborot texnologiyalaridan (AT) foydalanish o'quv jarayonini boshqarishning samaradorligini oshirishga olib keladi [6].

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da o'quv jarayonining moddiy texnik va axborot bazasi yetarli emasligiga, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o`rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali aloqadorlikning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi, deb ko'rsatib o'tilgan. Shuning bilan bir qatorda, ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish hamda amalga oshirish orqali ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora-tadbirini ishlab chiqish, ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarini amalga oshirish uchun tajriba maydonchalari barpo etish orqali esa ilmiy tadqiqotlar natijalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib borishi belgilab qo'yilgan [7].

Kimyo fanidan elektron qo'llanma va darsliklar universitet, institutlarning talabalari uchun o'qitiladigan ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarini avtomatlashtirish maqsadida yaratiladi [1-4].

Elektron darslik shakllari va xususiyatlariga quyidagilar kiradi [8]:

- o‘quv materialini multimedia, ya’ni ma’lumot berishning vizual, gipermatn, ovoz shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi;
- turli o‘quv adabiyotlari – darslik, lug‘at, masalalar to‘plami va amaliy–laboratoriya mashg‘ulotlari uchun tegishli barcha o‘quv qo‘llanmalarining bir joyda jamlangan holda ko‘rinishi;
- o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi o‘rtasida o‘zaro bevosita aloqa o‘rnatilishi (interfaollik);
- o‘qituvchining o‘quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish bo‘yicha vazifalarining ma’lum qismini kompyuterli o‘quv vositalari zimmasiga yuklatilishi;
- o‘quvchi tomonidan qabul qilinadigan – maslahat, tushuntirish, ma’lumotni izlash bo‘yicha savol-javob va bilimni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilishning tezkor uslubiga o‘tish imkoniyati;
- kompyuter vizualizatsiyasi orqali o‘rganilayotgan obyektning kompyuterdagi imitatsiya modellaridan foydalanish;
- o‘quv materialiga nisbatan yengil o‘zgartirishlar kiritilishi va takomillashtirish imkoniyatlarining yaratilishi;

Ayni paytda Toshkent davlat texnika universiteti olimlari tomonidan oliy o‘quv yurti bakalavrlari uchun umumiy va anorganik kimyo, kimyoviy texnologiya, umumiy kimyo, kolloid va organik kimyo fanlaridan elektron darsliklar yaratilgan va O‘zbeiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan guvohnomalar olingan [1-4].

Umumiy va anorganik kimyo va kolloid kimyo elektron darsliklarida ma’ruza matnidan tashqari, glossariy, laboratoriya ishlari, harakatchan animatsiyalar, shu fanga hissa qo‘shgan olimlarning hayoti va ijodi, mustaqil yechish uchun testlar va masala va mashqlar keltirilgan. Bu fanni o‘zlashtirishda talaba multimedia va animatsiyalarni ko‘rishi ham mumkin. “Kolloid kimyo” fanidan elektron darslikning bosh sahifasi quyidagi ko‘rinishga ega (rasm.)

Umumiy kimyo fanlaridan elektron darslikning bosh sahifasi quyidagi ko‘rinishga ega:




**O.M. Yoriyev, G.A. Ixtiyarova,**
**F.M.Nuritdinova, N.Sh. Dexqanova, M.B. Gulyamova**

Bosh sahifa
Ma’ruza
Animatsiyalar
Laboratoriya ishlari
Glossariy
Olimlar
Testlar
Masala va mashqlar
Me’yoriy hujjatlar

Mualliflar




**Kolloid va umumiy kimyo fanlaridan elektron darsliklarning bosh sahifasi.**

Talaba yaratiladigan elektron kitob orqali quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin: zaruriy ma’ruza va laboratoriya ishlarini reja asosida tezda izlash (oddiy darslikda buni topish qiyin); kitob va darslikda bo‘lmagan audio, video ko‘rinishlarni: tajribalarda sodir bo‘ladigan hodisalarni – gazning ajralishi, moddalarning yonishini, cho‘kmaning rangi, unin gerishini videoda jonli ovoz, rangli tasvir, musiqa yordamida harakat elementlarini ko‘rish va eshitish; mavzuga tegishli reaksiya tenglamalarini va tajribalarni multimedia ko‘rinishida ko‘rish; kimyoviy formulalar, sxemalarning tuzilishini, tasvirini animatsion ko‘rish; matnning zaruriy lavhalarini printer orqali bosmadan chiqarish; ma’ruzada olgan talaba bilimini mustahkamlash va tez tekshirish (test, masalalarni yechishi, jadvalni to‘ldirish kabi); kimyo sohasidagi muhim tarixiy sanalarni bilish; kimyo sohasida izlanishlar olib borgan olimlar bilan tanishish, ularni ko‘rish hamda ular haqida ma’lumotlar olishga muyassar bo‘ladilar.




Elektron kitob orqali talabalar ma’ruzada olgan bilimlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kimyo laboratoriyasini bajarish jarayonida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash o‘qituvchi uchun haddan tashqari imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Bunday vositalar yor-

damida dars jarayonini tashkil qilinsa, talabalar diqqati ko‘proq jalb qilinadi, vaqtdan yutiladi, laboratoriyada texnika xavfsizligiga e’tibor ortadi va ta’lim sifati yaxshilanadi. Bundan tashqari, elektron darsliklarning yutug‘i shundaki, foydalanish va qog‘ozga chiqarish qulayligi va alohida ko‘rsatmalarga muhtojligi kamlgidadir. Endilikda aynan yuqoridagi maxsus dasturlar yordamida organik kimyo fanidan elektron darslik yaratishni maqsad qilib qo‘ydik.

Demak, talabalarning “Kimyo” fanini o‘zlashtirishi uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanib yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o‘zlashtirishda talaba elektron darslik, multimedia va annimatsiyalardan foydalanadi. Demak, elektron kitobning amaliy ahamiyati shundaki, talaba xohlagan paytda ma’lumotlarni, tajribalarni takror ko‘rishi, xohlagan tajribani o‘qib, eshitib, o‘rganishi va printer orqali chiqarib olib o‘qishi mumkin. Buning natijasida olingan nazariy bilimlari yanada mustahkamlanadi.

## Adabiyotlar

1. Yoriyev O.M., Ixtiyarova G.A. Umumiy va anorganik kimyo. Elektron darslik. // № DGU 01493. – 2008.

2. Ixtiyarova G.A., Yoriyev O.M., Hazratova D.A., Dehqanova N.Sh. Umumiy kimyo. Elektron darslik. // № DGU 03425. – 2015.

3. Ixtiyarova G.A., Yoriyev O.M., Nuritdinova F.M., Gulyamova M.B., Dexkanova N.Sh. Kolloid kimyo. Elektron darslik.// № DGU 03354. – 2015.

4. Ixtiyarova G.A., Dexkanova N.Sh., Muzaffarov F., Nuriddinova F.M. Kolloid kimyo fanidan elektron darslik yaratish afzalliklari // O‘rta maxsus va OT tizimida faoliyat ko`rsatayotgan kadr kompetentligini takomillashtirish. Resp ilmiy-amal konf. – Buxoro, 2015. – B. 282-283.

5. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi – T: “O‘zbekiston”, 2000. – 248 b.

6. Kattayev N.Sh., Ixtiyarova G.A., Mirzaxidov X.A., Muxammediyev M.G. Kimyoviy texnologiya. Elektron darslik.// № BGU00249. 2011.

7. Hojiyev Q.T. Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘rsatkichini oshirish – davr talabi //Ekologik muvozanatni saqlash, chiqindisiz texnologiya ishlab chiqarish, barqaror rivojlanishda ta’lim-tarbiya muammolari va istiqbollari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Nukus, 2013. – 49 b.

8. G‘afurov A.G‘, Muxammedova R.T., Adizova N.Z. Axborot texnologiyalarning kimyo fani ta’lim sifatini oshirishdagi roli // Ekologik muvozanatni saqlash, chiqindisiz texnologiya ishlab chiqarish, barqaror rivojlanishda ta’lim-tarbiya muammolari va istiqbollari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Nukus, 2013. – 50 b.



**Axat AHMEDOV**
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti,
fizika-matematika fanlari nomzodi

## FIZIKA FANINI O'QITISHDA KOMPETENTLI YONDASHUV IMKONIYATLARI

*Maqolada bo'lajak fizik o'qituvchisining kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari keltirilgan. Shuningdek, kompetentlik, kompetensiya, kompetentli yondashuvning o'quv jarayoniga tadbiqlari keltirilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondashuv, pedagogik tadqiqot, malaka, ko'nikma, faoliyat, o'qituvchi, talaba, predmet.*

*В статье рассмотрены современные аспекты формирования компетентности будущего учителя физики. Даны понятия компетентности, компетенция, компетентного подхода и применения их в обучении.*

***Опорные понятия:*** *компетенция, компетентность, компетентный подход, педагогическое исследование, навык, деятельность, учитель, студент, предмет.*

*The article deals with modern aspects of forming the competence of the future teacher of physics. The concept of competence, competence, and competent approach and their application in training are given.*

***Supporting concepts:*** *competence, competence, competent approach, pedagogical research, skill, activity, teacher, student, subject.*

Hozirgi kunda jamiyat hayotida kuzatilayotgan o'zgarish jarayonlari uning barcha jabhadagi faoliyatida, shu jumladan, ta'lim – shaxs dunyoqarashi shakllanishining asosiy tashkil etuvchisi bo'lgan ta'lim sohasida ham o'z aksini topmoqda. Taraqqiyotning keskin rivojlanishi, jamiyat hayotidagi boshqarib bo'lmaydigan va bashorat qilib bo'lmaydigan o'zgarishlar, dunyo geosiyosatidagi manzaraning o'zgarishi, ilmiy tadqiqotlar va ularning hayotga tadbiqi oxirgi o'n yillikda ta'lim tizimiga qo'yilgan talablarning o'zgarishiga olib keldi.

Atrofimizdagi ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarga mos holda zamonaviy maktab ma'lum bir bilim va malaka berib qolmasdan, tanqidiy fikrlovchi, effektiv qaror qabul qiluvchi, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan hayotdagi sharoitlarga moslashuvchi va uni yaxshilashga intiluvchi insonni shakllantirish lozim bo'ladi. Bu natijalarga ta'limda kompetent yondashuv orqali erishish mumkin. Bu esa ta'limni isloh qilish, jamiyatning kompetent azosini shakllantirish asosini tashkil etadi. Aynan turli sohalardagi kompetentlik: intellektual huquqiy – fuqarolik, kommunikativ informatsion v.b. yoshlar jamiyatda o'zining to'laqonli faoliyatiga va shu jamiyat o'zining rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'quv tarbiyaviy jarayonida kompetent yondashuv tadqiqotlari "kompetensiya", "kompetentlik", "kompetentli yondashuv" tushunchalariga turlicha nuqtayi nazardan qarashlar mavjud. Masalan: I. Zimnyaya bu muammoni o'rganishni uchta tarixiy davrga ajratadi [1].

1-bosqich (1960-1970-y.y.). Bu davrda ilmiy tadqiqot metodiga kompetentsiya tushunchasi kiritiladi va kompetentsiya hamda kompetentlik tushunchalari o'zaro farqlanishi ko'rsatiladi.

2-bosqich (1970-1990-y.y.). Bu bosqichda "kompetensiya" va "kompetentlik" kategoriyalari tilni o'ganishda, boshqaruvdagi professionalizmda, menejmentda ishlatiladi.

3-bosqich (1990-1999-y.y.). Kompetentlikni ta'limdagi ilmiy kategoriya sifatida o'rganadi va turli mamlakatlardagi asosiy kompetentsiyani aniqlaydi [2].

S. Shishov va V. Kalney tadqiqot ishlarida "kompetensiyali ta'lim asosida olingan bilim, tajriba, qadriyatlar, moyillik asosoda erishilgan qobiliyatdir" degan ta'rifni beradilar [3]. Lekin kompetentlilik inson faoliyatining ma'lum bir sohasidagi obyektlarnigina xarakterlaydi. Shunday qilib, kompetentlilik va kompetensiya turlicha tushunchalardir.

Kompetensiya talabaning hayotiy faoliyati uchun zarur boʻlgan va uni tayyorlash ta'limga qoʻyiladigan ijtimoiy talablar yig'indisidir. Kompetensiyadan farqli holda kompetentlilik talabaning kompetensiyasini oʻzlashtirish darajasidir. Shunday qilib, kompetensiya, kompetentlilik va kompetent yondashuv tushunchalarani farqlash kerak:

1. Kompetensiya – inson faoliyatining ma'lum bir sohasidagi ijtimoiy aniqlangan bilimlar, malaka, ko`nikma va munosabatlar darajasi.

2. Kompetentlilik – oʻquvchining ta'lim jarayonida orttirilgan umumiy qobiliyati, bilimi, amalda qoʻllanadigan bilim, malaka, va tajribalardan tashkil topadi [4].

3. Kompetentli yondashuv – oʻquv tarbiya jarayonida natijaga erishishlikning yoʻnaltirilganligi boʻlib, unga umumiy o`rta ta'lim va tarmoq kompetentliklari iyerarxik boʻysunadi.

Kompetentli yondashuv kalit va predmet kompetensiyalarining shakllanishiga olib keladi. Kalit kompetentlikka quyidagilar kiradi:

- oʻqish malakasi;
- ona tili, davlat tili va chet tillarda muloqot qilish;
-matematik kompetentlik va tabiatshunoslik , texnika sohasidagi bazaviy kompetentlik;
-informatsion-kommunikativ kompetentlik;
-ijtimoiy kompetentlik;
-fuqarolik kompetentligi;
-umummadaniy kompetentlik;
-tadbirkorlik kompetentligi;
-sogʻliqni asrovchi kompetentlik.

Predmet kompetentligi ma'lum bir predmet yoki ta'lim sohasiga qarashli boʻlib, quyidagi kompetentliklar kiradi:

-kommunikativ kompetentlik;
-adabiyotlar kompetentligi;
-badiiy kompetentlik;
-fanlararo estetik kompetentlik;
-tabiiy va matematik kompetentlik;
-loyhaviy–texnologik va informatsion-kommunikatsion kompetentlik;
-jamiyatshinoslik kompetentligi;
-tarixiy kompetentlik;
-sogʻliqni asrovchi kompetentlik.

Fizika fanini oʻqitishda kompetent yondashuv oʻqituvchining talabalar bilan hamkorlikda ishlashi hamda ularning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki amaliy faoliyat koʻnikmalarga ega boʻlishini ham ta'minlaydi.

Har bir inson oʻz hayoti davomida oʻquv, mehnat, ijod va boshqa faoliyatidagi turli ehtiyojlarni qondirishi uchun ma'lum tajribaga ega boʻlishi lozim. Buning uchun har bir oʻqituvchi darsda talabalarda kalit kompetensiyasini shakllantirishi talab etiladi.

Fizika darslarida oʻqituvchi qanday kalit kompetentsiyasini shakllantirishiga qarab chiqaylik:

-ehtiyojlarga va oʻzini komillika erishishga yoʻnaltirilgan bilim olishni oʻrganish. Bunday kompetensiyani shakllantirish uchun oʻqituvchi va talabalarni fizika faniga qiziqtira olishi lozim [4].

- informatsion-kommunikatsion kompetentlikka oʻquvchining shaxsiy va ijtimoiy muhim masalalarni yechishda informatsion-kommunikativ texnologiyalardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Bu maqsadda fizika darsida kompyuter modellari va dasturlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

-ijtimoiy kompetentlik – shaxsning jamoada, guruhda boshqalar bilan hamkorlik qilish qobiliyati aynan laboratoriya mashgʻulotlarini oʻtkazishda jamoaviy yechimlar izlashda shakllana boradi. Bundan tashqari, bu holat talabalarning topshiriqlar varianti yoki masalalarni yechish variantlarining javoblarini analiz va sintez qilishda yagona yechimga kelishda namoyon boʻladi [5].

Kompetensiyaning shakllanishi ta'lim mazmunini beruvchi vositalar orqali amalga oshiriladi va bu ishlab chiqarish hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishda samarali hisoblanadi.

Pedagogika institutlarida fizika kursi mazmunini tahlil qilishda quyidagi ijtimoiy-maishiy kompetensiyalarni ajratish mumkin.

- elektr asbob-uskunalaridan foydalanish ko`nikmalarining shakllanganlik darajasi;
- elektr o‘lchov asboblarining ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri aniqlay olishi;
- yashash muhitda sanitariya-ekologiya normalariga rioya qilish;
- inson sog‘ligi uchun texnogen omillarning xavfini to‘g‘ri baholay olishi (elektrotransformatorlar, radioto`lqin manbalari, uyali telefon v.b.)

Talabalarda bu kompetensiyani shakllantirish uchun o‘qituvchi yuqorida ko‘rsatilgan ijtimoiy-maishiy masalalarni batafsil tushuntirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimida fizikani o‘qitish metodikasini rivojlantirishda bo‘lajak fizika fani o‘qituvchining kompetentligini shakllantirish orqali ta’lim sifatini oshirish bilan birga yuqori samaradorlikka erishiladi.

## Adabiyotlar

1.Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования// https://cyberleninka.ru/article/n/klyuchevye-kompetentsii-novaya-paradigma-rezultata-obrazovaniya

2. Шишов С.Б. Школа: мониторинг качества образования/ С.Б. Шишов, В.А. Калней. – М., 2000. – С. 73-74

3. Краевский В.В. Основы обучения. Дидактика и методика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений/ В. В. Краевский, А. В. Хуторский. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – С.135

4. Крысанова О. Инновационная активность как компетенция современного учителя. – Высшее образование в России. – Москва, 2008. – №12. – С. 145-148

5. Джураев М. Ахмедов А. Модернизация компетентности будущих учителей физики. – Физика в школе. – Москва, 2015. – №7. – С.20-23.



**Эхтиёр АТОЕВ**
доцент кафедры естественных наук
Бухарского инженерно-технологического института,
кандидат педагогических наук



**Хаким ГАЙБУЛЛАЕВ**
старший преподаватель кафедры естественных наук,
Бухарского инженерно-технологического института

# РОЛЬ КОМПЬЮТЕРНОЙ ТЕХНИКИ ПРИ АНАЛИЗЕ СБАЛАНСИРОВАННОСТИ, СЕЛЕКТИВНОСТИ И ТРУДНОСТИ ТЕСТОВЫХ ЗАДАНИЙ

*Maqolada kimyo bo`yicha test topshiriqlarining murakkabligi, selektivligi va distraktorlar balansining muvozanatlashganligi kompyuter tahlili usulida muhokama qilinadi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *o`zlashtirish koeffitsienti, murakkablik darajasi, qiyinlik darajasi, selektivlik, distraktor, ishonchliligi, validligi.*

*В статье обсуждаются компьютерные методики анализа сбалансированности дистракторов, селективность и трудность тестовых заданий по химии.*

***Опорные понятия:*** *коэффициенты усвоения, степень сложности, степень трудности, селективность, дистрактор, надежность, валидность.*

*In article is discussed the computer techniques for analyzing balance of distractors, selectivity and the difficulty of test tasks on Chemistry.*

***Supporting concepts:*** *coefficients of assimilation, degree of complexity, degree of difficulty, selectivity, distractor, reliability, validity.*

Анализ многих работ, содержащих немало рекомендаций по построению, подбору и педагогической экспертизе дидактических материалов, показывает отсутствие целенаправленной разработки технологии компьютерного анализа качества тестовых заданий и самих дидактических тестов. Имеющиеся сведения носят фрагментарный характер, и в основном отражают условия эмпирического определения и анализа некоторых параметров: коэффициентов усвоения ($K_{усв.}$), степени сложности ($P_{слож.}$), селективности ($K_{sel}$) и др. По нашему мнению, были бы весьма продуктивны исследования взаимосвязи перечисленных параметров между собой.

Информация о сбалансированности тестовых заданий позволяет оценить как качество дидактического теста, так и научно-методический уровень разработчика.

Предложенный нами алгоритм основан на статистическом анализе распределения дистракторов и включает следующие этапы:

- Из информационного файла "**арбитраж**" считывается информация о результатах дидактического тестирования: количество респондентов, общее количество ответов по каждому заданию и по каждому его дистрактору, частота предъявления каждого задания.

- Вычисление кумулятивной ( накопленной ) частоты дистракторов и перевод в %-ное значение, путем их деления на общее количество ответов по данному заданию. Причем суммарная накопленная частотность всегда равна общему количеству ответов по данному заданию и принимается равным 100%.

- Анализ сбалансированности заданий проводятся, исходя из следующих заданных условий:

- Частотность выбора дистракторов должна быть нормированной, (например, в %-ах), что повышает корректность сравнительного анализа их значений;

а) если частота выбора дистрактора **( А%, Б%, В%, Г% )** меньше или равно 5%, то данный дистрактор **не работает**, т.е. не привлекает внимание обследуемых;

б) если частота выбора дистрактора **( А%, Б%, В%, Г% )** больше или равно 90%, то данный дистрактор также не работает ("чрезмерно привлекает" внимание респондентов, например, правильный ответ слишком легко распознать), что резко снижает диагностическую эффективность задания;

с) если одновременно два и более дистракторов подпадают под условия пунктов ( а, б ), то данное задание должно быть заменено другим.

В нашем примере анализ полученных результатов показывает, что из 40 тестовых заданий рубежного контроля по изученному разделу 8 заданий имеют по одному неработающему дистрактору и должны быть доработаны.

Сбалансированность тестовых заданий и самого теста удобно представить в виде круговой диаграммы (рис. 1).

В качестве примера отдельные результаты анализа сбалансированности дистракторов тестовых заданий приведены в табл.1.

Таблица 1.

**Анализ сбалансированности тестовых заданий**

| № вопроса. | Кол. ответов | Верный ответ | ЧАСТОТНОСТЬ ДИСТРАКТОРОВ | | | | | | | | ВЫВОД о балансир. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | А | А% | Б | Б% | В | В% | Г | Г% | |
| 1 | 39 | 14А | 14 | 35 | 12 | 3 | 10 | 25 | 3 | 07 | БАЛАНС |
| 2 | 45 | 31А | 31 | 68 | 6 | 13 | 2 | 04 | 6 | 13 | НЕ РАБ.В |
| 29 | 33 | 8А | 8 | 24 | 12 | 36 | 6 | 18 | 7 | 21 | БАЛАНС |
| 37 | 42 | 13А | 13 | 31 | 11 | 26 | 7 | 17 | 11 | 26 | БАЛАНС |
| 40 | 37 | 15А | 15 | 4 | 5 | 13 | 10 | 27 | 7 | 18 | БАЛАНС |
| 40 | 1667 | 806 | 806 | 47 | 8.6 | 2 | 234 | 5.4 | 282 | 6.6 | |

Сбалансированность рассматриваемого предметного теста равняется 72.5 %.

Рассмотрим, причины различной сбалансированности на примере отдельных тестовых заданий – №№: 27 и 37.

З А Д А Н И Е 27:

27. Укажите электродную пару, необходимую для определения активности нитрат иона в водном растворе.

ВАРИАНТЫ ОТВЕТА :

А – $pNO_3$ – Ag / AgCI, КСI насыщенный.

Б – $pNO_3$ – стандартный водородный электрод.

В – pК – Ag / AgCI ,КСI насыщенный.

Г – $pNO_3$ – насыщенный каломельный электрод.

Дисперсия дистракторов:

А-31 студент, Б-6 студент, В-2 студент, Г-6 студент (всего 45 студентов).

А% – 69% ; Б – 13% ; В – 4% ; Г – 13%. (всего 100%).

Как видно, из этих данных, в дистракторе "В" калий селективный электрод (pК) резко выделяется на фоне трех $pNO_3$, что позволяет студенту, знакомому теоретическими основами ионометрии легко распознать его как неверного ответа, так как для измерения активности нитрат ионов требуется только нитрат селективные электроды. На наш взгляд, этим можно объяснить,

почему из 45 студент всего лишь 2 студент или 4% обследуемых выбрали данный вариант ответа.

Видимо, следует представить дистрактор "В" в виде $pNO_3$ – Pt/Hg,$Hg_2Cl_2$/KCl насыщенный раствор.

З А Д А Н И Е № 37

37. Как вычисляется величина постоянной кондуктометрической ячейки ?

ВАРИАНТЫ ОТВЕТА :

$К_{ячейки}=R_{среднее(0,01М\ KCl)}*X_{удельн.электр.(0,01М\ KCl)}$ $К_{ячейки}= R_{среднее(0,01М\ KCl)}- X_{удельн.электр.(0,01М\ KCl)}$
$К_{ячейки}= R_{среднее(0,01М\ KCl)}+X_{удельн.электр.(0,01М\ KCl)}$ $К_{ячейки}=R_{среднее(0,2\ М\ KCl)}*X_{удельн.электр.(0,01М\ KCl)}$
??

Как видно, из табл.1 дисперсия дистракторов в этом случае составляет:

А-13 студент; Б-11 студент; В-7 студент; Г-11 студент (всего – 40 студентов),

А% -31% ; Б – 26% ; В-17% и Г – 26%. (всего 100%), т.е. задание № 37 может служит примером оптимальной сбалансированности дистракторов.

Это видимо обусловлено равномерной смысловой нагрузкой вариантов ответа, структура и информационные элементы которых весьма близки, а элементы неверных ответов спрятаны посредством использования неброских обозначений ( *, +, -, С = 0,001 М).

Предлагаемая нами методика основана на классическом подходе Дидериха и имеет следующий алгоритм :

Ранжировка группы респондентов по баллам (по конкретному заданию) или по сумме набранных баллов за тест.

Разделение списка на верхнюю (**А** – лучшая часть) и нижнюю (**В** – худшая часть) части поровну (т.е. 50 = 50, при нечетном количестве 1 респондент из середины списка исключается или такой же результат добавляется в середину для сохранения баланса). В данном случае **S** – означает общее количество ответов или количество педагогических наблюдений, **А%** и **В%** – нормирование значения правильных ответов, в лучшей и худшей группах, соответственно.




**Рис. 1. Круговая диаграмма анализа балансированности дистракторов тестовых заданий.**

Счет и суммирование количества правильных ответов в верхней части **(K11)** и нижней части **(K12)**.

Вычисление разницы между **K11** и **K12**, что дает величину коэффициента селективности **($K_{sel.}$)** тестового задания, т.е. $K_{sel.}$ **= K11 – K12.** Обычно, чем выше эта разность, тем выше и селективность задания.

Интерпретация полученных результатов согласно заданных условий :

$K_{sel.}$ изменяется в пределах от -100% до +100% ;

если -20% < $K_{sel.}$ < -20%, то задание **не селективное**.;

если $K_{sel.}$ > 20%, то тест-задание **+ селективное** ;

если $K_{sel.}$ < -20%, то тест-задание **– селективное** .

В качестве примера отдельные результаты вычисления $K_{sel.}$ приведены в табл. 2.

Таблица 2.

**Значения коэффициента селективности тестовых заданий**

| № | Кол-во отв. | | | Правильные ответы | | | | | Коэфф. селект. в % | ВЫВОД |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | S | A | B | S | A | A% | B | B% | | |
| 1 | 39 | 21 | 18 | .3 | 7 | 33.33 | 7 | 38.88 | - ??5.549 | не селект. |
| 2 | 45 | 18 | 27 | .13 | 16 | 88.88 | 15 | 55.55 | 33.33 | + селект. |
| 29 | 33 | 12 | 21 | .36 | 5 | 41.66 | 3 | 14.28 | 27.38 | + селект. |
| 37 | 42 | 17 | 25 | .26 | 8 | 47.05 | 5 | 20.00 | 27.05 | + селект. |
| 40 | 37 | 16 | 21 | .13 | 9 | 56.25 | 6 | 28.57 | 27.68 | + селект. |

Коэффициент селективности дидактического теста вычисляется по формуле:

$$K_{sel} = \frac{\mathbf{n} \text{ (кол-во селективных тест-заданий)}}{\mathbf{N} \text{ (общее кол-во тест-заданий)}}$$

Коэффициент селективности дидактического теста, использованного для рубежного контроля по разделу "Электрохимические методы анализа" составляет 67%, т.е. является "**хорошей**".

Нами разработанная методика оценки степени трудности заданий основана на сравнении усредненных значений контрольного времени ответов обследуемых **($T_{stud.}$)** и усредненных значений контрольного времени, отведенного экспертами **($T_{exp.}$)**. Эти данные считываются из арбитражного файла.

**Алгоритм методики включает следующие действия :**

1. Чтение информационного файла "**ginf2**" и перенос значений $Q_{trudn.}$ в оперативную память компьютера.
2. Нахождение усредненного значения $T_{stud.(i)}$ по каждому отдельному заданию.
3. Расчет поправочного коэффициента из соотношения $t_{(i)} = t_{(stud)}:t_{(exp.)}$ по каждому заданию.
4. Вычисление уточненного значения коэффициента трудности каждого тест-задания в виде $Q = Q_{(i)} * t_{(i)} / 60$.
5. Запись найденного значения степени трудности заданий в информационный файл "**ginf3**".

Анализ степени трудности заданий, исходя из условий:

а) протяженность шкалы трудности составляет 1–9 ед. ; б) если $Q_{trudn.}$ < 2 ед., то данное задание "**легкое**" ;

в) если $Q_{trudn.}$ > 7 ед., то данное задание "**трудное**" ;

г) если 2 < $Q_{trudn.}$ < 7, то данное задание имеет "**удовл. трудность**", т.е. может быть использовано в тест-опросе, после определенных доработок;

д) если 4 <$Q_{trudn.}$<6, то данное задание имеет "**оптимальную трудность**" и может быть использовано в дальнейшем без изменений (рис.2).

Графический анализ трудности заданий приведены в рис.2. Как видно из эгого, программа дифференцирует задания на "легкие", "оптимальные" и "трудные". Наиболее оптимальными по

степени трудности считаются задания, расположенные между величинами **+1S,** и **-1S**, что составляет 56% от их общего количества.

Согласно литературных данных степень сложности тестовых заданий вычисляли по уравнению:

$$P = (K11+K12)*100\%/NN$$

где, **K11** – количество тестируемых, правильно решивших задание в лучшей части группы, **K12** – количество респондентов, правильно решивших задание в худшей части группы; NN – общее количество обследуемых. Отдельные результаты представлены в табл. 3. Средняя сложность по анализируемому тесту составляет 48,21, что является оптимальной величиной.




**Рис. 2. Данные коэффициента трудности тестовых заданий.**

Таблица 3.

**Результаты расчета степени сложности тестовых заданий**

| № вопр | S1 | A1 | A2 | S2 | B1 | B2 | $P_{сложн}$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | 7 | 14 | 18 | 7 | 11 | 35,89 |
| 2 | 18 | 16 | 2 | 27 | 15 | 12 | 68,88 |
| 9 | 12 | 5 | 7 | 1 | 3 | 18 | 24,24 |
| 37 | 17 | 8 | 9 | 25 | 5 | 20 | 30,95 |
| 40 | 16 | 9 | 7 | 21 | 6 | 15 | 40,54 |

На основе полученных результатов можно утверждать, что разработанные компьютерные методики оценки и анализа качества составления предметных тестовых заданий, позволяют существенно сократить затраты времени преподавателей на разработку диагностичных тестов, обоснованно проводить отбор тестовых заданий, повысить надежность и валидность педагогических измерений, и тем самым диагностическую эффективность теста.

## Литература

1. Антропов В.А., Масленцева С.Б. Время и педагогический процесс. – Свердловск: СИПИ, 1989. – 61 с.

2. Беспалько В.П. Стандартизация образования: основные идеи и понятия. // Педагогика. – 1993. – № 5. – С. 16–25.

3. Михеев В.И. Моделирование и методы теории измерения в педагогике. – М.: Высш. школа, 1987. – 128 с.

4. Фарберман Б.Л. Методика разработки и применения педагогических тестов. – Т.: РУМЦ, 1995. – 116 с.



**Zulfiya BERDIYEVA**
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
katta o`qituvchisi

# O`RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MUASSASALARIDA TABIIY FANLARNI O’QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

*Maqolada o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida tabiiy fanlarni o’qitishning o’ziga xos jihatlari, muammolari va ularning yechimi borasida fikr yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar**: pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, tafakkur maktabi, interfaol usul, nazorat darsi, ijodiy dars, eksperimental dars.*

*В статье обсуждаются некоторые аспекты, проблемы преподавания естественных предметов в профессиональных колледжах и академических лицеях и пути их решения.*

***Опорные понятия**: педагогическая технология, инновационная технология, интеллектуальность, интерактивный метод, контрольный урок, экспериментальный урок, творческий урок.*

*In article is discussed some aspects, problems of teaching natural subjects in professional colleges and academic lyceums and ways of their solution.*

***Supporting concepts:** pedagogical technology, innovative technology, intellectuality, interactive method, control lesson, experimental lesson, and creative lesson.*

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimi uchun kasb hamda tabiiy fanlar o’qituvchilarini tayyorlashga alohida e’tibor berilgan. Kasb-hunar kollejlarida dars beradigan barcha fanlar bo’yicha, ayniqsa, kasb ta’limi o’qituvchilari yuqori saviyali pedagog bo’lishi bilan bir qatorda, pedagogik va axborot texnologiyalarni to’liq o’zlashtirgan, zamonaviy bilim bera olish qobiliyatiga, kasbiy ko’nikma va malakalarni shakllantira olish mahoratiga ega bo’lishlari lozimligi ta’kidlab o’tilgan bo’lib, mazkur talablarga to’la javob bergan pedagoglargina har bir darsda osonlik bilan dars maqsadini belgilab olishi, xususan, tushunchalar, qonunlarni o’quvchi ongida shakllantirish imkoniyatlariga ega bo’ladi. Bizning sohamizda, ya’ni fizika, kimyo va biologiya fanlari laboratoriya ishlari va amaliy mashg`ulotlari, masala va mashqlar yechish o’quvchilarda fanga oid ko’nikma va malakalar hosil qilishni maqsad qilib qo’ya oladi. Shu bilan bir qatorda, fanlarni o’zlashtirish jarayonida darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ko’rgazmali o’qitish vositalarining animatsiyali namunalari va maketlaridan samarali foydalanadi.

Pedagog tomonidan yordamchi ta’lim vositalaridan grafiklar, chizmalar, namunalar va boshqalardan foydalanish o’quv materialini o’zlashtirishni osonlashtiradi, o’quv-uslubiy materiallardan, o’quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlardan foydalanishi talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, dars jarayonida grafikli organayzerlardan foydalanish darsning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Keyingi yillarda dars mashg`ulotlari jarayonida o’qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tadbiq etilishi dars mashg`ulotlarni tashkil etishning yangi shakllariga aylanib bormoqda. Bulardan eng asosiylari – maxsus kompyuterli dasturlar yordamida kuzatilishi qiyin bo’lgan fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlarni elektron darsliklar, animatsiyalar, virtual tajribalar va taqdimotlar vositasida ko’rgazmali tushuntirishdir. Tabiiy fanlarni o’qitish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo’llash va ular asosidagi multimediya vositalardan keng va samarali foydalanish pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega bo’lib, o’quvchilar tomonidan mavzularni chuqur anglashlari, laboratoriya mashg`ulotlari paytida qo’llay olishlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarining muhim va samaradorligi unga qo’yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o’quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar

kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalanilishi keng ommalashib bormoqda. Interaktiv usullar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Yetakchi pedagoglar tomonidan hozirgi zamon ta'limining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar e'tirof etib kelinmoqda:

- ta'limning har bir darajasini uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida anglash. Bu yo'nalish maktab bilan oliy o'quv yurti o'rtasidagi aloqa muammolarinigina emas, balki talabalarning kasbiy tayyorligini oshirish vazifasini hisobga olgan holda oliy o'quv yurti bilan mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati o'rtasidagi aloqani ham ko'zda tutadi.
- "Ta'limni industriallashtirish" ya'ni kompyuterlashtirish va texnologiyalashtirish asosida hozirgi zamon jamiyatining aqliy faoliyatini kuchaytirish;
- ta'limning hozirgi vaqtgacha ustunlik qilgan axborot beruvchilik shakllaridan faol o'qitish metodlari va shakllariga o'tish. Bu yo'nalish "Xotira maktabi"dan "tushunish maktabi", "tafakkur maktabi"ga o'tishdan iborat;
- o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va boshqarishning qat'iy belgilangan nazorat usullaridan rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, takomillashtiruvchi usullar va o'yin usullariga o'tish. Bu esa ta'lim oluvchilarning tashkiliy-ijodiy, mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirishni taqozo etadi;
- ta'lim oluvchi va muallim o'rtasidagi o'zaro ta'sirini tashkil etish, ta'lim oluvchilarning birgalikdagi jamoa faolligi sifatida tashkil qilish zaruriyati qayd qilinadi. Bunda asosiy urg`u, o'qituvchining bilim berish faoliyatidan talabaning bilim olish faoliyatiga o'tkaziladi.

Ta'lim-tarbiya masalasini o'ylagan har bir o'qituvchi faol bo'lishi, ijodiy izlanishi, dars o'tish shakllari va uslublarini takomillashtirish, yangilarini izlab topishi kerak. Ta'lim muassasasida har bir fan o'qituvchisi o'quvchiga faqat ta'lim beribgina qolmasdan, balki uni tarbiyalaydi, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga va komil inson bo'lib yetishishiga ko'maklashadi.

O'qituvchi dars mazmunini har qanchalik mohirona bayon qilmasin, unda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni o'quvchi anglab, bilib olishi qiyin. Shu boisdan o'quvchi tabiat va unda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, qonuniyatlarni ongli his qilgandagina ularni puxta va chuqur o'zlashtiradi. O'qituvchi har bir darsda amaliy ishlarni samarali tashkil qilishi, ko'rgazmali tajribalar bajarishi, o'quvchilarning tabiatda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni, o'zgarishlarni, fizika, kimyo va biologik qonuniyatlarni ongli tushunib olishlariga hamda darsning mazmunli va sifatli bo'lishiga asos bo'ladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarida tabiiy fanlardan ko'rgazmali tajribalar bajarishiga qiziqish orttirishning mezoni sifatida psixologlar uning quyidagi tavsifnomasini ilgari suradilar:

- ko'rgazmali tajribalarni bajarish va ularni o'zlashtirish tezligi yoki qabul qilish sur'ati;
- mulohazalar soni bilan aniqlanadigan fikrlash sekinligi, ko'rgazmali tajribalarni bajarish asosida o'quvchilarning tabiiy fanlardan yangi qonuniyatlarni bilib olishlari;
- tahliliy faoliyat darajasi;
- bir ko'rgazmali tajribani bajarish va o'rganish asosida boshqa ko'rgazmali tajribada shakllantirilgan aqliy faoliyatni o'zlashtirish usullari;
- ko'rgazmali tajribalarni mustaqil egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni tizimlashtirishni bilish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim mazmuni takomillashtirilganda u o'quvchilarning ko'rgazmali tajribalarni bajarishga qiziqishlariga yordam beradi. O'quvchilarning ko'rgazmali tajribalarni bajarishga qiziqishlarini bilishga, o'qitishning ilg`or uslublarini izlab topib, ularni amalga oshi-

rishga imkoniyat tug`diradi. Ularda ko'rsatilgan uslublarga mos keluvchi fikrlash sifatlarini o'quvchilarda hosil qilishga ko'proq ta'sir etadi, o'quvchilarning ko'rgazmali tajribalarni bajarishga qiziqishlari bo'yicha faoliyatlari natijalarini tekshirish va baholashga sharoit yaratadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida tabiiy fanlar mazmunini ko'rgazmali tajribalar asosida takomillashtirishda xos psixologik xususiyatlarni hisobga olish, eng avvalo, fizika, kimyo, biologiya ta'limi mazmuni va sifati bilan aniqlanadi. O'qitilayotgan ko'rgazmali tajriba mazmun-mohiyatiga kirib borishi o'quvchidan abstraksiyalash, modellar yaratish, bir ko'rinishdagi abstraksiyalashdan boshqasiga o'tishni amalga oshirish kabi xayoliy amallarni bajarishni talab qiladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tabiiy fanlar darslarini quyidagi tartibda tashkillashtirish tavsiya etiladi:

-o'quvchilarga yangi bilimlar berish darsi;
-bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
-takrorlash, mustahkamlash, malaka va ko'nikmalar hosil qilish;
-bilimlarni nazorat qilish;
-kombinatsion dars;
-izlanish darsi;
-mustaqil darslik bilan ishlash darsi;
-munozara darsi;
-o'yin darsi;
-seminar va leksiya darslari;
-predmedlararo bog`lanish darsi;
-hamkorlik darsi;
-zanjir darsi;
-erkin fikrlovchi darsi;
-amaliy mashg`ulotlarni bajarish darsi;
-kompyuter darsi;
-bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun.

Shu bilan bir qatorda quyidagi usullardan ham foydalanish ijobiy natijalar berishi mumkin:

-erkin yozish;
-semantik xususiyatlar tahlili;
-bir-biridan so'rash;
-"Zig-zag" strategiyasi;
-"To'xtab-to'xtab" o'qish strategiyasi;
-"Insert" strategiyasi;
-"Kubik" strategiyasi. Bu kabi usullar o'quvchilarda o'qish, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarni uyg`otishi, mustaqil ijodiy izlanishlarini rivojlantirishi, mustaqil ravishda erkin fikrlashlarini kuchaytirishi mumkin.

Tabiiy fanlarni o'qitishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Metodik jihatlariga:

a) o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish; o'quvchilarning bilim darajasi; o'quvchilarning qiziqishlari; o'rganilgan materialning o'quvchiga mosligi; o'rganiladigan materiallarning ilmiyligi; materialning zamonaviy va tarixiyligi; o'rganilayotgan materialning hayotiyligi.

b) eksperimentga asoslangan dars: darsni muammoli tajriba asosida boshlash; berk qurilma bilan amalga oshiriladigan eksperiment dars; ijodiy xarakterdagi: masala, laboratoriya, kuzatish darslari.

d) nazorat darsi: o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish va baholash; tayanch konspektidan foydalanish; qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish; umumlashtirish jadvallar asosida o'qitish jarayonida algoritm usullaridan foydalanish; kuzatishdan olingan natijalarni tahlil qilish; bunday darslarda o'qituvchi: ta'lim va tarbiyani uyg`unlashtiradi, mustaqil bilim olishni tashkil etadi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Erkin holda tashkil etilgan ijodiy dars, o'quvchi uchun qiziqarli bo'lib, unga quvonch keltiradi. O'qituvchi tomonidan kutilmaganda o'quvchiga savollar beriladi. Bu savollar nafaqat tabiiy fanlarga oid, balki adabiyot, sport, musiqa, texnika, atrof-muhit, tabiatga tegishli bo'lgan savollar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, aqliy qobiliyatini, ilmiy quvvatini, iste'dodini rivojlantiradi. Buning

uchun quyidagilarni tarbiyalash zarur: zukkolik, fahm tezligi: zehn o'tkirligi, bilimni tez egallash qobiliyati, qo'yilgan muammoni tez anglash, esda saqlash, xotira. Natijada o'quvchilar o'zlarini erkin va mustaqil his etadilar. O'qituvchi va o'quvchilar orasida ijodiy hamkorlik shakllanadi. O'quvchi mustaqil bilim olishga intiladi va u o'z faoliyatining oliy shakli sifatida ro'yobga chiqara boshlaydi. O'quvchilarning ijodiy mehnatga tayyorlash, malaka va ko'nikmalarni egallash imkoniyatlarini beruvchi bilish va amaliy faoliyatlarga yo'llash uchun turli tuman yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda ta'lim berishga tizimli yondashish, o'quv vaqtini tejash, darsni qiziqarli qilib, o'quvchini charchatmaslik natijasida yuqori samaraga erishish ijodiy dars natijasini ko'rsatadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilarining fizika, kimyo va biologiya fanlaridan ko'rgazmali tajribalarni bajarishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishning yana bir o'ziga xos psixologik xususiyati boshqa fanlardan ko'rgazmali tajribalarni bajarishga nisbatan ko'proq uslublar, turli sxema, rasm va formulalardan foydalanish, uchinchidan, o'ziga xos psixologik xususiyati bu laboratoriya va fizikaviy, kimyoviy va biologiya praktikumlarni bajarish, to'rtinchidan o'ziga xos psixologik xususiyati ko'rgazmali tajribalar ko'rsatish.

Ta'lim muassasalarida tabiiy fanlar ta'limi mazmunini ko'rgazmali tajribalar asosida takomillashtirishga salbiy ta'sir etuvchi quyidagi omillarda ko`zga tashlanadi:

- ayrim ta'lim muassasalarida tabiiy fanlardan ko'rgazmali tajribalar bajarishda, dastlab, asbob-uskunalarning yetishmasligi, mavjud asbob-uskunalarning ma'nan eskirganligi, yoki ularning yo'qligi;
- ta'lim muassasalari uchun fizika, kimyo va biologiyadan ko'rgazmali tajribalar bo'yicha davlat tilida o'quv va uslubiy qo'llanmalar, didaktik va tarqatma materiallarning yetishmasligi;
- ayrim ta'lim muassasalari tabiiy fanlar o'qituvchilarining so'nggi yillar arafasida malaka oshirish yoki qayta tayyorlashdan o'tmaganliklari, toifalarining oshirilmaganligi.

## Adabiyotlar

1. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – Toshkent: "Fan", 2006.

2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – Toshkent: "Moliya", 2003.

3. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent, 2000.

4. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T., 2003.

# TIL VA ADABIYOT, XORIJIY TILLAR



**Shaxnozakhon Karimova**
The teacher of department of foreign languages
Bukhara State University



**Shalola ERGASHEVA**
The student of pedagogical faculty
of Bukhara State University

## THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN ENHANCING LEARNERS' VOCABULARY

*Maqolada til o'rganuvchilar so'z boyligini oshirishga xizmat qiladigan metodlar: "Muammoli savollar", "Aqliy hujum", "Klaster", "T-chizma" metodlarining afzalligi haqida ma'lumot beriladi. Unda chet tili darslari jarayonida talabalarning so'z boyligini oshirish jarayonini tashkillashtirishda o'qituvchining roli haqida so'z yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar**: interfaol metodlar, grafik organayzer, pedagogik metod, motivatsiya, o'rganish jarayoni, so'z boyligi, turli xil o'yinlar va vazifalar, kommunikatsiya.*

*В данной статье дана информация о роли интерактивных методов обучения лексики иностранного языка.*

***Опорные понятия:** интерактивные методы, графический органайзер, педагогический метод, мотивация, процесс обучение, лексика, разные игры и задания, коммуникация.*

*In this article is given an information about the role of interactive methods in teaching foreign language vocabulary.*

***Supporting concepts:** interactive methods, graphical organizer, pedagogical method, and motivation, learning process, vocabulary, different games and tasks, communication.*

In today's world, the demand to the specialists who is master in foreign languages is developing day by day in our independent republic now. In particular, English is also considered to be one of the demanding languages of our life. Of course, it is not a secret, that there is being given a high attention to the teaching English language. In order to create harmoniously developed, highly educated, modern-thinking young generation the first President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov signed a Decree "On measures to further improvement the learning system of foreign languages."

The comfortable atmosphere at the lesson helps not only to get knowledge, but to develop the cognitive activity as well. The most popular and effective techniques used are:

- organizer - vanguard,
- focused questions,
- problem questions,
- brainstorm,
- cluster
- critical discussion groups.

**Organizer - vanguard** is a short conversation illustrated by photos or pictures. The teacher gives the brief content of the topic, introduces the keyword and explains the tasks to the group. The main

aim of this technique is to make the students remember the knowledge received before on this topic and prepare them to reconstruct or renovate the previous knowledge.

**Focused and problem questions** are more effective when they make the students think and look for answer.

**“Brainstorm”** is the working out agreat number of ideas on a certain theme, first, without critics. The main task of the "**Brainstorm**" is to use the force of a small group for generalization of ideas. “Brainstorm” makes the students tell a lot of ideas, including fantastic extraordinary. The more ideas they have the better is for solving problems. We'd better keep the following rules having the "brainstorm:

a) The more ideas we have, the better, but they shouldnot be evaluated.

b) Any kinds of idea may be said: full freedom of thinking and all sentences are fixed) "catch", "grasp" and develop ideas of the others.

**Cluster.** Splitting into cluster is a pedagogical method, which develops the variativeness of thinking and the ability to establish the links and relation of the investigated phenomena, helps the students to think freely on a certain top. The word cluster means "**brunch**". Cluster awakes fresh associations, involves the new ideas into the thinking process. It's very useful to have "cluster" before the study of a certain topic.

Making up the cluster we should keep the following succession;

1. Write the key word, sentence or topic in the middle of the blackboard a piece of paper.
2. Write down the words or sentences connected with the discussed question (topic).
3. Establish the links between different ideas and phenomena.
4. Write down as many variants of ideas as possible.

For example, here is the cluster on the topics: "Relaxation".




**T-scheme and cross-discussion**. T-scheme is a universal graphical organizer of comparing two things (object, phenomenon, etc). **Yes / No, For -Against**. It's very useful for contradictory things creating contrast.

**Cross - discussion** is the mechanism for discussion lead by the students themselves. Let's illustrate some examples of these techniques.

**Eating at home is better than eating out**

| For (Yes) | Against (No) |
|---|---|
| 1. Eating at home is better than eating out. | 1. It's very expensive. |
| 2. All the relatives sit together around the table. | 2. People should follow the rules. |
| 3. Young children are wait for the elder people to start their meal. | 3. It's too expensive to go there with the all relatives. |
| 4. Meals are served by family members. | 4. Meals are served by the waiter. |
| 5. There are more comfortable and cozy at home than in restaurant etc. | 5. There is little fresh air, because of some customers may smoke. |
| 6. Meals are home made. | 6. It may be uncomfortable to elder generation to sit on the high table. |
| 7. Meals are free or cheaper than at the restaurant. | 7. Meals are good but not free. |
| 8. No charge / no tax. | 8. Waiters will wait for charge. |

Different types of instructional modes, approaches, vocabulary building activities and skills proved to be effective in developing children and collegestudents' vocabulary in L2 environments. Teaching vocabulary in context,combining vocabulary with reading and writing activities, and providing the students with different lexical information about the words under study enhanced children and adult students' vocabulary.

The prominent role of vocabulary knowledge in second or foreign language learning has been recently recognized by the theorist and researched in the field. Accordingly, numerous types of approaches, techniques, exercises and practice to teach vocabulary. Nation properly states that teaching vocabulary should not only consist of teaching specific words but also aims at equipping learners with strategies necessary to expand their vocabulary knowledge.

By showing actual objects and showing models It is a very useful technique to teach vocabulary to the beginners. The names of many things can be taught by showing actual objects. It gives real experience and sense to the learners. The words like pen, chalk, table, chair, football, flowers, tomato etc. can be taught in the classroom. Real objects or models of real objects are very effective and meaningful in showing meanings but in handling of real objects, a teacher must be practical and should not be superfluous.

It is neither possible nor necessary to bring all the things in the classroom. Therefore, some words are to be taught by showing models. They are easily available in the market. They are inexpensive too. Hence, teacher should make frequent use of such models to teach vocabulary. For example, the words like tiger, brain, elephant, airplane etc. can be shown to the learner.

Summing up, we can say that learning a foreign language with different interactive methods can help teachers to conduct the lesson very well and it also helps to learn a foreign language to the students very fluently . In particular the quality of lesson will be increased. If a teacher uses different interactive methods during the lesson it will attract an attention of learners. It is our responsibility to keep up with the best practices on behalf of our students and the country's future.The present article explored various techniques and methods of teaching new vocabulary. Teacher must make use of such techniques while teaching of vocabulary. It also focused on expansion of vocabulary. Corder (1973:223) rightly observes, 'The more words one knows, the easier it is to 'learn' new words, because one has more associative link available'.

There is no sure fire remedy or method to enhance vocabulary in a day or two. A student's vocabulary bank can be enriched on a gradual basis and one should always show keen interest and enthusiasm in finding, learning and understanding new words. Teaching vocabulary through incidental, intentional, and independent approaches requires teachers to plan a wide variety of activities and exercises. Richards said "When vocabulary words are being taught to pupils, teachers need to consider

how to teach these words to pupils based on the levels of ages, educational background and field of interest. The teacher also ought to recognize such sociolinguistic variables in which the words will be used" (p. 73).

Nathaniel Hawthorne observes the power of words as, "Words - so innocent and powerless as they are, as standing in a dictionary, how potent for good and evil, in the hands of one who knows how to combine them".

## References

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года № ПП-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков».// http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2126030

2. Allen V.F. Techniques in vocabulary teaching, Oxford University Press, New York, 1993.

3. Carter. R. Vocabulary, Rutledge, London, 1987.

4. French, F.G. Teaching English as an international language, Oxford University Press, London, 1972.

5. Krishanswamy N., Krishanswamy L. Methods of teaching English, Macmillan, Delhi, 2006.

6. McCarthy M. Vocabulary, Oxford University Press, Oxford, 1988.



**Mohinur SAYLIYEVA**
Buxoro davlat universiteti
filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

## ILOHIY TAVHID ILMINING BADIIY ADABIYOTDAGI IN'IKOSI

*Maqolada muayyan bir qonuniyat asosida yaratilgan narsa-hodisalar hikmatini hissiy-vajdiy tafakkur qilish orqali Zot olamini tanish mumkinligi haqida fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *tavhid, olam, so`fiy, vujud, ta'limot, mumtoz adabiyot, hamd, shariat ahkomi.*

*В статье размышляется о возможности познавания Всевышнего посредством эмоционально-временного мышления, мудрости, предметов и случаев, созданных на основе определенной закономерности.*

***Опорные понятия:*** *единобожие, мир, суфий, существование, учения, классическая литература, благодарность, законы шариата.*

*The article reflects on the possibility of recognizing the Supreme through the emotional-temporal thinking of the wisdom of objects-cases created on the basis of a certain pattern.*

***Supporting concepts:*** *monotheism, peace, Sufi, existence, learning, the classical literature, gratitude, Sharia law.*

"Tavhid sof diniy, vahdat ul-vujud tasavvufiy tushuncha bo'lib, mohiyat e'tibori bilan ular bir-biridan farq qiladi. Tavhidning g'oyaviy antonimi-shirk, vahdat-kasrat". Kengroq mushohada qilsak, bu ikki tushuncha orasidagi farq oydinlashadi (Tavhid Olloh yagonaligini tasdiqlashdir). Agar unga kimnidir sherik deb bilsak, bu shariat nuqtayi nazaridan, shirk hisoblanadi. Bu islomiy hamdlarga xos xususiyatdir. Vahdat ul-vujud ta'limotiga, asosan, koinotda yolg'iz bir Vujud mavjud bo'lib, barcha narsa va borliqlar shu vujudning tajalliysidan, ko'plik (olam, kasrat) birlik (vahdat)ning zuhurlanishidan iboratdir. Zot olami-vahdat, U yaratgan olam-kasrat.

Muayyan bir qonuniyat asosida yaratilgan narsa-hodisalar hikmatini hissiy-vajdiy tafakkur qilish orqali Zot olamini tanish mumkin, lekin bilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari: "Tavhid sirrig'a yetsa bo'lur, ammo ma'rifat sirrig'a yetmak dushvordir", – deganlar.

Tasavvufiy adabiyotlarda tavhid ilmi, uning turlari, darajalari keng sharhlangan. So'fiylarning aytishicha, tavhid tushunchasi ruhan yashaladigan hol va zavqqa, ma'rifatning mavqei va darajasiga bog'liq. Bu holni yashagan kishining holati va maqomiga ko'ra, tavhid tushunchasi farqlidir.

Ilohiy tavhid-tavhidning eng yuksak, so'nggi darajasi bo'lib, "xoslarning xoslariga oid tavhidi" deyiladi. Bu ilm–vujudiy tavhid martabasidagilar ilmi. Vujudiy tavhid–tavhidning eng mukammal holidir, fano filloh maqomiga yetib, haqqa yaqin, ya'ni ilmi mushohada orqali banda erishadigan eng go'zal hol, ma'naviy me'rojdir. Vahdat ul-vujud ta'limoti esa tamoman vujudiy tavhid tushunchasi ustiga qurilgan.

Sharq mumtoz adabiyotida Haqning go'zal ismlari va sifatlari ta'rifida juda ko'plab asarlar yozilgan. Bunday mayl deyarli barcha yo'nalishdagi asarlarda ham ko'zga tashlanadi. Mazkur hamdlar mazmuni faqat Allohni madh etishga bag'ishlangan bo'lsa-da maqsadiga va muallifning maqomiga (yetakchilik qilayotgan g'oyaga) ko'ra, farqlanadi.

Shuning uchun ularni quyidagicha tasnif qilishni lozim topdik:

1) shar'iy – targ'ibiy hamdlar;
2) ma'rifiy – targ'ibiy hamdlar;
3) ma'rifiy – badiiy hamdlar;

4) badiiy – ma’rifiy hamdlar.

Shar’iy – targ‘ibiy hamdlarda shar’iy ahkomu qonun-qoidalarga muvofiq Allohga hamd aytiladi. Mazkur turdagi asarlarda Allohga hamd aytish orqali har bir banda iymonli bo‘lishi, Ollohning biru borligini tan olishi kabilar da’vat qilinadi va asosiy manba shariat hamda shar’iy hukmlar hisoblanadi. Mazkur turdagi hamdlarda islom qonun-qoidalari ulug‘lanadi, Qur’oni Karimdagi ba’zi oyatlarga yoki hadislarga ishora qilinadi yoki ular sharhlanadi. Diniy yo‘nalishdagi va islom ahkomiga bag‘ishlangan barcha asarlarning kirish hamdlari shar’iy-targ‘ibiy hamdlardir. Qur’oni Karimning **saksondan ortiq** oyati karimasi Ollohga hamd aytish xususidadir. Ollohga hamd aytish to‘g‘risidagi hadislar ham ko‘p-chilikni tashkil etadi. “Chahor kitob”da yuqoridagi oyatlar mazmuni aynan targ‘ib qilinadi:

Ibtido mekunam ba nomi xudo,
Kaz du harf ofarid arzu samo.
Nomi haq bar zabon hameronam,
Ki ba xonu dilash hamexonam.
Moliku soni’u qadimu hakim,
Xoliqu roziqu raufu rahim.

Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarining **Ollohning 99 ismu sifatlari** ta’rifiga bag‘ishlangan “Avrodi bahoiya” ham to‘liq shar’iy-targ‘ibiy hamd mavqeidagi asardir.

Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin”, “Munojot” kabi asarlarining kirish hamdlari esa shar’iy-targ‘ibiy ruhda yozilgandir.

**Ma’rifiy – targ‘ibiy hamdlarda** shariatga tayangan tariqat tili bilan Haq sifatlari, komil musulmon bo‘lish orzusi nuqtayi nazaridan turib madh etiladi. Mazkur hamdlar sirasiga Sharq mumtoz adabiyotida ma’rifiy yo‘nalishdagi barcha asarlarning kirish hamdlari, “Qutadg‘u bilig”ning muqaddima hamdi, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyorning hamd yo‘nalishidagi qarashlari kiritilishi mumkin.

Ahmad Yassaviy shariat ahkomi bilan tariqatning ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik ahamiyatini chuqur anglab, arkoni iymon negizini yashash tajribasi orqali asoslab beradi. Shuning uchun u turkiy tasavvuf adabiyotida birinchi bo‘lib irfonning markaziy masalasi–ishqning ma’no-mohiyatini har tomonlama talqin etishga muyassar bo‘ldi va “oshiqlarning ibodatini eng ma’qul ibodat deb bildi”. Holbuki, ishq Kalimasi Qur’oni Karimda uchramaydi. Ayni masala Shayx Hazratlarining hamd yo‘nalishidagi qa-rashlarida quyidagicha aks etgan:

Yo ilohim, hamding birla hikmat aytib,
Zoti ulug‘ Xojam, sig‘nib keldim Sango.
Tavba qilib gunohimdan qo‘rqib qaytim,
Zoti ulug‘ Xojam, sig‘nib keldim Sango.
Mansur yanglig‘ boshim berib ishq dorida
Zoti ulug‘ Xojam, sig‘nib keldim Sango.

Mazkur baytlarda “shayxul–mashoyix”ning o‘zi ta’kidlaganidek, Olloh «hamdi birla» hikmat–diniy- tasavvufiy qarashlar targ‘ib qilingan. Yassaviy ijodining ma’rifiy-targ‘ibiy mohiyatini adabi-yotshunos olim Ibrohim Haqqulov shunday izohlaydi: “Yassaviy hikmatlari ***islom tasavvufini*** turkiy tilda bayon etgan ilk va eng ta’sirchan ohangdir. Shu bois, Yassaviyni milliy va diniy adabiyotimiz-ning ilk asoschisidir deyishimiz mumkin”.

Turkiy tasavvuf adabiyotining bu tamoyilini Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyor ijodida ham ku-zatish mumkin.

Har ikkala turdagi hamdlarning umumiy o‘xshashligi Haq sifatlarini ulug‘lash orqali shariat ahkomini targ‘ib qilishga mo‘ljallanganligidir. Do‘zax azobidan qo‘rquv, namoz, ro‘za, taqvo va sidqidil toat-ibodatni, Ollohga haqiqiy qullik ishqini ulug‘lash, komil musulmon bo‘lish orqali jan-natga (ba’zi hamdlarda Haq rizoligiga) doxil bo‘lish shariatga tayangan tariqat ahli namoyandalari ijodidagi hamd-larni birlashtirib turuvchi umumiy jihatlardir. Ammo o‘ziga xos farqli tomonlarning mavjudligi ularni alohida-alohida tasnif qilish asosini beradi. Birinchi turdagi hamdlar Islom dinini, Ollohning biru borligini tan olgan yoki tan olishi lozim bo‘lgan barcha oddiy bandalarga dastlabki boshlang‘ich da’vat ruhidagi hukmlar ifodasidir. Ma’rifiy-targ‘ibiy hamdlarning markazida esa islom

asoslarini ko‘r-ko‘ro-na tan olib, toat–ibodat qiladigan, shariat ahkomlari (ma’rifati)ni his etmay, itoat qiladigan fikrsiz ban-da emas, balki Haqning san’atini his qilish va iymon lazzatidan bahramand bo‘lish orqali qalbiy sezgi maydoni keng komil musulmon yoki komil musulmon bo‘lish ishtiyoqidagi mo‘min turadi. Shuning uchun bunday hamdlar tariqat tili bilan bayon qilinsa-da, ulardagi islomiy-irfoniy mohiyat shariatni targ‘ib etishga xizmat qiladi.

**Ma’rifiy–badiiy hamdlar** mohiyatan va o‘z maqsadi bilan Haqning qudrati, yuksak san’atini madh etish orqali ma’rifat g‘oyalarini tarannum qilishi, ommalashtirishi mumkin. Biroq bunday hamdlarda ma’rifiy-falsafiy g‘oya va fikrlar badiiy ramzlar, timsol hamda obrazlar vositasida beriladi. Mazkur hamdlar negizida ma’rifiy g‘oya, axloqiy-falsafiy qarashlar tarannumi yotadi. Ulardagi badiiy ramzlar, timsollar va obrazlar ikki ma’noli xususiyatga ega emas, ya’ni murakkab ramziy tizim asosida emas, balki so‘zlarning ham zohiriy, ham botiniy ma’nosi faqat Haqqa tegishlidir. Shuning uchun bunday ma’rifiy hamdlarning ham zohiriy, ham botiniy ma’nosi shariat arkonlariga zid emas. Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” qasidalar turkumi tarkibidagi birinchi “Ruh ul-quds”–ilohiy tavhidga bag‘ishlangan hamd qasidasi, hamd yo‘nalishidagi g‘azal, ruboiy, qit’a, fardlarini bunday hamdlar sirasiga kiritish lozim. Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Atoiy, Hofiz va Xorazmiy devonida ham xuddi shu yo‘nalishga oid g‘azallar mavjud.

Sharq mumtoz adabiyotida devonni hamd g‘azal bilan boshlash an’anasini Alisher Navoiy boshlab berdi va bu haqda shoirning o‘zi “Badoe’ ul-bidoya” debochasida shunday yozadi: “...Har harf g‘azaliyotining avvalgi g‘azali Tengri taolo hamdi bila muvashshah qilindi”.

Ulug‘ shoirning Sharq devonchiligiga kiritgan muhim bir yangiligining mohiyati ana shu nuqtada ayonlashadi. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” yig‘ma devonlari tarkibidagi har bir bahr (qofiyadagi oxirgi harfga ko‘ra birlashtirilgan ash’or majmuasi) “avvalg‘i g‘azallar” Sharq devonchiligida “hamd g‘azal” degan yangi an’anaga asos bo‘ldi. Sha’riy hamd tushunchasini ilg‘or irfoniy qarashlar orqali to‘ldirib (solikning ruhiy-ma’naviy darajasiga ko‘ra Haq sifatlarini ulug‘lash va Haqqa yetish usulini asoslash), talqin etish Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xos xususiyatidir. Mazkur turdagi hamd g‘azallarda “qazo me’mori”, “azal soqiysi” kabi ichki va tashqi ma’nosi faqat Haqqa tegishli sifatlashlar vositasida Olloh hamdi talqin etiladi va boshdan oxir faqat Haq ism va sifatlari ulug‘lanadi:

Tashnalab o‘lma Navoiy, chun azal soqiysidin
“Ishrabu, yo ayyuhal–atshon” kelur har dam nido.

Ma’rifiy–badiiy hamdlar ma’rifat-kamolot bosqichidan turib yoziladi. Shuning uchun bunday hamdlarning markazida shariat va Qur’oni Karim, Hadisi Sharif asosida Olloh va uning cheksiz sifatlaridan xabardorlik, o‘zining mohiyatan shu qudrat va mo‘jizaviy san’at sohibi bilan birligini payqash, Yaratuvchi qudrati va go‘zalligidan xabardorligi natijasida o‘zining oddiy mo‘minlik darajasi bilan qoniqib qolmay, *komil inson* bo‘lish orzusidagi solik turadi. Alisher Navoiy g‘azal janrining keng imkoniyatidan foydalanib, hamd g‘azal vositasida Haqqa yetish usulini–kamolot bosqichlarining ruhiy-ma’naviy ildizlarini, ularning ahamiyatini asoslab berdi. “Hamd g‘azallar janriy tabiati” bo‘limida ma’rifiy-badiiy hamd g‘azallarning xos xususiyatlari masalasiga kengroq to‘xtalamiz.

Badiiy–ma’rifiy hamdlar ma’rifiy ramzlarga tayanib yoziladi. Oldingi turdagi hamdlardan farqli ravishda, bularda badiiyat juda kuchli va tom ma’noda badiiy asar sifatida o‘qilishi va o‘rganilishi mumkin. Bunday hamdlarning badiiy timsollari, ramzlari, obrazlari zamirida “Haq–Inson” munosabatlari yotadi. Bunday badiiy yaratmalarning barchasi ikki ma’nolidir. Ularning zohiriy ma’nolari badiiy asar mazmuni bilan jips bog‘liq bo‘ladi. Ammo badiiy timsollar ostida ma’rifatning “Haq–Inson” munosabatlari juda yuksak san’at bilan yashirinib keladi. Bunday badiiy-ma’rifiy hamdlarda islomiy tushunchalar, shariat arkonining to‘g‘ri aks ettirilishi zohiriy ma’nolar asosida emas, balki botiniy ma’rifiy ma’no asosida baholanadi. Badiiy–ma’rifiy hamdlar botiniy ma’nolari shariat aqidalariga mos bo‘lsa-da, zohiriy ma’nosiga ko‘ra, rasmiy islom ahkomiga zid bo‘lgan.

Ma’rifiy saviyasi har xil shariat va tariqat ahli o‘rtasidagi nizolarning bosh sababi tariqiy hamdlarning turlicha talqin etilishi, uqilishidir. Chunki shar’iy hamdlarning manbai – Qur’oni Karim, Hadisi sharif. Tariqiy hamdlar esa mazkur ilohiy sarchashmalar zamirida shakllangan ruhiy-ma’naviy asosga–Haqning tasavvufda uqilishiga tayanadi.

Ma'rifiy saviyasi yuksak –"ahli roz"gina nozik botiniy ma'no qirralarini ilg'ay olishgan. Zohirbin shariat ahli esa faqat tashqi mazmunga e'tibor berishgan.

Tariqat ahli jinday xato qilsa, o'z ma'rifiy asarlarining botiniy ma'nolarida arkoni shariat va ahkomi dinga nisbatan zig'ircha xatoga yo'l qo'ysa, ayovsiz jazolangan. Mansuri Xalloj, Nasimiy, Naimiy, Boborahim Mashrablar qismatining fojiasi negizida shu sabab yotadi. Ana o'sha qat'iy qoidaga ko'ra, hatto Hofiz Sheroziyu Shayx Sa'diylar, Kamol Xo'jandiyu Fuzuliylar, Ubayd Zokoniyu Nosir Xusravlar, Jaloliddin Rumiyu Najmiddin Kubrolar bir necha o'limdan so'z va tafakkur san'ati bilan chiqib ketganlar.

O'rni kelganda ta'kidlash joizki, Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari deyarli har bir badiiy-ma'rifiy g'azalni hamd deb bilishgan. Chunki bunday g'azallar ko'pchiligining botiniy ma'nosi Haq ma'rifatiga borib taqaladi. Hofiz Sheroziy, Shayx Sa'diy, Kamol Xo'jandiy, Jaloliddin Rumiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Lutfiy, Atoiy, Mashrab, Huvaydo kabi daho so'z san'atkorlarining "Haq-Inson" munosabatlariga bag'ishlangan ijod mahsuli fikrimizning yorqin dalilidir. Alisher Navoiyning to'rt devonida mujassamlangan (har bir harf guruhi boshida kelgan g'azallar bundan mustasno) ko'pgina she'r-larini ham **badiiy-ma'rifiy hamdlar** sirasiga kiritish lozim. Mazkur turdagi hamdlarda Soqiy, quyosh, Ummon, Suv kabilar Haq ramzi sifatida keladi. Rind-soqiy, bulbul- gul, parvona-sham, gado-shoh, ba-liq-suv, zarra-quyosh, qatra-ummon, pashsha-fil, tana-jon, samandar-o't, yer-osmon kabi tizimlarning mohiyati maxsus ma'rifiy bilim egalarigagina ma'lum bo'lgan.

## Adabiyotlar

1. Haqqul I. O`zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti//Filolol. fan. dok.diss... – Toshkent, 1995. – B. 42.

2. Navoiy A. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 264.

3. Komilov N. Tasavvuf. II kitob. – Toshkent: "Adabiyot va san'at" hamda O`zbekiston", 1999. – B. 114.

4. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999. – B. 127.

5. Chahor kitob. – Dushanbe: Adib, 1990. 5-sah.

6. Naqshband B. Avrodi bahoiya. Nashrga tayyorlovchi G. Navro`zova. – Buxoro, 2000. – B. 40.

7. Ismoil Yo`ut. Ahmad Yassaviy tasavvufiy qarashlarining bosh asoslari// Xoja Ahmad Yassaviy (maqolalar to`plami). – Toshkent, 2001. – B. 43.

8. Haqqul I. Ahmad Yassaviy – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2001. – B. 44.

9. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va an'analari// Maqolalar to`plami – Toshkent: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va adabiyot jamg`armasi, 2001. – B. 47.

10. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik. 1-tom. Badoye' ul-bidoya – Toshkent: Fan, 1987. – B. 21.

11. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik. 3-tom. Xazoyin ul-maoniy. G`aroyib-us-sig`ar. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 25.



**Zebiniso AHMADOVA**
Buxoro davlat universiteti
tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

## "RAVZATUS-SAFO"NING YARATILISH TARIXI

*Maqolada Mirxond qalamiga mansub "Ravzatus-safo" asarining yaratilish tarixi haqida mulohaza yuritilar ekan, Alisher Navoiy shaxsiga xos bag'rikenglik, xokisorlik kabi fazilatlarni yoritishga asosiy e'tibor qaratilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *"Majolisun-nafois", Alisher Navoiy, nasli-nasab, Mirxond, Xondamir, "Ravzatus-safo", tarix, xokisorlik.*

*В статье рассуждая об истории создания произведения Мирхонда «Равзатус-сафо», уделяется особое внимание освящению положительных качеств как любознательность, смирённость, толерантность личности Алишера Наваи.*

***Опорные понятия:*** *«Мажолисун-нафоис», Алишер Навоий, потомство, Мирхонд, Хондамир, «Равзатус-сафо», история, смирённость.*

*In article is discussed about the historical creation of Mirhonda's work "Ravzatus Safo", special attention is paid to the positive qualities as the knowledge, the humility, the tolerance of the personality of Alisher Navai.*

***Supporting concepts:*** *"Majolisun-nafois", Alisher Navoiy, posterity, Mirhond, Hondamir, "Ravzatus Safo", history, humility.*

Hazrat Alisher Navoiy "tarix ahli" deganda tarixchi olimlarni nazarda tutadilar. Ulug' mutafakkir "Majolisun-nafois" tazkirasining ikkinchi majlisi mashhur "Zafarnoma" asarining muallifi Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiyga bag'ishlangan maqola bilan ibtido topadi. Amir Temur shajarasi, turkiy qabilalar tarixi va Chingizxonning to'rt ulusi haqida ma'lumot beruvchi birinchi qism va Sohibqiron tarixini bayon etuvchi asosiy qismdan tarkib topgan "Zafarnoma" muallifi haqidagi qimmatli fikrlar Alisher Navoiyning boshqa asarlarida ham mavjud.

Ulug' mutafakkir "Majolis"ning to'rtinchi majlisini XV asr Xuroson javonmardlarining peshvosi, yakka kurash bo'yicha o'z zamonasining eng kuchli polvoni Pahlavon Muhammadga atalgan maqola bilan boshlaydi. Va mazkur majlisning 14-15-maqolalarida o'z davrining etuk tarixchi olimlari Mirxond va Mavlono Xondamir haqida ma'lumot beradi. U yoki bu tarixiy shaxs haqida mulohaza yuritishdan oldin uning nasli-nasabi haqida ma'lumot berish Alisher Navoiy muarrixlik uslubiga xos xususiyatdir. "Majolis"da Muhammad ibni Xovandshoh ibni Mahmud Mirxondga (1433 –1498) bag'ishlangan maqola tarixchi olimning otasi haqidagi quyidagi qaydlar bilan boshlanadi: "Mirxond – Sayid Xovandshoh o'g'lidurkim, Balx – qubbatul – islomiyning mutayyin donishmandi va buzurgi erdi" [1, 121]. Alisher Navoiy Mirxondning otasi Sayid Xovandshohni Balxning taniqli, donishmand va ulug' kishilaridan ekanligini qayd etadi. Ayrim olimlarning tadqiqotlarida tarixchi Mirxondning ota-bobolari asli buxorolik bo'lgani aytiladi.

Alisher Navoiy asarlarida kibru havoning insonlar tabiatida uchraydigan eng salbiy xususiyat ekanligi uqtiriladi. O'z nafsi, o'z ko'ngli, o'z zoti, o'z so'zini o'zgalardan aziz sanagan xudbin shaxslarning ozorlarini ko'p tortgan ulug' mutafakkir haqiqiy olim axloqining tub mohiyatini kamtarinlik tashkil qilishini qayta-qayta ta'kidlagan. "Majolis"ning to'rtinchi majlisida Muhammad ibni Xovandshoh ibni Mahmud Mirxondga bag'ishlangan maqolada ham mavzuning ayni qirrasi muallif e'tiboridan chetda qolmagan. Iste'dodli tarixchi olim shaxsi manmanlik va o'ziga bino qo'yish, naslu-nasabi va ilmi bilan faxr va g'ururga berilish illatidan mutlaqo xoli, xokisorlik, yuksak hayo va tavozu' bilan ziynatlanganligi ta'kidlangan: "...yigitlikda ulum takmili qildi va holo bovujudi kibari sin va ulvi nasab va kasrati hasabki barcha mujibi ujb anoniyatdurlar, ul miqdor betaayyun va foniy mashrab va xush axloq kishidurkim, andin o'tmas" [1, 121]. Alisher Navoiy Mirxondni o'rta asrlarda mashhur bo'lgan insho fani va tarix ilmida tengi yo'q olim ekanligiga e'tiborni tortib, o'zi yozilishiga sababchi

bo'lgan Mirxond qalamiga mansub tarix kitobining ilmiy qimmatiga o'quvchi diqqatini qaratadi: "Insho va tarix fanida benazirdur. Bu faqir iltimos bila avvali ofarinishdin bu kungacha tarixi jome'i biturkim, nisfig'a etibdur. Inshoolloh, tugaturiga muvaffaq bo'lg'aykim, tavorix arosida andin mufid-roq tarix bo'lmag'usidur" [1, 121]. "Majolisun-nafois" bo'yicha jiddiy ilmiy izlanishlar olib borgan Abduqodir Hayitmetov, Botirxon Valixo'jaev, Suyima G'anieva, Rahim Vohidov kabi adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlaridan ayonki, asar 1490 – 91-yillarda yozilgan. 1497 – 98-yilarda esa u muallif tomonidan to'ldirilgan, ilm tili bilan aytganda "Majolis"ning ikkinchi tahriri amalga oshirilgan. Demak, yuqorida asardan ko'chirilgan iqtibosdan ma'lum bo'ladiki, Mirxond bugun fanga ma'lum etti jilddan iborat "Ravzatus-safo"ni umrinig oxirigacha yozishda davom etgan. Asarning olti jildini yozib ulgurgan. "Ravzatus-safo"ning so'nggi jildi Mirxondning nabirasi, "Makorimul-axloq", "Habibus-siyar", "Xulosatul-axbor", "Dasturul-vuzaro" asarlarinig muallifi G'iyosiddin ibn Humomiddin Muhammad Xondamir (1475 – 1534) tomonidan yozilgan. Alisher Navoiy "Majolisun-nafois"da mashhur tarixchi Xondamir haqida g'oyat ixcham ma'lumot bergan. Uni "Mirxondning farzandi", – deya tilga olib, salohiyatlik yigit ekanligi, tarix ilmida mahorat kasb etganligini aytib, badiiy ijod bilan ham shug'ullanganligiga dalil sifatida bir muammosi matnini keltirgan [1, 121].

Alisher Navoiy yirik davlat va jamoat arbobi, buyuk ijodkor sifatida katta-katta obodonchilik ishlari, siyosiy voqelik, badiiy va ilmiy asarlar yozish bilan qanchalik band bo'lmasin, madaniy hayotni kuzatishga vaqt topa olgan. Olimlar, yozuvchilar, san'atning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan kishilarga (xattot, rassom va h.k.) moddiy va ma'naviy yordam bergan, homiylik qilgan, ijodiy ishlariga rahbarlik qilgan. Xalq orasidan etishib chiqqan iste'dod sohiblarini asrab-avaylagan, yuksak qadrlagan. "Majolis"da bitilgan "Ravzatus-safo"ning yaratilish tarixi haqida qimmatli ma'lumot beruvchi quyidagi jumla Alisher Navoiy shaxsiga xos bag'ri kenglik, xalqparvarlik, fidoyilik, nekbinlik haqida ham yorqin tasavvur paydo qiladi: "Bu faqir iltimosi bila... tarixi jome'i biturkim, nisfig'a etibdur. Inshoolloh, tugaturiga muvaffaq bo'lg'ay...". Mazkur fikr "Ravzatus-safo" muallifining asar yaritilish tarixi haqida aytgan o'z mulohazalari bilan yanada quvatlanadi, saodatbaxsh, qudratli kuchga ega bo'ladi. O'z e'tirofiga ko'ra, hayotining yarmini tarixiy manbalarni o'rganishga sarf etgan Mirxond ayrim yig'inlarda, davralarda tarixiy voqealarni hikoya qilgan. So'zlovchini jon qulog'i bilan eshitgan tinglovchilar, do'st-birodarlar undan tarixiy voqealarni jamlab kitob yozishni iltimos qiladilar. Ammo salohiyatlik tarixchi moddiy ahvoli og'irligi tufayli uzoq vaqt bu ishga kirisha olmaydi. Axiyri Alisher Navoiyga murojaat qiladi. Hazrat Navoiy yozilajak tarix kitobining tarkibi va tuzilishi, uni qanday uslubda bitish haqida Sayid Xovandshoh o'g'li Mirxondga qimmatli maslahatlar beradilar. "Ravzatus-safo" muallifi o'zi bilan ulug' Navoiy orasida kechgan muloqotni quyidagicha davom ettiradi: "Men bu xizmat uchun lozim bo'lgan ish joyi, kitoblar va boshqa kerakli narsalar to'g'risida gap ochganimda, u o'zi bino qilgan "Xalosiya" xonaqohidagi o'ziga maxsus xonani butun kitob va asboblari bilan birga menga topshirdi" [2, 370]. Yuqorida "Ravzatus-safo"ning yaratilish tarixi haqida "Majolis"dan keltirilgan iqtibosni qayta-qayta nazardan o'tkazdikki, Alisher Navoiy tarixchi olimga shunday saxovat qilganliklari haqida lom-mim demaydilar. O'zlaridagi javonmardlik, bag'rikenglikni o'quvchidan "bu faqir iltimos bila..." ifodasi qatiga yashiradilar.

## Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13-jild. –T.: "Fan", 1997. – 284 b.
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. I-kitob. – T.: "O'qituvchi", 1976. – 663 b.



**Dilnoza ISMATOVA**
Navoiy davlat pedagogika instituti
ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

## AKTDAN FOYDALANGAN HOLDA CHET TILLARINI O‘QITISH METODLARI

*Maqolada chet tili darslarini zamonaviy axborot–kommunikatsiya, pedagogik texnologiyalar, elektron darsliklar hamda multimediya vositalari orqali tashkil etishning muhim jihatlari hamda bu vositalardan qay yo‘sinda foydalanish metodlari va ularning samaradorligi xususida bayon etilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron darslik, multimedia, tushuntirish-illyustratsiyalash, reproduktiv, muammoli, tadqiqotchilik, ta’lim metodlari.*

*В статье изложены эффективные приёмы использования современных информационно-коммуникационных, педагогических технологий, электронных учебников и мультимедийных средств при обучении иностранному языку.*

***Опорные понятия:*** *информационно-коммуникационные технологии, электронный учебник, мультимедиа, объяснительно-иллюстративный, репродуктивный, проблемный, исследовательские методы обучения.*

*In article is described the effective methods of using modern information-communication, pedagogical technologies, electronic textbooks and multimedia tools for teaching of foreign language.*

***Supporting concepts:*** *information and communication technologies, electronic textbooks, and multimedia, explanatory-illustrative, reproductive, problematic, research methods of teaching.*

Ayni vaqtda respublikamiz ta’lim muassasalarida ta’lim berish sifatini tubdan yaxshilash, o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot–kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish, o‘quv – laboratoriya bazasini eng zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o‘qituvchilarning sermashaqqat mehnatini moddiy-ma’naviy rag‘batlantirishning samarali tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartida o‘quv fanining maqsad va vazifalari keltirilgan bo‘lib, unga binoan O‘zbekiston Respublikasida ta’limning barcha bosqichlarida chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – o‘rganilayotgan chet tili bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatidir.

Ushbu hujjatda kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

**Lingvistik kompetensiya til materiali** (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

**Sotsiolingvistik kompetensiya** so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

**Pragmatik kompetensiya** o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. Mazkur kompetensiya og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og‘zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini nazarda tutadi [1].

Bu maqsad va vazifalarning bajarilishida yuqori samaradorlikka erishishda chet tili mutaxassislari zamonaviy ta’limning muhim talablaridan, ya’ni ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish orqali amalga oshiriladi. Bu esa, o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlik, yangilik yaratuvchanlik, intiluvchanlik, fidoyilikni hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari aqliy mehnat sharoitlarini optimallashtirish borasida samarali vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizning yetakchi mutaxassislari tomonidan o‘sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o‘rgatish, shu tillarda erkin muloqotga kirisha olishlari hamda chet tili darslarining sifati va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ko‘plab zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar, multimedia vositalari, elektron darsliklar yaratilgan bo‘lib, o‘quv jarayoniga qo‘llanilib kelinmoqda.

Chunonchi, chet tillarini o‘quvchi-yoshlarga o‘rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish tizimi ham yaratilgan bo‘lib, bu tizimning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, uning uzluksiz amalga oshirilishidadir.

O‘quvchi-yoshlarga 5 yoshdan boshlab oliy ta’lim muassasasigacha har bir bo‘g‘indagi jamoaning yoshi, qobiliyati, pedagogik va psixologik jihatlarini inobatga olib, uzluksiz, uzviy kommunikatsion texnologiyalar, elektron resurslardan muntazam foydalanish chet tillarni o‘rgatishda samarali natijani beradi.

Chet tili fani o‘qituvchilari dars jarayonida turli kommunikatsion texnologiya, elektron resurslardan foydalanish jarayonida didaktik qonun-qoidalarni o‘quv predmetining o‘ziga xos xususiyatlariga mos tarzda amalga oshirishga ham e’tibor qaratishlari lozim. Chunki chet tili fanining boshqa o‘quv predmetlaridan farqli jihatlari: o‘quv jarayoni grammatik mavzular, o‘xshash sintaktik hodisalar, nutq ko‘nikma va malakalarini egallashda o‘zaro uzviy bog‘liq va uzluksiz holda o‘rgatiladi.

Chet tillarini axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida o‘qitish ishlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- leksikani o‘rgatish;
- talaffuz ustida ishlash;
- dialogik va monologik so‘zlashishga o‘rgatish;
- yozuvni o‘rgatish;
- grammatik hodisalarni qayta ko‘rish va tahlil qilish.

Chet tili mashg‘ulotlarida texnik vositalardan foydalanish bir qator didaktik vazifalarni yechishga ko‘maklashadi: o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi, yozuv malakalari takomillashib boradi, lug‘at zahirasi to‘ldiriladi, ularda chet tillari (ingliz, nemis, fransuz)ni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, bilish faolligi oshadi, dunyoqarashi kengaytiriladi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter muhim vosita hisoblanib, uning yordamida Word rejimidagi matn muharriridan foydalanish mumkin. Bu muharrir matnli jarayonlar sinfidagi eng zamonaviy dasturlardan biri bo‘lib, yuzlab amallarni bajara oladi. Uning yordamida tezkorlik bilan matn ustida muhim kommunikativ xatti–harakatlarni va amallarni bajarish mumkin.

Masalan: matn muharriri yordamida turli mashqlarni yaratish orqali o‘quvchilar tomonidan o‘rganilayotgan tilidagi matnlarni yaratish ustida olib borgan faoliyatini rag‘batlantirishda foydalansa bo‘ladi.

Topshiriqlar tizimi quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- berilgan matnni Word dasturida tering va unga o‘zgartirishlar kiriting;
- matnni qisqartiring, undan faqat eng muhim axborotni ajrating;
- matndan foydalanib, berilgan savollarga javob toping va javobingizni boshqa xildagi rang bilan ajratib ko‘rsating;
- matnni ma’noli qismlarga ajrating;
- gaplarning to‘g‘ri, izchillik tartibini tiklang;
- matnda tinish belgilari, bosh harflar, so‘zlar o‘rtasida ochiq joylarni aniqlab, matnni to‘g‘ri holatiga keltiring;
- passiv konstruksiyalarni toping va ularni kursivda ajratib ko‘rsating.

Bu turdagi mashqlar o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi, ijodiy fikrlashga undaydi va matndagi so‘zlarni xotirasida uzoq muddat saqlanishiga erishiladi.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarning layoqati va qiziqishiga qarab topshiriqlar tizimiga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Masalan: sinf jamoasini kichik guruhlarga bo‘lgan holda har bir guruhga alohida-alohida topshiriqlar: tabriknoma, so‘rovnoma, tarjimai hol, referat kabi matnlarni yaratish topshiriladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalari, kompyuter dasturlari o‘quvchilarning chet tilida so‘zlashish faoliyatini shakllantirishda ham samarali natijalarni beradi. Bu jarayonni amalga oshirishda ham o‘qituvchining ijodkorligi muhim hisoblanib, mashqlarni turli kombinatsiyalarda uyg‘unlashtirilsa, o‘quvchilar tomonidan chet tilidagi hodisalarni anglab, lingvistik qobiliyatlarini shakllantiradi, kommunikativ vaziyatlarni yaratishga yordam beradi, til va so‘zlashuv harakatlarini avtomatlashtirishni hamda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlariga imkon yaratiladi.

Chet tili darslarida mutaxassislar tomonidan yaratilgan elektron multimedia vositalaridan foydalanish orqali yuqori natijaga erishiladi. Masalan, o‘quvchilarga “Grammatika” bo‘limini o‘rgatishda, kompyuter va audio vositalardan foydalanib fonetik mashqlarni bajartirish mumkin. Bunda tovushlar, so‘zlar, iboralar va gaplar o‘quvchilarga audio vositasida eshittiriladi va ekranda vizual ko‘rish orqali qabul qilinadi. Bu kabi vositalarning qo‘llanilishining muhim jihatlari shundaki, o‘quvchilar ekranda artikulyatsion xatti-harakatlarni ham kuzatadi, to‘g‘ri talaffuz qilishni eshitib, o‘rganadi hamda ularning xotiralarida to‘g‘ri namunalar saqlanib qoladi. Multimedia vositasida va elektron holatda taqdim etilgan o‘quv materiallari o‘quvchilarning grammatik mashqlarni individual, jamoa bo‘lib bajarishida, har bir o‘quvchi tomonidan berilgan savollarni to‘g‘ri tushunish, aniq javobni topishida samarali natijaga erishish va qisqa vaqt sarflash imkonini beradi.

Chet tili mutaxassislarining e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan yana bir masala borki, bu ham chet tili fanlarining o‘ziga xos bo‘lgan didaktik xususiyatlaridan biri, ya’ni darsni rejalashtirishda o‘quvchiga yangi mavzuni o‘rgatish, yangi so‘zlarni yodlatish, yangi qoidalarni tushuntirishdan tashqari har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini, shaxsini rivojlantirish, chet tillarini o‘zlashtirishga qiziqishlarini yuksaltirish muhim.

Bunga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishiladi:

- o‘quvchilarning chet tillarini o‘qitish jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarning imkoniyati, qobiliyati va yosh xususiyatlarini hisobga olib o‘quv materiali va topshiriqlarni tanlash;
- o‘qitishning turli shakl va usullari vositasida, darslarda o‘rgatuvchi xarakterdagi kompyuter texnikasidagi ko‘pgina dasturlar: multimedia, repititor, Flesh, Microsoft Power Point, Microsoft Word kabilar asosida tayyorlangan didaktik o‘yinlardan foydalanish vositasida chet tili faniga o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish;
- o‘qituvchi o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda sinf o‘quvchilarining barchasining faol harakatini ta’minlay olishga e’tibor qaratishi kerak. Chunki shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi.

Kompyuter texnikasi vositasida tayyorlangan (multimedia, repititor, Flesh, Microsoft Power Point, Microsoft Word kabilar asosida) didaktik o‘yinlar yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘quvchilarga chet tillarini o‘rgatishda samarali natija beradi, ularning darsga qiziqishlarini oshiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim jarayonida bugungi kunda amaliyotchi, ijodkor o‘qituvchilar tomonidan chet tili darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida yaratilgan qator didaktik o‘yinlardan keng foydalanilmoqda. Didaktik o‘yinlar: *leksik; grammatik; fonetik; orfografik; ijodiy* o‘yinlar darsning qiziqarli bo‘lishini ta’minlash bilan bir qatorda, o‘quvchining tilni o‘rganishini, xotirasi, diqqati, ziyrakligii, zehnini rivojlantirishga ijobiy ta’sir qiladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida yaratilgan o‘yinlarni o‘quv jarayonida qo‘llashda o‘qituvchidan vaziyatlarni yaratishda tabiiylikka, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, so‘z va iboralarni to‘g‘ri talaffuz qilib, muloqot jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olishlarini nazorat qilib, o‘z o‘rnida o‘quvchilarning xatolarini tuzatib, yutuqlarini rag‘batlantirib borishlariga asosiy diqqat-e’tiborni qaratishi talab etiladi. O‘quvchining xatosini tuzatishda o‘qituvchi o‘quvchilar guruhini o‘zaro bir-biri bilan o‘yin vaqtida muomalaga kirishayotganida xatosini aytib, ularni to‘xtatmasligi kerak,

balki o‘yinda o‘zi ham ishtirok etib, o‘quvchilarning qiziqishini, faolligini susaytirmasdan, asosiy fikridan chalg‘itmasdan, mohirona tuzatish kiritib, suhbatni davom ettirishi muhim.

Demak, yuqoridagi fikrlar asosida quyidagicha xulosaga kelinadi: chet tili darslarini olib borishda o‘qituvchilar tomonidan AKTdan foydalanish o‘quvchida chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni uy-g‘otadi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Chet tili fani o‘qituvchilari muntazam AKTdan foydalanib, tanlov, viktorina, taqdimotli, turli mam-lakatlarga sayohat kabi rang-barang darslarni tashkil etishlari va bularning barchasi o‘qituvchi tomoni-dan puxta loyihalanib, avvalroq ishlab chiqilishi kerak. O‘qituvchi darsdan oldin kerakli material, tar-qatma materiallar, taqdimotlar, ssenariylarni tayyorlaydi. Kerak bo‘lganda, o‘qituvchining darsdan ol-din o‘quvchilarga topshiriqlar berishi, so‘zlar va matnlar bilan tanishtirishi o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Chet tili fani o‘qituvchilari AKTdan foydalanish jarayonida:

- o‘quv topshiriqlarining tizimli;
- oddiydan-murakkabga o‘zgartirib, murakkablashtirib borish;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, ularda muomala, birgalikdagi faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga;
- foydalaniladigan vositalar darsning shakli, mazmuni, maqsadi, sinfdagi o‘quvchilar sonini inobatga olib tanlash muhim sanaladi.

## Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabr PQ-1875 sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.// http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2126032

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 20-son, 251-modda).

3. Chen Chjan. Muvaffaqiyatga eltuvchi muomala san’ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 3.

4. Sirojiddinov Shuhrat, Lutfillayev Mahmud. Chet tilining o‘quv-metodik adabiyotlarini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida yaratish tizimi. Samarqand davlat chet tillar instituti “Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim” jurnali, 2013-yil № 2 (47), 9-bet.



**Маъмура БУРХОНОВА**
преподаватель кафедры иностранных языков и литературы
Навоийского государственного педагогического института

# СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish tamoyillari xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, o'qitishda samarali natijalarga erishishda elektron texnik vositalarning imkoniyatlari, ulardan foydalanish yo'llari aniq misollar asosida ochib berilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *elektron ta'lim, mediatexnologiya, innovatsion yondashuv, o'qitishda texnik vositalardan foydalanish, mustaqil ta'lim.*

*В статье раскрыта сущность современных видов и форм обучения в условия интенсивного развития информационно-коммуникационных технологий, рассмотрены возможности электронного образования и смешанного обучения на основе инновационных подходов.*

***Опорные понятия:*** *электронное образование, наглядно-образное мышление, информационно-коммуникационные технологии, инновационный подход, самообразование, комбинированная система обучения, медиатехнологии, информационная культура.*

*In article is revealed the essence of modern types and forms of training in intensive conditions of development of information communication technologies (ICT), the possibilities of electronic education and combined education, which is considered on base of the innovative approaches.*

***Supporting concepts:*** *e-education, visual-figurative thinking, information and communication technologies, innovative approach, self-education, combined education system, media technologies, and information culture.*

Образование сегодня ставит перед собой задачу воспитания критически мыслящего человека, думающего, анализирующего, умеющего увидеть проблему и найти рациональные пути её решения. Поэтому задачей педагогов является повышение качества знаний учащихся, глубокое усвоение теоретического материала и практических умений через развитие и совершенствование познавательных навыков путем повышения самооценки обучающихся, умение ориентироваться в огромных информационных потоках окружающего мира.

Обучающимся свойственно наглядно-образное мышление, поэтому важно строить процесс обучения, применяя как можно больше иллюстративно-изобразительного материала, вовлекая в процесс восприятия и усвоения знаний не только зрение, слух и эмоции, но и воображение. Для этого как нельзя лучше подходят яркость, динамика и занимательность электронных средств обучения.

В развитых странах всё большее распространение получает электронное образование, которое является частью концепции дистанционного образования. Дистанционные образование – это объединенный процесс обучения, где преподаватели, обучающиеся и учебные материалы, находящиеся в разных местах, объединяются вместе посредством коммуникационных технологий. Дистанционное образование может принимать многообразные формы, происходить в различной среде, с одним или несколькими преподавателями с помощью вариативных учебных материалов и использования современных и традиционных технологий, методов и подходов в обучении.

Электронное обучение эффективно используется на этапе самообразования, когда учащиеся приобретают определенные знания и навыки посредством обучения, которое они сами контролируют. Содержание (контент) этого вида электронного обучения может состоять из веб-страниц, мультимедийных презентаций и других интерактивных видов обучения.

В процессе проведения игровых занятий применяют интерактивные элементы для повышения эффективности обучения. Для учащихся доступны различные уровни сложности, при этом привлекаются интересные дидактические материалы: словари, стихи, песни, короткие юмористические тексты, зарисовки.

Разумеется, учитель должен владеть игровыми технологиями, направленными на развитие и обучение, то есть максимально использовать информационный, наглядный потенциал компьютерных игр в образовательных целях.

Компьютерные технологии используется в обучении почти всем предметам, открывают доступ к новым источникам информации, повышают эффективность самостоятельной работы, дают новые возможности для творчества, обретения и закрепления профессиональных навыков, позволяют реализовать принципиально новые формы и методы обучения. Вполне закономерно, что и преподаватели иностранных языков, особенно английского, по достоинству оценили их потенциал.

Современные компьютерные технологии на сегодняшний день используются во всех сферах деятельности человека. Подготовка специалиста в любой области знаний включает в себя как минимум обязательную пользовательскую подготовку, компьютерная грамотность становится одной из составляющих современного понимания образованного человека. Именно поэтому сегодня необходимо уделять серьезное внимание использованию средств новых информационных технологий в обучении иностранному языку.

Вместе с тем внедрение в учебной процесс новых информационных технологий вовсе не исключает традиционные методы обучения, а гармонично сочетается с ними на всех этапах обучения. Использование информационных технологий позволяет не только повысить эффективность обучения иностранным языкам, но и стимулирует студентов к дальнейшему самостоятельному изучению иностранных языков и изменить в положительную сторону мотивы их изучения.

Как было отмечено выше, электронное обучение учебным дисциплинам осуществляется не только дистанционно, но и (чаще всего) под непосредственным руководством преподавателя.

В этом процессе могут быть использованы аудио-, видео- конференции, чаты, интерактивные доски и другие веб технологии в реальном времени. Преподаватели предоставляют доступ к слайдам или трансляции презентаций в прямом эфире или в записи. Учащиеся могут задавать вопросы по электронной почте или в чате, а также участвовать в виртуальных классах с помощью веб-камеры, микрофонов.

Смешанное обучение – это один из тех методов обучения, где учебные заведения используют информационные и коммуникационные технологии, это комбинация работы в аудитории с удаленным обучением. При этом содержание курса может происходит в реальной или виртуальной среде, преподаватели могут общаться с учениками лично и через Интернет. Среда смешанного обучения обеспечивает различные средства связи, легкий и равный для всех доступ к технологически богатым учебным материалам, что повышает качество образования.

В общеобразовательных учреждениях нашей республики, где ещё не полностью осуществлен переход на 100%-ное использование интернета, считаем наиболее целесообразным применять комбинированную систему обучения, в которой разумно и эффективно сочетаются традиционные формы обучения с инновационными компьютерными технологиями.

Рассмотрим некоторые, наиболее распространенные формы и приемы обучения в контексте современных тенденций образования.

Технология «Портфель достижений студента» появилась сравнительно недавно и представляет собой инструмент самооценки собственного познавательного, творческого труда студента, рефлексии его собственной деятельности. Есть варианты названий «Языковой портфель», «Языковая папка учащегося», «Языковой архив», однако суть остаётся единой, сам мониторинг, самооценка коммуникативных умений на протяжении всего учебного курса обучения языку и литературе.

«Языковой портфель» состоит из нескольких разделов: языковой паспорт владельца папки, где указываются фамилия, имя, дата рождения, группа, изучаемые иностранные языки в кол-

ледже, год обучения, учебник русского языка или литературы, по которому занимался студент, язык общения в семье.

Образовательный процесс постоянно подвержен модернизации: обновляются направления и содержание образования, изменяются потребности общества исходя из этого, преподавателям приходится совершенствовать и разрабатывать стратегии и технологии обучения.

В этой связи возникают необходимость совместного накопления опыта педагогического сообщества страны: нужно, чтобы в процессе обучения создавалась глобальная информационо-образовательная среда.

Методические и дидактические наработки, советы коллегам, обмен опытом, организация профильных конференций, семинаров, круглых столов – все это доступно учителям на страницах образовательного сайта «Ziyonet».

Медиа образование, в частности, электронное образование связано с познанием закономерностей массовой коммуникации, развитием культуры общения с медиа, критического мышления с обучением различным формам самовыражения при помощи технических средств. Чтобы обеспечить необходимый уровень образования с учетом его информатизации, современный педагог должен:

- показать значимость информатизации и компьютеризации для современной системы образования и профессиональной подготовки молодежи;
- изучить программно – методические средства по учебным предметам, овладеть методикой их использования в образовательном процессе;
- повысить общую культуру учащихся, научить их практическим навыкам использования информационных технологий;
- использовать современные инновационные тенденции в образовании, владеть основными методическими приемами и средствами различными подходами к педагогической деятельности;
- знать особенности современного этапа развития образования в стране и в мире, сущность и структуру обучающего и воспитательного процессов в системе образования;
- учитывать в педагогическом взаимодействии различные особенности учащихся проектировать образовательный процесс и использованием современных технологий, соответствующих общим и специфическим закономерностям и особенностям возрастного развития личности;
- уметь работать с информацией в глобальных компьютерных сетях;
- целенаправленно использовать компьютерные технологии для обеспечения качества учебное воспитательного процесса, охраны жизни и здоровья обучающихся, информационной безопасности.

Преобразования, которые происходят в современной системе образования Республики Узбекистан, обусловлены интенсивной компьютеризацией всех сфер социальной, экономической, духовной и культурной жизни нашего общества, и задача педагогов страны активно участвовать в их осуществлении.

**Литература**

1. Алексеева М.Б., Балан С.Н. Технология использования систем мультимедиа. Учеб. пособие. – СПб., Бизнес-пресса, 2002. – 176 с.

2. Бегимкулов У.Ш. Единое информационные пространство в высших педагогических образовательных учреждениях // Преподаватель XXI века. – М., 2007. – №2 – С. 52-55.

3. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия) / В.П. Беспалько. – М.: Издательство Московского психолого-социального института, 2002. – С. 352.

4. Пардаева М., Пардаева А. Информационно-коммуникационная компетентность педагога как фактор формирования медиаграммотности учащихся. // В сборник материалов Республиканского научно-практического семинара «Глобаллашув шароитида ёшларнинг медиасаводхонлигини ошириш» Иккинчи китоб. – Наманган, 2015. – С. 50-54.



**Дилноза САЛИХОВА**
Преподаватель межфакультетской кафедры
иностранных языков БухГУ



**Гулбону РАХМОНОВА**
Студент 1-курса педагогического факультета

# ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УЧЕБНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

*Maqolada darslarda o‘zaro tushunish munosabati negizini yaratuvchi o‘qituvchi va o‘quvchi shaxslari orasida hamkorlik, hamda chet tili darslarini tashkil etishda ilmiy hamkorlikning psixologik va pedagogik xususiyatlari haqida fikr yurtilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *aloqa, aloqa turi, o‘qituvchi hamda o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabat, nutq tajribasi, o‘yin darslari, aloqa bosqichlari, ijodiy faoliyat, hamkorlik, psixologik va pedagogik jihatlar.*

*В статье размышляется о взаимопонимание личностей учителя и ученика, которое является основой содружества на уроке, о психологических и педагогических аспектах учебного сотрудничества на уроках иностранного языка.*

***Опорные понятия:*** *общение, разновидность общения, взаимодействие учеников и учителя, речевой опыт, игровые уроки, фазы общения, творческая деятельность, партнерство, психологические и педагогические аспекты.*

*The article reflects on the mutual understanding of the personality of teacher and pupil, which is the basis of commonwealth at the lesson, about the psychological and pedagogical aspects of the educational cooperation with the lessons of foreign language.*

***Supporting concepts:*** *communication, varieties of communication, interaction of students and teachers, conversational experience, the lessons with play games, the phases of communication, creative activity, and partnership, psychological and pedagogical aspects.*

**Введение.** В целях кардинального совершенствования системы обучения подрастающего поколения иностранным языкам, подготовки специалистов, свободно владеющих ими, путем внедрения передовых методов преподавания с использованием современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий и на этой основе создания условий и возможностей для широкого их доступа к достижениям мировой цивилизации и мировым информационным ресурсам, развития международного сотрудничества и общения установлено, что, начиная с 2016-2017 учебного года изучение иностранных языков, преимущественно английского языка, поэтапно на всей территории республики начинается с первых классов общеобразовательных школ в форме игровых уроков и уроков разговорной речи, а начиная со второго класса – с усвоением алфавита, чтения и грамматики. Преподавание в высших учебных заведениях отдельных специальных предметов, особенно по техническим и международным специальностям, ведется на иностранных языках.

В наши дни процесс обучения иностранному языку понимается не как индивидуальная деятельность учащегося с учебным материалом, а как «особым образом организованное общение или особая разновидность общения». Важной функцией такого общения на уроке является

установление взаимодействия учеников и учителя друг с другом, в ходе которого реализуется задача присвоения школьником речевого опыта на новом для них языке. Итак, процесс обучения иностранному языку предполагает взаимодействие обучающихся (учитель и ученики, ученики друг с другом), под которым понимается, прежде всего их совместная согласованная деятельность.

Урок иностранного языка, будучи сложным актом общения, состоит из более простых актов общения и обладает всеми его чертами. Любой урок включает в себя такие фазы, как установка на выполнение деятельности, ориентировка в ее условиях, исполнение и контроль. Каждой фазе общения на конкретном этапе урока соответствуют определенные действия учителя и учеников.

Эффективность обучения иностранного языка в полной мере зависит от того, насколько согласованы действия учителя и учеников. Если связи между деятельностью учителя и учеников нарушаются, то нарушается взаимодействие между общающимися, что приводит к нарушениям деятельности учащихся.

Подчас учитель сам является причиной такого рассогласования, так как содействия он не соотносит с задачами каждого компонента урока, с содержанием выполняемой учениками деятельности  и формами ее организации.

Успешность же обучения иностранным языкам зависит не только от совместного согласования деятельности учителя и учеников. Большую роль играет также взаимодействие их личностей, складывающиеся между ними взаимопонимание, которое является основой содружества на уроке. Поэтому даже в случае хорошей профессиональной подготовки учителя, его умения методически, целесообразно планировать свои действия эффект обучения может быть минимальным из-за не складывающихся между ним и учениками отношений.

Для общения – устрашения характерно устойчивое стремление учителя захватить инициативу на уроке, занять доминирующее положение и навязать свою волю ученикам. В этих целях он использует приказ, порицание, угрозу в форме приказа, нотации, наставления, подчас наказания. В основе организации учебного процесса у такого учителя лежат «авторитарно – императивные принципы» (определение Ш.А. Амонашвилли), а девизом его деятельности становятся слова «делай так как я тебе говорю!» В этом случае взаимодействие учителя представляет собой по сути дела простой взаимообмен репликами, в ходе которого учитель выступает, как правило, в роли формального организатора учебного процесса. Внешний порядок и дисциплина являются, как правило, следствием проверки и контроля учащихся со стороны учителя. Все это создает напряженность во взаимоотношениях между обучаемыми и обучающим, нередко приводит к конфликтам между ними, вызывает взаимную неприязнь.

Лишь в условиях совместной творческой деятельности учителя и учеников имеющей для каждого из них личностный смысл, складывается между ними отношения партнерства, которые проявляются во взаимосвязи и взаимовлиянии обучающего и обучаемых, в согласованности их речевых поступков. Именно такое сотрудничество имел в виду С.Л. Рубинштейн, когда писал: «…учение мыслится как совместное исследование … совместное прохождение того пути открытия и исследования, которое к ним приводит».

В условиях соактивности основными орудиями учителя становятся просьбы, советы, похвала, одобрение или доброжелательное порицание. Учитель акцентирует внимание учеников на содержательном аспекте деятельности, раскрывая цель и мотив каждого задания, что нужно сделать и для чего. Основной формой учебной деятельности в этом случае является совместная увлеченность коммуникативно – познавательной деятельностью живое общение учителя с учениками. Ведущим девизом их совместной деятельности является лозунг «Действуем вместе!». Что касается ученика, то благодаря благоприятным межличностным отношениям, он не испытывает страха сделать языковую ошибку, быть не понятным, чувствует себя расковано и свободно.

Вступая в отношения сотрудничества, учитель ориентируется не на функции ребенка как ученика, в соответствии с которым он должен выучить и ответить домашнее задание, а на его личность и перспективы ее развития. Такое взаимодействие, как правило, выходит за рамки учебного общения и осуществляется в различных видах деятельности, стимулирует практиче-

ское использование иностранного языка: в совместном оформлении стендовых газет, подготовке групповых и межгрупповых мероприятий на изучаемом языке. Таким образом, взаимодействие – согласованная деятельность по достижению совместных целей и результатов, по решению участниками значимой для них проблемы и задачи. Один из психологических законов подчеркивает связь развития личности и деятельности. Эта связь лежит в основе понимания педагогической значимости взаимодействия, в которых и через которых раскрывается вся сложная система способностей – предметно – практических, душевных. Взаимодействие является одним из основных способов активизации саморазвития и самоактуализации подростка. Его дополнительный эффект межиндивидуальное влияние, базирующееся на взаимопонимании и самооценки.

Опыт передовой практики обучения иностранного языка показывает, что эффективность урока иностранного языка обуславливается, прежде всего способностью учителя создать условия и организовать ситуации, в которых ученики осваивают язык как средство общения. Говоря о педагогическом, учебном сотрудничестве вообще, следует иметь в виду наличие в трех тех основных факторов взаимодействия учителя и ученика, взаимодействие учеников друг с другом в совместной учебной деятельности и взаимодействие учителей в системе межпредметных связей.

Идеология обучения в сотрудничества была детально разработана тремя группами американских педагогов: Р. Славиным из университета Джона Хопкинса, Р.Джонсоном и Д. Джонсоном из университета штата Миннесота, группой Э. Аронсона из университета штата Калифорния. Основная идея этой технологии создать условия для активной совместной учебной деятельности учащихся в разных учебных ситуациях.

Ученики разные: одни быстро «схватывают» все объяснения учителя, легко овладевают лексическим материалом, коммуникативными умениями, другим же требуется не только значительно больше времени на осмысление материала, но и дополнительные примеры, разъяснения. Такие ребята, как правило стесняются задавать вопросы при всем классе, а подчас просто и не осознают, что конкретно они не понимают, не могут сформулировать правильно вопрос. Если в таких случаях объединить ребят в небольшие группы по 3-4 человека и дать им одно общее задание, оговорив роль каждого ученика группы в выполнении этого задания, то возникает ситуация, в которой каждый отвечает не только за результат своей работы,(что часто оставляет ученика равнодушным), но, что особенно важно, за результат всей группы. Поэтому слабые ученики стараются выяснить у сильных все не понятые ими вопросы, а сильные учащиеся заинтересованы в том, чтобы все члены группы, в первую очередь слабый ученик, досконально разобрались в материале. Заодно и сильный школьник имеет возможность проверить собственное понимание вопроса. Таким образом, совместными усилиями ликвидируются пробелы. Такова общая идея обучения в сотрудничестве.

**Заключение.** Урок иностранного языка для организации межличностного общения учеников друг с другом имеет преимущество перед другими ведущими предметами. Практика показывает, что вместе учиться не только легче и интереснее, но и значительно эффективнее. Учиться вместе, а не просто что-то выполнять вместе – вот, что составляет суть данного подхода.

**Литература**

1. Кашлев С. С. Технология интерактивного обучения. – Мн.: Белорусский верасень, 2005. – 176 с.
2. Апатова Н.В. Информационные технологии в школьном образовании – М., 1994. – 228 с.
3. Никишина И.В. Инновационные педагогические технологии и организация учебно-воспитательного и методического процессов в школе: использование интерактивных форм и методов в процессе обучения учащихся и педагогов. – Волгоград: Учитель, 2007.
4. Тюков А.А. Психологические аспекты учебного сотрудничества на уроках иностранного языка в школе. Иностранные языки в школе, 1988.

# MUSIQIY TA’LIM VA SAN’AT



**Dilfuza MAMUROVA**
Buxoro davlat universiteti
tasviriy san’at va muhandislik
kafedrasi o’qituvchisi



**Avaz SHUKUROV**
Buxoro davlat universiteti
tasviriy san’at va muhandislik
kafedrasi o’qituvchisi

## “PERSPEKTIVADA BINONING (CHOR MINOR) SUVDAGI AKSI” MAVZUSINI O’RGATISHDA AutoCAD DASTURINING AFZALLIGI

*Maqolada xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosiga ega bo’lgan tarixiy obidalaridan Chor Minorni perspektivada suvdagi aksi mavzusini o’tishda AutoCAD dasturidan foydalanishning ahamiyati haqida so’z yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *bino, perspektiva, axborot texnologiyasi, suvdagi aksi, nuqtalar, dars, talaba, to’g’ri chiziq, dastur.*

*В статье говорится о важности использования программы Auto CAD для преподования темы отображение на воде в переспективе, богатого историческим, культурно - духовным наследием нашего народа, строения Чор-Минор.*

***Опорные понятия:*** *здание, перспектива, информационные технологии, отображение на воде, точки, урок, студент, прямая линия, программа.*

*In article is discussed the importance of using the Auto CAD program to teach the theme of displaying on water of Chor-Minor in the perspective as rich- historical, cultural and spiritual heritage of our people.*

***Supporting concepts:*** *building, perspective, information technology, displaying on water, points, lesson, student, straight line, and program.*

Ma’lumki, axborot almashinuvida insonning ko’rish sezgi organi yordamida qabul qilingan axborot eng samarali qabul qilinadi va u xotirada ham chuqur iz qoldiradi. Jumladan, tovush vositasida berilgan axborot ham ijobiy ta’sir etadi. Eng kam samara beruvchi axborot vositasi bu yozuvli axborot bo’lib, uni qabul qilib olish va inson ongida qayta ishlashda ko’proq vaqt sarflanadi va har bir insonning fiziologiyasidan kelib chiqgan holda axborotning ma’lum bir qismi yo’qotilib xotirada saqlanadi.

Muhandislik grafikasi darsimizda tarixiy obidalar tuzilisi plan fasadini o’rganganmiz. Shunday ekan, perspektiva fani o’qitishda ham arxitektorlar metodidan foydalanib binoning perspektivasi chizishda tarixiy yodgorliklarimizni tasvirlasak talabalar fanni o’rganishga qiziqish uyg’otadi.

Tevarak-atrofimizda joylashgan narsalarning ko‘zimizga asl holidan boshqacharoq ko‘rinishi va bu holatning sabablarini o‘rganish perspektiva fanining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Masalan: turli ko‘za, chelaklarning aylana qismlari umumiy vaziyatda ellips yoki to‘g‘ri chiziq holatida, o‘zaro parallel bo‘lgan temir yo‘l relslari esa bizdan uzoqlashgan sari bir nuqtada uchrashgandek bo‘lib ko‘rinadi. Balandliklari bir xil bo‘lgan simyog‘ochlarning uzoqda joylashganlari boshidagilarga nisbatan kichik o‘lchamda ko‘rinadi. Bunday hodisalar biror qonuniyatga asoslanishini perspektiva fani to‘laqonli yoritib beradi [1]. Ona tabiatdagi narsalarning ko‘zimizga o‘z shakliga nisbatan biroz o‘zgarib ko‘rinishi, rassomlarning yaratgan realistik asarlaridagi chuqurlik fazosining ochib berilishi sabablari bir necha asrlardan buyon o‘rganilib kelingan va perspektivaga asos solingan.

Chor Minor madrasasi perspektiv tasvirini bajarish uchun perspektivadan tasvir yasash usullarini aniqlash va ulardan optimal yechimga ega bo'ladigan turini tanlash mumkin.

Chor Minor madrasasi perspektiv tasvirini bajarish uchun AutoCAD dasturidan foydalanamiz. Perspektiva fanini o'tishda Amerikaning ***Autodesk*** firmasi tomonidan ishlab chiqilgan **AutoCAD** grafikaviy dasturidan foydalanish o'rinlidir. ***Autodesk*** firmasining juda ko'plab dastur mahsulotlari mavjud bo'lib (*AutoCAD, ArchiCAD, AutoCAD Electrical, 3ds Max, Design Review…*), butun dunyoda keng ommalashib ketgan, eng so'nggi texnologiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Firmaning dastur mahsulotlari ichida ***AutoCAD*** dasturi muhim o'rin tutadi. U asosiy bo'lib, qolgan dasturlar uning asosida yaratilgan hisoblanadi. ***AutoCAD*** (loyihalarni avtomatlashtirish tizimi)da oddiy detallardan tor-tib, har qanday murakkablikdagi katta-katta inshootlarning loyihalarini yuqori aniqlikda bajaradi [3]. Chor Minor madrasasini ***AutoCAD*** dasturidan foydalanib hovuz yaqinida joylashgan binodan tushgan suvdagi aksini topishda qirg`oq yaqinida joylashgan vertikal yog`ochdan suvga tushgan aksni topish yo`lidan foydalanamiz. Faqat bu yerda gorizont chizig`idagi ixtiyoriy nuqta o`rniga binoning frontal va profil proyeksiya tekisliklariga perpendikulyar qirralarining cheksiz uzoq nuqtalarini perspek-tivasi ($F_1$ va $F_2$ )dan foydalanamiz [2]. Chor Minor madrasaning suvdagi aksini yasashda avval bizga yaqin joylashgan minorasini yer sathida joylashgan asosidan boshlab nuqtalar perspektivasi ichida joy-lashtiramiz, shundan so'ng aksni topilishi kerak bo`ladigan bino nuqtalarini harf yoki raqamlar bilan belgilab chiqamiz. So`ngra bu nuqtalarning aksini yasaymiz. Bu ishni bizga yaqin joylashgan minora-ning bizga yaqin joylashgan nuqtasini T nuqtaning aksini yasashdan boshlaymiz. Buning uchun bino-ning frontal proyeksiyalovchi qirralaridan o`tuvchi to`g`ri chiziqlarning cheksiz uzoq nuqtasining per-spektivasi ($F_2$)dan foydalanamiz, ya'ni $F_2$ a to`g`ri chiziqni hovuz qirg`og`i bilan R nuqtada kesish-guncha davom ettiramiz. R nuqtaning suvdagi asosi ($r_0$)ni topish uchun R nuqtadan suv sathi bilan ke-sishguncha vertikal to`g`ri chiziq chizamiz. R nuqtani suvdagi aksi ($R^1$)ni topish uchun esa $Rr_0$ chi-ziqni pastga davom ettirib $r_0$ nuqtadan $Rr_0$ kesmani o`lchab qo`yamiz($Rr_0 = r_0R^1$). Hovuz qirg`oqlari suv sathiga parallel bo`lgani uchun ularning aksi o`zlariga parallel bo`ladi. Shunga asosan, hovuzning R nuqta joylashgan chap tomondagi qirg`og`ining cheksiz uzoq nuqtasini perspektivasi $F_1$ nuqta bilan $R^1$nuqtani to`g`ri chiziq bilan tutashtiramiz.



Hovuz yon devorlarini kesishuv chizig`i $Ii_0$ ni pastga davom ettirib $R^1F_1$ bilan kesishgan nuqtasini $J^1$ bilan belgilaymiz. $J^1R^1$ to`g`ri chiziq hovuzning chap qirg`og`ining aksi bo`ladi. $J^1$ bilan $F_2$ ni to`g`ri chiziq bilan tutashtiramiz va uni o`ng tomonga davom ettirib, hovuzning orqa qirg`og`ining aksini hosil qilamiz.

$r_0$ nuqta bilan $F_2$ nuqtani to`g`ri chiziq bilan tutashtiramiz. Tt qirrani pastga davom ettirib $F_2r_0$ to`g`ri chiziq bilan kesishgan nuqtasini $t_0$ bilan belgilaymiz. Bu nuqta Tt qirrani suvdagi asosi bo`ladi. $Tt_0$ to`g`ri chiziqni pastga davom ettirib, $Tt_0$ kesmani $t_0$ dan pastga o`lchab qo`yib, $T^1$ nuqtani hosil qilamiz ($Tt_0=t_0T^1$). Bu nuqta T nuqtaning aksi bo`ladi. $T^1t_0$ kesmaning qirg`oq aksidan keyingi qismi Tt qirraning suvdagi aksi bo`ladi. TQ qirra suv sathiga parallel bo`lgani uchun uning aksi o`ziga parallel bo`ladi. Shunga asosan $T^1$ nuqta bilan $F_2$ nuqtani tutashtiramiz. To`g`ri chiziqni pastga davom ettiramiz. Bu to`g`ri chiziq bilan kesishib $Q^1$ nuqtani hosil qiladi. $T^1Q^1$ to`g`ri chiziq TQ qirrani aksi

bo`ladi. $qQ^1$to`g`ri chiziqni qirg`oqning aksidan keyingi qismi Qq qirrani aksi bo`ladi. B,C,E,L,M,N nuqtalarning suvdagi aksini topish uchun bu nuqtalar bilan $F_1$ nuqtani tutashtirib Tt qirrani yuqoriga davom etgan qismi bilan kesishguncha chap tomonga davom ettirib $B_0,E_0,7_0$,…nuqtalarni hosil qilamiz. Bu nuqtalardan $t_0$ nuqtagacha bo`lgan masofani $t_0T^1$ni davom ettirib, $t_0$ nuqtadan pastga o`lchab qo`yib $B^1_0,E^1_0,7^1_0$,… nuqtalar hosil qilinadi. Bu nuqtalar bilan $F_1$ nuqtani to`g`ri chiziqlar bilan tutashtiramiz. Bu to`g`ri chiziqlar bilan B,C,E... nuqtalardan vertikal pastga tushirilgan to`g`ri chiziqlar mos ravishda kesishib $B^1,C^1$,... nuqtalarni hosil qiladi. Bu nuqtalar B,E,7,… nuqtalarning suvdagi aksi bo`ladi. $A^1,B^1,C^1$,… nuqtalarni ketma-ket to`g`ri chiziq bilan tutashtiramiz. $E^1,M^1$ nuqtalar bilan $F_2$ nuqtani to`g`ri chiziqlar bilan tutashtiramiz. $E^1F_2$ to`g`ri chiziqni $B^1C^1$ gacha qismi EZ qirraning suvdagi aksini bizga ko`ringan qismi, $M^1F_2$ to`g`ri chiziqni $E^1L^1$ gacha bo`lgan qismi esa MY qirrani (Y nuqta tasvirda ko`rsatilmagan) suvdagi aksining ko`ringan qismi bo`ladi. Xuddi shu tartibda C,L,1,2,3,4,6,8,9,10,11,12 nuqtalarni aksi 1’,2’,3’,… ham topiladi.

Deraza va eshik o`rinlaridagi 53, 8U,... qirralar suv sathiga parallel, shuning uchun bularning aksi o`ziga parallel bo`ladi. Shunga asosan 3’,8’,11’ nuqtalarni $F_2$ bilan tutashtiramiz va nuqtalardan o`tgan vertikal qirralarni pastga davom ettiramiz. Bular bilan $F_2$3’, $F_2$8’, $F_2$11’ to`g`ri chiziqlar mos ravishda kesishib S’,U’,13’ nuqtalarni hosil qiladi.

Suv sathiga parallel bo`lgan to`g`ri chiziqning aksi o`ziga parallel bo`lishiga, asosan, 5’,13’ nuqtalar bilan $F_1$ ni to`g`ri chiziq bilan tutashtirib, deraza o`rinlarining chap tomondagi qirrasi aksi bilan kesishguncha davom ettiramiz.

Aksni tasvirlovchi kontur chiziqlar ingichka tutash chiziq bilan chizilib, so`ngra ularni perpendikular vaziyatda 1,5÷2 mm uzunlikdagi ingichka chiziqchalar bilan shtrixlab chiqiladi. So’ng tasvirlarga rang beriladi va ish yakunlanadi.



Hozirgi davrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimining barcha sohalari qatori, ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi hayotiy zaruratdir. Buxoro shahrida joylashgan Chor Minor madrasasining chizmalari asosida perspektiva va uning suvdagi aksini tasvirlashni ko’rib chiqdik.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, hozirgi zamon ta’limi juda ham serqirrali bo`lib, yangi pedagogik texnologiyalar va kompyuter texnologiyalardan foydalanib darsni o`tish taqozo etmoqda. Shuni aytish zarurki, o`qituvchi serqirra ijodkor bo`lishi uchun o`z ustida ishlashi kerak. Dars jarayonida real voqealikni namoyish etib o`quvchilarga hayotiy misollar keltirib o`tilsa o`quvchining bilimi kengayadi. Bu esa hozirgi zamon talabiga mos va kelajak uchun samarali bo`ladi.

## Adabiyotlar

1. Xorunov R. Chizma geometriya kursi. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1964. – B. 64
2. Odilov P.O. Perspektiva. – Toshkent: TDPU, 2000. – B. 87.
3. Razzoqov Sh.I., Yo‘ldoshev Sh.S., Ibragimov U.M. Kompyuter grafikasi. – T.: “Noshir”, 2013. – B.35



**Dilmurod PULATOV**
Namangan davlat universiteti dotsenti,
san'atshunoslik fanlari nomzodi

# O'ZBEKISTON QADIMGI DAVR HAYKALTAROSHLIGI
## (tarixiy shakllanishi va ijodiy rivojlanishi)

*Maqolada qadimgi davr O'zbekiston haykaltaroshligi ijodiy jarayonining shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *haykaltaroshlik, mahobatli haykal, yorug'-soya, shakl, hajm, kompozitsiya, an'anaviy, yo'nalish, bosqich, badiiy talqin, obraz.*

*В статье исследуется формирование и развитие творческого процесса ваяния скульптур в Узбекистана в древние времена.*

***Опорные понятия:*** *скульптура, монументальная скульптура, пластика, светотень, форма, объем, композиция, традиционный, направление, этап, художественная интерпретация, образ.*

*The article studies the formation and development of the creative process of sculpture of Uzbekistan in ancient times.*

***Supporting concepts:*** *sculpture, monumental sculpture, plastic, chiaroscuro, form, volume, composition, traditional, direction, stage, artistic interpretation, image.*

Jahon xalqlari tarixiy-madaniy tamaddunida xalq hunarmandchiligi, amaliy bezak san'ati, me'morlik va, ayniqsa, tasviriy san'at turlarining keng rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, o'tmishda tasviriy san'atning haykaltaroshlik turi sermahsul ijod manbai sifatida ko'plab xalq va elatlar badiiy madaniyatining ajralmas qismini tashkil etgan. Jumladan, O'zbekiston haykaltaroshligining ham olis tarixiy davrlardan sado beruvchi ijod namunalari borki, ular ko'hna o'tmishimizning nodir merosi hisoblanadi.

Qadimgi O'zbekiston san'ati tarixida haykaltaroshlik ijodiyoti keng o'rin egallaydi. Bizgacha saqlanib qolgan moddiy-madaniy yodgorliklarning ko'plab qismini shu san'at namunalari tashkil etadi. Hatto eng qadimgi topilmalar orasida ham haykaltaroshlik texnologiyasiga muvofiq bajarilganlari uchraydi. Biroq, O'zbekiston san'ati tarixiga oid o'quv adabiyotlarda haykaltaroshlik sohasi alohida ijodiy taraqqiyot kesimida mulohaza etilishdan farqli o'laroq, tasviriy san'atning umumiy fonida e'tirof etiladi. Shularni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishidagi "O'zbekiston san'ati" tanlov fani mashg'ulotlarida foydalanish uchun O'zbekiston san'ati tarixida aynan haykaltaroshlikning ijodiy rivojlanishini yoritib berishni maqsad qildik. Haykaltaroshlik tarixi uzoq yillik katta tarixiy davrni qamrab olishi bois, mazkur maqolada faqat ilk shakllanishidan boshlab, qadimgi davrlarda kechgan jarayonlarni tahlil qilish bilangina chegaralanishni lozim ko'rdik. Agar O'zbekistonda haykaltaroshlikning tarixiy shakllanishiga e'tibor qaratsak, quyidagi ijodiy bosqichlari ko'zga tashlanadi: birinchi – ilk haykaltaroshlik namunalarining paydo bo'lishi (ibtidoiy jamoat tuzimining mis yoki bronza davri); ikkinchi – miloddan oldingi IV asr oxiri, milodiy IV asrlardagi qadimgi va antik haykaltaroshlik (Ahamoniylar, greklar, kushonlar badiiy madaniyati tarkibidagi davr). Quyida mazkur bosqichlarning birinchisiga va qisman dastlabki istilochilik (Ahamoniylar hukumronligi) davriga to'xtalamiz. O'zbekiston hududida tosh asriga oid Obiraxmat, Xo'jakent (Toshkent), Zarautsoy (Surxondaryo), Suratsoy, Soymali tosh (Farg'ona), Taqa tosh (Jizzax) kabi ibtidoiy madaniyat manzillarining topilishi, qadimgi O'rta Osiyo mintaqasida o'zbek xalqining ijodkorlik qobiliyati juda qadimdan shakllana boshlaganligini anglatadi. O'sha davrdagi ilk san'at namunalari g'or devorlariga, suyak yuzalariga ov manzaralarini ifodalovchi lavhalar va turli hayvonlar tasviridan iborat bo'lgan.

Ajdodlarimizning badiiy tafakkurida his-tuyg‘ularning zuhur etishi pirovardida voqelikni tasvirlash tushunchasi ham paydo bo‘lgan. E’tiborli tomoni shundaki, yuqoridagi qoyatosh va g‘orlardagi tasvirlar orasida toshni qattiq jismlar vositasida yo‘nish va tirnash orqali bajarilganlari ham uchraydi. Bular tasviriy san’atning ibtidiy devoriy rangtasvir ko‘rinishi shaklida namoyon bo‘lsada, biroq ularda tasvirlashning haykaltaroshlik usuliga ham qisman aloqasi borligini e’tirof etish kerak. Chunonchi, haykallar qattiq jismlarni yo‘nish, tirnash orqali, yumshoq ashyolarni esa kesish va yopishtirish bilan bajariladi.

Farg‘ona vodiysidan topilgan eramizdan avvalgi taxminan ikki ming yillik tarixga ega bo‘lgan “Ikki boshli ilon” (tumor) tasviri qadimgi haykaltaroshlik namunalaridan biridir. Mazkur tumor bir jihatdan o‘sha paytning maishiy hayotida taqinchoq va bezakli buyumlardan foydalanish madaniyati shakllanganligining ashyoviy dalili hisoblansa, ikkinchi tomondan o‘sha paytlarda ajdodlarimiz haykal yasash bo‘yicha badiiy mahoratga erishganligini tasdiqlaydi, yetarlicha ijodiy qobiliyatga va uslubiy tajribaga ega bo‘lganligini anglatadi. Tumordagi tasvir qora toshni mohirona yo‘nish va pardozlash bilan bezakli haykaltaroshlikning nodir namunasi darajasiga olib chiqilgan. Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston hududidagi dastlabki haykaltaroshlik namunalari ajdodlarimizning kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan uy-ro‘zg‘or buyumlariga jilo berishdan tashqari, turli zeb-ziynat buyumlariga bezak sifatida ham qo‘llanilgan. O‘sha davrda haykaltaroshlik maishiy buyumlar tarkibida bo‘lib, ularga badiiy bezak o‘laroq xizmat qilgan bo‘lsada, boshqa bir topilmalar haykaltaroshlikka mustaqil san’at sifatida qaralganligini ko‘rsatadi. Masalan, Surxondaryo (Mirshodi qishlog‘i) dan topilgan miloddan avvalgi II-ming yillik davrga mansub “Erkak boshi” haykalini shu o‘rinda qayd etish mumkin. Mazkur asar o‘sha paytlardan haykaltaroshlikning portret janrida ijod qilinganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston haykaltaroshligining qadimgi davrida diniy qarashlar, marosim va an’analari bilan bog‘liq ko‘rinishlarni o‘zida ifoda etuvchi topilmalar ham keng uchraydi. Saqlanib qolgan shunday ijodiy ishlar ko‘proq Zardushtiylik diniy qarashlari va marosimlarini aks ettiradi. Ma’lumki, eramizdan avvalgi VII asrlarda Xorazmda shakllangan Zardushtiylik dini odamlar hayoti, ijtimoiy-madaniy odatlariga singib borgan, shuningdek, san’at va madaniyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Zardushtiylik marosimi bilan bog‘liq buyum – ostadonlarda bo‘rtma haykaltaroshlikdan foydalanilgan. Ostadonlar turli shakllardan iborat bo‘lgan, keng ommalashgan turi to‘rtburchak shakldа bo‘lgan va yuzalari bo‘rtma tasvirlar bilan ishlangan. Samarqand viloyatidagi Mullaqo‘rg‘ondan topilgan ostadon shu xarakterni kuzatish mukin.

Namunadagi ostadonning tashqi tomonidagi rel’yefda yuziga niqob taqqan ikki odam tasviri aks ettirilgan. Unda Zardushtiylik amallari talqin qilingan. Jumladan, naqshinkor shaklda yonib turgan olovga odamlar o‘tin hamda yoqimli hid taratuvchi giyohlarni tashlayotganligi ko‘rsatilgan. Og‘izlarini niqob bilan berkitib olgan odamlar tasviri orqali esa, bu dinda olov muqaddas hisoblangani bois unga insonlar nafasi tegmasligi lozim degan aqida-odatlar ifodalangan.

Miloddan oldingi VI asrlarda O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar Ahamoniylar imperiyasi tarkibida bo‘lgan davrda ham haykaltaroshlikning o‘ziga xos ijodiy jihatlari ko‘zga tashlanadi. O‘sha davr san’atida Eron badiiy madaniyati an’analari bilan mahalliy maktab uyg‘unlashgani seziladi. Shu uyg‘unlik asosida tasviriy san’atning boshqa sohalari kabi haykaltaroshlikda ham badiiy mukammal asarlar yaratilgan. Bu borada Xorazmning Kallaliqir (mil. av. VI-V asr) saroyida qo‘llanilgan haykaltaroshlik namunalari alohida ahamiyatga ega. Saroy ustunining kapitel qismiga ishlangan burgut boshli grifonlar o‘sha davr haykaltaroshligining o‘ziga xos namunalaridir [1, 43]. Arxeolog S.P. Tolstov tomonidan qadimgi Xorazm hududida olib borilgan izlanishlarda Kanguy madaniyatiga mansub haykaltaroshlik namunalari ko‘plab topilgan. Jumladan, Jonbosqal’adan topilgan [2; 190,195,197,198]. “Erkak kishi haykali”, “Otning kichik boshi” haykallarini, shuningdek, Kushonlar davriga oid “Kohin haykali” (b-195), “O‘tirgan odam” (b-190), “Qorovulning oyoqlari” (b-197), “Qizil bosh” (b-1998), “Vazamir qallig‘ining boshi” (b-1998), “Vazamar toji” haykallari shular jumlasidan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid “Amudaryo boyligi xazinasi” topilmalari ahmoniylar davri haykaltaroshligi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradi. mazkur topilmalarda qadimgi O‘zbekiston haykaltaroshligiga oid bezakli buyumlar va haykaltaroshlik asarlari mavjud. “Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko‘za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan aravacha va qurollar diqqatga sazavorlir” [1, 44]. Oltin arava, Jangchi-sak, Oltin bilakuzuk kabi tasvirlar ishlanishi jihatidan bir qadar shartli, ayrimla-

rida bezakli xususiyatga e'tibor berilishiga qaramay, haykaltaroshlikning ijodiy texnikasi ustunlik qiladi. Oltindan yasalgan bilak uzuk ayniqsa nafis va badiiy jihatdan puxta ishlangan. Taqinchoqda shoxdor tog' echkisiga o'xshash, biroq burgut tumshuqli afsonaviy obrazga xos tasvir mohirona aks ettirilgan. Axmoniylar san'ati va madaniyati ta'sirida bo'lgan Dingilja (Xorazm) shahar qoldiqlaridan ham bo'rtma haykaltaroshlik an'analari asosida bajarilgan yodgorliklar topilgan. "Bu yerda Suzadagi Axmoniylar manzilgohidan topilgan kamonchi tasviri, o'yib ishlangan bronza uzuk-muhr ko'rinishidagi hokimiyat ramzlari, axmoniylar uchun tipik bo'kirayotgan arslon tasviri ishlangan muhr topildi" [3, 31].

O'zbekiston hududida qadimgi haykaltaroshlikning rivojlanish cho'qqisi yunon istilosi (Aleksandr Makedonskiy va undan keyingi hukumdorlar davri) dan keyin mamlakatda ellinistik san'at va madaniyatning tarkib topishi davriga to'g'ri keladi. "O'zbekiston hududining janubiy sarhadlarida, ya'ni Sug'diyona hamda Baqtriya, Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng vujudga kelgan, salavkiylar (er.av. 306y.) keyinroq ulardan ajralgan grek-baqtriya (en.av. 250 y.) va nihoyat, eramizning boshlarida tashkil topgan Kushon davlatlarida mazkur madaniyat ta'siri yaqqol seziladi" [4, 5]. Janubiy O'zbekiston hududida ellinistik madaniyatning vujudga kelishidan tortib toki, milodiy IV asrlarga qadar bo'lgan vaqtlarda haykaltaroshlikda ijodiy faollik kuzatiladi. Mazkur davrlarda ijod qilingan namunalarda antik-yunon san'ati an'analari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu hol o'sha davrda zarb etilgan tangalardagi bo'rtma tasvirlarda ham namoyon bo'ladi. Tangalar yuzasidagi bo'rtma tasvirlarda aks etgan hukumdorlar qiyofasi buning yorqin misolidir. "Tangalardagi hukumdor portretlari ham individualdir... Reallik, obrazning haqqoniyligi, ruhiy to'laqonlik rim haykaltaroshligidagi portretni vujudga keltirgan. Mazkur tangalar bizga gohida ruhiyat xususiyatlari, gohida qo'pol, biroq doimo yorqin individual portret galereyasini namoyon etadi" [4, 6]. Bu kabi tangalarning aksariyat qismi salavkiylar hamda grek-baqtriya davriga oid. Tangalarning old tomonida davr hukumdorlari – Yevtidem, Demetriy, Yevkradit, shuningdek, ikkinchi tomonida esa afsonaviy obrazlar – Zevs, Appolon, Dionis, Gerakl, Poseydon qiyofalari tasvirlangan.

Yuqorida ta'kidlangan qadimgi davrga mansub haykaltaroshlik namunalari O'zbekistonda tasviriy san'atning bu turi uzoq o'tmishda ijodiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishganligidan dalolat beradi. O'tmish haykaltaroshligimiz boy badiiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lib, bizgacha saqlanib qolgan namunalarning o'ziyoq, qadimda ajdodlarimiz bu borada katta ijodiy tajribaga ega bo'lganligini anglatadi. Shuningdek, hozirgi kunda milliy maqomi yuksalib borayotgan zamonaviy haykaltaroshligimizni mustahkam ildizi hisoblanib, zamondosh ijodkorlarimiz uchun milliy maktab vazifasini o'taydi.

## Adabiyotlar

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 1-jild. – T., 1986.
2. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – T.: "Fan", 1964.
3. Hidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. – Toshkent: "O`qituvchi", 1992.
4. Gretsiya – O`zbekiston. Qadimiy madaniy aloqalar. Ko`rgazma katalogi. – Toshkent: "San'at" журнали нашриёти, 2001.



**Hakimjon RIZAYEV**
Namangan davlat universiteti
tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
kafedrasi dotsenti

## TALABALARNI OCHIQ HAVODA MANZARA ISHLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Maqola tasviriy san’atning rangtasvir darslarida, ochiq havo (plener) amaliyotida yoshlarga tabiat manzarasini tasvirlashga o‘rgatish metodikasiga bag‘shlangan. Unda tasviriy san’at qonuniyatlari va etyud ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *tasviriy san’at, manzara janri, akvarel, kompozitsiya, perspektiva, plener, nisbat, rang, etyud.*

*Статья посвящается методике обучения молодых, изображению ландшафта природы на уроках живописи изобразительного искусства, в практике под открытым небом (пленэр). В ней даны методические советы по работе с этюдом и о закономерностях изобразительного искусства.*

***Опорные понятия:*** *изобразительное искусство, пейзаж, акварель, композиция, перспектива, пленэр, пропорция, цвет, этюд.*

*The article is devoted to the method of teaching young people to depict the landscape of nature in painting lessons of fine arts, in open-air practice (plain air). The methodological advice on working with the sketch and on the legacy of fine art.*

***Supporting concepts:*** *fine arts, landscape, watercolor, composition, perspective, open-air, proportion, color, etude.*

So‘nggi yillarda respublikamizning barcha sohalarida tub o‘zgarishar, chuqur islohatlar olib borilayotgani ma’lum. Ayniqsa, ta’lim tizimida ham yangi zamon talablariga mos, jahon tajribalari bilan raqobatbardosh ilmiy-ijodiy salohiyatni chuqurlashtirish kabi dolzarb masalalar pedagoglar zimmasiga katta mas’uliyat yuklamoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlar hududlarda bu jarayonni barqaror rivojlantirish borasida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta’lim tizimidagi Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishlarida talabalarni mutaxassislik fanlarini o‘qitish sifatini oshirish ham ayni paytda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada ushbu ta’lim yo‘nalishidagi ixtisoslik fanlarni auditoriyadan tashqari dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish ham muhim masalalardan biri sanaladi. Talabalarni ochiq havoda rasm chizish ko‘nikmasini o‘stirish bo‘yicha yetarlicha imkoniyatlarga egamiz. Bu borada mamlakatimizdagi Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shaxrisabz, Qo‘qon kabi tarixiy shaharlarimizda ko‘hna me’morlik obidalarining borligi bizlarni quvontiradi. Chunki, oliy ta’limda 5110800 — Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan 2-4-6-semestrlarda malaka amaliyoti, ya’ni ochiq havoda rasm chizish (plener) amaliyoti berilgan bo‘lib, auditoriyada Qalamtasvir, Rangtasvir, Rangtasvir va kompozitsiya, Perspektiva, Akademik qalamtasvir asoslari, Dastgohli akademik rangtasvir va kompozitsiya kabi fanlarni auditoriyada o‘tirgan vaqtda, qo‘yilgan natyurmort yoki portretni ishlash jarayonida tasvirlash ko‘nikmalarini ya’ni – joylashtirish, qurish, nisbatlarini aniqlash, buyum tusini aniqlash, rangtasvirda esa rang munosabatlarini, issiq va sovuqligini aniqlashni, aynan borliqdan o‘rganadilar. Shu ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash hamda talabalarni erkin ishlay bilishlari uchun ochiq havoga olib chiqish muhim o‘rin tutadi.

Ona tabiatmizning rang-barang va go‘zalligi, quyosh nuri atrof-muhit bilan uyg‘unlashib betakror bo‘yoqlar uyg‘unligini tashkil etadi. Tabiat manzaralari va rangtasvir asarlari bilan tanishib borish kishi ruhiyatini mustahkamlab, ichki dunyosini boyitadi. Ayni paytda, tabiat go‘zalligini aks ettiruvchi manzara asarlari insonlarda vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb eta-

di. Taniqli rus pedagogi K.D. Ushinskiy go‘zal landshaftning yoshlar qalbiga tarbiyaviy ta’sir kuchi bilan hech qanday pedagogika tenglasha olmaydi – deb ta’kidlagan ekan [1].

Tabiatni o‘rganish, rassom mahoratini oshirish, bir-biriga chambarchas bog‘liq jarayonlardir. Manzara ustida ijod qilish mahorati rassomni tabiat ko‘rkidan olgan taassurotlariga bog‘liq bo‘lib, bu holni rassom borliqda ishlash jarayonida oladi, faqatgina tabiat bilan muloqot natijasidagina ilhom kelishi va manzara kompozitsiyasi pishib yetilishi mumkin. Mohir rus rassomi A.A. Plastov ta’kidiga ko‘ra: “Etyudlar ustida ishlash – eng oliy mahorat maktabidir” [2]. Shu bois, manzara janri, manzara etyudlari ustida ishlash pedagog rassom tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Uyg‘onish davrining mashhur olimi, me’mor va san’at nazariyotchisi Leon Battista Alberti o‘zining “Arxitektura haqida o‘n kitob” deb nomlangan risolasida yozadi: “Tasviriy san’atga endi kirib kelgan yoshlarga mening o‘gitim shundan iborat: chizishni o‘rganayotganlar yozishni o‘rganuvchilar bosib o‘tgan yo‘ldan yurishlari darkor. Ya’ni, ular har bir harf shaklini (qadimgilar tilida buni elementlar deb yuritiladi) bittama – bitta yozishga o‘rganishadi, keyin bo‘g‘in chiqarishadi, va nihoyat ulardan so‘z tuzishni o‘rganishadi. Musavvirlikda xuddi shunaqa” [3].



Rangtasvir ishlashda amal qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan biri – “Havo perspektivasi”dir. Havo – insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan gazsimon modda bo‘lsa-da, rangtasvir ishlash jarayonida o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi. Havo tarkibida chang, har xil bug‘lar, zarrachalar bo‘lganligi sababli, uzoqda joylashgan narsalarni idrok etishda havo qatlami jiddiy to‘sqinlik qiladi. Masalan: kuzatuvchiga nisbatan narsalarning uzoqlashib borishi natijasida biz ularni och havo rang tusiga o‘ralgan holda ko‘ramiz. Chunki, yaqindagi narsaning rangiga havo qatlami kam ta’sir etganligi sababli ularning ranglari tiniqroq, uzoqdagi narsalarning ranglari esa xiraroq, bo‘g‘iqroq, havorang aralash ko‘rinishda bo‘ladi. Bunda kuzatuvchiga nisbatan uzoqlashib borayotgan borliq tobora och havo rang ko‘rinishiga ega bo‘lgan havo qatlami bilan yupqa tarzda o‘ralib boraveradi. Bu xususiyatni biz Rahim Axmedovning “Tong. Onalik” asarida yaqol ko‘rishimiz mumkin [4].

Ochiq havoda borliqdan chizish jarayonini tashkil etuvchi omillarni belgilab olamiz. Bu: 1) tasvir obyekti (borliq), 2) tasviriy material, 3) muhit. Oxirgisi ancha e’tiborli. Bunda biz nafaqat borliqni qurshab turgan havo yorug‘ligi ranglarini nazarda tutmoqdamiz; amaliyot o‘tkazilayotgan sharoitning holati ham kattadir. Ya’ni muhitdagi rangni belgilash yo‘lida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkablik – bu idrokning o‘zgarmasligidir. Bir tomondan, kuzatiliyotgan muhitdagi ranglar o‘zgaruvchan bo‘lishi zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan, etyud bajarish uchun motiv yoki borliq postanovkasining holatida ranglar o‘zgarmasligi zarur. Bu ziddiyat yechimi borliqdan etyud bajarish paytida borliqdagi detalning shakl va rangidagi o‘ziga xosligini tez payqab olish qobiliyati evaziga topiladi, ya’ni qisqa muddatli (15-30 daqiqa) etyudlar bajarish uchun kerak bo‘lgan ko‘rish qobiliyati evaziga hamda bunday paytlarda inson tabiatdagi rangning ma’lum bir holatinigina emas, balki bir holatdan ikkinchisiga o‘tish jarayonini ham kuzatishini unutmaslik kerak [5].

O‘quv vazifalarni rejalashtirishda maqsadni aniqlashtirib olish muhimdir. Bu o‘rinda talabaning qobiliyati, etyud formati, bajarish usuli va ishlash vaqtini hisobga olish alohida o‘rin tutadi. Etyud bajarish odatda umumiy tarzda rejalashtirilib, unda, asosan, uch xil mashiq bajarish hisobga olinadi; a) qalamtasvir bo‘yicha, b) rangtasvir bo‘yicha, d) kompozitsiya bo‘yicha sharoitga qarab kompozitsion yechimning ketma-ketligi, shakl qurishning chiziqli-konstruktiv xossasi, etyudning ton va rang munosabatlari aniqlanadi. Ton va rang munosabatlarini yaxlit tarzda qabul qilish uchun ko‘zni “to‘g‘ri qo‘yishni” o‘rganish zarur. Bu yangi o‘rganayotgan talaba uchun juda muhimdir.

Muhit va yoritish sharoitining ta’siri ostida predmet rangining issiq-sovuqligi, ranglar tonidagi ikki xillik ko‘zga tashlanadi, borliqning ranglar nisbatini bir qarashda aniqlash mumkin, ammo, ko‘z o‘rganib qolishi va idrok barqarorlashgani sari o‘zgarganday tuyuladi. Shu bois, shaklning geometrik ko‘ri-

nishini, uning chiziqli-konstruktiv tuzilishini tahlil qilishga tushmasdan, avvalroq politradan rangni tanlab ulgurishi maqsadga muvofiq. Borliqdan olingan birinchi taassurotni albatta yodda saqlab qolish lozim. Va bu amalda rangtasvir rangini idrok etishning asosiy sharti borliqqa nazar solish shartligini eslatish kerak, ya'ni borliq doimo bir xil, o'zgarmas bo'lmasligini hisobga olish lozim. Borliqdan rangtasvir ishlashda atrof-muhitni hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Auditoriyadagi sharoit bilan borliqdagi sharoitlar butunlay boshqa-boshqa. Bunda jismoniy, ruhiy va ijtimoiy faktorlar mavjudki, bu rasm chizayotganda ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shuning uchun ham talabalar gavjum joydan ovloqroq joylarda rasm ishlash maqsadga muvofiqdir.

Ochiq havo (plener)da o'tkaziladigan amaliyotda talabalarning kasbiy pedagogik ko'nikmalarini shakllantirish, ularga tasviriy san'at asarlarini o'rgatish, topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun talabalarga namunali asarlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalar tomonidan avval bajarilgan ijodiy ishlar doimo qiziqish uyg'otadi. Talaba tashabbuskorlik, intiluvchanlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o'zida chuqur shakllanishiga urinishi zarur. Bu narsa bo'lg'usi pedagog-rassom uchun ayniqsa, muhim bo'lgan kasbiy talab hisoblanadi. Tashabbuskorlik va ijodkorlik murakkab intellektual-ruhiy xislatlardan hisoblanadi. Uni buyruq bilan yoki shunchaki ustoz tavsiyasi bilan shakllantirib bo'lmaydi. Talaba o'z ustida mustaqil ishlashga ko'p vaqt ajratib, kerakli bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda rivojlantirib borishga ahamiyat berishi zarur.

Tabiat qo'ynida jamoa bo'lib rangtasvir bilan shug'ullanish odatda qizg'in ijodiy muhitida kechadi. O'qish jarayonida talabalar ikki xil sharoitda borliq bilan ishlashadi, ya'ni borliqdan rasm chizishadi: auditoriyada va ochiq havoda. O'quv xonasida o'quv qo'yilma atigi bir necha metrni tashkil etsa, tabiatda o'nlab, hatto yuzlab uzoq masofani tashkil etadi. Masalan: "Natyumort" chizish joyidan ikki-uch metr masofa uzoqlikda bo'ladi, xolos. Bunday sharoitda talaba old plan bilan orqa planni ranglar nuqtasi nazaridan farqini aniq belgilab olishi birmuncha qiyin kechadi. Natijada, talabalar ishlagan suratlarda oldingi va orqa plan ko'pincha bir xil, detallashtirilgan holda ko'rinaveradi. Ochiq havoda esa ko'pchilik talabalar birinchi plan tasvirini me'yoriga yetkazmaganliklari ko'zga tashlanadi. Shu bois, ham, ochiq havoda ishlash jarayonida borliq joylashgan muhitni rang-barang bo'lishiga harakat qilish kerak va sharoitni tez-tez o'zgartirib turish zarur. Bu, o'z navbatida, tabiatning bo'yoqlari xilma-xilligi haqidagi tasavvurni kengaytiradi. Talabalar ochiq havoda mustaqil ish uchun joy tanlaganda bir xillikdan kechishga harakat qilishlari zarur. Taassurotlarning yangilanib turishi yoshlarda tasviriy qobiliyatni muntazam rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, joyni tez-tez almashtirib, tongdan quyosh botgunga qadar har xil vaqtida bir safar qishloqda bo'lsa, boshqa mahal manzarali dam olish maskanlariga borib, tarixiy, madaniy yodgorliklar rasmini chizish tavsiya etiladi. Chunki yurtimizda tarixiy shaharlar: Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Qo'qon kabi shaharlarda tarixiy binolarimizni o'rganish, ularni tasvirlash bilan birgalikda shahar va qishloq ko'chalarini bugungi kunda rivojlanib, yangilanib chiroy ochib borayotgani mo'yqalam ustalarini ijodga undaydi. Talaba yoshlar vatanni sevishga, madaniy-tarixiy merosimizni asrab-avaylashga o'rgatish, jannatmakon yurtimizni tasviriy san'at asarlari orqali keng yoritishga o'rgatish pedagog musavvirlarning sharafli burchidir.

## Adabiyotlar

1. Ушинский К. Д. Избранные педагогические произведения. – М., 1968. – С. 338.
2. Мастера советского искусства о пейзаже. – М., 1963. – С.96.
3. Алберти Леон Баттиста. Десят книг об архитектуре. – М.,1937. – С. 58.
4. Egamov H. Rangtasvir. – T., 2005. – B. 14.
5. Маслов Н.Я. Пленер. – М.,1984. – С. 42.

# JISMONIY MADANIYAT VA SPORT



**Laziz AZIMOV**
Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat
nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o'qtuvchisi



**Abduhamid NURULLAYEV**
Buxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport
kafedrasi o'qituvchisi

## DZYUDOCHILARNING TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

*Maqolada yuqori malakali kurashchilarning musobaqa faoliyati ishonchliligini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Musobaqa kurashlarida qo'llaniladigan kurashchilar texnik taktik harakatlarini takomillashtirishning turli uslublari taklif qilingan. Maqola kurashning har xil turlari bo'yicha yuqori malakali sportchilar bilan ishlaydigan murabbiylar uchun mo'ljallangan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *musobaqa faolyati, texnika, taktika, sport mashg`ulotlari, jismoniy qobiliyat, dzyudo.*

*В статье рассматриваются вопросы совершенствования надежности соревновательной деятельности высококвалифицированных борцов. Передложены различные методы совершенствования технико-тактических действий борцов, используемых в соревновательных поединках. Статья переднaзначена для тренеров, работающих с высококвалифицированными спортсменами по различным видам борьбы.*

***Опорные понятия:*** *соревновательная деятельность, техника, тактика, тренировичное занятие, физические качества, дзюдо.*

*In article is considered the issues of improving the reliability of competitive activities of highly qualified wrestlers. Various methods are presented for improving the technical and tactical actions of wrestlers, which used in competitive fights. The article is intended for coaches working with highly skilled athletes on various types of wrestling.*

***Supporting concepts:*** *competitive activity, technique, tactics, training, physical qualities, judo.*

Musobaqa faolyatini boshqarish kelgusi musobaqa bellashuvlar rejasini ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirishni nazorat qilishni o`z ichiga oladi. Kelgusi musobaqa bellashuvi rejasini ishlab chiqishda raqib ustidan g`alaba qozonish maqsadida eng samarali taktik harakatlarni aniqlash uchun murabbiy raqib haqida ma'lumotga ega bo`lishi kerak. Musobaqa faolyatini nazorati va uning kelgusi tahlili u yoki bu sportchini tayyorlashda uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu ma'lum mashg`ulotlar jarayoniga tuzatishlar kiritish uchun muhim hisoblanadi. Sport texnikasini o`rganish usullarini kinematik va dinamik harakatlar xususiyatlarini qayd etishda harakat unsurlarini tahliliy tarzda ajratish imkonini beruvchi turli xil usullarni o`z ichiga oladi.

Agar sportchi tayyorgarligining maqsadi uning jahon va Osiyo chempionati kabi yirik musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishi bo`lsa, texnik va taktik tayyorgarlik ko`rsatkichlarini aniqlashda ushbu musobaqalardagi bellashuvlar bayonnomalarini tahlil qilish hamda asosiy e'tiborni yuqori malakali kurashchilar bilan bo`lgan bellashuvlarga qaratish lozim. Shunday qilib, ta'kidlash joizki, sport

tayyorgarlik dasturining maqsadli vazifalari baholanayotgan ko`rsatkichlarning xususiyatlari va darajasini belgilaydi.

So`nggi paytda sport kurashi amalyotida va adabiyotlarda "texnik va taktik mahorat" atamasi keng qo`llanilmoqda. Sport kurashi texnikasi deganda tor ma'noda kurashchiga g`alaba keltiruvchi harakatlarni bajarishni eng oqilona usullari tushuniladi. Bunda texnika asosini biomexanik va fiziologik qonunyatlarga tayangan va individual xususiyatlardan qat'i nazar, barcha kurashchilarga xos bo`lgan harakatlar tashkil qilinadi.

Sportda taktika deganda yuqori sport natijalariga erishish va raqib ustidan g`alaba qozonish shakllari va usullari majmui tushuniladi.

Taktika quyidagi omillar majmuidan vujudga keladi: o`z tayyorgarligining kuchli tomonlari va raqibning kamchiliklari hamda texnikani egallashning individual xususiyatlaridan foydalanish, raqibni chalg`ituvchi harakatlar bilan adashtirish, bellashuvda qulay fursat tug`ilgan paytda foyda keltiruvchi usullardan foydalanish, kuchni tejamkorlik bilan sarflash mahorati, qoidalarda belgilangan imkoniyatlar, gilam maydoni, o`zining morfologik va fiziologik xususiyatlaridan puxta foydalanish va boshqalar [3,4,5].

Yakkakurash turlarida, ayniqsa, sport kurashida texnika va taktika bir-biriga shunday chambarchas bog`langanki, ba'zi mutaxassislarning kurashchi harakatlarini tabaqalashtirilgan tarzda ko`rib chiqilayotganda, ularning qanday harakatlar texnik, qanday harakatlar esa taktik harakatlar ekanligi borasida qarashlar bir-biriga zid kelib qoladi. Aslida esa ular dialektik birlikni tashkil etadi [1,2,5].

Sport kurashi rivojlanishining ilk davrlarida kurashchilar tomonidan qo`llaniladigan texnikaga bog`liq holda texnik va taktik harakatlarni belgilovchi qoidalar yaratilgan. Shu tarzda kurashning yangi turlari vujudga kelgan. Keyinchalik esa kurashning har bir turi uchun qoidalar o`zgartirilgan. Ularning yordamida ba'zi harakatlarni cheklash, ba'zi harakatlarni esa rag`batlatirishga harakat qilishgan. Qo`llanilayotgan texnik va taktik harakatlarning hajmi va sifatiga bog`liq holda qoidalarni shunday o`zgartirishga harakat qilishganki, natijada kurashning ma'lum bir turiga ta'sir qilish, ularni sport va tomoshabop xususiyatlarini yaxshilash imkoni paydo bo`lishi lozim bo`lgan.

Yuksak mahoratli dzyudochilar o`zgarayotgan qoidalarga bog`liq holda texnik va taktik harakatlardan doimo oqilona foydalana oladilar. Yangi qoidalar yetakchi dzyudochilarning mahoratiga qanday ta'sir ko`rsatishini taxmin qilish mumkin: ularning, asosan, hujum harakatlari, samarali usullar, real himoyalanish va qarshi hujum harakatlarini qo`llash qobilyati o`sib boradi.

Yuksak mahoratli sport ustalarini tayyorlash tizimi bajarilayotgan texnik va taktik harakatlar dzyudochining individual xususiyatlariga to`liq mos kelishini talab qiladi. Texnik va taktik harakatlarning tuzilishi ularning morfologik belgilari, jismoniy rivojlanishi, funksional xususiyatlari, ruhan tayyorligiga muvofiq bo`lishi lozim.

Sport morfologyasi sohasida o`tkazilgan ilmiy tadqiqot shuni aniqladiki, ma'lum bir o`lcham va tana proporsiyasiga ega bo`lgan dzyudochilar ba'zi usullarni muvaffaqiyatliroq qo`llay olishadi. Masalan: bilak qanchalik uzun bo`lsa, bukuvchi muskullar va rostlovchi muskullarning nisbiy kuchi shunchalik kam bo`ladi. Son va oyoq qanchalik uzun bo`lsa, sonning bukuvchi va rostlovchi muskullari mutlaq kuchi shunchalik ko`p, nisbiy kuchi esa shunchalik kam bo`ladi. Shu munosabat bilan ko`tarishlarni bajarish qo`l-oyoqlari kalta bo`lgan dzyudochilar uchun osonroq bo`lish ehtimoldan holi emas, chunki bu holda ish samaradorligi nisbiy kuch o`lchamiga bog`liq bo`ladi. Uzun qo`l-oyoqlarga ega bo`lgan dzyudochilar esa raqibni gilamdan ajratmasdan turib bajariladigan harakatlar bilan bog`liq usullarni noto`g`ri muvozanat sharoitidan (qulay dinamik vaziyatdan) foydalangan holda qo`llash osonroq bo`ladi. Bundan tashqari, uzun qo`l-oyoqlar yo`l va tezlikdan yurish imkonini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, texnik va taktik imkonyatlar kuch ishlatiladigan tayyorgarliklarning individual xususiyatlariga ham bog`liq. Shunday qilib, raqibni gilamdan ajratish bilan bog`liq texnik harakatlarni belning rostlovchi muskullari yaxshi rivojlangan va nisbatan uzun bo`yli dzyudochilar bajara oladilar. Shu paytgacha yuqori malakali dzyudochi ega bo`lishi lozim bo`lgan texnik va taktik hujum harakatlari minimumi to`g`risida yakdil fikrlar mavjud emas. Shunday davrlar ham bo`lganki, unda mashhur dzyudochilar o`zlarining bitta "shoh usullari"ga ega bo`lib, undan muvaffaqiyatli foydalanishgan. Biroq bunday taktika takomillashishida va turli xil taktik harakatlar bilan boyishda davom etgan. "Shoh usul"ni turli dastlabki (boshlang`ich) holatlardan turib turli tutib olish usullari, undan so`ng esa taktik tayyorgarlikning turli usullari bilan birgalikda qo`llashni boshlashgan. Ba'zi dzyudochilar doimo bitta

"shoh usul" bilan yakunlanuvchi taktik harakatlarning 30 ga yaqin usullarini ishlab chiqishar edi. Shu bilan bir vaqtda, hujumni muvaffaqiyatli yakunlashi bir necha variantlarini egallagan mashhur dzyudochilar ham yetishib chiqa boshlagan. Bunday dzyudochilar musobaqalarda, odatda, eng yaxshi texnika uchun beriladigan sovrinlar bilan mukofotlanganlar. Biroq yirik musobaqalardagi raqobatning o`sishi yuksak mahoratli dzyudochilar texnik va taktik harakatlar qatorida o`zlarining "shoh usul"larini saqlab qolgan holda taktik imkonyatlarini kengaytirib borishga imkon yaratdi.

Zamonaviy dzyudo texnikasi bo`yicha o`tkazilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, mahoratli kurashchilar bir musobaqa davomida turli xil texnik va taktik hujum harakatlarining 16-20 variantini qo`llamoqdalar. Bundan tashqari, eng kuchli dzyudochilar yetarli darajada samarali va ishonchli tarzda hujumga o`tmoqdalar. Hujum taktik jihatdan puxta tayyorlangandagina, ular maksimal kuch va tezlikdan foydalanmoqdalar.

Katta kuchni talab qilmaydigan taktik harakatni qo`llagan holda ular kuchni tejab, ish qobilyatini bellashuv so`ngiga qadar saqlab qolmoqdalar. Hakamlar hujum harakatlarini 50 % ini ustunlik deb baholaydilar. Eng muhim taktik harakatlar bu aldamchi harakatlar yordamida ro`y beradigan hujum xavfidir. Haqiqiy hujum harakatlarining aldamchi harakatlarga nisbatan 1:2 bo`lishi 0,5 koeffitsentli hujum ehtimolini beradi. Bunday ehtimolni raqib qiyinroq anglay oladi va unga haqiqiy hujumga qarshi himoyalanish qiyin kechadi.

Sport amaliyoti texnik va taktik harakatlarning hujum, himoya va qarshi hujum tuzilmalarini ishlab chiqdi. Yirik musobaqalarning 400 ga yaqin turi qayd etilgan. Dzyudo rivojining zamonaviy darajasi dzyudochining barcha texnik va taktik harakatlarini egallashi, ularni qo`llay olishi va maqsadga muvofiq tarzda mujassamlashtirishini talab qiladi. Biroq texnik va taktik hujum harakatlari sport kurashining tabiati bilan bog`liq bo`lganligi tufayli asosiy harakatlar sifatida harakat qilinadi.

Hujum taktikasi g`alabaga olib boruvchi yo`l hisoblanadi. Chunki u eng yirik musobaqalardagi hakamlikning zamonaviy qoidalari va uslubiga ko`proq mos keladi. Jahonning eng yaxshi dzyudochilari bu yorqin ifodalangan hujum uslubiga ega sportchilardir.

Hujum taktikasi dzyudochidan yuqori faollikni talab qiladi, ammo buning uchun a'lo funksional va ruhiy tayyorgarlik, kombinatsion uslubdagi texnik va taktik harakatlarning turli variantlarini qo`llash mahorati, uzluksiz aldamchi va hujum harakatlarining almashinuvi bilan birga onda-sonda shiddatli va tajovuzkor hujumlarni uyushtirish qobilyati talab qilinadi.

Texnik va taktik harakatlarni sust o`zlashtirgan dzyudochilar, odatda, raqibining qarshiligini yengib o`tishga mo`ljallangan foydasiz, samarasiz usullarni bajaradilar. Bunday harakatlar hujum qiluvchida kuch ustunligi bo`lgan taqdirdagina muvaffaqiyat keltiradi.

Ko`pincha yuksak mahoratli dzyudochilarning tuzilishini "biomexanik namuna"ga yaqinlashtiruvchi oqilona texnik va taktik harakatlarni qo`llagan holda ozlaridan jismonan kuchliroq raqibni ham yengishadi. Ichki va tashqi kuchlar to`g`ri mujassamlashganda va ishga solinganda, texnik va taktik hujum harakatlarining kuch yoki vaqt bo`yicha yutishni ta'minlovchi tuzilishi shakllanadi.

Dzyudochilarning hujum harakatlari tuzilishini tahlil qilish shuni ko`rsatadiki, raqibni tanasining turli o`qlari bo`yicha sakkiz yo`nalishda 90-270 $^{O}$ burchak ostida beli bilan pastga ag`darilish uchun juft kuch chaqiruvchi harakat mexanizimi mavjuddir. Hamlali hujumda juft kuch ikki faol harakat bilan yaratilishi va bu harakatlar turli tomonlarga yo`naltirilgan hamda tana og`irligini umumiy markazdan yuqori va pastda ishlatilishi zarur bo`ladi. Buning natijasida raqibning tanasi bir onli aylanish markazlari atrofida aylanadi. Ag`darish va aylanish bilan bog`liq hujumlarda juft kuch bir faol va tayanch reaksiyasi va ishqalanish kuchi bilan paydo qilinadigan bir sust kuch yordamida hosil qilinadi, raqibning tanasi esa u gilamga tegib turgan nuqtalarida joylashgan o`qlar atrofida ag`dariladi.

Kuchlarning joyi va yo`nalishi katta ahamyatga ega (raqib tanasining yuqori qismidan ushlab olish va tutib turish uning pastgi qismidan urib yiqitish). Bu joylar aylanish o`qidan uzoqroqda bo`lishi va aylanayotgan tanaga nisbatan to`g`ri burchak ostida hamda urilma bo`ylab joylashgan bo`lishi zarur. Parterdagi aylanma harakatlarni kamroq enersiya momentiga ega bo`lgan bo`ylama o`qlar atrofida bajarish maqsadga muvofiqdir. Hujum harakatlarini ishlab chiqishda elementar harakatlar orasida shunday bog`lamlarni yaratish kerakki, ularda maksimal amplitudali berilgan kuchanish va harakatlar ajralib turishi kerak (biomexanik namuna). Hujum harakatlarida qo`llanilayotgan tuzilishning amaliy jihatdan maqsadga muvofiqligi hujumga uchragan raqib tanasi aylanish tezligi bilan belgilanadi.

Hujum harakatining oqilona tuzilishini egallash va takomillashtirish uchun hali yuksak sport mahoratini ta'minlamaydi. Bu tuzilishlarni ko`pincha turish holatida bo`lgan va ma'lum darajadagi turg`unlikka ega bo`lgan raqib bilan bellashuvda qo`llay olish zarur. Bundan tashqari, kurash jarayonida ko`p hollarda raqib harakatda bo`ladi. U vaqti-vaqti bilan (turli darajadagi turg`unlik holatida bo`lgan holda) muvozanatini yo`qotadi va qayta tiklaydi, hujum qilayotgan kurashchini muvozanat holatidan chiqarish va uning harakatlarini ta'sirsizlantirishga intiladi. Hujum qilayotgan dzyudochi u yoki bu usulni qo`llayotgan holda raqibining faol qarshiligiga uchraydi. Raqib muskullarini zo`riqtirgan va tana holatini o`zgartirgan holda hujum yo`nalishiga o`tib bo`lmas turg`unlik yo`nalishini yaratadi. Bir-birini tutib turish holatida bu dzyudochilar ko`pincha bir-birlariga tayanishadi hamda umumiy og`irlik markaziga ega bo`lgan ikki tanali murakkab tizimni yaratishadi. O`z va raqibi tanasining turg`unlik darajasini hisobga olmaydigan kurashchi tomonidan bajarilgan harakatlar har doim ham usuldan muvaffaqiyatli foydalanishni ta'minlamaydi. Raqibning katta turg`unilk burchagi bilan bir yo`nalishda bo`lgan usullarni qo`llash maqsadga muvofiq emas. Usulni raqib tanasining eng kichik turg`unlik burchagiga yo`naltirib bajarish lozim. Raqibning turg`unlik darajasi amaliy jihatdan uning oyoqlari va gavdasi holatiga qarab belgilanadi. Biroq kurash vaqtida raqib o`z oyoqlari va gavdasining tez-tez va tezlik bilan o`zgartirib turadi. U yoki bu usulni bajarish uchun qulay bo`lgan holatlarni raqib juda qisqa lahzalar davomida egallab turadi. Aynan ushbu lahzalardan foydalanishga to`g`ri keladi. Hujum qilayotgan kurashchi oldida ikki tana (hujumga uchrovchi-hujum qiluvchi) tizimi harakatining shunday lahzalarini tanlash vazifasi turadiki, natijada usulning ma'lum tuzilishini (asosini) bajarish va uni bajarishga ulgurish qulay bo`lishi kerak.

Shunday qilib, usul tuzilishining ma'lum asosini qo`llash vaqt omili bilan chambarchas bog`liq bo`ladi. Usul shunday lahzada va shunday yo`nalishda bajarilishi kerakki, ikkala kurashchining tanasi ham ag`darish uchun qulay holatda bo`lishi kerak. Dzyudochilarning bunday holati qulay dinamik vaziyat deb ataladi. Bellashuv vaqtida texnik harakatlarning turli xil tuzilishi uchun bunday vaziyatlar ko`p yuzaga keladi.

Qulay dinamik vaziyatlarda texnik va taktik harakatlarning oqilona tuzilishini ("biomexanik namuna"ga) qo`llash qobilyati yuksak mahoratli dzyudochilarga xosdir.

Yuksak mahoratli dzyudochilar kurashida turg`unlikni ustalik bilan saqlay olishadi, shuning uchun ham bunday raqibga nisbatan usulni bajarish uchun qulay dinamik vaziyat lahzasini payqash qiyin kechadi. Ular yo`qotilgan vaziyatni tezlik bilan tiklay olishadi va noto`g`ri hollarga o`z tashabbusi bilan faqatgina ikki holda – o`z hujumini boshlayotganda turish holatidan biror usulni bajarish holatiga ketayotgan paytda, shuningdek, muvaffaqiyatsiz hujumdan so`ng boshlanish holatiga (turish holatiga) qaytayotgan paytda tushib qolishadi.

Raqibni qulay dinamik vaziyat lahzasida tutib olish uchun unga hujum qilishga imkonyat berish xavfli va maqsadga muvofiq emasdir. Raqibning o`ylangan usulni bajarish uchun qulay holatni egallashiga umid bog`lash ham to`g`ri kelmaydi. Ayniqsa, tajribali kurashchining xato harakatni amalga oshirishi va turg`unlikni yo`qotishini kutishdan umidini uzsa ham bo`laveradi. Binobarin, turish holati va parterdagi kurash vaqtida yuqori mahoratli dzyudochi o`zining texnik va taktik harakatlari bilan qulay dinamik vaziyat lahzasini tayyorlay bilishi kerak.

## Adabiyotlar

1. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – T.: "Zarqalam", 2004.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – T.: O`zDJTI, 2001.
3. Миндиашвили Д.Г., Подливаев Б.А. Вольная борьба: история, события, люди. – М.: Советский спорт, 2007.
4. Raiko Petrov. Freestyie and Greco – roman wrestling Published by FILA, 1986.
5. Raiko Petrov. The ABC of Wrestling, Published by FILA, 1996.



**Abdullo INOYATOV**
Buxoro davlat universiteti jismoniy madaniyat nazariyasi
va uslubiyoti kafedrasi tayanch doktoranti

# KEKSA YOSHDAGILAR BILAN SOGʻLOMLASHTIUVCHI GIMNASTIKA MASHGʻULOTLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

*Maqolada keksa kishilarning funksional holati va ularni sogʻlomlashtiruvchi gimnastika mashgʻulotlarini tashkil etishning ahamiyati hamda oʻziga xos yoʻnalishdagi individual dasturlarni tuzish texnologiyasi xususida fikr yuritilgan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *sog`lomlashtirish, gimnastika, keksa, modda almashinuvi, jismoniy tayyorgarlik, kompleks.*

*В статье размышляется о создании технологий инновационных программ по организации занятий оздоровительной гимнастикой для лиц пожилого возраста.*

***Опорные понятия:*** *оздоровление, гимнастика, пожилой, обмен веществ, физическая подготовка, комплекс.*

*In article is reflected on the creation of technologies for innovative programs to organize recreational gymnastics for the elderly.*

***Supporting concepts:*** *health improvement, gymnastics, and the elderly, metabolism, and physical training, complex.*

Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 22 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda 2015-yilni mamlakatimizda “Keksalarni e’zozlash yili” deb e’lon qilishi ham inson va uning hayotiga boʻlgan gʻamxoʻrlik va e’tiborning amaldagi namunasi sifatida yurtimiz tarixi zarvaraqlarida muhrlanib qolishi shubhasiz.

2011-yil 30-mayda qabul qilingan “2011-2015-yillarda yolgʻiz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori shu maqsad yoʻlidagi xayrli ishlardan biridir. Mazkur qaror asosida yolgʻiz keksalar, pensioner va nogironlarning turmush darajasi va sifatini oshirish, ularni ijtimoiy ta’minlash, tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ishlari yanada takomillashtirildi.

Shu bois, gigiyenik gimnastika keksa yoshdagi kishilarni sogʻlomlashtirish va jismoniy tarbiyalashning vositasi, shuningdek, ularning kuchi, tetikligi va harakat faoliyatining bitmas-tuganmas manbaidir. Hozirgi davrda gimnastika sogʻayishni tezlashtirishi, kasallanishning oldini olishi, tetiklik va kuch-gʻayratga toʻldirishi, kishi sogʻligʻini saqlab, uning umrini uzaytirishi isbot talab qilmaydigan haqiqat boʻlib qoldi. Uzoq umr koʻrish uchun bir qator omillar: xalqning turmush sharoitining toʻxtovsiz oʻsib borishi, meditsina xizmatining yaxshilanishi, va, shuningdek, sogʻlomlashtirish-gigiyenik masalalarni hal qilish uchun jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa, gimnastika vositalaridan foydalanish muhim ta’sir koʻrsatadi. Gimnastikani qoʻllanishining samaraligi va maqsadga muvofiqligi uning metodik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Organizmga har tomonlama, tanlab ta’sir koʻrsatadigan mashqlarning turli-tumanligi shugʻullanuvchilarning yoshi va tayyorgarligidan qat’i nazar mashqlarni tanlash yuklamani aniqroq boshqarish imkonini beradi. Gimnastika mashgʻulotlarinig mazmuni va metodikasini tanlash uchun shugʻullanuvchilarning yosh xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Organizmning barcha organ va tizimlari keksayadi va u irsiyat, ijtimoiy muhit, moddiy-maishiy, shaxsiy xususiyatlarga hamda boshqa omillarga bogʻliq. Organizmning keksayishi tabiiy jarayondir. U psixikaning fiziologik funksiyalarning qayta tiklanishi va odam morfologiyasi va harakatlantiruvchi markazlarining oʻzgarishi bilan bogʻliq. Harakat funksiyalarining psixologik funksiyalarga nisbatan koʻproq zaiflanishi meditsinada isbotlangan. Biroq uzoq vaqt ruhiy jarohat bilan bogʻliq boʻlgan aqliy jarayonlar oʻrta,

ayniqsa, keksa hamda katta yoshda yurak va qon-tomir tizimlari (gipertoniya, infarkt miokard, arterioskleroz va boshqa) kasalliklariga olib keluvchi asosiy sabablardan biri bo‘lishi mumkin.

Fiziologik va patologik keksalik bir-biridan farq qiladi. Fiziologik keksalikda organizmning funksiyalari asta-sekin (to`lqinsimon) pasayib boradi, ammo ularning sifati ko‘p o‘zgarmaydi. Patologik keksalik turli keksaliklarga ko‘ra tuqimalarning turi, tuzilishigina o‘zgarmasdan, balki kimyoviy tuzilishi ham o‘zgaradi. Modda almashuvining buzilishi natijasida to`qimalar yemiriladi bu esa bir butun organizmning qarshilik ko‘rsatish faoliyatining pasayishiga olib keladi. Oliy nerv tizimning faoliyati ham o‘zgaradi. Bosh miya qobig`ining qo`zgaluvchanligi pasayadi, nerv jarayonlarining harakatchanligi va kuchi kamayadi, shartli reflekslarning hosil bo‘lishi va mustahkamlanishi yomonlashadi.

60–70 yoshda yurakning hajmi kattalashadi qon-tomir devorlarining o‘zgarishi natijasida qon oqish tezligi sekinlashadi. Bu esa o`z navbatida to‘qimalarning oziqlanishini. Shu bilan birga muntazam jismoniy mashq, sport bilan shug‘ullanuvchi katta yoshdagi kishilarda esa arterioskleroz jarayonlari sekinlashadi. Yosh ulg‘ayishi bilan muskullarning egiluvchanligi kamayadi, hajmi kichrayadi, 60–70 yoshlarda muskullarning og‘irligi tana og`irligining 20-25 %ini tashkil qiladi. Muskul to`qimasining tarkibi o‘zgarishi sababli uning qisqarish qobiliyati yomonlashadi, kuch, tezlik bardoshlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik ko‘rsatkichlari pasayadi.

Gigiyenik gimnastikani yakka holda, guruh bo‘lib o‘tkazish mumkin. Bu gimnastika bilan faqat ertalab emas, balki kun davomida ham (ovqatlangandan keyin 1,5-2 soat o‘tgach) yoki kechqurun (uxlashdan 1,5-2 soat ilgari) shug‘ullanish mumkin. Bolalar, o‘smirlar va o‘rta yoshdagi kishilar radio orqali eshittiriladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar kompleksini bajarishlari mumkin. Har xil sport turlari bilan muntazam shug‘ullanadigan kishilar uchun bu komplekslar yuklama bo‘yicha kamlik qilishi mumkin. Har kim ham ba’zi bir qoidalarni bilgani holda, o‘z shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, umumrivojlantiruvchi mashqlar kompleksini tuzib olsa bo‘ladi. Komplekslarni tuzishda quyidagi qoidalarga rioya qilishi lozim.

1. Mashqlar shug‘ullanuvchilarning yoshi va jismoniy tayyorgarligiga mos bo‘lishi kerak. Agar mashqlar juda murakkab bo‘lsa, ko‘ngildagidek bajarilmaydi va ularning samarasi ham yuqori bo‘lmaydi. Gigiyenik gimnastika xonani shamollatish, gigiyenik qoidalarga va kun tartibiga rioya qilish, badantarbiya (suv protsedurasi) singari hayotiy odatlarni tatbiq qilishga yordamlashadi. Ertalabki gigiyenik gimnastika juda katta ahamiyatga ega u organizmning passiv holatidan (uyqudan) odamning ish faoliyati uchun zarur bo‘lgan faol holatga o‘tishiga yordamlashadi.

Uyqu paytida bosh miya qobig‘ining nerv hujayralari dam oladi va ularning ish qobiliyati tiklanadi. Uyg‘ongandan keyin esa uyqu ta’sirida bo‘lgan organizm ishga tez kirishib keta olmaydi. Chunki asosiy tizim va organlarning funksiyasi sust holatda bo‘ladi. Ertalabki gimnastika odamning butun organ va tizimlarining ishga faol kirishishiga yordamlashadi. Katta yoshdagi kishilar nafas olish zo‘r keladigan, cho‘ziladigan, sakrash va tez-tez egilib turishni talab qiladigan mashqlarni bajarmasliklari lozim. Ular mashqlarning ta’sir qilish darajasi va har bir mashg‘ulotda mashqlar yuklamasi me’yori to‘g‘risida hakimdan maslahat, jismoniy tarbiya mutaxassislaridan esa mashqlarning xarakteri, ularning xususiyatlari va qo‘llanish metodikasi to‘g‘risida maslahat olishlari darkor!

2. Tanlab olingan mashqlar shug‘ullanuvchilarga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishi kerak Ularni tananing turli qismlari bilan har xil yo‘nalishda, tezligi va muskul zo‘r berishini o‘zgartirib bajarish lozim.

3. Kompleksga to‘g‘ri qomat holatini his qilish, har xil nafas olish (ko‘krak diafragma va aralash nafas olish)ga oid maxsus mashqlar kiritilishi zarur.

4. Kompleksga shug‘ullanuvchilarning tayyorgarligi va uni bajarish vaqtiga qarab 8 tadan 15 tagacha mashq kiritiladi. Ertalabki gigiyenik gimnastika 8-10 ta mashqdan iborat bo‘ladi; kunduz kuni bajariladigan gigiyenik gimnastika esa 10-15 ta mashqdan iborat bo‘ladi. Gigiyenik gimnastika bilan shug‘ullanishni endigina boshlaganlar uchun mashqlar miqdori oz bo‘lgani ma’qul.

Tanlab olingan mashqlarni kompleksga qo‘shganda quyidagi qoidalarga binoan joylashtirgan ma’qul:

a) kompleksda birinchi va oxirgi mashqlar to‘g‘ri qomatni his qilishga qaratilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir (to‘g‘ri qomatni asrash uchun buning ahamiyati muhim);

b) kompleksdagi ikkinchi muhim jihat shuki, bunda umumiy ta’sir ko‘rsatadigan va odamning barcha organ va tizimlarining faoliyatini yaxshilaydigan mashqlar (yoki ikkita mashq) bo‘lishi kerak.

Bular butun tananing katta guruh muskullarini, ishga soladigan oddiy, sust sur'atda bajariladigan mashqlardir. Bular organizmni bo'lajak ishga tayyorlash uchun juda zarurdir;

d) kompleksning navbatdagi mashqlari turli muskul guruhlari (qo'l, yelka, bo'g'in, bel, qorin pressi, oyoq) uchun zarur bo'lgan seriyali bajariladigan mashqlardir. Bunda gavdaning turli qismlari birin-ketin ishga kirishishi kerak. Bu mashqlarning ikkinchi va uchinchi seriyalari jadalroq bajariladi. Mashqlarni shu tarzda bajarib borilar ekan, yuklama ham asta-sekin oshirib boriladi, natijada turli muskul guruhlari ishga kirishadi, bu esa muskul kuchi samaradorligini oshiradi va faol dam olish uchun sharoit yaratadi;

e) keyingi 2-3 mashq gavdaning barcha qismlari uchun tanlanadi. ular murakkab mashqlar bo'lib jadal bajariladi. Odatda, kuch talab qiladigan mashqlar egiluvchanlik mashqlaridan oldin kelishi kerak ya'ni egiluvchanlik mashqlarini bajarishdan oldin muskullarning chigilini yozib olish zarur. Muskullarning faol harakatidan keyin muskullarni bo'shashtiradigan 1-2 ta mashqni bajarish maqsadga muvofiqdir;

f) kompleksning oxirida quyidagi: nafas olishga oid 1-2 ta maxsus mashq bajariladiki, bular vositasida shug'ullanuvchilar qorin, ko'krak va aralash nafas olishlarni o'zlashtirib, to'g'ri nafas olishga o'rganadilar;

g) kompleksning oxirida bajariladigan mashqlar mo'tadil suratli mashqlar bo'lishi kerak. Pirovardida kompleks to'g'ri qomat holatini his qilish mashqi bilan tugallanadi. Undan keyin artinish, yuvinish, dush qabul qilish va o'z-o'zini massaj qo'llaniladi.

Kompleksdagi har bir mashq 4-8 marta takrorlanadi; kuchni rivojlantiruvchi mashqlar yengil charchagunga qadar bajariladi, egiluvchanlik mashqlari esa bir oz og'riq his qilgunga qadar bajariladi.

Mashqlar kompleksi 2-3 haftadan keyin almashtiriladi. Jismoniy yuklama asta-sekin 2-3 haftadan keyin oshirib boriladi. Kundalik gigiyenik gimnastika bilan hamma shug'ullanishi zarur. Zaruriy gigiyenik tadbir u har bir kishining kun tartibiga kiritilishi va hayotiy zarurat bo'lib qolishi kerak.

Mashg'ulotda murabbiynnng faoliyatini belgilaydigan omil mashg'ulotning maqsadidir. O'rgatish maqsadini to'g'ri belgilash uni muvaffaqiyatli, o'tkazish va yakunlashning asosidir. Mashg'ulot vositalarini, metod va uni tashkil qilish turlarini tanlash, eng avvalo, o'rgatish maqsadiga bog'liq bo'ladi. Murabbiyning har bir xatti-harakati maqsadga muvofiq bo'lishi zarur.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiy hayotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. // Xalqso'zi, 19-yanvar, 2015-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi 2302-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 8-son, 91-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" qarori// 1999-yil 27-may.
4. Abdullayev A.A. Jismoniy tarbiya vositalari. O'quv qo'llanma. – Farg'ona, 1999.
5. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Farg'ona, 2001.
6. Abdullayev Sh., Zaripov D., Muborakov X. Umumtalim maktablarida o'quvchilar bilan o'zbek milliy harakatli o'yinlarini o'tkazishda ma'naviy tarbiyaning o'rni. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Nikon", 2003. – 65 bet.
7. Abdullayev Sh. D., Narzullayev M.F. Malaka oshirish kurslarida jismoniy tarbiya bo'yicha davlat talablari bajarilishining diagnostik tahlili. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro, 2004.
8. Abdullayev Sh. D., Sattorov A. O'quvchi tarbiyasida maktab va oila hamkorligi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Muharir", 2011. – 75 bet.



**Rashid KADIROV**
Buxoro davlat universiteti jismoniy tarbiya nazariyasi
va uslubiyoti kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

## JISMONIY MADANIYAT TA'LIMINING TESTLASH VA BAHOLASH O'LCHOVLARI TO'G'RISIDA

*Maqolada Jismoniy madaniyat fakulteti talabalari o'zlashtirishini noan'anaviy baholashning oddiyligi va axborotliligi bilan ajralib turuvchi metodlar tavsifi bayon qilingan.*

***Tayanch tushunchalar:*** *test, o'zlashtirish bahosi, baholash mezoni, ranjirovka.*

*В статье изложены нетрадиционные методы, отличающиеся своей простотой и информативностью оценки успеваемости студентов факультета физической культуры.*

***Опорные понятия:*** *Тест, оценка успеваемости, критерии оценки, ранжировка.*

*In article is described non-traditional methods, which is distinguished by their simplicity and informative value of students' progress in the faculty of Physical culture.*

***Supporting concepts:*** *test, assessment of progress, evaluation criteria, ranking.*

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Barkamol avlod orzusi" asarida "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak" iborasi ta'lim islohotining muhim vazifalari qatorida o'rin olgan bolib, bugungi kunda ham 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi keng jamoatchilik tomonidan barqaror taraqqiyotimizning muhim poydevori, aniq maqsad va vazifalarni qamrab olgan hayotiy dastur sifatida yuqori baholanmoqda [2]. Jismoniy tarbiya va sport jarayonida harakat ko'nikmasi va malakalarning hosil bo'lganligini yoki jismoniy tayyorgarlik darajasini tekshirish va baholash, ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilishi hamdir.

Soha mutaxassislari tomonidan, xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llaniladigan pedagogik nazorat turlaridan testlash, baholash o'lchov amallarining aksariyat tomonlari o'rganilgan va tadqiq etilgan.

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Bilimlarni (nazariy bilim, harakatlanish ko'nikmasi, malakasi, kompetensiyasi) tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu vaziyat ko'p jihatlariga ko'ra jismoniy madaniyat ta'limiga xos bo'lib aksariyat vaziyatlarda testlashdan hosil bo'lgan miqdoriy (raqamli, metr, soniya, marta) ko'rsatkichlarni baholash mezonlari ushlab chiqilmagan, yoki shakl ko'rinishi talablariga muvofiq ushbu turkum test axborotliligini aniqlash metodlarini qo'llash imkoniyatlari chegaralangan.

Amaliyotda talabalarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish uchun axborotliligi yuqori bo'lgan noan'anaviy testlardan iborat majmua (batareya) tuzish zarurati mavjud bo'lib, ushbu nazoratlarni ommaviy amalga oshirishda testlarning o'ziga xos talablari mavjudligi e'tiborga olinadi. Ya'ni, testlarning texnik ijrosi o'ta oddiy, murakkab bo'lmagan obyektiv o'lchov tizimi va oddiy vaziyatlarda bajarish tartibiga ega bo'lishdir. Lekin amaliyotda shunga o'xshash testlar yuzdan oshiq bo'lib, real vaziyatga mos (DTS, o'quv dastur) axborotliligi yuqori testlarni saralash talab etiladi.

*Amalga oshirish yo'li:*

1. Mazmunan axborotlilik sifatlarida shubhali bo'lmagan o'ndan ortiq testlarni ajratib olish.
2. Sinaluvchilar guruhida (talabalar, 1- semestr) jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash.
3. Omilli tahlil metodini qo'llagan holda axborot texnologiyasi bo'yicha qayd etilgan barcha ahamiyatli ko'rsatkichlarga ishlov berish.

Test natijasini ball ko'rinishida ifodalashning turli usullari mavjud bo'lib, yengil atletika dars jarayonida "Xotin-qizlar sporti" talabalarining individual test ko'rsatkichlari qayd etilgan o'lchov qatorini tartiblashtirish usulida tahlil qilindi (1-jadval).

**1-jadval**

**Test natijalarini qayd qilish**

| **Testlar va baholashlar** | **"Xotin-qizlar sporti" guruhi 1-kurs talabalari** | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **A** | **B** | **V** | **G** | **D** | **E** | **J** | **Z** | **I** | **K** |
| *300 m. masofaga yugurish (soniya)* | 60,1 | 50,2 | 56,1 | 58,2 | 59,3 | 62,4 | 68,1 | 70,7 | 69,2 | 70,1 |
| *100 m. masofaga yugurish (soniya)* | 16,1 | 15,2 | 16,5 | 16,2 | 17,2 | 18,4 | 19,6 | 19,4 | 19,2 | 19,4 |
| *Birinchi test ranjirovkasi* | 5 | 1 | 2 | 3 | 4 | 6 | 7 | 10 | 8 | 9 |
| *Ikkinchi test ranjirovkasi* | 2 | 1 | 4 | 3 | 5 | 6 | 10 | 9 | 7 | 8 |
| *Ranjirovkalashlarning umumiy yig'indisi* | 7 | 2 | 6 | 6 | 9 | 12 | 17 | 19 | 15 | 17 |
| *Guruh kesimida egallangan o'rin* | 4 | 1 | 2-3 | 2-3 | 5 | 6 | 8-9 | 10 | 7 | 8-9 |

Jadvaldagi ma'lumotlar mohiyatiga ko'ra, eng yuqori test natijasi 1 ball, undan keyingilari – bir balldan oshirib ranjirovka qilinadi. Ranjirovka metodi qanchalik oddiy bo'lmasin, ayrim ahamiyatsiz adolatsizlik jihatlarni kuzatishi mumkin. Masalan, 300 m. natijalarida birinchi va ikkichi o'rinlar farqni 5,9 soniya, uchinchi va to'rtinchi o'rinlar orasida 1,8 soniyani tashkil etgan bo'lsa-da, har bir vaziyatlarda atigi bir balga oshirilgan. Baholash amalini o'tkazishdan maqsad, talabaning maksimal natijaga qadar intilishini rag'batlantirishdan iborat. Shunday bo'lsa-da, ikki yoki undan ortiq test ko'rsatkichlarni maxsus bayonnomada qayd etish, tezkor ranjirovkalash va egallagan o'rinlarni aniqlash usuli sport, jismoniy madaniyat darslarida joriy, oraliq nazoratlarni o'tkazishda qo'l keladi.

Omilli (факторный анализ) tahlil metodning mohiyatiga ko'ra nisbatan kam test natijalarining, nisbatan kam sonli sabablar bilan bog'liqligi hodisasini qulaylik uchun "omil" deb nomlanish g'oyasi yotadi. Masalan, *turgan joydan uzunlikka sakrash, tenis koptogini masofaga uloqtirish, turnikda tortilish, tayangan holatda qo'llarni bukib - rostlash, 100 m va 2000 m masofaga yugurish* - chidamlilik, kuch va tezkorlik kabi jismoniy sifatlar bilan bog'liq. Shunga ko'ra *100 m. ga yugurish natijaviyligi va tezkor kuch sifatining turnikda tortilish, qo'llarni bukib - rostlash va kuch chidamliligi* o'rtasida kuchli aloqadorligi mavjud. Bundan tashqari, alohida test natijalari o'rtasida ham bog'liqlik kuzatilgan bo'lib bu o'xshash jismoniy sifatlarning namoyon bo'lish hodisasidir. Aynan 'omilli' tahlil metodi – imkoniyatlariga, birinchidan umumiy sifat asoslariga ega testlarni guruh tarkibiga saralash va ikkinchidan, eng muhimi muayyan guruhga mansub testlar salmog'ini aniqlash eng yuqori omildorlik salmog'iga ega testlar – yuqori axborotlilikka ega deb topiladi [1].

XX asr oxirida V.M. Zatsiorskiy va N.V. Averkovich (1982-y.) ishlarini misol keltirish mumkin. Tajriba doirasida 108 nafar talabalar 15 ta test bo'yicha tekshirilgan. *Omilli tahlil metodi orqali tekshirilgan omillar tarkibidan guruhga mansub uchta muhimlari aniqlangan* [3,4]*:*

1) yuqori qo'l muskullarining kuchi;
2) pastki oyoq muskullarining kuchi;
3) bukuvchi son va qorin pressi muskullari kuchi.

Birinchi omilga ko'ra tayangan holatda qo'llarni bukib rostlash, (marta) ikkinchisida turgan joydan masofaga sakrash (sm.) uchinchisida "bir daqiqa ichida chalqancha yotgan holatdan o'tirish holatiga o'tish va turnikda osilish holatida rostlangan oyoqlarni ko'tarib tushirish" (marta). Jami 15 tadan iborat test majmuasi tarkibida, belgilangan testlar eng yuqori axborotlilikka ega. Test axborotliligining hajmi (darajasi), uni o'tkazishda ta'sir etuvchi bir qator omillar sababli o'zgaradi (Ashmarin B.A. 1980, Bondarevskiy Y.A., Xonkeldiyev Sh.X. 1986, Кerimov F.A., 2004).

Baholash – test natijalarini bir normaga solish o'lchovi bo'lib, ta'lim jarayonida nazorat natijalarini chamalab borish, bilim, ko'nikma va malakalarni baholash ta'lim oluvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Baholash – muhim pedagogik amal bo'lib, sportchi yoki o'quvchini maksimallikka erishish yo'lida rag'batlantiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Demak, test ko'rsatkichlarini maxsus shkalalar vositasida bahoga aylantirish mumkin. O'rganiladigan obyekt xususiyatlari va unga mos belgilanadigan sonlar (raqamlar) o'rtasida muvofiqlikni aniqlashga imkon beruvchi kattaliklar ketma-ketligi – *o'lchov shkalasi* deb nomlanadi.

Shkala – matematik ifoda, jadval yoki grafik tasvir ko'rinishiga ega bo'lib, soha amaliyotida (xorijda, 2-jadval) quyidagi shkala turlarini uchratish mumkin.

**2-jadval**

**Xorijiy ta'lim sohalarida qo'llaniladigan boshqa turdagi shkalalar**

| Shkala nomlanishi | Asosiy formula | Qayerda va nima maqsadda qo'llaniladi |
|---|---|---|
| S - shkala | S = 5 + 2 x Z | Katta aniqlik talab qilinmaydigan ommaviy tekshiruvlarda |
| Umumta'lim maktablarda baholash shkalasi | H = 3 - Z | Ayrim Yevropa davlatlarida |
| Bine - shkalasi | B = 100 + 16 x Z | Shaxs intellektini psixologik tekshiruvlarda |
| Imtihon - shkalasi | E = 500 + 100 x Z | Amerika Qo'shma Shtatlarining oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun |

*1. Standart shkala.* Mohiyatiga ko'ra proporsional shkaladan hosil bo'lgan bo'lib, ko'lamida standart (o'rtacha kvadratik) chetlanish amali kiritilgan. Sohada T – shkala anchagina ommalashgan bo'lib, testlashning o'rtacha arifmetik (X) natijsi 50 ochkoga tenglashtirilgan, formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$T = 50 + 10 \cdot \frac{Xi - X}{\delta} = 50 + 10 \cdot Z$$

bunda T – individual test natijasiga mos baho; X – individual ko'rsatilgan natija; X – guruhning o'rtacha natijasi; Q – standart chetlanish.

Kvadratik (standart) chetlanish bu – testlashdan hosil bo'lgan variantlarning, ya'ni individual ko'rsatkichlarning tebranish ko'lami (o'zaro farqlanish jihatlari) bo'lib, qayd etilgan ahamiyatli ko'rsatkichlarning eng kattasi va kichigi o'rtasidagi farqni bildiradi.

"Sigma" hosilasini hisoblash formulasi:

$$\delta = \frac{+Vmax - Vmin}{K}$$

bunda, V max. – eng katta ahamiyat; V min. – variantlar ichida eng kichik ahamiyat; K – muayyan hajmli (tanlanma hajmi, testda qatnashganlarning umumiy soni) ko'lamga mos maxsus jadval koeffitsienti. Misol, akademik guruhda yugurib kelib uzunlikka sakrash testi o'tkazildi. V max. = 250 sm.; V min = 190 sm; jadval koeffitsienti = 3 bo'lganda standart chetlanish 20 ga teng bo'ladi.

Guruh natijalariga ko'ra, o'rtacha ko'rsatkich (X) – 224 sm. ga teng bo'lgan sharoitda har bir individual ko'rsatkichlarning yutuq hisobini aniqlash imkoni kelib chiqadi. Misol, individual ko'rsatkichlardan 222 sm. uchun 49 ochko, yoki boshqasida 266 sm. uchun 71 ochko kelib chiqadi.

1) $T = 50 + 10 \cdot \frac{222 - 224}{20} = 50 + \left(10 \cdot (-1)\right) = 49$ очко

2) T= 50 + (-1) = 49

3) $T = 50 - 10 \cdot \frac{266 - 224}{20} = 50 - \left(10 \cdot 2{,}1\right) = 71$ очко

*2. Persentil shkala.* Guruhning har bir ishtirokchisi (musobaqada, yoki testda) necha % ga boshqalardan oldinlab ketganligiga mos ochko bilan belgilanadi. Guruh kesimida eng yuqori g'olib – "100" ochko, eng quyi – "0" ochko ga teng. *Persentil shkala* ko'p sonli ishtirokchilardan iborat katta guruhni baholash uchun yaroqli deb hisoblanadi. Aynan shunga o'xshash sportchilar guruhida individual ko'rsatkichlarning (variantlarning) statistik taqsimoti normal (yoki unga yaqin) bo'ladi. Buning sababi, eng katta va eng kichik natijalarni kam sonli sportchilar ko'rsata oladi, o'rtachaga (X) yaqin ko'rsatkichlar ko'p uchraydi. Shkalaning asosiy qimmati bu uning o'ta oddiyligi bo'lib formulaviy hisoblash talab etilmaydi, faqat individual holatga *qancha persentil* to'g'ri kelishi aniqlanadi. *Persentil* bu – shkala intervali. Guruh 100 nafardan iborat bo'lsa, *bitta persentilga* (shkala intervalida) birta natija to'g'ri keladi. Guruh 50 nafardan iborat bo'lsa bitta natijaga *ikki persentil* mos tushadi. Demak, 50 nafar ishtirokchilar orasida N- individual ishtirokchi 30 kishidan o'zib ketsa "60" ochkoni qo'lga kiritadi. *Persentil shkala* mohiyatining oshkoraligi va o'ta oddiyligi sabab amaliyotda keng ommalashgan.

3. *Tanlanlanadigan nuqtalar shkalasi.* Doim ham test natijalari statistik taqsimotini amalga oshirish imkoni bo'lmasligi sababli, sport turlari bo'yicha jadval ishlab chiqish mushkullik tug'diradi. Bu vaziyatda quyidagilarga amal qilinadi. Misol, qaysidir eng yuqori sport natijasi (sport tarixida olimpiada rekordining 10 – natijasi) aytaylik "1000" yoki "1200" ga tenglashtiriladi. Navbatda tayyorgarligi past guruhda ommaviy tekshiruv o'tkaziladi va hisoblangan o'rtacha (X) natija aytaylik "100" ochko bilan tenglashtiriladi. Bundan keyin proporsional shkala vositasida arifmetik hisoblash orqali ikki nuqta oralig'i shubhasiz to'g'ri chiziqni hosil qiladi.

*4. Parametrik shkala.* Siklik xarakterga ega sport turlari va og'ir atletika natijalari bo'yicha masofa uzunligi va sportchining vazni kabi parametrlar o'rtasida bog'liqlik kuzatilgan. Bu bog'liqlik – parametrik deb nomlanadi. Bu vaziyatda ijodiy yondashgan holda ekvivalent yutuqlar nuqtasining geometrik o'rni ko'rinishiga ega parametrik bog'liqlikni topish mumkin bo'ladi. Mazkur bog'liqliklar asosida shakllantirilgan shkala – parametrik deb nomlanadi va o'zining aniqlik darajasiga anchagina yuqori deb topilgan. *Parametrik shkalaning* mohiyatida sportchilar guruhini va alohida sportchilararo imkoniyatlarni ballarda farqlash masalasi mavjud. Sport amaliyotida trenerlar oldida yana bir muhim muammo mavjud. Muammo shundan iboratki, tayyorgarlik bosqichi yoki turli davrlarda sportchilarni individual yondashgan holda davriylik bilan testlab borish, natijalarini baholash masalasidir. Buning uchun Davlat (Rossiya) jismoniy tarbiya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan, yaqqollik xususiyatiga ega formula tavsiya etilgan:

$$\text{Баҳо (балларда)} = 100x\left(1 - \frac{\text{яхши натижа} - \text{жорий натижа}}{\text{яхши натижа} - \text{ёмон натижа}}\right)$$

Mazkur yondashuv mohiyatiga ko'ra test natijasini faqat qandaydir abstrakt kattalik ko'rinishida tasvirlashdan yiroq bo'lib, sportchi tomonidan ko'rsata olingan eng yaxshi va eng yomon natijalar o'rtasida mavjud bog'liqlikni aks etuvchi qonuniyatni ilg'ashga qaratilgan. Formulaga ko'ra, yaxshi natija doim "100" ochko, yomon – "0" ochko bilan baholanadi. Misol, uch hatlab sakrashda eng yaxshi natija 10 metr 26 sm., yomon natija 9 metr 37 sm. Joriy natija – 10 metr.

$$Бахо = 100x\left(1 - \frac{10,26 - 10,0}{10,26 - 9,37}\right) = 71бал$$

Har qanday baholash natijalari o’zaro taqqoslanishi, ya’ni o’lchanishi lozim bo’ladi. Testlarning “baholash mezoni” o’quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko’rsatkichdir. Bu ko’rsatkichlar sonlar, ballar yordamida ham tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo’lsak, baholash mezonlari ta’lim oluvchining qaysi o’zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo’yiladigan baho ko’rsatkichining tavsifidan iborat. Amaliyotda uchraydigan majmuaviy nazorat dasturlarida birgina emas, balki bir nechta testlardan foydalanish ko’zlanadi. Masalan: sportchining tayyorgarligini nazorat qilishda majmua (batareya) tarkibi quyidagi testlardan iborat bo’lishi mumkin: tredban uskunasida yugurish vaqti, yurak-tomir urish chastotasi, maksimal kislorod iste’moli, maksimal kuch va boshq. Nazorat uchun birgina test qo’llanilganda uning natijasini maxsus metod orqali baholash zarurati vujudga kelmagan bo’lur edi, chunki kim, qancha kuchli – yaqqol ko’rinadi. Lekin jismoniy madaniyat va sport amaliyotida pedagogik (tadqiqot) vazifasini hal qilishi uchun yagona testning axborotlilik imkoniyati past (bo’lgan taqdirda ham kamdan-kam uchraydigan hodisa). Qoidaga ko’ra har tomonlamalikni ta’minlash uchun turli o’lchov birliklardan (masalan: kuch – kg. yoki N, vaqt – soniya, MKI – ml/kg. YuTUCh – daqiqa/marta) iborat ko’p sonli testlar qo’llanilgan vaziyatda individual ko’rsatkichlarning absolyut ahamiyatiga ko’ra qiyoslash imkoni yo’q. Bu muammoni hal qilish uchun, test natijalari baho (ochko, ball, maxsus belgi, razryad va boshq.) ko’rinishlarida taqdim etish amalini bajarish talab etiladi [1].

Testlash yoki o’lchov natijalarini hosil qilish bilan nazoratli sinov amallari yakun topmaydi, chunki navbatda olingan natijalarga baho berish zarurati ham mavjud. *Baho* (yoki pedagogik baho) bu ta’lim (tayyorgarlik) bosqichida biror-bir topshiriq yoki maxsus vaziyatlardan testlash natijasiga ko’ra yutuqlarni bir shaklga keltirish o’lchovi. Demak, ta’lim muassasalarda o’quv jarayonida o’qituvchi tomonidan talabaga qo’yiladigan o’zlashtirish bahosi va sportchilar uchun o’tkazilgan rasmiy musobaqa va test natijasiga kvalifikatsion baho turlari bilan farqlanadi.

*Yakuniy bahoni aniqlash jarayoni (hisoblash, bilib olish) baholamoq yoki baho bermoq deb nomlanib, quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:*

1. Test natijasini bahoga o’girishi imkonini beruvchi shkala tanlanadi (shkala tadrijiy ravishda o’sib yo’ki kamayib boradigan raqamlar sirasi).
2. Tanlangan shkalaga muvofiq test natijasi ochko (ball) ko’rinishida qayta tiklanadi.
3. Hosil bo’lgan ochko (ball) rasmiy normativ bilan solishtiriladi va yakuniy baho qo’yiladi.

Yakuniy baho – gomogen guruh a’zosining boshqa a’zolarga nisbatan tayyorgarlik darajasini obyektiv xarakterlaydi. Barcha vaziyatlarda ham keng ko’lamli baholash tartibiga amal qilinmaydi, ba’zida esa oraliq va yakuniy baholashlarning majmuaviy shakllari qollaniladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida talaba yoshlar (muntazam sport bilan shug’ullanuvchilar) ning jismoniy barkamolikka bo’lgan qiziqishi ortib bormoqda. Tabiiyki, barkamolikka intiluvchi shaxs oldida nimani va qanday mo’ljallarni e’tiborga olish, kuch, chidamlilik va boshqa sifat ko’rsatkichlarining qanday darajasini “qoniqarli”, “yaxshi”, “a’lo” baholarga loyiq deb topish mumkin mazmunida savollar qiziqtiradi. Me’yoriy talablarni o’ta pasaytirish – o’zlashtirish darajasiga loyiq bo’lmagan razryadchilar sonini ko’paytiradi. Yuqori me’yorlar – aksariyat shug’ullanuvchilar uchun erishishi qiyin kechadi, oqibatda sport bilan shug’ullanish yakun topishi mumkinligini e’tiborga olish talab etiladi.

## Adabiyotlar

1. Ролевшиков М.М. Спортивная метрология. Лекция 3: Измерения в физической культуре и спорте. Марийский государственный университет. – Ёшкар-Ола: МарГУ, 2008. – 34 с.
2. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. http://lib.sportedu.ru
4. http://koi.tspu.ru



**Hasan SAFOYEV**
Buxoro davlat universiteti
harbiy kafedra o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI JISMONIY RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

*Maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini jismoniy rivojlantirishning metodik asoslari hamda ularni sog`lomlashtirish masalalari haqida fikr yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:*** *asab tizimi, fiziologik mexanizmlar, jismoniy tarbiya, sog`lomlashtirish.*

*В статье размышляются о методических основах физического развития учеников начального класса и вопросов их оздоровления.*

***Опорные понятия:*** *нервная система, физиологические механизмы, физическое воспитание, оздоровление.*

*In article are reflected about methodical bases of physical development of pupils of an initial class and questions of their improvement.*

***Supporting concepts:*** *nervous system, physiological mechanisms, physical education, improvement.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy faoliyatidagi kelajak yutuqlari alohida mas'uliyatni talab etadi. 6-10 yosh organizmning intensiv shakllanish davri hisoblanadi. Rivojlanishning bu bosqichida vegetativ asab tizimining yoqtirish, maylning paydo bo'lishi ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asab tizimi yetarlicha kuch va vazminlikka ega bo'ladi. Shartli reflekslar esa maktabgacha yoshdagilarga qaraganda yetarlicha barqaror holatda bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari modda almashinuvi va energiya, uning yig'ilishi, murakkab organik yig'indilarni tashkil etib, kataklar tuzilishini shakllantirishning intensiv darajasini xarakterlab beruvchi assimilyatsiya jarayoni yuz beradi. Rivojlanishning bu davrida vegetativ asab tizimining simpatik bo'limi reaksiyasi rivojlanishga moyil bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari asab jarayonlari ahamiyatli kuchga ega bo'ladi, biroq murakkab differensiyalar, vaqtinchalik aloqalarning (dinamik stereotip) kamdan kam qiyinchilik bilan yuz beradi. Yosh qobiliyati qisman darajada vegetativ tizimning funksional imkoniyatlari bilan izohlanadi, bu bo'g'imlarning yuqori elastikligi, nafas olishda daqiqali sig'imning kattaligi va qon miqdorining mushaklar faoliyatida ko'pligida namoyon bo'ladi. 7-10 yoshli bolaning mushak(muskul) terisi tana vazn-ning 30% iga to'g'ri keladi. Mushaklar rivojlanishi, asosan, mushak to'qimasining kengayishi hisobidan amalga oshadi. Qayirish tonusi rostlash tonusidan ortiqni tashkil etadi. Bunday katta og'irlik gavda tuzilishining buzilishiga olib keladi. 7-10 yoshdagi bolalarning mushaklari kattalarning darajasidagi efferent inveransiya 11-13 yoshga yaqinlashadi va uning rivojlanishi 18-20 yoshgacha davom etadi. Shunday qilib, mushak "hissiyot organi" sifatida 7-8 yoshida, ishchi organ esa 10 yildan so'ng yetiladi [1]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakat a'zolari har qanday murakkab vazifalarga osongina moslashadi. Muvozanat yuklari og'irlik bilan qabul qilinadi. Jismoniy tarbiya amaliyotida mushaklarga katta kuch berish kam qo'llaniladi va ular qattiq nazorat qilinishi lozim.

7-10 yoshdagi maktab o'quvchilarining mushaklari kuchi nisbatan pastligi bolalarning muvozanat mashqlarini bajarish jarayonida tez charchab qolishiga sabab bo'lmoqda. Tezlik kuch talab etadigan harakatlar esa ular tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Ular harakatda yuqori maksimal natijalarga erishmasalar-da, qisqa muddatli tezlikni oshiruvchi mashqlar mehnatga layoqatlilik yuqori bo'ladi. Yurak qon-tomir va nafas tizimining funksional holati tezda qayta tiklanadi. Shu tariqa tezlik kuch mashqlari organizmning funksional mustahkamligi uchun stimul bo'la oladi va bolaning umumiy jismoniy darajasi, uning funksional imkoniyatlari yaxshilanishiga olib keladi. 7-10 yoshdagi bolalar endi funksional

faollikni uzoq va bardoshlilik bilan ushlab tura oladilar. Kichik maktab yoshi faoliyatni harakatga yo‘naltiruvchi maqsadli ishni shakllantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Chidamlilikni tez rivojlantirishni ta’minlovchi fiziologik mexanizmlar ko‘pgina funksiyalarning zahira imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Bugungi kunning zamonaviy poydevorli va o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolardan biri – bu o‘zgarib borayotgan tashqi ta’sirlar, ishlab chiqarish, ma’lumot olishning jadal rivojlanish davrida odamlar salomatligini ta’minlash va uni rivojlantirish yo‘llarini qidirishdir. 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar asosiy vaqtini maktabda o‘tkazishini inobatga oladigan bo‘lsak, maktabni sog‘lomlashtirishga o‘rgatuvchi eng qulay joy deb aytish mumkin.

Davlat ta’lim standartlarida o‘quvchi tomonidan inson hayot yo‘li davomida erishiladigan jismoniy va ruhiy takomillashuvdan iborat faoliyat va shaxsiy yondashuvni qo‘llash belgilab berilgan. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning shaxsiy kuch iqtidorini inobatga olgan holda o‘qitish va tarbiyaning faol metodikasidan foydalanishni shart qilib qo‘yadi [2]. Boshlang‘ich sinfda jismoniy tarbiya fanining mazmuni 70-80% seziladigan baza komponentlari (bilim, harakatga yo‘naltirilgan ish turlari, jismoniy sog‘lomlashtirish faoliyatining turlari, sport faoliyati turlari) va 20-30% differensial komponentdan tashkil topgan. Boshlang‘ich maktabni tamomlagan o‘quvchilarga quyidagi talablar qo‘yiladi: mashqni bajarishning qoidasi va shartlar ta’sirini bilish. Nazariy bilimlar maktabda yilda ikki soat ma’lumotlar ko‘rinishidagi amaliyot darsi sifatida o‘tiladi. Shu bois, bugungi kunda ko‘pgina tadqiqotlar bolalarning salomatligini mustahkamlashning yanada samaraliroq yo‘llarini, o‘sib kelayotgan avlodning yuqori insoniy xususiyatlar bilan shakllanishi va ruhiy fiziologik yetilishini shartli ravishda ta’minlashga qaratilmoqda. Maktablardagi jismoniy tarbiya darslarida ko‘zlangan maqsadlarga erishishning asosiy vositasi deb, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish, o‘quvchilarning shaxsiy jismoniy tarbiyaga ega bo‘lishlarini ajratib ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya darslarini ularning sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganligiga ko‘ra tahlil qila turib shunday xulosa qilish mumkinki, sog‘liqni mustahkamlash mashqlari rasmiy yoritilgan va jismoniy mashqlar bilan jipslashtirilmagan. Shaxsni u yoki bu rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy omillar majmuasida jismoniy tarbiyaga alohida o‘rin ajratiladi. Tarbiyaning umumiy tizimida individning jismoniy rivojlanishdagi miqdoriy va sifat o‘lchovlari yaxshilanishida aynan jismoniy tarbiyaning hissasi katta. Tarbiya masalasiga zamonaviy yondashish orqali “jismoniy mukammallik” atamasini biz jismoniy tarbiyaga, sog‘lom turmush tarzi, shaxsning jismoniy harakatlanishining asosi bo‘lgan ehtiyoj deb tushunamiz. “Jismoniy tarbiya” tushunchasining bir qancha interpritatsiyalari bor. O‘tkazilgan tahlillar “jismoniy tarbiya” bu – shaxsning ma’naviy, ijtimoiy va moddiy qiymatlarni rivojlantirish orqali jismoniy mukammalllik, yuqori mehnatga layoqatlilik, raqobatbardoshlilik va jamiyatning zamonaviy shartlariga o‘rgatuvchi pedagogik jarayon, degan xulosani keltirib chiqardi.

Tarbiya va ta’lim shuningdek, o‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsni rivojlantirish barobarida uni raqobatga bardoshli, bilimi, malaka va ko‘nikmasi bilan jamiyatda munosib o‘rin egallashga intilish imkonini beradi. Bularning barchasi shaxsning jismoniy tarbiya darajasining rivojlanganligi, ikkinchi tomondan uning sog‘lom turmush tarzini kechirishiga bog‘liq. Jismoniy o‘zini-o‘zi tarbiyalash bu aniq maqsadga yo‘naltirilgan, shaxsning ongli va rejaga muvofiq o‘z sog‘lig‘ini mustahkamlash maqsadida o‘z ustida ishlashi, jismoniy mahoratning oshishi, hamma tomonlama jismoniy rivojlanganlik, professional faoliyatda shaxsiy sifat va muvaffaqiyatlarning mukammalligidir.

O‘zini-o‘zi jismoniy tarbiyalashning asosiy maqsadi jismoniy tarbiyaning ma’naviy, ijtimoiy, moddiy qiymatlaridan mustaqil foydalana olishni shakllantirish orqali jismoniy mukammallikka erishish mumkinligi yozib qo‘yilgan. Buni amalga oshirish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish lozim:

- salomatlikni ta’minlash, jismoniy o‘z-o‘zini tayyorlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, sog‘lom turmush tarzini kechirishga oid bilimlarni, ko‘nikmalarni shakllantirish orqali o‘zlashtirish va jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishga o‘rgatish;
- organizmning rivojlanish bosqichlarini inobatga olgan holda uning jismoniy salohiyat va ishchanligini oshirishda organizmni tabiiy samarali rivojlantirishga ko‘maklashuvchi forma va funksiyalar;
- yakka jismoniy rivajlanishni inobatga olgan holda sport o‘yinlari asosida harakatlanish qobiliyatini tarbiyalash;

➢ harakatlantiruvchi ko‘nikma va malakalarni, jismoniy o‘z-o‘zini kamolga yetkazish, hayot uchun muhim bo‘lgan faoliyatda talab etiladigan mustaqil darslarning ko‘nikmalarini tarbiyalashni shakllantirish.

O‘quvchilarda ana shunday erkinlik sifatini shakllantirish uchun har gal biror bir harakatga kirishishdan oldin uni qanday qilib yechishni aniq anglab yetish, va qanday bajarishni aniq tasavvur qilish tushunchasini tarbiyalash darkor. Harakatlarning maqsadga yo‘naltirilganligi o‘quvchilarning xatti-harakati va muomalasini tarbiyalaydi, ularni o‘ylab ish yuritishga o‘rgatadi. O‘quvchilarning tashabbuskorligi ma’lum mashqni mustaqil va mas’uliyat bilan yondashgan holda bajarish, yangi-yangi yutuqlarga erishishga intilishida o‘z aksini topadi. Shaxsning tarbiyaliligi uning nafaqat aytilgan ishni vaqtida bajarishi bilan belgilanadi, balki, ma’lum bir ishlardan o‘zini tiyib turishi lozimligini ongli anglashida ham ko‘rinadi. Jismoniy tarbiya darslari, sport mashg‘ulot jarayonlari va musobaqalarda qatnashish o‘quvchilardan ongli ravishda topshiriqlar, buyruq, o‘qituvchining vazifasini bajarishni, tarbiyali bo‘lishni, mustaqil qaror qabul qilishi va tashabbuskor bo‘lishni talab etadi.

Jismoniy mashqlarni bajarish ma’lum tahlika va jasorat ko‘rsatish bilan bog‘liq. Mashqlarni bajarish jarayonida o‘quvchi tashqi ta’sirlarga e’tibor bermaslikka o‘rganadi, o‘zidagi o‘z-o‘ziga ishonch kayfiyatini kuchaytirib, mardlikni rivojlantiradi. Jismoniy o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida qat’iyatlilik va jiddiylik kabi shaxs’hislatlari rivojlanadi va yana-da, mustahkamlanadi. Bu narsa o‘quvchilarning uzoq vaqt mobaynida o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishi yo‘lida ongli ravishda ish olib borishlarida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchining fe’l-atvori, ishchanlik, qat’iyatlilik kabi sifati bilan belgilanadi. Musobaqalar chog‘ida jismoniy mashqlarni bajarish doimo kuchli hayajon bilan o‘tadi: musobaqa oldi hayajon, raqib bilan bellashishdan oldingi xavotir, g‘oliblik nashidasi, yutqazgandagi mag‘lubiyat alami va boshqalar. Qattiq hayajonni boshidan o‘tkaza turib o‘quvchilar turli vaziyatlarga tayyor turishni, o‘z ustidan nazoratni o‘rnatishni, o‘ylab aniq harakatga kirishishni o‘rganadilar.

O‘quvchilarning o‘zini tarbiyalash jarayonining barcha bosqichida ota-onalarning namuna bo‘lishlari katta ahamiyat kasb etadi. O‘z o‘zini tarbiyalashga o‘rgatishda o‘quvchilarni o‘zaro bir biriga taqqoslamagan ma’qul. Imkon qadar ularning har biri tomonidan alohida qo‘lga kiritilgan yutuqlarning real darajasiga tayanish lozim. Unutmaslik kerak, har qanday ijobiy natija rag‘batlantirilib borilishi lozim. Baholaganda ularning hozirgi ishlari nuqtai nazaridan emas, balki ilgarigi natijalari bilan solishtirgan holda ularning yaxshi tomonga o‘zgarganligi bilan munosabat bildirish kerak. O‘quvchilarning jismoniy tarbiya darslarini sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturini qayta ishlab chiqish, o‘quvchilarning harakat faolligini oshirish, sog‘lomlashtirish tadbirlarini ko‘paytirish kerak degan yondashuvlar ham mavjud. O‘quv jarayonida jismoniy mashqlarni sog‘lomlashtirish mexanizmlari ochib berilmayapti, ularning samarali sog‘lomlashtiruvchi mashq ekanligini tushunib yetishda va keyinchalik mustaqil bajarishda qiyinchilik tug‘dirmoqda. Umumta’lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslari jismoniy xususiyatlarni, harakatlantiruvchi bilim va malakalarni shakllantirishga qaratilgan, biroq o‘quvchilarda yetarli darajada ijtimoiy dalillar, sog‘lom turmush tarzini yaratishni shakllantirish ta’minlanmagan. Bundan tashqari maktablarda o‘qitiladigan jismoniy tarbiya darslarining asosiy metodikasida bu fanning ta’lim-tarbiya, sog‘lomlashtirishdagi ahamiyati bilan bog‘liq tushunchalar umuman keltirilmaydi. Tahlillar shuningdek, o‘rta maktablardagi an’anaviy tashkillashtirilgan jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarda jismoniy tarbiyani shakllantirishda qiyinchiliklar tug‘dirishini ko‘rsatmoqda.

## Adabiyotlar


1. Губа В.П. Возрастные основы формирования спортивных умений у детей в связи с начальной ориентацией в различные виды спорта: Автореф. дис. д-ра пед. наук. Москва, 1997. – 47 с.
2. Ачилов А.М. Воспитание физической культуры личности в системе образования / Под общей научной редакцией д.п.н.., проф. Э.А. Сейтхалилова. – Т., 2012. – 326 с.
3. Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Физическая культура: молодёжь и современность //Теор. и практ. физ. культ., 1995, № 4. – с. 2-7.

# TAQRIZ

## ZAMONAVIY DARSLIKLAR TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING GAROVIDIR

**Sh. Sharipov, O. Qo‘ysinov va Q. Abdullayevalarning umumiy o‘rta ta’lim maktabining 6-7 sinflari uchun “Texnologiya”darsliklari haqida**

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis IX sessiyasidagi nutqida ta’kidlaganidek, darslik yaratishga eng ilg‘or va eng sharafli vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko‘tarishimiz kerak. Darslikni kerak bo‘lsa katta tanlov asosida yaratish lozim.

Umumiy o`rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuni nazarda tutib umumiy o`rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim uchun 2017-yil 6-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori bilan yangi davlat ta’lim standartlari va maktablarning namunaviy o‘quv rejalari tasdiqlandi. Shu rejaga asosan umumiy o`rta ta’lim maktablaridagi mehnat ta’limni fani “Texnologiya” deb zamon talabiga mos qilib o‘zgartirildi. Shunga mos ravishda DTS talablari ham ishlab chiqildi. Bularning barchasi maktabdan boshlab o‘quvchilarni kasbhunarga o‘rgatish masalasi asosiy o‘rinda turganligini bildiradi.




Umumiy o`rta ta’lim maktabning 1-4-sinflarida mehnat ta’limidan qo‘llanmalar mavjud va ular bir necha marta nashr etilib qo‘llanilib kelmoqda. Oxirgi darslik 1994-yilda A.I. Vorobyov, S.A. Limanskiy va I.G‘. Karimov mualliflikligida “Mehnat ta’limi” umumiy o`rta ta’lim maktablari 7-sinfi uchun darslik “O‘qituvchi” nashriyoti (176 bet) tayyorlangan edi. 1999-yilda mehnat ta’limidan yangi DTS qabul qilindi. 2009-yilda integratsiyalashgan yangi dasturlar 3 ta yo‘nalish “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” va “Qishloq xo‘jalik mehnati” bo‘yicha dasturlar tayyorlandi. Ammo mehnat ta’limi fanidan darsliklar mavjud emas, eski darsliklar esa zamon talabiga javob bermas edi. Bu esa mehnat ta’limi darslarining sifatli va samarali olib borilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatardi. To‘g‘ri, 2012-2013-yillardan I. Karimov rahbarliklarida I. Karimov, M. Maxsumova va F. Qodirova “7-sinfda servis xizmati darslarini tashkil etish” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, (“Fan va texnologiyalar” Toshkent, 2013-yil, 136 bet, 6-9 sinflar) uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqildi. Bu o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar juda kam nusxada chop qilinganligi va 6-7-sinflar uchun servis xizmati yo‘nalishi uchun, 8-9-sinflar texnologiya va dizayn, servis xizmati yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan edi. Bu o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ko‘pchilik mehnat ta’limi o‘qituvchilariga ham yetib bormadi. Chunki adadi 400 nusxa edi.




2017-yilda Sh. Sharipov rahbarliklarida O. Qo‘ysinov va

Q. Abdullayevalar tomonidan chop qilingan "Texnologiya"darsliklari ayni muddao bo'ldi.

Sh. Sharipov, O.Qo'ysinov, Q.Abdullayeva "Texnologiya" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik (Toshkent, 2017-yilda "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati tomonidan) chop qilingan va 240 sahifadan iborat.

2017-yilda nashr qilingan Sh. Sharipov, O. Qo'ysinov, Q. Abdullayeva "Texnologiya" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik (Toshkent, 2017-yilda "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati tomonidan) chop qilingan va 240 sahifadan iborat. Unda "Texnologiya" fanining ikki yo'nalishi "Texnologiya va dizayn" hamda "Servis xizmati" yo'nalishlarini qamrab olgan. Darslik rivojlangan chet mamlakatlar darsliklariga o'xshagan bo'lib, o'ziga xos milliy uslubda yaratilgan.




Sh. Sharipovlar tomonidan tayyorlangan darslikdagi rasmlar, chizmalar va texnologik xaritalarning rangli bo'lganligi o'quvchilarda fazoviy tassavurni rivojlantirishga va fan-ga oid kompetensiyalarni shakllantirishga asos bo'ladi.

Darslikdagi texnologik jarayonlarning ketma-ketligi xarita sifatida berilishi, ular asosida amaliy ishlarni bajarishga katta yordam beradi. Darslikda yog'ochga, metallga ishlov berishda ishlatiladigan eng so'nggi zamonaviy asbob-uskunalar va stanoklar to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. "Servis xizmati" yo'nalishida esa Pazandachilik asoslari va gazlamaga ishlov berish bo'limlar bo'yicha ham qator yangi, eng asosiysi, o'quvchi uchun tushunarli ma'lumotlar keltirilgan. Darslikdan umumiy o`rta ta'lim maktabi o'quvchilari, "Mehnat ta'lim" yo'nalishi talabalari katta qoniqish bilan foydalanmoqdalar.

**Ilhom Rahmatov**
Buxoro davlat universiteti fizika kafedrasi dotsenti,
texnika fanlari nomzodi

## S.M. GAFAROVA, G.A. XUDOYNAZAROVA VA H.R. ADIZOVALAR TOMONIDAN CHOP ETILGAN "YASHIL OLAM DUNYO USTUNI" NOMLI USLUBIY QO'LLANMA HAQIDA

O'zbekiston taraqqiyotida shaxsni har tomonlama yetuk, barkamol bo'lib shakllanishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Talaba-yoshlarga tabiat sirlarini chuqur o'rgatish, muammolarni oson va aniq hal etishda nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda darsdan tashqari tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarga boy bo'lgan tadbirlarni tashkil etish talab qilinadi. Uyushtirilgan tadbirlar orqali talabalarning botanika, zoologiya, anatomiya va umumiy biologiya fanlariga bo'lgan qiziqishi, izlanuvchanligi, faolligi, tirishqoqligi va yuzaga keladigan muammoli savollarga javob topa olishi hamda ushbu fanlardan olgan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakasi rivojlanadi. Ushbu qo`llanmada tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turli xil tadbirlar ssenariylari bayon etilgan bo'lib, bu tadbirlar orqali yoshlarning ona-Vatan tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbati ortadi va uni ko'z qorachig'iday avaylab asrashga intiladi.




Uslubiy qo'llanmaga BuxDU biologiya kafedrasining dotsenti, biologiya fanlari nomzodi M.I. Mustafayeva, BuxDTI tibbiy biologiya va genetika kafedrasining dotsenti, biologiya fanlari nomzodi A.N. Zulfiqorov tomonidan ijobiy taqriz berilgan va BuxDU tarix kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi M.B. Qurbonova muharrirlik qilgan.

O'qituvchilar darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda kerakli manbalarni topishga va ssenariylar tuzishda ancha qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuni inobatga olgan holda S.M. Gafarova, G.A. Xudoynazarova, H.R. Adizovalar tomonidan yozilgan "Yashil olam dunyo ustuni" nomli uslubiy qo'llanmada o'qituvchilarga darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda foydalanish maqsadida bir necha tadbirlarning ssenariylari (Hosil bayrami, Gullar bayrami, Shifobaxsh o'simliklar – el xizmatida, O'tkir zehnlilar bahsi, Onajonim tabiat, O'simliklarni asraylik, maktabda "Qushlar kuni" bayramini o'tkazish kabilar) hamda "O'simliklar olamida", "Hayvonlar olamida", "Tabiat haqida hikmatlar", "Shifobaxsh ko'katlar", "Giyohlar taronasi", "Tabiatni asrash yo'lida", "Salomatlik sirlari", "Fan tarixidagi qahramonona tajribalar" va "O'simliklar atmosferani ifloslanishdan saqlaydi" haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga qo`llanmada maktabda biologiya o'qituvchilari uchun metodik yordam ko'rsatish maqsadida "Ayirish sistemasi" va "Qushlar sinfi" mavzularini musobaqa dars ko'rinishida, "Buyrak usti, me'da osti va jinsiy bezlar" mavzusini sahnalashtirilgan dars sifatida, "Odamning paydo bo'lishida biologiya va ijtimoiy omillarning roli va odamning irqlari to'g'risida" mavzusini konferensiya usulida o'tish uslubiyotlari tavsiya etilgan.

Qo'llanmadan maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'qituvchilari, oliy o'quv yurti talabalari pedagogik amaliyot davrida hamda biologiya faniga qiziquvchi o'quvchi-yoshlar foydalanishlari mumkin.

**Hafiza ARTIKOVA**
Buxoro davlat universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti dekani,
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

## “KIMYONING MO’JIZAKOR SIRLARI” NOMLI USLUBIY QO’LLANMASI HAQIDA

Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Biz o’zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo’lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo’lamiz. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, yangi sharoitda talabalarni ishlab chiqarish sohalariga tayyorlash ta’lim tizimining bosh vazifasi bo’lib qoladi. Keng qamrovli istiqlolga yo’nalgan bu sharafli va mas’uliyatli vazifani amalga oshirishda yetakchi kuch – zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan o’qituvchi hisoblanadi.




Hozirgi kun nuqtayi nazardan qaraydigan bo’lsak, o’qituvchilar bilim darajasi yuqori, aqliy faoliyati yetuk bo’lishi va mustaqil ijodiy fikrlay olishlari zarur. O’qituvchilar bunday xislatlarni o’quvchilarda ham rivojlantirib boradilar. Shundan kelib chiqib, o`qitishning zamonaviy usullaridan (zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsdan tashqari tadbirlar uyushtirish) keng foydalanish lozimligi belgilandi. Zamonaviy ta`lim turlaridan biri esa darsdan tashqari tadbirlardir. O’quvchilarning fan asoslarini mustahkam egallab olishlariga erishish uchun dars mashg’ulotlari bilan birga darsdan tashqari ishlarning ahamiyati katta. Kimyo fanidan darsdan tashqari tadbirlarni bir necha usullarda: turli xil viktorinalar, musobaqa-bellashuvlar va kimyo kechalari ko`rinishida tashkil qilish mumkin. Darsdan tashqari tadbirlarni qaysi usulda tashkil qilishdan qat’iy nazar o`qituvchi qo`lida hamisha yetarli ma`lumotlar bo`lmog`i zarur. Shu bilan birgalikda o`qituvchi tadbirda qatnashadigan o`quvchi-yoshlarning bilimli, zukko va aktyorlik qobiliyatiga ega bo`lishiga alohida e`tibor bermog`i lozim. O`qituvchi darsdan tashqari tadbirda turli xil qiziqarli she`r, maqol, intermediya va mo’jizali kimyoviy tajribalardan foydalansa, o`quvchi-yoshlarning qiziqishi keskin oshadi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda o`rta maktablarda barcha fanlar bo`yicha darsdan tashqari tadbirlar uyushtirib, ular orqali o`quvchi-yoshlarning fanlarga bo`lgan qiziqishining oshishi, o`qituvchi bilan o`quvchi orasidagi muloqotni keskin ijobiy tomonga o`zgartirishi mumkin. Kimyo darslarida qo`llaniladigan darsdan tashqari tadbirlar orqali o`quvchi-yoshlar kimyo fani sirlari bilan yaqindan tanishadilar. Lekin kimyo fanidan qanday turdagi darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish, va bu tadbirda qanaqa ma`lumotlardan kengroq foydalanish, unga o`quvchi-yoshlarni qay yo`sinda ko`proq jalb eta olishi, o`qituvchi uchun muammo tug`diradi. Shu vajdan bunday tadbirni tashkil qiluvchi o`qituvchi o`zida ma`lum bir metodik yo`riqnomaga muhtojlik sezadi. Lekin bizda o`zbek tilida bunday metodik tavsiyanomalar juda kam. Aytaylik, “Qiziqarli kimyo”, “Biz bilgan va bilmagan kimyo”, “O`rta maktabda kimyo to`garagi” kabilar shular sirasiga kiradi. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, dotsent G.A. Xudoynazarova va V.N. Axmedovlar tomonidan yozilgan “Kimyoning mo’jizakor sirlari” nomli uslubiy qo’llanmada “Kimyoviy alifbo”, “Davriy sistemaga sayohat”, “D.I. Mendeleyevning tug’ilgan kuniga bag`ishlangan kecha”, “O`zbekiston – katta kimyo o`lkasi”, “Kimyoning turmushdagi ahamiyati va inson hayotidagi o’rni”, “Kimyogarlar bellashuvi”, “Ishqoriy metallar va galogenlar”, “Ham o`ynaymiz, ham o`ylaymiz” , “Mo’jizalar maydoni”, “Kislorod bayramini o`tkazish” kabi kimyoviy tadbirlarni o`tkazish usullari haqida fikr yuritilgan. Shu bilan bir qatorda sirtqi viktorina savollari, sirtqi olimpiada masalalari, shakllar tilga kirganda, boshqotirmalar, kimyo yangiliklari, qiziqarli kimyo, buyuk kimyogarlar hayotidan ma’lumotlar berilgan.

Ushbu qo`llanma o`quvchi yoshlar qalbida Vatan tuyg`usini shakllantirish, tabiatga bo`lgan mehr-muhabbatini yanada oshirish va uni avaylab asrash hamda tabiat ne`matlaridan oqilona foydalanish hissini uyg`otishda muhim ma`naviy tarbiya vositasi bo`lib xizmat qila oladi. Qo`llanmadan IV kurs kimyo ta’limi yo’nalishi talabalarning maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o’tkaziladigan pedagogik amaliyot davrida qo’llashlari uchun tavsiya qilinadi. Shu bilan bir qatorda, kimyoga qiziquvchi o`quvchi-yoshlar va kimyo o`qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

**Muxtor AMONOV**
Buxoro davlat universiteti kimyo kafedrasi mudiri,
texnika fanlari doktori, professor

# QUTLOV



## ELDA E'ZOZ TOPGAN MUARRIX OLIM, USTOZ-MURABBIY

Inson uchun el e'zoziga sazovor bo'lishidan ortiq oliy baxt bo'lmasa kerak. Har bir inson o'z kelajagi va istiqbolini o'z qo'li va mehnati bilan yaratadi. Jamiyat a'zolari ilm kishilari ustoz-pedagoglar orasida birdek e'zoz va hurmatga sazovor bo'lish esa hammaga ham nasib qilavermaydigan ne'matdir. Shunday baxtga muyassar bo'lgan inson tarix fanlari doktori, professor Sulaymon Inoyatovich Inoyatov – buxorolik ulug` adib Abu Abdullo Rudakiy yozganidek: "Balki qiyin hayot berur tappa-taxt, fozillik, ulug`lik shodlik hamma vaqt" misralaridagi jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Professor S.I. Inoyatov 1938-yil 12-martda Buxoro shahri Moxi-xossa mavzeidagi Shexon qishlog`ida tavallud topdi. Olimning hayot yo'li dastlab barcha bolalar va yoshlarnikidek kechdi. Avval o'rta maktab ta'limi, so'ngra Buxoro davlat pedagogika instituti Tarix–filologiya fakultetida o'qish, institutda yoshlar yetakchisi bo'lib faoliyatini davom ettirish kabilarni qayd etish mumkin. Professor S.I. Inoyatov A. Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida 1966–1969-yillarda maqsadli aspiranturada tahsil oldi. 1969-yilda "O'zbekiston qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishda matbuotning roli (1927–1934-yillar)" mavzusidagi nomzodlik dissertastiyasini himoya qildi. 1987-yil 7-dekabrda esa "Mehnatkashlarni baynalminal ruhda tarbiyalashda matbuotning o'rni" (O'rta Osiyo respublikalari misolida. 1960–1985-yillar) mavzusidagi doktorlik disertastiyasini himoya qilib, Moskva davlat pedagogika universiteti ixtisoslashgan kengashi unga tarix fanlari doktori ilmiy darajasini berdi. 1989-yil yanvar oyida S. Inoyatov professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. To'g`ri, olimning ilmiy tadqiqotlarida markscha-lenincha metodologiya, kommunistik mafkura "qolipchalari" mavjud va sinfiylik nazariyasi ruhi sezilib turadi. Biroq, zamon shunday edi, agar bu – illat hisoblanadigan bo'lsa, o'sha paytlarda yaratiladigan tadqiqotlarning barchasiga bu jihat xos edi.

S.I. Inoyatov hayot yo'li va faoliyatining ortda qolgan yo'llariga nazar solsak, olim 1969–1982-yillarda Buxoro davlat pedagogika instituti (Hozirgi BuxDU)ning Rus filologiyasi fakulteti dekani muovini, dekani, 1982–1984-yillarda Moskvada katta ilmiy xodim, 1984–1989-yillarda kafedra mudiri, 1989–1992 yillarda ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, 1992–1995-yillarda Tarix fakulteti dekani kabi lavozimlarda ishlaganligiga guvoh bo'linadi.

1995-yildan 2016-yilning sentabriga qadar salkam 22 yillik davr S.I. Inoyatov taqdiri Navoiy shahri bilan bog`landi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov farmoni bilan Navoiy davlat konchilik instituti prorektori lavozimiga tayinlangan S.I. Inoyatov institut faoliyatini oyoqqa qo'yishda, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda, ma'naviy-ma'rifiy muhitini mustahkamlashda samarali mehnat qildi. Olimning tashabbusi bilan institutda "Istiqlol" xalqaro anjumani 5 yil muttasil uyushtirildi, institut kutubxonasidagi kitoblar fondi 10 mingtadan 160 mingtaga yetdi. Navoiy konchilik institutida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tashabbuskori ham professor S.I. Inoyatov bo'lgandi.

Olim 2000–2004-yillarda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Navoiy viloyat bo'limini omilkorlik bilan boshqardi. Viloyat aholisiga milliy istiqlol mafkurasini singdirishda xalqimizni mustaqillik ideallariga mehr-muhabbatini kuchaytirishda, davlat va hukumat siyosatini targ`ib qilishda S.I. Inoyatov so'zlagan otashin nutqlar, chiqishlar o'ta samarali bo'ldi.

Professor S.I. Inoyatov Navoiy davlat pedagogika institutida kafedra mudiri (2004–2011y.y.) kafedra professori lavozimlarida ishlagan yillarda qator-qator Respublika va Xalqaro ilmiy anjumanlar tashabbuskori bo'ldi.

S.I. Inoyatov ilmiy faoliyatini ikki bosqichga bo'lish mumkin Mustaqillik yillarida olimning faoliyati ko'p qirrali va olib borgan tadqiqotlar doirasi kengayib, Buxoro va Navoiy tarixi masalalari ular markazida turdi. Olim 40 dan ortiq kitob, 400 ta maqola, yuzlab tezislar chop ettirdi. 2 nafar fan nomzodini tarbiyalab yetishtirdi. Hozirda 3 nafar yosh tadqiqotchi tarix fani bo'yicha falsafa doktori bo'lish uchun uning ilmiy rahbarligida barakali ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

S.I. Inoyatovning "Buxoro tarixi", "Karmana – tarix ko'zgusida", Amir Abdulahadxon davrida Karmana, "Amir Temur Raboti Malikda", "Qosim Shayx Azizon", "История Бухары в литературе" (muallifdoshlik asosida) kitoblari el orasida keng tarqalgan va tariximizning kam o'rganilgan sahifalari haqida jamoatchilikka boy ma'lumotlar berib kelmoqda. S.I. Inoyatov hamon ilmiy izlanishda, tarixdan durdonalar berish bilan band.

S.I. Inoyatov el va yurt oldidagi xizmatlari uchun "Shavkatli mehnati uchun" medali, "Do'stlik" ordeni, "Mustaqillik" esdalik nishoni va bir qator faxriy unvonlar bilan taqdirlangan.

S.I. Inoyatov uch o'g`il farzand, uch qiz farzandning otasi, o'nlab nevaralar va chevaralarning mehribon bobosi.

Ustoz-murabbiy, professor olim, taniqli muarrix S.I. Inoyatovni qutlug` 80 yosh bilan muborakbod etamiz.

Oqsoqol tarixchi ustozimizga uzoq umr, barakali ilmiy-ijodiy faoliyat hamroh bo'lsin.

**Shavkat HAYITOV**
Buxoro davlat universiteti tarix kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori

**Soyib RAUPOV**
Buxoro davlat universiteti milliy g`oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dostent



## KAMTARIN INSON, ZABARDAST OLIM VA FIDOYI RAHBAR
### (Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi S.S. Raupov portretiga chizgilar)

Hayotda shunday samimiy insonlar bo'ladiki, ular doimo xalq bilan birga nafas oladilar. Xalqning quvonchu shodliklariga ham, dardu alamlariga ham birdek sherik bo'ladilar. Yutuqlardan sevinib, nuqsonlaridan iztirob chekib, xalq va ona Vatan manfaati yo'lida fidokorona mehnat qiladilar. Dilbar shoir Zahiriddin Bobur "Bori elg`a yaxshlig` qilg`ilki, mundin yaxshi yo`q – Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig`!", deb kuylagan. Bu hikmat mazmunining qanchalik to`g`ri, qanchalik hayotiy ekanini oddiy xalq orasidan yetishib chiqqan va xalqqa beminnat xizmat qilib kelayotgan, ma'naviyat targ`ibotchsi, zabardast olim, fidoyi rahbar, sadoqatli inson Soyib Raupovning hayoti va faoliyati ham tasdiqlaydi. Chunki Soyib Raupov butun ongli hayoti davomida ana shu hikmatga – yaxshilik qilish shioriga to'liq amal qilib yashadi va mehnat qildi. Shunga ko'ra, domla elu yurtimizda yaxshi inson, ajoyib pedagog, g`amxo'r ustoz, sodiq do'st sifatida obro' qozondi. Qanchadan-qancha shogirdlarning jonkuyar hamdami, ma'naviyat targ`ibotchisi, tarixchi olim bu oqko'ngil insonni men o'zimning yaqin ustozlarimdan biri, deb bilaman.

Domla o'z hayoti va ijtimoiy faoliyati davomida, kam deganda, to'rtta iste'dodli, serg`ayrat inson (olim, rahbar, arbob va murabbiy)ning mehnatini donolik va tadbirkorlik bilan bajarib kelmoqda. Hurmatli domla Buxoro davlat universitetida talabalarning eng sevimli muallimi. Chuqur bilimli, xushmuomala, hammaning mehrini qozongan bu samimiy insonning darslariga hamma yopirilib kiradi. O'zim ham bu kishining ma'ruzalarini maroq bilan tinglaganman. Ayniqsa, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimovning "Ona-yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" nomli kitoblari taqdimotida so'zlagan nutqlaridan ta'sirlanib ketganman. Kitobni shunday taqdim etdilarki, undagi voqealarni shunday ta'sirchan so'zlab berdilarki, har bir davrni so'zlaganlarida o'sha davrlarga nogoh qaytdim desam, hech qanday mubolag`a bo'lmaydi. U kishining nutqlari ravon va maroqli, kattakon auditoriyada minbar yonida oyoqlarini keng qo'yib, hech qanday qog`oz-kitobsiz, baland ovoz bilan dadil ma'ruza o'qishlariga haligacha havasim keladi.

Rahbar sifatida Soyib Sayidovich bekor o'tirmaydilar, doimo ularning qo'llari ishda, ko'ngillari fikrlashda. Inson qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'yish Soyib Raupov rahbarlik faoliyatining asosiy g`oyaviy mazmunini tashkil etadi. Shundan bo`lsa kerak, u kishi uzoq yillardan buyon viloyat tashkilotlarida va universitetda turli rahbarlik lavozimlarida samarali faoliyat ko`rsatib kelmoqdalar.

Tarixchi olim sifatida domlaning fikr-mushohadalari doirasi keng ko'lamli, ma'naviyat va ma'rifat olamining zukko, yirik tadqiqotchisi bo'lish bilan bir qatorda, hozirgi davr siyosatining ham katta bilimdoni. U kishi tomonidan hozirgacha e'lon qilingan 100 dan ortiq maqola, 20 dan ortiq risola va metodik qo`llanmalar mamlakatimiz tarixi va hozirgi kunining turli muammolariga bag`ishlangan bo`lib, hayot haqiqatini realistik bo'yoqlarda tasvirlanganligi bilan ajralib turadi.

Yaqinda ustozning "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov – buyuk davlat va siyosat arbobi" nomli risolalarini o'qib chiqqanimda Islom Abdug`aniyevich shaxsini professional mahorat bilan yoritib berganliklarining guvohi bo'ldim, aniqrog`i, Birinchi Prezidentimizni qaytadan kashf qildim. Ayniqsa, I. Karimovning milliy ma'naviyatimizni tiklash yo'lidagi xizmatlariga alohida to'xtalganlari professional yondashuv namunasi desam, xato bo'lmas.




Men, Ustozni jurnalimizning faol mualliflari sifatida qadrlayman, ular taqdim etgan materiallar bilan tanishish jarayonida maqolanavislikdagi mahoratlariga bir necha bor tan berganman. Doimiy ravishda faktlar, iqtiboslar va fikrlarning tiniqligi ustozning teran dunyoqarash sohibi ekanliklarini tasdiqlaydi.

Bir kuni ish yuzasidan qabullariga kirsam, xonalaridagi shkafga ko'zim tushdi. Aniqrog`i shkafda turgan portretga. Portretni qo'limga olgan zahotiyoq meni hayajon bosdi. Portretda viloyatimiz hokimi O'.I. Barnoyevning Ustozga davlat mukofoti taqdim etish jarayonida olingan surat edi. Bir muddat jim turdim. Kamtarona nigoh bilan menga tikilib qoldilar. Men esa bu insonning kamtarligiga yana bir karra qoyil qoldim. Chunki ko'krak nishoni, medallar bir emas, soni bir nechta edi.

Universitetda qachon uchrashmasak, chehralarida doim tabassum, ko'zlarida mamnuniyatni sezasan kishi. Samimiylik bilan so'rashib, har gal albatta, bir qiziq mavzu bilan bizni xushnud qiladilar. Bunday dilkash va dilbar inson boshqarayotgan kafedra ham juda inoq. Buning bir necha marotaba guvohi bo'lganman. Do'stona munosabat, samimiy hurmat, erkinlik hukmron.

Oilada g`amxo'r ota, nabiralarning sarboni, ahil bir oila boshqaruvchisi sifatida mahallada, ko'chakuyda xalq oldida e'zoz topgan bunday insonlar jamiyatimizning ko'rki sanaladi.

Ustoz S.S. Raupov bugun 60 bahorni qarshiladilar. Ana shunday qutlug` bir pallada, mamnuniyat bilan domlaga sog`lik-omonlik, kuch-quvvat, hamisha quvnoq bo'lib yurishlarini tilab qolaman. Farzandlar, nabiralar, shogirdlar bag`rida ularning yutuqlaridan quvonib, duogo'ylari bo'lib, uzoq umr ko'rishlarini Yaratgandan so`rayman...

O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning quyidagi to'rtligi S.S. Raupov kabi ustozlarga atalgan desam adashmayman.

Shoirga dedilar:
-Siz baxtli inson,
Xalqingiz ardoqlar, hamma taniydi.
Shoir javob qildi:
-Menda bir armon:
Muallim desalar, meni qaniydi!

**Sharafli kasbingiz ortidan hamisha jamiyatimiz faxri bo`lib qolavering, muhtaram Ustoz!**

**Muhiddin Bafayev**
**Buxoro davlat universiteti**
**psixologiya kafedrasi o'qituvchisi**

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetida olimalar soni yana 3 taga ko`paydi. Boshlang`ich ta'lim asoslari kafedrasidan ISTAMOVA SHOHIDA hamda NUSRATOVA HAMIDAlar Filologiya fanlari bo`yicha, SOBIROVA DILAFRO`Z Psixologiya fanlari bo`yicha Falsafa Doktori ilmiy darajasini oldilar. Olimalarga sog`lik-omonlik, ilmiy-ijodiy muvaffaqiyat hamda oilaviy farovonlik tilaymiz.*



ISTAMOVA SHOHIDA MAXSUDOVNA

ILMIY RAHBAR – PROFESSOR O`RAYEVA D.S.



NUSRATOVA HAMIDA CHO`LIBOYEVNA

ILMIY RAHBAR – PROFESSOR AXMEDOVA SH.



SOBIROVA DILAFRO`Z ABDUROZIQOVNA

ILMIY RAHBAR – PROFESSOR BAROTOV SH.R.

# 2nd International Conference on Educational Studies (ICES), 2018

**Conference Dates:** **September 15-16, 2018**
**Venue:** **University of Wisconsin-Madison, USA**
**Abstract Submission Deadline:** **June 30, 2018**
**Early Bird Registration Deadline:** **July 15, 2018**




**Join the conference and be a part of global interaction with latest research findings on educational studies.**

*International Association of Teachers and Teacher Educators* (IATTE), USA with the faculty support from the University of Wisconsin-Madison, USA and the University of Leeds, UK are pleased to announce the **2nd International Conference on Educational Studies (ICES), 2018** to be held from 15-16 September, 2018 at the University of Wisconsin-Madison, USA.

**This year's Conference Theme is: "21st Century Educational Research: Bridging the Gaps in Less Commonly Researched Agendas"**

**Submit Abstract**

**The 2nd International Conference on Educational Studies, 2018** invites novice and experienced educational researchers, teachers, teacher educators, educational administrators, policy makers, students and other stakeholders from around the world to submit papers addressing the broader theme of the conference. The submissions can be based on original completed research, ongoing research, preliminary findings, and/or conceptual and theoretical discussions.

The conference will address the following streams:

- Analysis of agendas in educational research
- Research Paradigms
- Educational Research: Past, Present and the Future
- Teaching and Learning in the 21st century
- Teacher Education
- Role of Technology in 21st Century Teaching and Learning
- Educational Innovations
- Educational Psychology, Guidance and Counselling
- Assessment of Teaching and Learning
- The following themes related to educational studies:

Teaching and Learning, Learning Theories and Teaching Methodologies, Educational Psychology, Philosophy of Education, Sociology of Education, Special Education, Literacy, Pri-

mary, Secondary and Higher Education, Educational management, Leadership and Management, Educational Research, Curriculum and Instruction, Educational Change, Teacher Education, Pre-service and In-service Teacher Education, Teaching Practice and Internship, Professional Development of Teachers, Teacher Educator and Trainer Trainers, Distance Education, Teacher Education through Distance Education, Virtual Education, Investment in Education and ant other areas related to Educational Studies.

**Conference Proceedings:** If your abstract is accepted and you have registered for the conference, your abstract will appear in the abstract book which will be published online on our website. Selected papers will be reviewed for publication in peer-reviewed journals.

**Registration Rates**

**Authors/Presenters**

- Early Bird Registration 425 USD: **Before July 15, 2018**
- Advance Registration 480 USD: **From July 15, 2018 to July 31, 2018**
- Regular Registration 500 USD: **From July 31, 2018 to August 15, 2018**

**Audience**

- Early Bird Registration 300 USD: **Before July 15, 2018**
- Regular Audience Registration 350 USD: **From July 16 to August 15, 2018**

**Submit Abstract**

**Co-located Conferences**

**2nd International Conference on Teacher Education (ICTE), University of Wisconsin-Madison, USA, September 15-16, 2018**

**2nd International Conference on Language Teaching & Learning (ICLTL), University of Wisconsin-Madison, USA, September 15-16, 2018**

**2nd International Conference on Interdisciplinary Social Sciences (ICISS), University of Wisconsin-Madison, USA, September 15-16, 2018**








**Organizing Committee**

International Association of Teachers and Teacher Educators

Madison, WI USA

URL: www.conference.idpublications.org

Email: editor@idpublications.org

http://conference.idpublications.org/2nd-international-conference-on-educational-studies-ices-2018/

*Davr mavzusi*

HARAKATLAR STRATEGIYASI 2017-2021

• **davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga** yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

• **qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga** yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

• **iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga** yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

• **ijtimoiy sohani rivojlantirishga** yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

• **xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga** yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.




*Buxoro davlat universiteti muassisligidagi*
*"PEDAGOGIK MAHORAT"*
*ilmiy-nazariy va metodik jurnali*
*barcha ta'lim muassasalarini*
*hamkorlikka chorlaydi.*

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan "Pedagogik mahorat" jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo`llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o`tamiz, maqola qo`lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo`limida qabul qilinadi.

Bizning manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko`chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**
Moliya vazirligi g`aznachiligi
23402000000100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
**BuxDU 400110860064017950100079002**

*Pedagogik mahorat: Rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

PEDAGOGIK
MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2018-yil 1-son (61)**

**2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliy o`quv yurtlarining professor-o`qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o`qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo`ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV.**

**Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.**
**Muharrir: Rano ZARIPOVA.**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.03.2018
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.03.2018
Qog`oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog`i – 15,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 59
Bahosi kelishilgan narxda.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko`chasi 11-uy.